



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

U.M.RO‘ZIYEV

**PSIXOLOGIK KONSUL‘TATSIYA VA
PSIXOKORREKSTIYA**

(Darslik)

Oliy o‘quv yurtlarining

5210203- Psixologiya(amaliy psixologiya)

5210204- Psixologiya (yoshlar psixologiyasi)

5210205-Psichologiya (oila psichologiyasi)

bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021**

UDK 159.9(075)

88я7

R 29

Ro'ziyev, U.M.

Psixologik konsul'tatsiya va psixokorreksiya [Matn] : darslik / U.M.

Ro'ziyev.-Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона, 2021.- 588 b.

КБК 88я7

Mazkur darslik psixologiya(amaliy psixologiya), psixologiya (yoshlar psixologiyasi), psixologiya(oila psixologiyasi) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun fanga qo'yilgan talablar asosida tayyorlandi. Unda bo'lg'usi psixologlarga jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga qay tarzda ta'sir ko'rsatishini, ularning muammolarini hal etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilishda Psixologik konsul'tatsiya va psixokorreksiyaning ahamiyatini, konsul'tatsiya o'tkazish texnologiyasi hamda psixologik konsul'tatsiya jarayonida qo'llaniladigan usullar yuzasidan nazariy va amaliy bilimlar berilgan bo'lib, psixologik konsul'tatsiya va psixokorreksiya fanining asosiy muammolari bo'lgan konsul'tatsiya o'tkazishning o'ziga xos jihatlar, konsul'tatsiya turlari, konsul'tatsiya o'tkazishning psixologik qonuniyatlari tamoillari va mexanizmlari kabi muhim jihatlar bayon etilgan.

Ushbu darslikdan mazkur sohadagi o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, qiziquvchilar va psixologlar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Sh.R.Barotov; Psixologiya fanlari doktori, professor.

E.Z.Xalimov; Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

Ro'yxatga olish raqami 500-158.

ISBN 978-9943-7846-5-9

Данный учебник подготовлен на основе требований, предъявляемых к предмету для студентов направлений психологии(практическая психология), психологии (психология молодежи), психологии(психология семьи). В нем будущим психологам были даны теоретические и практические знания о том, как изменения, происходящие в обществе, влияют на социальное поведение человека, о значении психологической консультации и психокоррекции в формировании навыков и умений для решения их проблем, о технологии проведения консультаций и методах, используемых в процессе психологической консультации, изложены такие важные аспекты, как психологические закономерности, принципы и механизмы проведения консультаций.

Этот учебник может быть использован преподавателями, исследователями, заинтересованными сторонами и психологами в этой области.

This textbook was prepared for students of Psychology(Applied Psychology), psychology (youth psychology), psychology(Family Psychology). In it, future psychologists are given theoretical and practical knowledge on how the changes taking place in society affect the social behavior of a person, the importance of psychological counseling and psychocorrect in the formation of skills and skills in solving their problems, the technology of counseling and the methods used in the process of psychological counseling, the peculiarities of the conduct of, important aspects such as the tamoils and Omas of the psychological legislation of the conduct of the consultation are described.This textbook can be used by teachers, scientific researchers, interested persons and psychologists in this field.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi xar bir fuqaro oldiga – yangi demoqratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Bu esa hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki ayni vaqtda ham amliy, ham buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor qilishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo'lajak kadrlarni yuksak mahorat va texnika ko'nikmalari bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda. **“Psixologik konsul'tatsiya va psixokorreksiya”** kursini o'qitishdan asosiy maqsad bakalavrlarni ushbu fan nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdir. Chunki, hozirgi zamon psixologlari hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib, u har tomonlama etuk, chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, kasbiy mahorat va layoqatga ega bo'lgan, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo'lishi zarur.

“Psixologik konsul'tatsiya va psixokorreksiya” hozirgi zamon psixologiyasining eng ko'zga ko'ringan va muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda jahon stivilizastiyasiga qo'shilib borish barobarida ijobiy jihatlari bilan birgalikda kishilar turmush tarzining shiddat bilan o'zgarishi, kechayotgan zamonda odamlarda yangi sharoitga moslashish, vujudga kelayotgan psixologik zo'riqishlarga dosh berish va ularni bartaraf eta olish, bundan tashqari shaxslararo muloqotda kishilar bilan muloqot o'rnatish jarayonida o'ziga xos psixologik kompetentlikning talab etilishi kabi psixologik muammolar hozirgi zamon kishisidan katta psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Bunday tayyorgarlikni shakllantirishda mutaxassislar asosan psixolog yordamiga tayanishni maslahat beradilar. Shuning uchun, bugungi kunda kishilarni yangi ijtimoiy munosabatlarga o'rgatuvchi fan sifatida «Psixologik konsul'tatsiya va psixokorreksiya» ko'pchilikning diqqat markazida turibdi.

Mazkur darslik psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etiladi (amaliy psixologiya,yoshlar psixologiyasi ,oila psixologiyasi) Shu bilan birga ushbu darslikdan mazkur sohadagi o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

I BOB. PSIXOLOGIK KONSULTATSTIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA PREDMETI

1. Psixologik yordam tizimida konsultativ psixologiyaning o'рни.
Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Psixologik trening, psixoterapiya, psixologik korreksiya, psixodiagnostika kabi turli ko'rinishdagi psixologik yordamni qiyosiy tahlil qilish orqali psixologik konsultastiyaning o'ziga xosligini aniqlash.
3. Psixologik konsultastiyaga kelgan pastientning maqsad va vazifalarini tavsiflash. Pastient muammolarini klassifikastiyalash. Konsultastiyani o'tkazishda nazariya va dunyoqarash. Terapiya va konsultastiyada shaxsiy uslub.

Tayanch tushunchalar:

Psixolog, psixologik xizmat, pastient, pastient muammolari, konsultativ psixologiya, psixokonsultastiya, psixologik maslahat, korrektion psixologiya, psixokorreksiya, xulqi og'ish, xulq-atvordagi bo'zilish, psixologik trening, psixoterapiya, interakstiya, giyoxvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, daydilik va hk.

1.1. Psixologik yordam tizimida konsultativ psixologiyaning o'рни. Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishi.

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar. Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning etakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Hindiston, Xitoy, Misr,

Vavilon, O'rta Osiyo, Grestiyadan, shuningdek, jon (ruh) xaqidagi I-kitobning muallifi Aristoteldan va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning ne chog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'lga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo'lydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy axamiyatga molik ijobiy, tadbqiqiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. 20-asrning 60-yillaridan boshlab AQSh, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda psixologik xizmat soxasi yuzasidan bir talay izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu soxa aloxida yo'nalish sifatida vujudga kelsada, lekin aslida u amaliy psixologiyaning ko'lami kengaytirilgan bir ko'rinishini aks ettirish xususiyati bilan boshqalardan muayyan tarzda tafovutlanib turadi, xolos.

Jahon mamlakatlari amaliyotida psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni, tarkibiy qismlari to'g'risida muhokama qilinayotganida, uning to'zilishi, ijtimoiy turmushning barcha jabhalariga oid faoliyat turlariga taalukli tomonlari qamrab olinishi nazarda tutilgan edi. Xozirgi davrda Angliyaning aksariyat universitetlarida, AQSh va Ispaniyaning bir qator universitetlarida psixologik xizmat moxiyatidan kelib chiqib psixolog mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Psixologiya fanining tobora ijtimoiy hayotda barqaror, ustuvor ahamiyat kasb etishi munosabati bilan psixokonsultastiya va korrekstion psixologiyaning roli ortib bormoqda, natijada nazariyat bilan amaliyot o'rtasidagi jips aloqa uyg'unlikka ega bo'lmoqda.

Psixologik xizmat ikki muhim funkstiya bajarish bilan boshqa psixologiya soxalaridan farqlanib turadi, shuningdek, u tarmoqlarning sintezi sifatida gavdalanadi. Uning asosiy **funkstiyasidan biri** – ijtimoiy xayotning turli jabhalarida (ta'lim tizimi, tibbiyot muassasalari, sanoat, qishloq xo'jaligi, sport, transport va xokazo) psixologik amaliy xizmatni tashkil qilishdir. Psixologik xizmatning **ikkinchi funkstiyasi** u yoki bu muassasa xususiyatidan kelib chiqib ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish, natijalarni tahlil qilish, psixologiya fanini yangi ma'lumotlar, qonuniyatlar bilan boyitishdir.

Psixologik xizmatning tatbiqiy jihatlari xalq ta'limi tizimi, ishlab chiqarish korxonalari, tibbiyot muassasalari, transport (xavo yullari, avtomobil, temir yo'l va suv transporti va boshqalar), oila, sport qo'mitasi singari tashkilotlarda o'z ifodasini topmoqda. Xuddi shu maqsad moxiyatiga ko'ra, psixologiya bo'yicha bakalavrlar, magistrlar tayyorlash uchun psixologik xizmatdan saboq berish, amaliy ko'nikmalar shakllantirish davr talabiga aylanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining universitetlarida psixolog mutaxassislar tayyorlashda ilg'or jaxon amaliyotidan foydalanish, etnopsixologik, xududiy xususiyatlarni hisobga olgan xolda muayyan ilmiy nazariyalar ishlab chiqish, insonlarga ta'sir o'tkazishning yangi texnologiyasini yaratish maqsadga muvofiq. Quyida psixologik xizmat uyushtirishning moxiyati, psixologik testlar, metodikalar, usullar va vositalarni qo'llash, ilmiy – tekshirish o'tkazish xamda olingan natijalarni umumlashtirish, sifat, miqdor tahlilini amalga oshirish yuzasidan ma'lumot berilishiga muljallangandir.

Inson va uning xar tomonlama uyg'un kamol topishi va faravon shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, Respublikada amalga oshiralayotgan isloxotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy, madaniy, iqtisodiy, Fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Kadrlar

tayyorlashning Milliy dasturi O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonunining qoidalariga muvofiq xolda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribalarning tahlili va ta'lim tizimidagi, jaxon miqyosidagi yutuklar asosida tayyorlangan xamda yuksak umumiy va kasb xunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy xayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish maxoratiga ega bo'lgan istiqbol vazifalarini ilgari surish va xal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Bugungi kundagi Oliy o'quv yurtining talabalari ertangi kunning etuk mutaxassislari va ziyolilari sifatida o'sib kelayotgan avlod ongi va ruhiyatiga adolatli Vatan bilan faxrlanish, ertangi kunning etuk insonlari, ertangi kunga ishonch, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini singdirishda shaxsiy o'rnak namunasi bilan o'z hissalarini qo'shmoqlari shart. Chunki ziyolilikning muhim belgisi umuminsoniy qadriyatlarni bilish, ularni qadrlash, o'z kasbi sir-asrorlarining chuqur bilimdoni va moxir ustasi bo'lish kasb etikasi va psixologiyasi asoslarini to'liq anglash va ularni o'z faoliyatida qo'llashdir. Demak Yangi zamon kishisi o'z-o'zini va o'zgalar psixologiyasini moxir biladigani, kerak bo'lsa, Psixodiagnost va Psixokorrektidir.

1.2 Psixologik trening, psixoterapiya, psixologik korrekstiya, psixodiagnostika kabi turli ko'rinishdagi psixologik yordamni qiyosiy tahlil qilish orqali psixologik konsultastiyaning o'ziga xosligini aniqlash

Psixologik trening «Trening» inglizcha «o'rgatish» «mashq» degan ma'noni anglatib – bu turli sostial faoliyat sohalariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lib bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonlik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi. Ya'ni u shaxsni sostial muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlaydi. Masalan: bo'lajak mutaxassislarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usullariga o'rgatish va hokazolar.

Treningning asosiy maqsadi: shaxsni psixologik (ruhiy) ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'rnata olishdan iborat.

Demak-ki, **trening** — shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisidir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni echish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi.

Hozirgi davrda odamlar orasida ruhiy zo'riqish hollari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko'p uchrayotganligi va buning natijasida ko'pgina hayotiy muammolar vujudga kelayotganligi ko'pchilikni, ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassislarini ham tashvishga solayotganligi bejiz emas. Aytish mumkinki bunday holatlar turli darajadagi zo'riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

Ayni kunlarda asabiylashish holatlari kuzatilayotgan quyidagi kishilar guruhini alohida ta'kidlab o'tish joiz:

I. Bolalar orasida:

1. Bog'cha bolalari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;
2. Maktab o'quvchilari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;
3. O'smirlar orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

II. Kattalar orasida:

1. Ish joylarida (rahbar yoki xodimlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;
2. Oilada (er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzandlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;
3. Keksalar orasida (psixologik o'zgarishlar natijasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari.

Yo'qorida sanab o'tilgan asabiylashishlardan kelib chiqadigan muammolar mavjud bo'lib, bu muammolarni echish imkonini topa olmaslik natijasida psixologik maslahat va psixologik korrekstiyaga muhtoj bo'lib qoladigan bir necha xil guruhlar vujudga keladiki, bular:

1. Muloqotchanlikning etishmasligi muammosidan siqilgan kishilar guruhi.
2. Iqtisodiy etishmovchilikdan siqilgan kishilar guruhi.
3. O'z yaqinlarini yo'qotib siqilgan kishilar guruhi.

4. Turli baxtsiz hodisalardan keyin qandaydir kasallik orttirib olgan kishilar guruhi.

5. Begona joyga ko'chib kelib, tub aholining bosimidan siqilgan kishilar guruhi.

6. Rahbarlar tomonidan yoki o'zidan kattalar tomonidan shaxsiyatiga tegilgan hollarda siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

7. Yangi o'qish yoki ish joyiga moslasha olmasdan siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

8. Chekish, ichish, narkotik moddalar iste'mol qilishdan qutula olmasdan siqilayotgan kishilar guruhi.

Yo'qorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilishda psixologik trening deb ataluvchi o'yin va mashqlar seriyasidan iborat mashg'ulotlar yordam beradi. Yo'qoridagi guruhlar o'zi istab, o'z xohishi bilan treningga keladi va trenerning ko'rsatmalariga amal qiladi. Lekin ba'zi guruhlar bo'ladiki, bu guruh a'zolari treningga istamasdan, xohlamasdan keladi: **M.**, jinoyatchilar, bezorilar, o'g'rilar, narkotik bilan shug'ullanuvchilar. Lekin guruh a'zolarining istagidan qat'iy nazar treningning vazifasi ularning muammolarini hal etishga qaratilgan bo'ladi.

Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi.

1. Guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi.

2. Boshlang'ich bosqich.

3. Ishni olib borish bosqichi.

4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil qilish bosqichi bo'lib, bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- Har qanday treningda (faqat nogironlar bilan o'tkaziladigan maxsus treninglarni hisobga olmaganda) tashqi jismoniy defektga ega bo'lgan va psixik holatida buzilishlar bo'lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan ana shunday kamchilikka ega bo'lganlarda aks ta'sir bo'lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo'lsa kerak.

- guruh a'zolarining soni 8 tadan 12 tagacha (ba'zi hollardagina 20 tagacha bo'lishi mumkin) bo'lgani ma'qul.

- ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo'lishi, ya'ni ular orasidagi farq 2-3 yoshni tashkil etishi mumkin (Alohida qayd etish lozim, **45-50 yoshdan** kattalar uchun trening juda katta va

ahamiyatli ta'sirga ega bo'lmasligi va ular kutganchalik natija bermasligi ham mumkin).

- ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo'lishi kerak.

Bundan tashqari yana quyidagilarga xam e'tibor berish lozim bo'ladi: Treningda muammosi bir xil bo'lgan odamlarni to'plash kerak. Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish bo'lishlari lozim. Trening o'tkaziladigan xona albatta izolyastiyalangan bo'lishi shart, ya'ni hech kim ularni bezovta qilishi mumkin emas va ular ham boshqalarga xalaqit bermasligi kerak. Rasmiylashgan guruh bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Trenerdan auditoriya erkin bo'lishini ta'minlash va auditoriyani yaxshi bilish talab etiladi.

Psixologik treninglar quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Faollik tamoyili.

Bu tamoyil ko'proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g'oyaga bo'ysunadi: Inson eshitganlarining 10% ni, ko'rganlarining 50% ni, aytib berganlarining 70% ni va nihoyat o'zi qilganlarining 90% ni o'zlashtiradi.

Ijodiylik tamoyili.

Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo'lgan, kashf etib ulgurilgan g'oyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o'zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab etadilar.

Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab etilishi) tamoyili.

Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan ob'ektivlik darajasiga o'tadi va trening davomida o'zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor ob'ektivligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta'minlash trenerning mas'uliyatidir.

Sheriklik (Sub'ekt-sub'ekt) muloqoti tamoyili.

Sheriklik, yoki sub'ekt-sub'ekt muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg'ulari, qayg'ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr qimmatini deb tan olinadi. Ushbu ning qo'llanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Yo'qoridagi tamoyillardan tashqari, **treningning samarali bo'lishi ma'lum bir jihatdan trenerning spetifik prinstiplariga ham bog'liqdir.**

Trener har doim trening o'tkazishga kirishishdan avval o'ziga:

Men qanday maqsadga erishmoqchiman?

Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?

Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman? kabi savollarini berishi lozim.

Bu savollarga javobni trenerga guruh bilan ishlash davomida diagnostik tadqiqotlar ochib beradi.

Trener ish rejasining mundarijasi, guruhning rivojlanish va inoqlik darajasi, munosabatlar xarakteri, guruhdagi har bir ishtirokchining holati, uning o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabati, treningga nisbatan munosabati, trenerning o'zining munosabati kabilar diagnostika ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Topshiriqning amalga oshirilishida birinchi qadam metodik (qadam) qo'llanmaning to'g'ri tanlanishidir. Eng ko'p qo'llaniladigani, guruhiy diskussiyalar, rolli o'yinlar, psixodramma va uning modifikastiyasi hisoblanadi.

Shunday qilib, psixologik trening uslublarning paydo bo'lishi va amalda qo'llanilishi o'ziga xos an'anaga ega bo'lib, ular ayniqsa bizning asrimizda, sanoat rivojlangan, migrastiya jarayonlari tezlashgan va inson omili rolining naqadar ahamiyatliligiga e'tibor qaratilgan bir paytda yana ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Xullas, psixologiya tarixida trening o'qitishning eng keng tarqalgan shakli faol sotsial-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya sotsial psixologik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, sotsial ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir».

Psixoterapiya (psixo... va terapiya) — ruxiy kasal bemorlarni davolash maqsadida so'z, xushmuomala bilan hamda qulay sharoit yaratish orqali ular ongiga psixik ta'sir etish. Umumiy va xususiy (yoki maxsus) Psixoterapiya farqlanadi. Umumiy **Psixoterapiya** bu vrachning bemor bilan bo'lgan muloqotlari jarayoni, bunda turli ruxiy ta'sirotlar bemor shaxsiga, uning tuzalishiga ishonch hosil qilish, uni tinchlantirishga tibbiy xodimlarning (vrachlar) noto'g'ri harakatlari tufayli paydo bo'ladigan holatlarni (yatrogeniya) oldini olishga

qaratiladi. Bu barcha davolash choralari ichida yordamchi tadbir hisoblanadi.

Xususiy psixoterapiyaning tushuntirish, suhbat o'tkazish, ishontirish (bedorlik va gipnoz holatlarida), o'z-o'zini ishontirish (autogen mashq) va boshqa xillari bor. Psixoterapiyada asosiy qurol so'z hisoblanadi. So'zning qudrati, uning shifobaxsh ta'siri qadim zamonlardan ma'lum. I. P. Pavlov so'zning oliy nerv faoliyati-tida qudratli qo'zg'atuvchi ta'sir ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Gipnoz vaqtida psixoterapevtning so'zi bosh miya پوستloq qismining ma'lum bir yerida kuchli qo'zg'alish o'chog'ini vujudga keltiradi va bu turlicha ifodalangan tormozlanish holatiga olib keladi. Bemor bilan vrach o'rtasida olib boriladigan tushuntirish suhbatini P.ning yetakchi usuli bo'lib u to'g'ri olib borilganda har qanday bemor ham tinchlanadi, ham dardi yengillashadi. Ishontirish usuli eng keng tarqalgan. Muhimi bemorni ishontirish, suhbat oqilona va mulohaza bilan olib borilishi lozim. Tushuntirish va ishontirish, odatda, birgalikda olib boriladi. Bunda vrach bilan bemor o'rtasida o'rnatilgan munosabat muhim o'rin tutadi. Ta'sir qilish va o'z-o'ziga ta'sir etish psixoterapiyaning muhim usullaridan hisoblanadi. Bedorlik holatida ta'sir etishdan maqsad u yoki bu kasallik holatini bartaraf etishgina emas, balki bemorni bu holatdan tuzalib ketishiga ishontirish va bunda o'z organizmining kuchiga ishonchini mustahkamlashdan iborat. Ayrim psixoterapevtlar ruhiy ta'sir etishni uxlatadigan vositalar (dorilar)dan foydalanib bajaradilar. Gipnoz Psixoterapiyaning ko'p qo'llanadigan usulidir.

Psixoterapiya nevrasteniya va boshqa shunga o'xshash holatlarda, jumladan, jinsiy ojizliqsa (impotensiya), miyadan ketmaydigan holatlar nevrozida, isteriya nevrozida, psixopatiyalarda, alkogolizm va narkomaniyalarda keng qo'llanadi.

Kontsepsiyaning ta'rifi

Bugungi kunda dunyoda "psixoterapiya" tushunchasini aniqlashning yagona ko'rinishi yo'q. Biroq, Evropa psixoterapevtik assotsiatsiyasining sa'y-harakatlari tufayli Evropa mamlakatlarida Strasburg deklaratsiyasi doirasida psixoterapiya ta'rifiga ko'ra, Evropa Ittifoqining Qonunchilik bazasini standartlashtirish bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjat psixoterapiyaning zamonaviy kontsepsiyasini qisqacha va aniq belgilaydi:

Strasburg deklaratsiyasi:

Psixoterapiya-bu erkin va mustaqil kasb egasi bo'lgan maxsus intizom.

Psixoterapevtik ta'lim yo'qori darajadagi nazariy va klinik tayyorgarlikni talab qiladi.

Terapevtik usullarning xilma-xilligi kafolatlangan.

Psixoterapevtik usullardan biri sohasidagi ta'lim to'liq amalga oshirilishi kerak; u nazariya, shaxsiy terapevtik tajriba va nazorat ostida amaliyotni o'z ichiga oladi; bir vaqtning o'zida boshqa usullar haqida keng tushunchalarga ega bo'ladi. Bunday ta'limdan foydalanish, ayniqsa, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasida keng tayyorgarlik ko'rish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Evropa psixoterapevtik assotsiatsiyasi

Tarix

Psixoterapiya tarixida donauchny (XIX asrga qadar) va ilmiy davrlar ajratiladi. XIX asrning birinchi yarmida Mesmerning ta'limoti Evropada keng tarqalgan. 1841da ingliz olimi Brad mesmeristning ishiga tashrif buyurdi. Namoyish etilgan hodisa uni qiziqitirdi va u o'z tajribalarini o'tkaza boshladi. Bred o'z do'stini ko'zlarini mustahkamlash orqali uxlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Gipnoz deb nomlangan hodisani o'rganish bo'yicha tajribalarni davom ettirgandan so'ng, Bred o'z natijalarini "nevrologiya" (1843) kitobida bayon etdi. 1860da frantsuz shifokori LeBeau bredning usulini tasvirlab berdi. LeBeau gipnozni o'rganishni davom ettirdi va bemorni uyquda ovozli taklifga botirishni taklif qildi. Lebebo o'zining xulosalarini 1866 da "tush va shunga o'xshash davlatlar..." kitobida bayon etdi. 1882da frantsiyalik shifokor Dumont psixiatrik boshpana bemorlarini davolash uchun gipnoz sessiyasida og'zaki taklifni qo'llashga qaror qildi. U Lebebo bilan hamkorlik qilishga taklif qildi; ularning birgalikdagi ishi klinikada gipnozni keng qo'llash uchun olib kelgan professor Bernheim e'tiborini tortdi. Gipnoz ilmiy psixoterapiyaning boshlanishi edi.

Birinchi marta "psixoterapiya" atamasi XIX asrning oxirida ingliz shifokori Daniel Hakom Tuuk tomonidan kiritilgan. Tuke, Daniel Hack). 1872 da chop etilgan "aqlning tanaga ta'siri" kitobida (ingliz tili. "Psixoterapiya" deb nomlangan boblardan biri (ingliz Tili psixoterapiya). Psychotherapeutics). Bu so'z bemorning ruhi shifokorning ta'siri tufayli bemorning tanasiga nisbatan terapevtik ta'sir deb ataldi.

Psixoterapiya yo'nalishlari va maktablari

Hozirgi vaqtda psixoterapiyada psixologiyaning asosiy yo'nalishlarining turli qoidalariga asoslangan bir qator yo'nalishlar mavjud:

psixologiyada kognitiv yondashuvga asoslangan kognitiv (kognitiv psixoterapiya);

behaviorizm psixologiyasiga asoslangan xatti-harakatlar (xatti-harakatlar psixoterapiyasi);

kognitiv psixoterapiyaga yaqin bo'lgan, shuningdek, xulq-atvorli jihatlardan foydalanadigan ratsional-hissiy-xulq-atvor terapiyasi;

chuqur psixologiyaga asoslangan dinamik (psixoanaliz);

gumanistik psixologiya bilan bog'liq insonparvarlik (mijoz-markazlashtirilgan psixoterapiya - K. Rogers, suhbat psixoterapiya, somatik yondashuv, ma'naviy yondashuv) ;

ekzistensial terapiya-psixologiya va psixoterapiya uchun mavjud bo'lgan falsafaning g'oyalari sifatida shakllantirilib, bemorni o'z hayotlarini tushunish, hayotiy qadriyatlarini tushunish va ularning hayot yo'lini o'zgartirish uchun o'zlarining tanlovlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qaratilgan. U hayotning ma'nosini qidirish va tahlil qilish asosida logoterapiya turlaridan birini o'z ichiga oladi;

Gestalt terapiyasi eksperimental-fenomenologik va ekzistensial yondashuvlarga asoslangan gumanistik yo'nalishdir.

psychodrama-mijozning ichki dunyosini o'rganish uchun dramatik improvizatsiyadan foydalanadigan yo'nalish, bu o'z-o'zidan paydo bo'lishiga imkon beradi, rol repertuaridan xabardor bo'lish va rol to'qnashuvlarini aniqlash va hal qilish yaxshiroqdir. Asoschisi-J. Moreno.

tranzaksion tahlil-bu shaxsning "Ego-davlatlar" dan (bola, kattalar, ota-ona) muloqot qilish va harakat qilish g'oyasiga asoslangan yo'nalish. Har biri "Ego holatida" bo'lgan ikki kishining o'zaro ta'siri "tranzaksiya" deb ataladi. Insonning o'ziga xosligi, shuningdek, ota-ona, kattalar va bolaning "Ego-davlatlari" ning ichki o'zaro munosabatlarining prizmasidan kelib chiqadi. Asoschisi E. Bernga.

Ayni paytda psixoterapiyaning ko'plab yo'nalishlari mavjud. Ko'pincha ular katta guruhlarni ta'kidlab, har qanday xususiyatlarga ko'ra tasniflashga harakat qilishadi:

Ishtirokchilar soni bo'yicha:

Shaxsiy psixoterapiya.

Guruh psixoterapiyasi.

Vazifalar bo'yicha:

Qidiruv psixoterapiyasi.

Tuzatuvchi psixoterapiya.

Maqsadlar uchun:

Protsessual psixoterapiya.

Maqsadli psixoterapiya.

Nazariy umumlashtirish darajasiga ko'ra:

Analitik psixoterapiya.

Fenomenologik psixoterapiya.

Terapevt egallagan roli:

Direktiv psixoterapiya.

Noto'g'ri psixoterapiya.

Muammoni tibbiy (shu jumladan psixopatologik) tushunchalarga nisbatan hal qilish:

Klinik psixoterapiya.

Klinik bo'lmagan psixoterapiya.

Hududlar va faoliyatni davolash uchun ishlatiladigan:

San'at va ijodkorlikdan foydalanishga asoslangan-badiiy terapiya.

O'yin faoliyatidan foydalanish asosida — o'yin psixoterapiyasi.

Klinik psixoterapiya

Klinik (tibbiy) psixoterapiya-psixoterapiya yo'nalishi (tibbiyotning bir qismi) materialistik yondashuvga asoslangan[4], bu erda kasallikning biologik rivojlanish omili hal qiluvchi rol o'ynaydi[5] [6], navbati bilan davolash klinik ko'rinish, differensial diagnostika, yaxshi o'ylangan ko'rsatmalar tizimi-kontrendikatsiyalar

Klinik psixoterapiya usullari orasida gipnoz mavjud; Jacobsonning progressiv mushaklarning gevşemesi, Schultz autogenik treningi, Dubois oqilona psixoterapiya A. E. Lichko o'smir aks ettirish terapiyasi;behavioral psixoterapiya usullari: VM Bexterevning kombinatsiyalashgan refleksli terapiyasi va am Svyadosch shartli aloqani yo'qotish usuli; somatik va jinsiy kasalliklarning klinik psixoterapiyasi, nevrozlar va boshqalar, bundan tashqari, klinik psixoterapiya usullari biologik geribildirim (bos) texnologiyasi va ko'z harakati tomonidan desensitizatsiya va qayta ishlash usulini o'z ichiga oladi.

Klinik yondashuv odatda klassik psixiatriya an'alarini birlashtiradi, bemorlarni tashxislash va reabilitatsiya qilish

muammolarini hal qilishga imkon beradi, moslashtirish va moslashishda ularning potentsial zaxiralarini faollashtirishga qaratilgan

Psixoterapiya va din

Psixoterapiya mustaqil intizomga kiritilgandan so'ng, uning dinga bo'lgan munosabati masalasi paydo bo'ldi. Agar Sigmund Freyd dinga salbiy munosabatda bo'lsa va uning psixoanaliziga qarshi bo'lsa, Freydning hamkasbi Karl Jung psixoterapevtlar va ruhoniylarning inson qalbiga shifo berish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirishga chaqirdi, psixoterapiya va dinni qo'llash sohasi aslida kesib o'tganligini ta'kidladi:

Barcha dinlar nima? Dinlar psixoterapiya tizimlari. Biz nima qilmoqdamiz, psixoterapevtlar? Biz azob-uqubatlardan xalos bo'lishga harakat qilamiz inson ongi, ruhiy yoki ehtimol ruh, lekin din ham xuddi shu muammoni hal qiladi. Shuning uchun Rabbimiz shifochi; u shifokor; u kasallikni davolaydi va ruhiy kasallikni davolaydi; va bu biz psixoterapiya deb ataydigan narsadir.

Psixoterapiya bilan diniy ta'limotlarni sintez qilish bo'yicha muhim qadam "psixoanaliz va din" E. Fromm klassik ishi bo'lib, unda "psixologiyadan faylasuflar" maktabi rahbari din va psixoanalitik terapiya bir xil maqsadga erishish uchun batafsil asos yaratdi:

Barcha buyuk Sharq va G'arb dinlarining asoschilari hayotning eng yuksak maqsadi inson qalbiga g'amxo'rlik qilish va sevgi va aqlning kuchlarini ochishdir. Psikanaliz bu erda hech qanday tahdid emas, aksincha, bu maqsadga erishishga katta hissa qo'shadi.

Ruhning shifokori sifatida tahlilchi falsafa va ilohiyot bilan bir xil muammolar bilan shug'ullanadi — insonning ruhi va shifo. Biroq, bu nuqtai nazar universal e'tirofqa ega emas edi. U psixoterapiya vazifalaridan farqli o'laroq, dinning maqsadi shifo emas, balki ruhni qutqarish ekanligini ta'kidlab, masalan, Logoterapiya yaratuvchisi Viktor Frankl tomonidan rad etildi. Hozirgi vaqtda psixoterapiya va din o'rtasidagi munosabatlar masalasi hali ham tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Ba'zi mualliflar diniy ta'limotlarni psixoterapiya nazariyasi va amaliyotiga kiritish uchun zarur va samarali hisoblanadi, boshqalari esa bunday imkoniyatni qat'iyan rad etadi. Mamlakatimizda bu bahs-munozaralar, masalan, Makariev-Reshem monastiri[23] nashriyatining "pravoslav nurlari" saytida, shuningdek, "maslahat psixologiyasi va psixoterapiya" jurnalida keng tarqalgan.

"Psixoterapevt" atamasi va uning ma'nolari

"Psixoterapevt" so'zi ko'pincha turli hislarda qo'llaniladi. Shunday qilib, Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i "shifokor-psixoterapevt" mutaxassisligini belgilaydi. Bu "psixiatriya" mutaxassisligi bo'yicha o'qitiladigan va psixoterapiya bo'yicha keyingi tayyorgarlikni olgan "tibbiy ish" ixtisosligi bo'yicha oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxsdir. Bunday mutaxassislarning qisqacha mazmuni ko'pincha "psixoterapevt" deb ataladi. Rossiya Federatsiyasida oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs yuridik jihatdan psixoterapevt bo'lish huquqiga ega emas. Shunday bo'lsada, masalan, "Moskva shahrida aholiga psixologik yordam to'g'risida" oktyabr 7, 2009 soni 43 Moskva qonun "psixoterapiya", lekin bu qonun qoidalari kabi psixologik yordam bunday beradi "fuqarolarga psixiatrik va tibbiy psixoterapevtik yordam ko'rsatish sohasidagi munosabatlarga taalluqli emas". Shunday qilib, qonun nuqtai nazaridan, Moskvada psixologik yordam ko'rsatadigan va sog'liqni saqlash tizimida ishlaydigan mutaxassis psixolog psixoterapiya (tibbiy bo'lmagan) dan foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari, Rossiya ("psixologiya" yo'nalishi bo'yicha magistratura shaklida, shuningdek, psixoterapiya sohalarida professional qayta tayyorlash shaklida) psixoterapiya yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlarini amalga oshiradigan va nafaqat shifokorlarni, balki psixologik va ba'zan boshqa ta'limga ega bo'lgan kishilarni ham o'qitadigan tibbiy bo'lmagan ta'lim muassasalari mavjud. Shunday qilib, de-fakto psixologlar va ba'zan boshqa mutaxassislar, psixoterapevtlardan tashqari, psixoterapiya texnikasini o'z amaliyotida qo'llash imkonini beradigan malakaga ega.

G'arbda klinik psixologlar shifokorlar bilan birga psixoterapiya bilan shug'ullanish huquqiga ega; Rossiyada psixologlar psixoterapevtik amaliyotda juda muhim rol o'ynadi. Ba'zi Evropa mamlakatlarida "psixoterapevtlar" tushunchasi tibbiy ta'lim bilan bog'liq bo'lmagan insonparvarlik ta'limiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Shu bilan birga, masalan, Germaniyada psixoterapevt qonunga ko'ra, psixoterapevtik usullar bilan qo'shimcha ravishda o'qitilgan oliy psixologik yoki tibbiy ta'limga ega bo'lgan odamlarni chaqirish huquqiga ega. Birinchisi "psixologik psixoterapevt" deb ataladi (nemis. O'tish: saytda harakatlanish, qidiruv *Ärztlicher Psychotherapeut*).

Sigmund Freyd, tibbiy ta'lim usuli uchun zarur emasligini yozgan. Ushbu tezisning asoslari Z. Freydning "havaskorlik tahlili: begonalar bilan suhbatlar" (1926) mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu broshyurani yozish uchun Freyd 1926 bahorida vena shahrida boshlangan tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan Vena psixoanalitik assotsiatsiyasining mashhur a'zosi Teodor Raikga qarshi sud jarayoni bilan bog'liq edi. T. Raik Avstriyaning charlatanizmga qarshi qonunini buzganlikda ayblangan-agar tibbiy diplomga ega bo'lmagan shaxs kasallarni davolayotgan bo'lsa, noqonuniy deb e'lon qilgan qonun. "Havaskorlar shifokorlar emas", Freyd "havaskorlar" ning psixoanalitik amaliyot bilan shug'ullanish huquqini himoya qildi:

Shifokor tibbiyot maktabida ta'lim oldi, bu odatda psixoanalizga tayyorgarlik sifatida unga kerak bo'lgan narsalarga qarama-qarshidir. Uning e'tiborini ob'ektiv ravishda anatomik, jismoniy, kimyoviy faktlarga qaratishga qaratilgan... hayot hodisalarining ruhiy tomoniga qiziqish uyg'otmaydi, tibbiyotga nisbatan yo'qori aqliy namoyonlarni o'rganish hech qanday aloqasi yo'q.

- **Freyd Z.** Qo'shimcha tovush Freydning fikriga ko'ra, nevrologik kasalliklarning sabablari tanaga emas, balki ruhga asoslangan bo'lib, nevrozni baholash uchun "shuningdek, uni davolash uchun tibbiy ta'lim hech narsa bermaydi".

Psixoterapiya samaradorligini o'rganish

Ushbu meta-tahlillar psixoterapiya samaradorligini, shu jumladan turli xil psixologik yordam usullari va psixo-ta'lim dasturlarini ko'rsatadi. Xususan, M. W. Lipsey, D. B. 1993 yilda Wilson, psixoterapiya va psikoobrazovatelnyh dasturlari turli tadqiqotlar yuzlab huzur-tahlil ma'lumotlarni umumlashtirish, ularning samaradorligini ko'rsatdi.²⁹ va 56 turli xil tadqiqotlarni birlashtirgan boshqa ikkita meta-tahlilga ko'ra, psixoterapiya depressiyani davolashda antidepressantlar kabi samaralidir. Uchinchi meta-tahlilda antidepressantlarning endogen depressiyani davolashda psixoterapiya bo'yicha ustunligi haqida xulosa chiqariladi. NIMH (AQSh milliy ruhiy salomatlik instituti) loyihasi doirasida o'tkazilgan meta-tahlilda depressiya bilan og'rigan bemorlarni davolashda antidepressantlar faqat og'ir depressiyani davolashda psixoterapiyadan ustundir. Yana bir meta-tahlil psixoterapiya va kombinatsiyalashgan davolanish (dori-darmonlar bilan birgalikda psixoterapiya) ning teng samaradorligini ko'rsatdi, ammo og'ir depressiyalarda kombinatsiyalashgan davolanish

psixoterapiya bilan solishtirganda afzalliklarni ko'rsatdi. Keyinchalik meta-tahlil antidepressantlarni davolashdan oldin kognitiv-davrnı psixoterapiyani afzalliklarini ko'rsatdi: kognitiv-davrani terapiyani ta'siri yanada kuchli edi. Xuddi shu meta-tahlilning bir qismi sifatida, kognitiv-xulq — atvorli psixoterapiya bilan og'rigan bemorlarda takroriy hujumlar 29,5% hollarda qayd etilgan va faqatgina dori-darmonlar bilan davolangan bemorlarda-60% hollarda, ya'ni kognitiv-xatti-harakatlar terapiyasi antidepressantlarga nisbatan ko'proq profilaktik ta'sir ko'rsatadi.

1998 ning meta-tahliliga ko'ra, vahima hujumlarini davolashda kognitiv-xatti-harakatlar psixoterapiyasi farmakologik davolanish va kombinatsiyalashgan davolanishga nisbatan yo'qori ta'sir kuchiga ega edi. Bundan tashqari, kognitiv-xulq-atvorli psixoterapiya qo'llanilganda, kam sonli bemorlar farmakologik va kombinatsiyalangan davolanish bilan solishtirganda davolanishni to'xtatdilar.

Psixoterapiya va dori-darmonlarni davolash bilan bog'liq bo'lgan ko'plab meta-tahlillarning sifati tanqid qilinadi. Shunga qaramay, depressiv va Anksiyete kasalliklarini davolashda kognitiv-xulq-atvorli psixoterapiyaning samaradorligi juda ishonchli meta-tahlillar bilan isbotlangan va umuman olganda ruhiy kasalliklarni davolashda psixoterapiya samaradorligi isbotlangan.

Psixoterapiya samaradorligi psixoterapiyaning platsebo ta'siridan oshmasligini ta'kidlagan taniqli psixolog G. Eisenk tomonidan tanqid qilindi. Shunga qaramay, 1996da R. J. Grissom 46 meta-tahlillari ma'lumotlarini umumlashtirdi va davolanishni kutayotgan bemorlarning psixoterapiya va nazorat guruhining ustunligini va platsebo psixoterapiyasining o'ziga xos shakllarini (qo'llab-quvvatlovchi suhbatlar) o'rniga olgan bemorlarni ko'rsatdi.

Bir qator nazorat qilinadigan tadqiqotlar va meta-tahlillar psixoterapiya o'tkazilgandan keyin ham uch yil o'tgach, uning ta'siri ko'plab bemorlar uchun saqlanib qolganligini ko'rsatdi. Misol uchun, psixoterapiya kursidan so'ng bemorlarning 30% spirtli ichimliklar bilan bog'liqligi uzoq vaqt davomida spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni to'xtatadi va hatto 30% iste'mol qilingan spirtli ichimliklar miqdorini sezilarli darajada kamaytiradi. Chegara kishilik buzilishi bo'lgan bemorlarni davolashda uch yildan so'ng psixoterapiya natijalarini tekshirish ularning ishlashini yaxshilash uchun barqarorlikni isbotladi.

2000 dan ortiq bemorlarning jami, shu jumladan, tadqiqotlar o'z ichiga olgan huzur-tahlil, bemorlarning 14% psixoterapiya birinchi majlisida, 53% oldin takomillashtirish ko'rsatdi — 8 haftalik majlislarida keyin, 75 % — 26 haftalik majlislarida keyin, va 83 % — 52 keyin. Yana bir meta-tahlilga ko'ra, psixoterapiyaning 15 sessiyalaridan so'ng ularning terapevtik ta'siri taxminan ikki yillik spontan tiklanishdan so'ng ta'siriga teng. 50 sessiyalari keyin-nihoyat, uchinchi meta — tahlil alevlenme paytida davolash boshladi bemorlarning taxminan 50%, 21 majlisida keyin klinik muhim yaxshilash, va bemorlarning 75% erishish, deb ko'rsatdi.

Bir qator tadqiqotlarga ko'ra, psixoterapiya jarayonida bemorlarning taxminan 5-10 % gacha yomonlashishi mumkin. Chegara kishilik buzilishi bo'lgan bemorlarda va obsesif-kompulsiv buzuqlikdagi bemorlarda buzilishning ayniqsa yo'qori darajasi qayd etildi. Xavf omillari ham bemorlarda jiddiy shaxslar muammolari va davolanish boshlanishida og'ir ahvol; bundan tashqari, davolanish vaqtida bemorlarning yomonlashuvi psixoterapevtning past darajadagi empati, mijozning muammolarini kamligini baholash, salbiy kontrpenoz kabi fazilatlariga yordam beradi. Buzilish ko'pincha psixoterapiyaning eksperimental shakllari bilan bog'liq va depressiya uchun buzilishning prognozi kichik miqdordagi sessiyalar bo'lishi mumkin.

Psixologiya psixik holatlar, psixik faktlar, psixikaning namoyon bo'lishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganadi. Insonni taraqqiyotga boshlovchi to'rt omil mavjud, bular irsiyat, muxit, ta'lim-tarbiya va shaxsning o'z faolligi bo'lib xisoblanadi. Chaqaloqlik davri, gudaklik, maktabgacha yosh davri, kichik maktab yoshi, usmirlik va o'spirinlik davrlaridagi psixologik muammolar zudlik bilan psixologik yordamning zarurligini taqozo etmoqda. **Psixologik maslahat berish sohasidagi insonlar:** psixolog, o'qituvchi ilmiy bulim mudiri tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchilar ham ma'lum darajada psixologiyadan xabardor bulmoqlari lozim, chunki sanab o'tilgan kasb egalari individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi bolalar bilan ishlaydilar. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish ruhiy jarayonlari, ya'ni sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvurlari, individual-psixologik xususiyatlari, xarakteri, temperamenti, qobiliyatlari, emostional-irodaviy soxasi, xissiyoti, emostiyalari, irodaviy xulq atvor xususiyatlari, faoliyat

motivastiyasiga ega buladi. Ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega buladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishini talab qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to'g'ri keladigan va yaroqli bo'lgan usul ko'pincha o'smirlarga nisbatan yaroqsiz va xato bo'lishi mumkin. O'qituvchining bilishi mutloqo zarur bo'lgan individual farqlar bitta yosh doirasida nihoyat darajada katta buladi.

Psixologik maslahat berishda individual munosabatda bo'lishning asosiy sharti tarbiyachining o'z tarbiyalanuvchisining sezgisi, idroki, dikkati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, xarakteri, temperamenti, qobiliyati, xissietlari, emostiyalari, irodasi, faoliyatining motivastiyasi haqida chuqur va atroflicha bilishidan iboratdir. Shu bilan birga o'quvchining ruhiy dunyosidan xabardor bo'la bilishni, psixologik jihatdan to'g'ri kuzatish tashkil qila bilishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishi lozim. Hozirgi vaqtda psixologik maslahat berishning amaliyoti va bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotning murakkablashtirilgan qator noto'g'ri fikrlarini kuchayganligi ko'zga tashlanmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy iqtisodiy omillarni qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi sezilarli o'rin egallaydi. **Masalan:** ota-onaning ayniqsa, onalarning ishlab chiqarishda bandligi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ko'pchilik bolalarning bolalar muassasida tarbiyalanishi ota-onalar psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar o'zlarining funkstiyalarini ta'lim muassasalariga, bog'cha, maktab, kollej va listeylarga ag'darib qo'ymoqdalar. Ota-onalarning ajralishi bola psixologiyasiga ta'sir qiladi. Mutaxassislarning fikricha, oilaning bo'zilishi bolani qiyin vaziyatga solib qo'yadigan juda kuchli psixogen omil bo'lib, unga ko'nikish uchun bolaga kamida ikki yil kerak buladi.

Maslahat berish vazifalarini echishda Vigotskiy maktabi psixologlarining bola psixikasi indiviudal taraqqiyoti muayyan muaommolari buyicha umumiy fikrlaridan foydalanish mumkin, Irsiyat va muxitning ta'sirini tan oladigan g'arb qarashlaridan farqli ravishda sobiq sovet yosh psixologiyasida bola psixik taraqqiyoti jarayoni taxlilida tarraqqiyotning sharoitini, harakatga keltiruvchi kuchlari, manbalari ham e'tiborga olinadi. Psixik taraqqiyotning individual sharoitlari bola insoniyat tajribasini o'zlashtirishi jarayoni, asosida

vujudga keladi, Insoniyat tajribalarini o'zlashtirish bolaning faoliyatidan, muloqotidan, o'yinidan, o'qishidan tashqarida bo'lishi mumkin emas.

Psixologik maslahat berishda individual munosabatda bo'lishning asosiy sharti tarbiyachining o'z tarbiyalanuvchisining sezgisi, idroki, dikkati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, xarakteri, temperamenti, qobiliyati, xissietlari, emostiyalari, irodasi, faoliyatining motivastiyasi haqida chuqur va atroflicha bilishidan iboratdir. Shu bilan birga o'quvchining ruhiy dunyosidan xabardor bo'la bilishni, psixologik jihatdan to'g'ri kuzatish tashkil qila bilishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishi lozim.

Individual maslahat faoliyati psixologik tekshiruv bola tarbiyasini aniqlash va yordam dasturini tuzishdan iborat.

Psixologik oldindan aytishning zaruriy mezonlari sifatida Vigotskiy turli davrlarga bo'linganlik, ketma-ket yosh bosqichlarida kenglik va darajalangan harakteristikalarini ko'rsatadi, Maslahat berish amaliyotida shartli variantni oldindan aytish xaqida ham to'xtalib o'tish mumkin, shartli variantni oldindan aytish har xil sharoitlarni amalga oshirganda bola taraqqiyotining keyingi borishida mumkin bo'lgan varintlarni tushunamiz. Boshqacha aytganda, u yoki bu noqulay sharoitlar saqlanganida, olinganida bolani qanday extimolli taraqqiyot kutishini aytib beriladi.

Individual psixologik maslahat berish psixolog amaliy faoliyatining eng ma'suliyatli turlaridan biridir. Maslahatchining fikri, psixik taraqqiyot buyicha har bir baxosi bolaning keyingi taraqqiyotiga, o'qituvchilarning, ota-onalarning bolaga nisbatan munosabatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, Shuning uchun indivudal psixologik maslahat bola rivojlanishini boshidan diqqat bilan taxlil qilishni, har xil manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi.

Ma'lumotlar manbasi sifatida ota-onalar bilan suxbat, o'qituvchining ota-onalar bolaning o'zi bilan suxbat, bolaning o'zi bilan suxbat, bolani uyda, maktabda va boshqa xollarda kuzatish psixologik tajriba orqali tekshirish, ota-onalar bilan tanishish tibbiy xujjatlar bilan tanishish va boshqalardan foydalanish mumkin, ko'pchilik mualliflar aniq xodisaga maslahat berishda quyidagi ketma-ketlikni afzal ko'radi:

1. Ota-onalar bilan dastlabki suhbatda olingan ma'lumotni taxlil qilish hamda vrachlardan pedagoglardan olingan ma'lumotlarni ham e'tiborga olish,

2. Bolaning ilgarigi rivojlanish bosqichlari, oiladagi munosabat xaqida, sog'ligi xaqida ma'lumot olishi uchun ota-onalar bilan suhbat,

3. Boshqa mussasalardan ma'lumot yig'ish, Sog'ligi xaqida ma'lumot, Bolani maktabda uyda boshqa xollarda kuzatish, Psixologik metodlar bilan tekshiruvga muhim qo'shimcha sifatida bolaning faoliyatini (rasmlari, qiziqadigan narsalarini taxlil qilish kiradi).

Bolani maktabda, uyda boshqa xollarda kuzatish, Psixolog olingan ma'lumotlar asosida bola rivojlanishining umumiy darajasiga baxo berish bola qiyinchiliklari mohiyatini tavsiflashi, analiz qiyinchiliklardan kelib chiqqan omillarini aniqlashi va psixokorreksion dasturini ishlab chiqishi kerak. Maslahat berish amaliyotida juda ko'p metodlar bor. Psixolog oldida turgan vazifa birinchidan bola bilan yaxshi munosabat va o'zaro tushunishidan iborat. Muammoli vaziyatlarni shoshilmasdan, aniq xal qilish kerak. Savolni bir necha marta takrorlamaslik kerak. Test olinayotgan vaqtda bolaga o'rgatish, tanqid qilish, xatto maqtash ham mumkin emas, tanqid bolani chalg'itadi, dilini og'ritadi, ko'pincha bolani topshiriqqa bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.

Psixologik muammolarni xal etishda shaxsdan test olishda yoki diagnostika qilish uchun tajriba o'tkazishda uning emostional xolatiga, o'zini yaxshi xis qilayotgan, charchash belgilari yo'q vaqtda yoki ortiqcha asabiylashish, qaysarlik yo'q vaqtda o'tkazish kerak. Yosh davrida bolani psixologik tekshirish muammosi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi.

Psixologik muammolarni xal etishda psixologga qiyin masalalarni xal qilish uchun diagnostik testlar bilan tekshiruvni amalga oshirish kerak. Diagnostik tekshiruv qoidalarini ko'rib chiqsak: Psixodiagnostikada bu masalaga katta ahamiyat beriladi, chunki tekshiruvchi harakatlarining natijasi, testni o'tkazish qoidalariga to'liq amal qilishga bog'liq. Ko'pchilik metodikalar yordamida bir necha qoidalar ishlab chiqilgan. qo'llanmani unga ajratilgan vaqtni o'zgartirish mumkin emas. Barcha tekshiriluvchiga bir xil oxang, bir xil aytishni talab qilinadi.

Psixologik maslahat vazifalari chet ellarda yaxshi rivojlangan ota-onalar bolasi taqdiri bilan yoshligidan qiziqib e'tibori kuchlidir. Ular

o'sishi rivojlanishi davrlarida farzandidagi har bir o'zgarishga ahamiyat berib, o'z vaqtida psixologik ko'rikdan o'tib turishadi, o'z vaqtida maslahatni olib muammoli vaziyatni tez xal qiladilar.

Birinchi Prezidentimiz o'zining O'zbekistonning bugungi istiqbol va istiqbol yo'lini ifodalovchi boshqa qator ma'ruzalari va asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir va aks ta'sir etadigan muhim omillari ekanligini va ayni paytda bugungi iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini ta'minlashning muqarrar ijtimoiy zarurat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Shuningdek, Birinchi Prezident I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasidagi "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusidagi so'zlagan nutqidan kelib chiqqan holda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dastur (1997 yil 29 avgust) ning amalda qo'llanilishi bugungi shaxs faoliyatidan, uning ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillaridan yanada unumliroq foydalanish yo'llarini izlashga da'vat etadi. Bu esa, avvalo inson ma'naviyati, ruhiyati va ijtimoiy kamoloti bilan shug'ullanuvchi psixologlar oldiga bir muncha jiddiy va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'ygan talablar asosida qaror toptirishga ko'maqlashuvchi psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir. Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy-tadbiqiy yo'nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko'pgina olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Psixologiya fani nimadan baxs yuritadi - degan savol mavjuddir, biroq hozirgi zamonda korrekstion psixologiya fani nimani o'rgatadi, qanaqa predmet degan savol tug'ilmoqda. Ma'lumki psixologiya fani shaxsni o'rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini falsafa, pedagogika, logika, sostiologiya, xatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Konsultativ psixologiyada-chi? Korrekstion psixologiyada-chi? Korrekstion psixologiya fanida inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishni taqozo qiladi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida aloxida ahamiyat kasb

etadigan narsa bu -bolalar, o'quvchilar, talabalar xulqining bo'zilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganadi. Shu bilan birga psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotidagi xulqi va muomalasidagi nuqson va kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korrekstiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tadbiiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korrekstion ishlarda guruhning qadriyatlarga yo'nalganligi etnopsixologik va etnomadaniyati xususiyatlari, elat tarixi, millat odati, udumi, rasm-rusmlari va boshqa etnopsixologik xususiyatlar o'z aksini topishi lozim.

Korrekstion psixologiya fanining maqsadi talabalarni psixologik korrekstiya sohasidagi hozirgi zamon yutuqlari bilan tanishtirish, olgan bilimlarini amalda ishlata bilishni rivojlantirishdir. Shuningdek korrekstion psixologiya insonning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini ham chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlari, ta'lim-tarbiyasidagi nuqsonlarni tuzatishga mo'ljallangandir. Diagnostika va korrekstion ishlar guruhiiy yoki yakka (individual) tarzda o'tkaziladi. Bu asnoda psixolog yaqqol vazifalarni bajaradi:

- Yosh davr taraqqiyotining muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog bolalar, o'quvchilar, maxsus maktab va bilim yurti tinglovchilarini, oliii o'quv yurti talabalarini psixologik tekshiruvdan o'tkazadi, ularning kamolot darajalarini belgilaydi. o'qituvchilarning kasbiiy yaroqligi va layokatini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviiy sifatlari, his-tuyg'ulari, o'z-o'zini boshqarish imkoniiyati, intellektual (aqliiiy) darajasi va pedagogik qobiliyatini tekshiradi va kachiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi;

-Psixolog o'quvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidorligi kabilarni o'rganadi, ularga yakkaxol (individual) munosabat va yondashishni yo'lga qo'yadi, mutaxassis va etuk shaxs sifatida shakllanishiga muayyan yordam ko'rsatadi, trening (maxsus mashq) o'tkazadi.

-Bolalarning voyaga etgan odamlar va o'z tengqurlari (tengdoshlari) bilan muomalasi xususiyatini tekshiradi. Ularning etnoqiiyofasi va etnomadaniyati xususiyatini hisobga olgan xolda psixofiziologik metodikalarni muayyan sharoitga moslashtiradi (adaptastiiyalashtiradi). Boshqa soxaning mutaxassislari bilan

birgalikda ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olib, tabaqalashgan differentsial diagnostikani amalga oshiradi va korreksion ishlar olib boradi;

-Nuqsonlarning tibbiy va deffektologik tabiatini aniqlaydi va korreksion ishlar olib boradi;

-Giyoxvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, daydilikning ijtimoiy-psixologik ildizlarini tekshiradi, ularning omillarini tahlil qiladi va va korreksion ishlar olib boradi;

-Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar kollej tinglovchilari, yangi tipdagi maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalarida uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq – atvordagi bo'zilishlar sabablarini diagnostika qiladi va ularni bartaraf qilish, korrekstiya qilish usullarini axtaradi;

Xalq ta'limi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan psixologning vazifasi muayyan qoida, mezonga asoslanib, o'z faoliyatini tashkil qilib, yosh davr xususiyatlariga binoan bolalar, o'quvchilar, talabalar psixikasini rivojlantirishi, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tadbiq etishi, o'qituvchilar jamoasiga o'quvchilar, bolalar va talabalar ta'lim tarbiyasini individuallashtirishda yordam berish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion to'zatish ishlarini amalga oshirishda ko'rsatmalar berish, korreksion ishda aloxida ahamiyat kasb etadigan narsa bu bolalar, talabalar, o'quvchilar o'sishida, rivojlanishda orqada qolish, unda xulqning bo'zishi, ta'limda o'zlashtirishni yomonlashuvi hisoblanadi.

Birinchidan bola bilan yaxshi munosabat va o'zaro tushunishdan iborat. Muammoli vaziyatlarni shoshilmasdan, aniq xal qilish kerak. Savolni bir necha marta takrorlamaslik kerak. Test olinayotgan vaqtda bolaga o'rgatish, tanqid qilish, xatto maqtash ham mumkin emas, tanqid bolani chalg'itadi, dilini og'ritadi, ko'pincha bolani topshiriqqa bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus ishi, mashg'uloti ayrim bolalar, o'quvchilar va talabalar bilan aloxida o'tkazilishi rejalashtiriladi;

b) psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, bolalar, o'quvchilar, talabalar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;

v) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Korrekstion psixologiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va turli xususiyatlari shuningdek sub'ektiv vokeligidan kelib chiqib tushuntiriladigan shaxs resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Korrekstion psixologiya ta'sirining asosiy quroli sifatida psixolog chiqadi va korrekstion jarayon psixolog - mijoz juftligida kechadi. Mijozlarning turli xil talablarini va shakllangan vaziyatga munosabatlarini to'rtta asosiy strategiyaga birlashtirish mumkin.

- 1) vaziyatni o'zgartirish;
- 2) vaziyatni o'zgartirish uchun o'zini o'zgartirish;
- 3) vaziyatdan chiqib ketish;
- 4) mazkur vaziyatda xayotni yangi xususiyatlarini tanish.

Korrekstion psixologiyaning so'ngi vazifalari uchta asosiy soxalarni istalgan o'zgarishlariga erishishidir:

- kognitiv;
- emostional; (his- tuyg'u).
- o'zini tuta bilish.

Rivojlantiruvchi va psixokorrekstion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korrekstion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari o'z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilarni hisobga olgan xolda tuzish maqsadga muvofiq, o'rta maxsus ta'limi o'quvchilari bilan murabbiylar o'rtasidagi nomutanosiblikni yo'qotish maqsadida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish: ulardagi o'qishdan, ijtimoiy muxitdan, egallagan o'rnidan, mavqeidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, ishchanlik o'yinlari, psixodramadan foydalaniladi, emostional zo'riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus xonalar jixozlash (xona jaxon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, ekran vositalari, audiotrening, sostial trening, texnik vositalariga, ilmiy-amaliy metodikalarga ega bo'lishi lozim).

Korrekstion ishlar ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart. Bunda emostional zo'riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak; tuzatish ishlari mashg'ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish

samaradorligini oshiradi; unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yuqotish imkonini yaratadi.

Hal qilishning psixologik shartlari, ta'lim –tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olish omillari, yo'llari yuzasidan yordam ko'rsatish zarur. Bolalar, o'quvchilar, talabalarning shaxsiy muammolarini xal qilishda baholi kudrat kumak berishi darkor. Ota-onalarga tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda maslahatlar berish, nizoli vaziyat va psixologik xolatlarni birgalikda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar beriladi. Ota-onalarga farzandlarning tibbiy yordamga muxtojligi yoki boshqa muassasalarga murojaat qilish zaruriyat ekanligini aytsak- pedagogik odob bilan tushuntirish, berilayotgan ko'rsatmalarga ularni ishontirishi shart. Barcha qoidalarga va tasdiklangan hujjatlarga rioya kilingan xolda o'tkaziladigan ishlarni qayd qilish va belgilashi lozim.

O'z faoliyatining (yutuq, nuqson, nizo, hamkorlik) natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o'z muddatida axborot berib borishi, qabul kilingan hisobot shakllariga xech og'ishmasdan rioya qilishi kerak.

Korreksion ishlar qanday tartibda o'tkaziladi?

Ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart. Bunda emostional zo'riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak; tuzatish ishlari mashg'ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi; unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yuqotish imkonini yaratadi.

1.3. Psixologik konsultastiyaga kelgan pastientning maqsad va vazifalarini tavsiflash. Pastient muammolarini klassifikastiyalash. Konsultastiyani o'tkazishda nazariya va dunyoqarash. Terapiya va konsultastiyada shaxsiy uslub.

Psixologik konsultastiyaga jamiyatning o'rta qatlam vakillari jismoniy va psixologik sog'lig'iga e'tiborda bo'lgan shaxslar murojat qilishadi. Jismoniy va ruhiy holatida psixik holatida o'zgarishlar yoki charchashlar sezganda sog'lom insonlar murojat qilishadi. Oilaviy muammolar, farzand tarbiyasidagi muammolar, yosh davridagi inqirozlar, boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan muammolarda

psixolog konsultantga murojat qilishadi. Psixologga kelgan patient o'zidagi holatlar yuzasidan savollarga javob izlab keladi. Aslida bu savollarga javob talaygina bo'lsa xam ikkilanishlar unga tinchlik bermaydi. Bu savollarga psixolog aniq javob beradi degan tushunchada bo'ladi. Bu muammo paydo bo'ldiki yuzaga kelmaydi faqatgina xayotini ayni qiyin paytda savollariga javob izlashga tushadi. Psixologga murojat qilganida o'zidagi imkoniyatlarini nechog'lik yuqori yoki quyiligini his qilmaydi. Ruhiiy xolatida betoqatlik vaxima xuddiki uning yaqinlari bilan nimadir ro'y beradi, jaxldorlik, norozilik, qabul qilgan qarorlarni tan olmaslik, ikkilanishlar, o'zini o'zi tushunmaslik holatlari yoki haddan ziyod xissiyotga berilish, yaqinlarini yo'qotish, somatik kasalliklar tufayli paydo bo'ladigan jarayonlarda psixologga murojat qilishadi.

Psixolog-konsultantga kim, qachon va nima uchun murojaat qiladi

Ko'pincha, psixolog-konsultantga aholining o'rtacha qatlami deb ataladigan va yo'qori xavf zonasida jismoniy va ruhiy salomatligi sababli bo'lgan odamlar murojaat qilishadi. Yo'qori xavf zonasi hayot sharoitlari deb tushuniladi, unda asab, aqliy va jismoniy kasalliklarga moyil bo'lgan odamlar, albatta, kasal bo'lish xavfi mavjud. Boshqa, jismoniy va ruhiy jihatdan kuchli, etarlicha sog'lom odamlar bunday hayotiy vaziyatlardan chiqib, faqat charchoq yoki noqulaylik his qilishadi.

Haqiqiy va tez-tez maslahatchi psixologga yordam so'rab murojaat qilganlar orasida ko'plab hayotiy yo'qotishlar mavjud va bu jismoniy jihatdan sog'lom his qiladigan bu odamlarni psixologdan yordam so'rashga majbur qiladigan muvaffaqiyatsizliklar. Psixologik maslahatlashuvlarning mijozlari orasida bir yoki bir nechta hissiy tuyg'ularga ega bo'lgan ko'plab odamlar bor, bu esa o'z navbatida bir nechta hayotiy umidsizlik va umidsizlikning natijasidir. Bu va boshqa odamlar qachon psixologdan yordam so'rashni boshlaydilar? Bu, qoida tariqasida, muammolar yuzaga kelganda darhol sodir bo'lmaydi, lekin ularning hayotining eng qiyin davrlarida. Biror kishi, nima qilish kerakligini bilmasa yoki o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilish imkoniyati tugab qolganida, maslahatchi psixologga keladi. Psixologga maslahat yordami uchun, agar u holatda bo'lsa, u murojaat qilishi mumkin. Ruhiiy kasallik, u yoki uning yaqinlari bilan dahshatli bir narsa yuz berganida, yoqimsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Psixolog-konsultantning professional pozitsiyasi shundaki, u barcha mijozlarni istisnosiz, ehtiyotkorlik bilan, do'stona va insoniy munosabatda bo'lishlari kerak, ular kim bo'lishidan qat'i nazar, nima uchun unga keldilar, qanday qilib tuzilgan va qanday maqsadlarga intilishlari kerak. Bu nafaqat professional psixologning o'z hokimiyatini va qiyofasini saqlab qolish zarurati bilan emas, balki uning professional axloqiy me'yorlariga muvofiq shifokor bilan bir qatorda, unga murojaat qilgan har bir kishiga yordam berishga majburdir.

Psixologik maslahat insonga amaliy psixologik yordamning boshqa turlaridan qanday farq qiladi

Psixologik maslahat odamlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatishning boshqa turlaridan quyidagi asosiy xususiyatlardan farq qiladi. Aksincha, masalan, individual va guruh psixoterapiyasidan nisbatan psixolog-konsultantning mijoz bilan shaxsiy aloqalarining qisqa muddatli davri va epizodik xususiyati. Individual va guruh psixoterapiyasining turli xil turlari odatda psixologning mijoz bilan uzluksiz o'zaro ta'sirining uzoq muddati uchun mo'ljallangan – bir necha haftadan bir necha oygacha, hatto yillar davomida, mijoz bilan ishlash uchun sarflangan umumiy soatdan ancha ko'p.

Psixoterapiyada (psixologik maslahat amaliyotidan farqli o'laroq) psixolog mijozni psixologik muammolardan xalos etishda faol rol o'ynaydi. U mijoz muammosini hal qilishga qaratilgan faol harakatlar olib boradi va mijozning o'zi asosan passiv rol o'ynaydi, ya'ni terapevtning ta'sirini sezadi va ularga javob beradi. Psixologik maslahatlashuvda vaziyat boshqacha: bu erda maslahatchi psixolog asosan mijozga maslahat beradi va ularning amaliy qo'llanilishi mijozning ishi bo'lib qoladi, u o'z-o'zidan faol rol o'ynaydi. Maslahatlashuvdan farqli o'laroq, mijozlar bilan amaliy psixologik ishlarning boshqa turlarida psixoterapevtik amaliyot to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy muloqot, mijoz va psixologning o'zaro aloqasi va hatto mijoz o'z muammolarini hal qiladigan vaqtda ham o'z ichiga oladi.

Psixologik konsultatsiya psixodiagnostikasida mijoz bilan ishlashning boshida minimallashtirilishi kerak va asosan maslahatchi psixologik maslahatlashuvda u bilan muloqot qilganda mijozning xatti-harakati bo'yicha maslahatchining bevosita kuzatuv natijalariga asoslangan bo'lishi kerak. Psixodiagnostika maxsus psixologik

testlardan foydalanmasdan mijozdan bevosita olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishni o'z ichiga oladi. Psixo-tuzatish ishida psixodiagnostika yanada sezilarli rol o'ynaydi, odatda konsultatsiyaning boshida amalga oshiriladi va unga ko'proq vaqt beriladi.

Mijoz bilan ishlashning yakuniy natijalari uchun maslahatchi psixolog to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi (maslahatchi mijozning maslahatlaridan foydalanishi yoki foydalanmasligi uchun javobgar emas). Maslahatchi mijozning muammosining mohiyati va mijozga taqdim etilgan amaliy tavsiyalarning potentsial samaradorligi haqidagi xulosalarining to'g'riligi uchun javobgardir. Psixoterapevtik amaliyotning boshqa turlarida psixolog mijoz bilan ishlashning yakuniy natijalari uchun shaxsan javob beradi, chunki u mijozning psixologiyasi va xulq-atvorini tuzatadi, o'z xulosalari va tavsiyalarini amalga oshiradi.

Maslahatchi-psixolog psixoterapiya uslublariga ega bo'lishi shart emas, faqat u maslahat amaliyotida qo'llashi mumkin. Amaliy tuzatish bilan shug'ullanadigan psixoterapevt o'z usullarini professional tarzda egallashi kerak, chunki ularning qo'llanilishida uning ishining asosiy qismi yotadi.

Pastient muammolarini klassifikastiyalash

Birinchi toifa insonlar muammolariga javobni bilishadi lekin ikkilanishadi qaror chiqarishga va psixolog unga ko'mak berishiga ishonib kelishadi. Emostional qo'llab quvatlashga intiladi.

Ikkinchi toifa muammoni qanday hal qilishni bilishmaydi va maslahat uchun psixologga borishadi.

Uchinchi toifa insonlar o'ziga to'liq ishonmagan va ichki imkoniyatlaridan bexabar, aniq nimani tanlashni bilishmaydi o'zini muammolarini echimida. Ularni o'z faoliyatlarini to'g'ri yo'nalishga ishontirish va yo'naltirish kerak.

To'rtinchi toifa bu oddiy o'zini yakka his qiluvchi shaxslar faqatgina bularga yurakdan suxbatlashishga psixolog kerak bo'ladi. Bular o'zini yakkalangan sezadi. Ular odatda jiddiy psixologik muammolarga ega emaslar, lekin vaqti-vaqti bilan ular diqqatli va xayrixoh suhbatdoshga muhtoj.

Beshinchi toifa o'ziga qiziqqan o'z xarakter xususiyatlarini bilib olishga qiziqadigan toifadagi mijozlar.

Oltinchi toifa Psixologik konsultatsiya mijozlari orasida psixolog-konsultantga bo'sh qiziqish yoki unga qarshi kurashish istagi keltirilganlar ham bor. Ba'zilar, albatta, psixolog-maslahatchi kim ekanligini va u nima qilayotganini bilishni istashadi, boshqalari esa jiddiy ish bilan shug'ullanayotganiga ishonch hosil qilishadi va psixolog-maslahatchini noqulay ahvolga solib, uni isbotlashga harakat qilishadi.

Ettinchi toifa hissiy zo'riqqan, yaqinlarini yo'qotgan, qurquv, fobiyalar, psixik buzulishlar samatik kasalliklarga uchragan shaxslar.

Sakkizinchi toifa kasbiy zo'riqishda xayotguzaronlik qilgan, vijdon oldida xolis shaxslar.

To'qqizinchi Nuqsonlarning tibbiy va deffektologik tabiatini aniqlaydi va korrekstion ishlar olib boradi;

O'ninchi giyoxvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, daydilikning ijtimoiy-psixologik ildizlarini tekshiradi, ularning omillarini tahlil qiladi va va korrekstion ishlar olib boradi;

Konsultastiyani o'tkazishda nazariya va dunyoqarash.

Konsultastiyani o'tkazishda psixolog turli millat vakillari bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bu turli millat vakillari urf odatlar, dunyoqarashlari xar xil shuni hisobga olgan holda talabalarni fanining nazariy asoslari va inson tarakkiyoti konuniyatlarini tadkik etish uchun amaliy materiallar bilan qurollantirish. Konsultastiyani o'tkazishning nazariy asoslarining talabalar tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishi; mazkur fan amaliyoti bilan tanishish; mustaqil bilim olish muhimligini anglash. Nazariy tomondan;

-psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olish;

-konsultastiyani o'tkazishning tizimlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari sifatida tasavvurga ega bo'lishi;

-psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar;

-insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funkstional holati optimallashtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

-turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rgaiishda umumiy psixologiyaning har xil usullarini qo'llash;

-psixologik, ijtimoiy-etnik va yosh-pedagogik tadqiqotlarning metodlarini qo'llash;

-shaxsning bilish jarayonlari xususiyatlari, uning shaxslilik

xususiyatlarini shakllantirish vositalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Dunyoqarash -inson tomondan anglangan va qabul qilingan me'yorlarning bir tizimga joylashganligi.

-milliy va umuminsoniy xarakter xislatlari;

-tarixiy davr va xarakter tipi ;

-urf-odat va an'analarda halqning ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari va amaliy tajribalarining aks etishi;

- milliy urf-odat va an'analar ijtimoiy tajribalar va ahloqiy hulq-atvor normalar vorisligi ;

-milliy jarayonlarga ona tabiatga va zaminga, tarix va ma'naviy merosga bo'lgan munosabati ;

-milliy tuyg'ularga xos xususiyatlari

-milliy tuyg'ularning millat jipslashuvidagi va mustaqil davlat tuzish davridagi o'rni;

-milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar

-milliy ong bu o'zining muayyan millatga (etnik birlikka) mansubligini anglashi;

-borliqni idrok qilishning milliy til xususiyatlariga bog'liqligi;

-milliy xarakter, temperament;

-ezilgan, jabr ko'rgan halqlarida va aksincha, ezuvchan millat vakillarida turlicha namoyon bo'lishi

-etnik streatip yoka turli xil streatiplar

Xulosa qilib aytganda har bir maslahat berishda psixolog nazariy, amaliy(hayotiy), diniy va dunyoviy tomonlarini hisobga olgan holda har tomonlama mijozning shaxsiyatiga tegmagan holda o'ziningstreatiplariga,hissiyotiga berilmagan holda fikr yuritishi kerak.

Terapiya va konsultastiyada shaxsiy uslub.Umumiy talablardan boshqa bir necha boshqa talablar mavjudki amaliy psixolog barcha yo'nalishlarni o'ziga mujassamlashtirishi kerak bular ;oila psixologiyasi,pedagogik psixologiya va kasb psixologiyasi,yosh davrlar psixologiyasi va boshqalar.Muammolar ko'proq intim munosabatlar doirasida murojat qilinadi.bunda mijoz bilan o'ta ehtiyotkorlikda muloqotda bo'lish kerak psixolog kasbini puxta bilishi ish staji yutuqlari va ish prinstipi orqali mijozni ishontirib bilishi kerak bo'ladi.Iloji bo'lsa mijozga nisbattan yoshi kattaroq psixolog bo'lsa yaxshiroq.O'z hayoti davomida ortirilgan bilimlari,natijalari orqali

muammoga tezroq echim topa oladi. Faqatgina psixolog va mijoz o'rtasidagi yosh farqi ko'pam katta bo'lmasin misol uchun 20 yil. Bunda davrga xos farqlar kuzatilishi mumkin bu mijoz va konsultant o'rtasida fikrlar kelishmovchiliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Psixolog maslahatchi quyidagi maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak;

1. Psixologik maslaxatning tayyorgarlik qismini o'rganishi.

2. O'z bilimini yangilab borishi, psixolog maslahatchi ishidagi malumotlarni o'rganib borishi. O'z dunyoqarashi ega bo'lishi.

3. Psixologik maslaxat berish uslubini bilishi. Maqsadga intiluvchan, pozitiv energiyaga ega bo'lishi.

4. Asosan psixologik maslahat berishda oila psixologiyasi, pedagogik psixologiya va kasb psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasidan bilimga ega bo'lishi.

5. O'z kasbini muttaxisasi bo'lishi. Turli xil vaziyat va xolatlarda hozirjavoblik va aniq xulosa chiqarishi.

Xulosa qilib aytganda psixolog konsultant barcha chet el psixolog olimlari uslublarini o'rgangan holda hozirzamon o'z uslubda faoliyat yuritishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Maslahat berishning vazifalari va muhim muammolari nimalardan iborat?
2. Maslahat berish amaliyoti haqida mashhur psixolog Vigotskiyning qanday fikrlarini bilasiz?
3. Psixologiya fani nimani o'rganadi? Korrekstion psixologiyadachi?
4. Korrekstion psixologiyaning maqsad va vazifasi nimalardan iborat?
5. Psixologning korrekstion ishi haqida nimalar bilasiz?
6. Psixolog oldida turgan vazifa nimadan iborat?
7. Psixologik maslahat berishda individual munosabatda bo'lishning asosiy sharti nima?
8. Korrekstion ishlarda guruhning qadriyatlarga yo'nalganligi biron bir xususiyatga egami?
9. Korrekstion ishlar qanday tartibda o'tkaziladi?
10. Yosh davr taraqqiyotining muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog nima ishlar olib boradi?

II BOB. PSIXOLOGIK MUAMMO

2.1. Psixologik muammo. Konsultativ vazifalar. Psixologik talab haqida umumiy tushuncha. Muammoli vaziyat va pastientning shikoyatlari tahlili.

2.2. Tipik talablar klassifikatsiyasi. (Ilk bolalik davri konsultatsiyasiga xos talablar. Kichik maktab yoshi konsultatsiyasiga qo'yiladigan talablar. O'smirlik davri konsultatsiyasi talablari. Talabalarga psixologik xizmat ko'rsatishga oid talablar. Katta yoshdagilar konsultatsiyasiga doir talablar.)

2.3. Muammolarni identifikatsiyalash va psixologik diagnoz muammolari. Psixoterapevtik masalalarni ifodalash.

Tayanch tushunchalar

Psixologik muammo, muammoli vaziyat, psixologik talab, psixologik diagnoz, psixologik korrektsiya, psixologik konsultatsiya, identifikatsiya

2.1. Psixologik muammo. Konsultativ vazifalar. Psixologik talab haqida umumiy tushuncha. Muammoli vaziyat va pastientning shikoyatlari tahlili.

Mamlakatimizda bola psixik taraqqiyotini doimiy nazorat qilish zarurligini hokimiyat vujudga kelgan dastlabki kunlardan oq tan olinadi. Bu bilan bog'liq ravishda L.S. Vigotskiy olimlarni har bir yoshning hamma xususiyatlarini normal va anomal taraqqiyotining barcha asosiy tiplarini, to'zilishini, o'zgarishlarini, rivojlanishini o'rganishga chorlaydi. Hozirgi vaqtda **maslahat berish amaliyoti** bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotini murakkablashtiradigan qator noto'g'ri fikrlarning kuchayganligi bilan duch kelmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillarning qarama-qarshi ta'sir ko'rsatish sezilarli o'rin egallaydi. Masalan, ota-onalarning, ayniqsa onalarning ishlab chiqarishda bandligi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ko'pchilik bolalarning bolalar muassasalarida tarbiyalanishi ota-onalar psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar o'zlarining funktsiyalarini bog'chalarga, keyinchalik maktablarga ag'darib qo'ymoqdalar. Ota-onalarning ajralishi bola psixikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislar fikricha, oilaning bo'zilishi bolaning ahvolini qiyinlashtirib qo'yadigan kuchli psixologik omil bo'lib, unga ko'nikish

uchun bolaga kamida 2 yil kerak. Xilma-xil psixologik muammolar manbalari ichida maktab xam muhim o'rin egallaydi. Misol uchun tibbiyot mezonlariga qaraganda maktab yoshidagi bolalarning 15-20 foizi qisqa muddatli yoki doimiy psixoterapiyaga muxtojlar. Maktabda keng tarkalgan psixologik muammolar juda ko'p: o'quv motivastiyasining yo'qligi, past o'zlashtirishi, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan nizoli munosabatlar, o'z-o'zini past baholash, jamiyatga qarama-qarshi guruhlarda ishtirok etishga layokatlilik va boshqalar. Yuqorida sanab ko'rsatilgan muammolarning ko'pchiligi hozirgi maktablarda va jamiyatimizda shaxs rivojlanish bosqichlarda, ehtiyojlarni va chuqur qonuniyatlarni, etarlicha hisobga olmaslik, barcha bolalarga bir xil talab qo'yish natijasida ularning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlarni e'tiborga olmaslik sabab bulmoqda.

Psixologik maslahat bilan murojaat qilgan ishlarni kundalik sifatida yozishga to'xtalib o'tamiz. Bu usulda kim murojaat qilgani va maslahat berish zarur bo'lgan bolaning shaxsiy-xissiy xususiyatlari keltiriladi. **Masalan:** Olim S. bilan bo'lgan maslahat berish jarayoni qisqartirilib beriladi. Olim to'liq oilada yagona farzand. Qizning onasi psixologga qizining parishonxotirligi, o'zini tuta olmasligi, sekin xarakter qilish, yangi narsani idora qilishda farosatsizlik va boshqa xislatlaridan nohib, murojaat qiladi. Qizning onasi maktabdagi qiyinchiliklar, ayniksa matematikada, umumiy x,ayotda kelajakda kiynalishi mumkinligi uchun kuchli xavotirlanadi. Xozirgi vaqtdagi o'rtacha bilim darajasiga ona bilan xar kuni tinmay shugullanish orqali erishgan. U 4 yoshida o'qishni o'rganib olgan. Onasi xavotirlanishiga qaramasdan, qizni tekshiruvdan o'tkazish bolaning bilish taraqqiyotining umumiy darajasi, fikrlashi, nutqi, sabab-okibat natijalarini o'rgatish va boshqalarda yosh normalarining yuqori ko'rsatkichini ko'rsatdi. Shu bilan bir vaqtda qizcha keng xayol yurita olish, o'yin faoliyati va badiiy iqtidorlilik (rasm chizishda va plastilin yasash) yaxshi rivojlangan. Qizcha yumshok, ko'ngilchan xarakterli bo'lib, oilada va bog'chadagi o'rtoqlari bilan bir xil, nizolarsiz munosabatga kirishardi. Shu bilan bir vaqt shaxsiy-xissiy soxada o'ziga ishonchsizlik, xavotirlanish, xafa bo'lib qolishlik kabi xislatlar ko'rindi. Olimning onasi qizi haqida yozgan inshosida: ko'rishish mumkin emas, darrov yig'lashga tushadi,-deb yozadi. Ba'zi kechalar qurqib chiqadi, kayfiyati tushib ketgan bo'ladi. Bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarni

tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu erda asosiy o'rinni ona va qizning shaxs va xarakter xislatlaridan ifodalangan farqlar uynagan, ya'ni onasi-xissiy, ochik, xarakatchan bulsa, qiz esa- aksincha ichimdagini top deydigan bo'lgan. Qizning sekin xarakat qilishidan, onasi uni befarosat deb xisoblagan.

Shunday qilib, onaning nolishi tasdiqlanmadi, uning vaziyatidan nolishi asossiz bo'lib chiqdi. Muammoning asosiy sababi qizning individual xususiyatlari va ota-onasi tomonidan ana shunga mos ravishda munosabatda bo'lmasligi bilan bog'liq. Uch yildan so'ng bu qizdan xabar olganda, u maktabda a'loga o'qiyotgan, oiladagi munosabati yaxshiligining guvoxi bo'ldik. Onasining so'zlariga qaraganda, psixologik maslahat berish bolaning aqliy etishmovchiligi haqida gumoni umuman yo'qotdi. Keyinchalik esa qiziga bo'lgan munosabatini asta-sekin o'zgartirishga, xarakterining o'ziga xos yaxshi fazilatlarini kurishga, uning sekin xarakat qilishlarini xotirjam bardosh berishiga yordam berdi. Bu holda ota-onaning bola psixik taraqqiyoti normalari haqidagi yuqoridagi mos bo'lmagan tassavvur xam ma'lum o'rin egallaydi.

Masalan: Temirchilik kasbi yo'qolib bormoqda. Shtampovkalash pressi ham rivojlanmoqda. Stanokda turuvchi va chilangar ta'mirlovchilarning mehnat xarakteri o'zgarishiga mexanizastiyaning ta'siri bor. Endi bular alohida stanoklar bilan emas har hal mashinalarning murakkab komplekslari bilan ishlaydilar. Bu esa ularning mehnatini muhandis mehnatiga yaqinlashtiradi, umuman olganda hamma kasblar o'zining tashqi qiyofasini o'zgartiradi. **M:** portdagi yuk tashuvchi bunda hammaning ko'z oldida quyidagi ta'savvur jonlanadi: egilgan odamning orqasidagi og'ir yuk, lekin hozirgi zamonaviy portlarda hamma narsa mehanizastiyalashtirilgan. Yuklovchi endi operator vazifasida. U endi texnik savodxonlikni egallash kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, eski tasavvurlar zaminida, yangi zamonaviy tasavvurlar uyg'onadi. Kasb tanlashda boshpana tanlagandek munosabatda bo'lish zarur Ko'pchilik o'simirlar yuqori yoki oliy toifali kasblarni mo'ljalga oladilar. Lekin shuni unutmash kerakki, eng yuqori pog'onaga chiqish uchun, qadamni avvalo pastki pog'onaga qo'yish kerak. Qachonki quyi pog'onalardan ko'tarilsa, shundagina yutuqqa erishadi. **Masalan:** kim avvalida ishchi bo'lib ishlagan bo'lsa, undan juda yaxshi injener chiqadi, o'z vaqtida

bajaruvchi, o'z ishini nozik tomonlarini bilgan shaxs, vaqti kelib juda zo'r rahbar bo'lish mumkin. O'zinnig motiv va qobiliyatlarini tartibga sola olmaslik, o'z-o'zini tartibga solish oson ish emas. Ma'lum bir vaqtda bunga kitoblar yordam beradi, ba'zi paytda o'rtoqlar va ota – onalar yordam beradi. Insonni yaxshi bilgan o'qituvchi va ota-onalarning fikrlari juda muhimdir. O'qituvchi bu insonshunos mutaxassisdir. Uning aytganlari odamga yoqmasligi mumkin. Lekin noxush haqiqatni tan olish kerakdir. O'zining jismoniy xususiyatlarini bilmaslik yoki to'g'ri baholay olmaslik. Qaysi kasbni tavsiya qilish to'g'risida juda ko'plab hajmi qalin spravochniklar mavjud. Lekin ular kitobxonlarga emas, balki shifokorlarga taaluqlidir. Shuning uchun ham kasb tanlashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish kerak. Psixologik muammo ko'proq? Yosh davrlardagi inqirozlarga bog'liq .

Psixologik konsultatsiyaning muammolari

1. Mijozlar turlari va munosabatlar xususiyatlari psixolog-mijoz Obozov N. N. tasniflash uchun bir necha asoslarni ajratadi mijozlar va ular bilan munosabatlar bo'yicha tavsiyalar:

So'rovning tabiati bo'yicha mijozlar orasida quyidagi turlarni ajratish mumkin:

1. Ishonchli mijoz emas. Vaziyat haqida ko'p fikr yuritish, juda ko'p tortadi, lekin shubha qutilish uchun qaror qabul qilish mumkin emas.

Psixologga murojaat qilishning maqsadi-qabul qilishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish zarur hayotiy qaror.

2. Ishonchli mijoz. To'g'riligini tasdiqlash uchun murojaat qiladi uning allaqachon qiyinchilikni tushunishga tayyor. asosan psixologga tayyor ekanligini tasdiqlovchi ma'lumot kerakligi, haqidai nuqtai nazari mavjud.

3. Mijoz hamma narsani biladi va faqat o'ziga ishonadi. Ushbu turdagi mijoz hammasi savol, qarama-qarshilik, lekin ayni paytda haqiqauning ishonchidir. Ushbu turdagi mijozlarga do'stona ishtirok etish aniq ifodalarni yumshatish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi salbiy belgilar.

4. "Suhbat", "xushyoqishni izlash" kerak bo'lgan mijoz, "chiqish". Avvalgi turdagi mijozlardan farqli o'laroq, bu erda muammo bor endi tabiatda emas. Ko'pincha ular yolg'iz, sezgir odamlardir, yaxshi va mehribonligi tufayli azob chekayotganlar. Ta'minlash uchun harakat ushbu yordam faqat maxsus so'rovda bo'lishi mumkin. Eng muhimi, nima ushbu turdagi mijozlarga kerak-tinglash.

Mijozlar orasida ruhiy hodisalarni his qilishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi turlarni ajratish mumkin:

1. Ratsionalistik, realistik, pragmatik yo'naltirilgan mijoz. O'zini va boshqalarni aniq bilishga intiladi, moyil e'tibor bermaslik, ob'ektivlikka duch keladigan har qanday narsani e'tiborsiz qoldirish, ratsional tahlil. Bunday mijoz ishonchga moyilyuqori standartlashtirilgan test usullari (MMPI) natijalari,

R. Kattella tomonidan "16 shaxsiy omillar" so'rovnomasi).

2. Intuitiv yo'naltirilgan, hissiy va murakkab estetik mijoz. Ruhning chuqur mexanizmlariga qiziqish, insonning ongli tabiati. Ma'lumotlarga ishonish moyil, ko'proq yo'naltirilgan texnikalar yordamida olingan sifatli tahlil (Lusherning rang testi, Rosharx testi va boshqalar).

Konsultativ vazifalar

Psixologik amaliyotning asosiy turi sifatida maslahat berish quyidagi maqsadlarga erishadi:

1. Mijozga duch kelgan muammolarni hal qilishda tezkor yordam ko'rsatish.

Odamlar tez – tez shoshilinch aralashuvni talab qiladigan muammolarga duch kelishadi, tezkor yechim-mijozning ko'p vaqt, kuch va pul sarflash qobiliyatiga ega emasligi. Bunday muammolar odatda operativ deb ataladi va shunga o'xshash nom tegishli echimlarga o'rnatiladi. Tezkor muammolarni hal qilishda og'zaki maslahat shaklida shoshilinch psixologik yordam olish ajralmas holga aylanadi. Misol uchun, bolaning ota-onasi u bilan bo'lgan munosabatlarida bunday jiddiy asoratlarga duch kelishi mumkin, ularning saqlanishi bolaning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun juda salbiy oqibatlariga olib keladi. Har qanday muassasa xodimi ham jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin, bu esa, masalan, kelgusi kunlardan biriga tayinlangan qisqa uchrashuvda uning bevosita rahbari bilan muloqot qilishda hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni tezda hal qilishni talab qiladi. Uchinchi misol: oilada er yoki xotin birdan xotini (turmush o'rtog'i) yoki uning qarindoshlaridan biri bilan munosabatlarni keskin ravishda murakkablashtirishi mumkin. Shuning uchun bu oilada murakkab, jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

2. Mijozga tashqi aralashuvsiz, psixologning o'z ishlarida bevosita va doimiy ishtirokisiz, ya'ni o'z-o'zidan hal qila oladigan masalalarni hal qilishda yordam berish. maxsus professional psixologik bilimlar,

odatda, kerak emas va faqat umumiy, kundalik, sog'lom ma'noda asoslangan maslahat. Bunday, masalan, muammo mijoz uchun eng maqbul ish va dam olish rejimini aniqlash, turli tadbirlar o'rtasidagi vaqtni oqilona taqsimlash bo'lishi mumkin.

3. Uzoq muddatli, ko'p yoki kamroq doimiy psixoterapevtik ta'sirga muhtoj bo'lgan mijozga vaqtinchalik yordam ko'rsatish, ammo muayyan sabablarga ko'ra, unga ma'lum bir vaqtda ishonish mumkin emas. Bunday holda, psixologik maslahat mijozga joriy, tezkor yordam ko'rsatish vositasi sifatida ishlatiladi, bu esa mijozning duch kelgan muammolarini yanada murakkablashishiga to'sqinlik qiluvchi salbiy jarayonlarning progressiv rivojlanishini oldini oladi. Misol uchun, mijozning depressiya holatining juda kutilmagan ko'rinishi bo'lishi mumkin.

4. Agar mijoz o'z muammosini to'g'ri tushunchaga ega bo'lsa va u, asosan, uni hal qilishga tayyor bo'lsa-da, lekin yana bir narsa shubha qilsa, uning haqqoniyligiga to'liq ishonmaydi. Keyin psixologik maslahat jarayonida mijoz maslahatchi psixolog bilan muloqot qilib, o'z navbatida zarur professional va ma'naviy yordamni oladi va bu unga ishonchni beradi.

5. Maslahat olishdan boshqa hech qanday imkoniyat bo'lmasa, mijozga yordam berish. Bunday holda, psixologik konsultatsiya o'tkazish orqali psixolog mijozga, aslida, yanada mustahkam, uzoq muddatli psixo-tuzatish yoki psixoterapevtik yordam olish kerakligini tushunishi kerak.

6. Psixologik konsultatsiya mijozga psixologik yordam ko'rsatishning boshqa usullari o'rniga qo'llanilmasa, ular bilan birga nafaqat psixolog, balki mijozning o'zi ham muammoni hal qilish bilan shug'ullanishi mumkin.

7. Vaziyat o'z vakolatlaridan tashqarida bo'lgani uchun psixolog-konsultantga tayyor echim bo'lmasa, u mijozga kamida bir nechta, hatto minimal va etarli darajada samarali bo'lmasa ham, yordam berishi kerak.

Bu va boshqa shunga o'xshash holatlarda psixologik maslahat quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

1. Mijozning duch kelgan muammolarini tushuntirish.

2. Mijozga uning muammosining mohiyati, uning jiddiyligining haqiqiy darajasi haqida ma'lumot berish. (Mijoz haqida muammoli ma'lumot.)

3. Mijozning o'zi paydo bo'lgan muammoni mustaqil ravishda hal qila oladimi yoki yo'qligini aniqlash uchun mijozning shaxsiyati bo'yicha psixolog-konsultantni o'rganish.

4. Mijozga uning muammolarini eng yaxshi tarzda hal qilish bo'yicha maslahatlar va tavsiyalarni aniq ifodalash.

5. U allaqachon uning muammoni hal qilish uchun boshlagan paytda taklif qo'shimcha amaliy maslahatlar shaklida mijozga joriy yordam.

6. Kelajakda shunga o'xshash muammolar yuzaga kelishini oldini olish uchun mijozni tayyorlash (psixoprofilaktika vazifasi).

7. Psixolog-maslahatchi mijozga asosiy, hayotiy psixologik bilim va ko'nikmalarni berish, mijozning o'zi tomonidan maxsus psixologik tayyorgarliksiz o'zlashtirishi va to'g'ri ishlatilishi mumkin. (Mijozni psixologik va ma'rifiy xabardor qilish.)

Keling, ushbu vazifalarning har birini batafsil ko'rib chiqaylik.

Muammoni aniqlashtirish, mijozni diqqat bilan tinglab, uni bir muncha vaqt kuzatib borganidan so'ng, maslahatchi psixolog mijozning muammosining aslida nima ekanligini aniq bir xulosaga keladi. Ba'zan uning xulosasi odatda mijozning fikriga to'g'ri keladi va ba'zan u bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, psixolog-maslahatchi mijozga nima uchun u maslahatchi ekanligini tushuntiradi – bu xulosa kelib chiqdi, bu mijozning o'zi nimani o'ylayotganidan farq qiladi.

Bu erda mijozni muammoli xabardor qilish yotadi. Bunday ma'lumotni amalga oshirish orqali psixolog-maslahatchi nafaqat mijozga, balki uning muammosining nima ekanligini tushuntirib beradi, shuningdek, bu muammoning nima uchun paydo bo'lganligi va uni amalda qanday hal qilish mumkinligini tushuntiradi. Keyingi, mantiqan zarur va odatda parallel ravishda oldingi qadam bilan birga amalga oshiriladi – bu mijozning shaxsiyatini psixologik o'rganishdir. Bunday o'rganishsiz, birinchi navbatda, mijoz o'z muammolarini to'liq, chuqur tushunishga, ikkinchidan-mijozning o'z qarorida faol ishtirok etishiga ishonish qiyin. Maslahat berish uchun zarur bo'lgan qadamni qo'yib, psixolog mijozning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, mijozga uning muammolarini tushuntirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, psixolog-maslahatchi, muammoning mohiyatini va mijozning individualligini o'z tushunchasini hisobga olgan holda, muammoni maqbul hal qilish uchun mijozga tavsiyalar beradi. Bunday tavsiyalar mijozga qisqa, sodda va tushunarli bo'lishi kerak, shuningdek,

mijozning haqiqiy hayot sharoitlarida amalda bajarilishi mumkin, bu esa o'z navbatida ongli ravishda nazorat qilinishi kerak.

Har doim ham mijoz darhol emas va muvaffaqiyatga erishish uchun kutish bilan olingan maslahatlar va tavsiyalarni amalga oshirishga kirishishi mumkin psixolog-maslahatchi. Ko'pincha, o'zining tajribasizligi yoki qobiliyatsizligi tufayli u xato qiladi va maslahatchi psixologdan tezkor yordam olishni talab qiladi. Xuddi shu narsa, o'z navbatida, mijozni tinglab, o'zi uchun va uning uchun muammoning mohiyatini aniqlab, uni to'g'ri hal qilish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, u o'zining professional burchini to'liq bajargan deb o'ylamasligi kerak. Psixolog-konsultantning vazifasi, shuningdek, mijoz tomonidan olingan maslahat va tavsiyalarning iloji boricha aniq bajarilishini ta'minlashdir. Biroq, mijozning psixolog-konsultantdan olingan tavsiyalarni bajarishni istamasligi va psixolog psixologik maslahatning yakuniy amaliy natijasi uchun javobgar emasligi (agar, albatta, mijozga to'g'ri tavsiyalar berilsa) bundan mustasno.

Mijoz mustaqil ravishda psixoprofilaktik muammoni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun, shuningdek, o'zi uchun zarur yordam berishga qodir bo'lishi uchun maslahatchi psixolog ba'zan ixtiyoriy ravishda professional ravishda majburiy bo'lmagan vazifani o'z zimmasiga oladi: mijozga uning uchun foydali bo'lgan asosiy psixologik bilimlarni etkazish.

2.2. Tipik talablar klassifikatsiyasi. (Ilk bolalik davri konsultatsiyasiga xos talablar. Kichik maktab yoshi konsultatsiyasiga qo'yiladigan talablar. O'smirlik davri konsultatsiyasi talablari. Talabalarga psixologik xizmat ko'rsatishga oid talablar. Katta yoshdagilar konsultatsiyasiga doir talablar.)

Ilk bolalik davri konsultatsiyasiga xos talablar. Kichik maktab yoshi konsultatsiyasiga qo'yiladigan talablar. Xilma-xil psixologik muammolar manbalari ichida maktab ham muhim o'rin egallaydi. *Masalan:* tibbiyot mezonlariga qaraganda, maktab yoshidagi bolalarning 18-20% qisqa muddatli yoki doimiy psixoterapiyaga muxtojdirlar. Maktab, kollejdagi keng tarqalgan muammolar juda ko'p: O'quv motivatsiyasi yo'qligi, past o'zlashishtirish, o'qituvchi va tengdoshlari bilan nizoli munosabatlar, o'z-o'zini past baxolash,

jamiyatga qarshi gruppalarda ishtirok etishga layoqatlilik va boshqalar. Yuqori sanab o'tilgan muammolarning ko'payishi hozirgi maktab, kollejlarda shaxs rivojlanishi bosqichlarini etarlicha xisobga olmaslik, barchaga bir-xilda talab qo'yish natijasida ularning individual psixologik va psixofizilogik xususiyatlarni e'tiborga olmaslik sabab bo'lmoqda. Bolaning ko'pgina nisbiy xususiyatlari, masalan, mehnatga, matematikaga, musiqaga, va boshqalarga nisbatan erta ko'ringan muvaffaqiyat yoki psixologik taraqqiyotni, juda oldinda bo'lishi ko'pgina psixologik va pedagogik vazifalarning muammosini keltirib chiqaradi. Shunga qarab **psixologik maslahat berishning umumiy vazifasi bola psixik taraqqiyotining borishini, bu jarayondagi davrlarga bo'lish va belgilangan normaga muvofiq tasavvurlar asosida nazorat qilishdan iborat.**

Bu umumiy vazifa hozirgi kunda quyidagi konkret vazifalarni o'z ichiga oladi.

1. Ota-onalarni o'qituvchilarni va bola tarbiyasidagi ishtirok etadigan boshqa shaxslarni bola psixik taraqqiyotining yosh va individual xususiyatlariga qarab jalb qilish.

2. Psixik taraqqiyot bo'zilishlarini va har-xil normadan chetga chiqishlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni tibbiy, pedagogik maslahatlarga yo'llash,

3. Jismoniy yoki nerv psixik sog'ligi kuchsizlangan bolalarda ikki marta psixologik asoratlarning oldini olish va ularning psixogigienasining va psixoprofilaktikasi buyicha tavsiyalar berish.

4. Patopsixologiya va vrachlar, pedagogik-psixologlar bilan birgalikda o'qituvchilar ota-onalar va boshqa shaxslar uchun ta'limdagi qiyinchiliklarni pedagogik va psixologik korrekciya qilish buyicha tavsiyanomalar tuzish,

5. Oilada bola tarbiyasi buyicha tavsiyanomalar tuzish (oilada, psixoterapiyasi mutaxassislari bilan birgalikda),

6. Bolalarga va ota-onalarga maslahatlar berishda maxsus guruhlar bilan maxsus to'zatish ishlarini olib borish,

7. Ma'ruzalar va ishning boshqa shakllari bilan axolini psixologik bilimlar bilan tanishtirish.

Ilk bolalik davri: Go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi - muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi

rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamin bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar. 1-3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o'ta ahamiyatligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tugilganidan to etuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojlanishiining taxminan o'rtalari, 3 yoshga to'g'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo'la oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshladilar. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va o'zini o'zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. ,

Ilk davridagi bolalarning etakchi faoliyat turi - predmetlarni o'rganish hisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go'dak bola qo'lga ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan ko'zatsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina, o'z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo'llanish vazifasi, mohiyati qiziqtirib, u o'z savoliga javob olish maqsadida ko'pincha kattalarga «*Bu nima?*» degan savol bilan murojaat qiladilar. 3 yoshlar arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar, o'z o'yinlarida, shu predmetlardan maqsadsiz foydalanib qolmay, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar ham. Bolaning nutqi u 1,5 yoshga qadar etgungacha birmuncha sekinlik bilan rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 ta so'zdan, to 100 tagacha so'zni o'zlashtiradi, lekin ularni amaliyotda juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa, uning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. Endi bola predmetlarning nomlarini aytishlarini so'rabgina qolmay, balki bo'sozlarni o'zi talaffo'z etishga ham harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi jadallashadi. 2 yoshlarning oxirlariga borib, bola 300 tagacha, 3 yoshlarning oxirlariga borib esa, 500 dan to 1500 tagacha so'zni o'z nutqida ishlata oladi. Shuningdek, so'zlarni ham aniq talaffo'z etib, jummalarni to'g'ri to'za oladilar.

3 yoshdagi krizis: 3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. *Men katta bo'lsam mashina haydayman*», «*Men sizga katta tort olib kelaman*», «*Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi*» kabi xohishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o'zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko'pincha bunday xislat qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan kattalarga bildirilgan salbiy xatti-harakat bo'ladi. Bola o'zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda «o'zim qilaman» boshlanadi va bu yana qaysarlik va ujarlik tarzida kurinadi. 3 yoshdagi krizis bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatgi-harakatlarni qila olmayotganligini anglash natijasi hisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqat va boshqa xususiyatlar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgani holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (urta, bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar odamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xattiharakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning usib borishi, katga yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beryladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yildagii davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter

xisdatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola o'zluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Ularga hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yaygilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va o'zoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Bu davrga kelib bola atrofida bo'lganlar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "*Men yaxshi bolaman*" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgarar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanyotganida tayyorlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rnini nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qiguvchi raxbarligida inson ongining turli asosiy

shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyataga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi.

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi, o'smirlik davri «*o'tish davri*», «*Krizis davr*», «*qiyin davr*» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham ko'zatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «*psixik rivojlanishdagi krizis*» deb nomlagan. O'smirlik davrida etakchi faoliyat - bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir, o'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi.

O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti ularning katta bo'lganlik hissi asosida to'zilgan bo'ladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan haq-huquqlarini cheklashlariga, qarshilik va e'tirozlariga qattiq qayg'uradilar. Lekin shunga qaramasdan, u muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirlarga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. U o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomala-munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi, o'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitastiya qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitastiya, taqlidchanlik qiladilar.

5-6 sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 sinfdan boshlab, O'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o'quvchilari esa mustaxillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. o'smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirish mumkin.

Ilk o'spirinlik yoshi davriga 15-18 yoshdagilar kiradi. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi, ma'naviy jihatdan etuklikka erishadi. Ilk o'spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida esa saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bularning barchasi ilk o'spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga etishi, hayotda o'z o'rnini topishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi va etuk shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi. Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iboratdir.

Jahon psixologlarining tadqiqot natijalari quyidagi ma'lumotlarni tavsiflashga imkon beradi. Ilk o'spirin yigitlar do'stlashishida: 75-85% tengdoshini, 15-18% katta yoshdagilarni, 1-7% kichik yoshda bo'lishini ma'qul ko'radilar. Ilk o'spirin yoshidagi qizlarda esa olingan ma'lumotlar o'zgacha xususiyatga ega. Ular: 50-60% tengdoshlari bilan, 40-50% katta yoshdagilar bilan, kichik yoshdagilar bilan do'stlashmaslikni afzal ko'radilar. Psixologlarning talqiniga qaraganda, buning barchasi ulardagi ideal do'stlik haqidagi tushunchalarning turli-tumanligi bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Biroq ilk o'spirinlik davridagi do'stlikning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular o'z do'stining ijtimoiy o'rniga, psixologik xususiyatlariga, hayotiy ustanovkalariga asoslangan holda tanlab olmaydilar.

O'spirinlik yoshidagi **do'stlik** ko'pincha **butun umr buyi** davom etadi. O'spirinlik yoshida alohida bir his - **sevgi** paydo bo'ladi. Bu maktab o'quvchisining emostional hayotida yangi bir holat hisoblanadi. O'spirinlik sevgisi sof, pokiza, beg'ubor, xilma-xil kechinmalarga boy, muloyim, xayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo'ladi. Yigit

va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini xurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi xislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuksak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar.

O'smir yoshdagi o'quvchilarni yurish tuzilishiga fe'l atvoriga, xatti-harakatiga, xulqiga adolatli baho berish ular kayfiyatini chog' qiladi, quvonch va qanoatlanish hislarini vujudga keltiradi. Buning uchun og'zaki maqtash minnatdorchilik bildirishning o'zi etarli. Ushbu maqtovlar keyingi yumushlarning yanada chiroyli chiqish uchun umidvorlik tuyg'usi va yaxshilik istagini tug'diradi. Voyaga etgan kishilarga noo'rin tanbeh berish, noxush hulq atvorini turli so'zlar bilan qoralash, ularda berilgan jazodan norozi bo'lish, kattalardan ranjish hislarini tug'diradi. Noxush kechinmalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ko'pincha tanbeh berish ta'sirida bolalarda nojo'ya xatti-harakatlardan o'zini tiyishga intilish istagi vujudga keladi. Lekin ma'naviy jazolash xaddan tashqari qo'pol bo'lmasligi, o'quvchi undan ruhan ezilmasligi, odamgarchilikni yo'qotganday, umidsizlikka borib etmasligi lozim. O'quvchilarni o'rinsiz rag'batlantirish yoki jazolash yaxshi natija bermaydi. **Masalan:** me'yoridan oshirib rag'batlantirish, maqtash o'g'il-qizlar tarbiyasiga zarar etkazadi. Natijada undan o'z kuchi imkoniyati to'g'risida soxta tasavvur tug'iladi, kekkayish manmanlik, kibr havo illatlari namoyon bo'ladi. Oddiy yumushlarga ko'maklashish, farzandlik burchi hisoblanadi. Buning uchun bola maqtalsa maqtov o'ta qadrsizlanadi. Maqtov oila a'zolari o'rtasida, qancha kam qo'llanilsa, shunchalik ta'sirchan bo'ladi. Turmush taqozosi bilan farzandlarning hulq-atvori hali etarli barqarar, qa'tiy mustaqil bo'lmasa kerak ham. Ularni o'rni bilan maqtash maqsadga muvofiqdir. Ayrim hollarda bola tushunmasdan nojoya qiliq, erkalik va sho'xlik qilishi mumkin. Buni kechirish ma'qul. Chunki xulq-atvorni to'zatatayotgan o'spirin sal ijobiy o'zgarish uchun kattalarning iliq so'zini, maqtovini eshitsa, yaxshi bo'lib qoladi. Har bir ibratli qadamni tasdiqlab, borish farzandni quvontiradi. **O'spirinlar** hatti-harakatni mavridi bilan foydalanishi kerak. O'zbek xalqida inson zotini tarbiyalash, jazosiz, qo'rqitishsiz, baqiriq-chaqiriqsiz mehribonlik bilan yaxshilikcha amalga oshirishni taqozo qiladi. Ana shuning uchun xalqimiz «Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadi» deb bejiz aytmaganlar. Farzandning xatti-harakati, xulq-atvori qoralanganda uning qanchalik ayb qilganligiga ahamiyat berish zarur. Jazolash esa adolatli bo'lishi

faqat oluvchiga emas, balki butun oila a'zolari ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak. O'g'il qizlar jazo olmasdan ham xijolat bo'ladi, uyaladi, izza chekadi, U etmagandek kattalardan dakki, haqorat baqiriq, eshitish adolatdan bo'lmaydi. Gunohkor o'z yog'iga o'zi qovurilib turganda, jazolash muddatini biroz orqaga surish lozim. **O'spirin shaxsiga** berilgan har qanday baho uni rag'batlantiradi, o'ziga ishonch hissini yo'qotadi. O'g'il-qizga berilgan salbiy xarakteristika uni badnom qiladi. Noo'rin tahqirlash kinoya ta'sirida umidsizlikka uchraydi, loqaydlik va befarqlik illati namoyon bo'ladi. O'spirinni ayrim nojo'ya qiliqlari noxush xatti-harakatlarini baholashda boshqacha yo'l tutish mumkin. Agarda jazolash boshqacha ohangda, boshqacha ma'noda qo'llanilsa, farzandda ijobiy xislat tarkib topadi. **Masalan:** "...ikkinchi marta qo'pollik qilmaysan deb ishonaman, chunki sen unaqangi bolalar toifasidan emassanku, o'zing ajoyib bolasanku, bu qilgan ishingni qara". Ushbu ohangda bolaga ta'sir o'tkazish ota-onada ishonchni oqlashni vujudga keltiradi. Bola o'zini qilg'idan, yurish-turishidan uyaladi. Bildirilgan ishonchga asoslanib, o'zi bo'yiga, yoshiga yarashmaydigan nojo'ya xatti-harakatlarni takrormaslikka intiladi. O'spirinning organizmi bir me'yorda o'zgarib borayotgan tabiat qonunlariga, yozning, qishning, kunning tuniga ulanishiga moslanib boradi. Umuman olganda, o'spirin kun tartibiga rioya qilishi o'z vaqtida dam olishi, ishi, ovqatlanishi, har kuni bir vaqtda uxlashi, dars qilishi, sport bilan muntazam shug'ullanishi lozim. Bolalarni turmush qurishga tayyorlashda ularni ko'pincha tashqaridan yuqa boshlagan xudbinlik illatidan saqlashga harakat qilishi kerak. Chunki xudbinlik oila zavoli bo'lib, turmush qurishga oilani mustahkam bo'lishiga xalal beradi. Turmushda bir xil sharoitning bir ota-onaning farzandi turli xulq-atvorga ega bo'ladi. Ulardan bittasi yoqimtoy sahiy ko'ngli ochiq, rahmdil bo'ladi. 2-chisi esa butunlay buning aksi juda qo'rs, qaysar, xudbin, o'zidan boshqasini o'ylamaydigan. Ushbu mavzuni, mavzu bilan tanishganda yosh tushunchasini odamni psixologiyaga beriladigan sifat xaraktestikasi tarzida psixologik jihatdan tushuntirib berishdan boshlagan ma'qul. O'spirinlik yoshida alohida bir his. Do'stlik sevgi

Talabalarga psixologik xizmat ko'rsatishga oid talablar. Katta yoshdagilar konsultastiyasiga doir talablar.)

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning yana bitta qiyin vazifasi shundan iboratki, butun bolalik davri davomida ta'lim va tarbiyaning

sifatini oshirish maqsadida ta'lim va tarbiya jaraenlarini doimiy ravishda nazoratda ushlab turish kerak. Bu erda ushbu pedagogik jaraenlar bola psixik taraqqiètining tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarga to'la mos ravishda, ta'lim va tarbiyaning psixologik nazariyalarining asosiy qoidalariga mos ravishda tashkil etish zaruriyati tushuniladi. Bu erda psixolog ishining amaliy maqsadi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish mazmuni va metodlarini psixologiya fani nuqtai nazaridan baholash, turli èshdagi bolalar taraqqièti to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda ushbu mazmun va metodlarni mukammallashtirish bo'yicha tavsiyalar berish bilan bog'lik bo'ladi.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat ehadigan navbatdagi muhim vazifa - pedagogik jaraenining bevosita ishtirokchilari: bolalar, o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim tizimidagi raxbarlarga psixologning amaliy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Bu vazifa ushbu odamlarga ta'lim va tarbiya jaraenida bevosita psixologik èrdam ko'rsatishni nazarda tutadi. Bu erda psixolog pedagog, psixoterapevt, konsultant, korrektor rollarida faoliyat ko'rsatadi. Yurak qon tomir tizimi, oshqozon ichak trakti tizimi bilan bog'liq kasalliklarning ko'pchiligi psixogen asosga ega ekanligini hozirgi kunda isbotlangan. Xuddi shunday odamning endokrin tizimi ham, xatto xulq-atvori ham shunday asosga ega. Bu sohada amaliy ish bilan shug'ullanar ekan, psixolog bu ko'rinishdagi kasalliklarning paydo bo'lishi va zo'rayishini oldini olishga harakat qiladi, kasallikni davolash uchun yaxshi organik reakstiyalar chaqirish maqsadida odamning psixologiyasiga va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan maxsus metodlarni qo'llaydi.

Ta'lim tizimining boshqaruv tuzilmasi xodimlari umumiy psixologik èrdamdan tashqari guruhdagi va jamoadagi odamlarni boshqarishga taaluqli bo'lgan boshqaruv psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ham muhtoj bo'ladilar. Ta'lim tizimining rahbar xodimlariga boshqaruv psixologiyasidan, odamlarning o'zaro munosabatlaridan, guruh faoliyatining samaradorligidan qo'shimcha bilimlar zarur. Bolalarni ta'limi va tarbiyasiga bog'liq barcha katta èshdagi odamlar bolalarning rivojlanishini va ularni boshqarishni chuqurroq bilishni ta'minlaydigan psixologik bilimlarga muhtojdirlar. Bunday bilimlar minimal - zarur miqdorda pedagogik oliy o'quv yurtlarida beriladi, ammo vaqt o'tishi bilan bu bilimlar qisman èki butunlay eskiradi, unutiladi, ya'ni ularni to'ldirish va yangilash zaruriyati tug'iladi. U èki bu pedagogning professional ishi

davomida bunday bilimlarni korrekstiya qilishni ham psixologik xizmat amalga oshiradi.

Psixologik xizmatning yana bitta maxsus vazifasi shundan iboratki, ular pedagoglar, defektologlar, sostiologlar, vrachlar, yuristlar bilan hamkorlikda o'z tengqurlaridan farq qiluvchi bolalarning taqdiri bilan bog'liq bo'lgan qator muammolarni hal qiladilar. Bu erda so'z, eng avvalo, o'z taraqqiëtida orqada qolaëtgan èki iqtidorli bolalar to'g'risida boradi. O'z taraqqiëtida orqada qolaëtgan bolalar o'zlarining o'zlashtirish imkoniyatlariga mos keluvchi soddalashtirilgan, kam murakkabroq ta'lim va tarbiya dasturlariga muhtojlar. Iqtidorli bolalar esa aksincha, ta'limda oddiy bolalarga qaraganda murakkabroq, ma'lumotga to'ldirilgan dasturlarga muhtojlar, Rivojlanishdan orqada qolaëtgan va iqtidorli bolalar uchun taklif etiladigan o'quv dasturlari albatta oldindan turli mutaxassis pedagoglarni jalb etgan xolda psixologik pedagogik ekspertizadan o'tkazilishi kerak. Bu pedagoglar boshqalarga bog'lanmagan holda taklif etilaëtgan dastur mo'ljallangan bolalarning rivojlanishini ta'minlab beradimi yo'qmi degan nuqtai nazardan xulosa berishlari kerak. O'z rivojlanishda orqada qolaëtgan bolalar psixologik èki jismoniy jixatdan nimjon bo'lib, ular osonlashtirilgan o'quv dasturlariga muxtoj bo'lsalarda, taklif qilinaëtgan dasturlar ularning orqada qolishini yanada chuqurlashtirmasligi kerak. Aksincha, bu dasturlar orqada qolaëtgan o'quvchilarning rivojlanishini tezlashtirishini ta'minlashi, odatdagi bolalar bilan ular o'rtasidagi farqni kamaytirishga olib kelishiga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Soddalashtirilgan, lekin taraqqiëtni tezlashtiruvchi dasturlarni ishlab chiqish iqtidorli bolalarga mo'ljallangan qiyinlashtirilgan dasturni ishlab chiqishga qaraganda ancha murakkab. Shuning uchun ham psixolog o'z amaliy faoliyatida iqtidorli bolalar bilan ishlashga qaraganda o'z vaqtini ko'proq rivojlanishdan orqada qolgan bolalar bilan ishlashga sarflaydi.

Ba'zida o'quvchilar bilan ishlashda shunday muammolar yuzaga keladiki, bolaning keyingi haëtiy taqdiri bu muammoning qanday hal qilinganiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Bu bolaning jiddiy psixologik - pedagogik jihatdan o'rnini bosishi mumkin bo'lmagan aqliy defektlari tufayli oddiy maktabda o'qiy olish èki olmaslik imkoniyatiga taalluqli masalalar, shuningdek bolalarni tibbiy-psixologik ekspertiza qilish bilan bog'liq boshqa

masalalar. Bu erda amaliyatchi psixologning vazifasi shundan iboratki, u boshqa mutaxassislar: pedagoglar, vrachlar, defektologlar fikri bilan bir qatorda hisobga olinadigan ma'sul va savodli ekspert xulosasi berishi kerakki, bu xulosa bolaning keyingi taqdirini hal qilishda hisobga olinadi.

Shunday qilib, ta'lim tizimida tashkil etiladigan psixologik xizmatning quyidagi asosiy vazifalarini farqlash mumkin:

- turli èsh davrlarda bolalarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarini aniqlash, ularning aqliy va ijtimoiy taraqqiètida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarni oldini olish;

- psixologik ma'rifat va tashviqot, psixologik-pedagogik tashxis, korrekstion - rivojlantiruvchi, psixoprofilaktika va psixologik maslahat ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik diagnostika ishlarini tubdan yaxshilash, samaradorligini oshirish;

- o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlarini tashxislash asosida ularning kasbiy o'zligini anglashini psixologik ta'minlash;

- pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni qo'llabquvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emosional xolatlarini, shaxslararo munosabatlarini va ziddiyatli hatti-xarakterlarini korrekstiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashish;

- ta'lim jaraèni barcha sub'ektlarining psixologik salomatligini saqlash uchun sharoitlar yaratish, oilada, o'quvchilar va pedagogik jamoalarida nosog'lom psixologik iqlim muammolarini hal etishda amaliy èrdam ko'rsatish, kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish va eng maqbul echimlarini topish orqali ularni bartaraf etish;

- ijtimoiy muammolari va xulqida og'ishligi mavjud bolalar va o'smirlarning ijtimoiy ustanovkalari, munosabatlari, xulq-atvor motivlarini o'rganish ularning maktabga va ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik xolatlarini korrekstiyalash, ularni ijtimoiy reabilitasiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- psixologiya fani yutuqlari, innovastion psixologik metodika va texnologiyalarni ta'lim jaraeni va psixologik amaliyati ga tatbiq etish;

- iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, iqtidorli bolalar va o'quvchi e'shlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish, shaxsiy va intellektual jihatdan rivojlantirish;

- ularning qobiliyat, qiziqishlari va la'qatlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kelajakdagi kasblarini to'g'ri tanlashlariga e'rdam ko'rsatish, kasb tanlashdagi mavjud kamchiliklar, ikkilanishlar, karorsizlik va boshka turli sabablarga ko'ra kasb tanlashdagi buzilishlarning oldini olish.

Psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari Ta'lim tarbiya jaraenida talabalarga individual e'ndashuv zarurligi hamma tomonidan tan olingan, lekin undan amalda foydalanish har doim ham amalga oshirilavermaydi. Bunga ta'lim muassalarda talaba haqida ko'p gapirishlari dalil bo'ladi. Chunki muassasada talabaning qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beriladigan mutaxassis yo'q.

Ta'lim tarbiyadagi individual e'ndashuv, talabani boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u e'ki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir talabaning individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchisidan ajratib turadigan, faqat ushbu shaxsga tegishli bo'lgan xususiyatlar tushuniladi.

Individual e'ndashuvning vazifasi – rivojlanishning individual usullarini aniqlash, talabaning imkoniyatlarini, har bir shaxsning faolligini ta'minlashdan iborat. Bu nuqtai nazardan olganda individual e'ndashuv faqatgina «tarbiyasi qiyin» bolalarga emas, barcha talabalarga ham zarurligi tushunarli bo'ladi. Psixologlar bu usulni u e'ki bu shaklda qo'llaydilar, chunki bu ko'zga tashlanib turgan qiyinchiliklar bilan birgalikda, talaba shaxsiy taraqqi'etining ba'zi yashirin nuqsonlarini ham topishga e'rdam beradi.

Bunday diagnostik ishining asosiy maqsadi - talaba psixik taraqqi'etining umumiy holatini bilishdan iborat. Bunday ko'p qirrali va to'liq diagnostika natijalari psixolog uchun ham, ota-onalar, o'quvchilar uchun ham «tarbiyasi qiyin» bola bilan olib boriladigan

tuzatish va rivojlantirish ishlarining yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul yutuqlar bilan birga, kamchiliklarga ham ega.

Talabalarga va katta yoshdagilar konsultastiyasiga doir talablar.

- psixologik xizmatning zamonaviy yo'nalishlariga oid nazariy qarashlar, etakchi konstepstiyalarini;
- psixologik xizmatning tashkil etilishi bo'yicha xorijiy tajribani;
- maktab psixologi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ***bilishi*** ;
- psixologik èrdam ko'rsatish natijasida o'quvchilarda psixik salomatlikni saqlashga doir umumiy va kognitiv kompetenstiyalarni shakllantirish;
- turli èshdagi o'quvchilarga psixologik èrdam ko'rsatish;
- ta'lim jaraènida o'quvchilarda o'z-o'zini takomillashtirib borishga bo'lgan ehtièjni shakllantirish;
- iqtidorli va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlar olib borish ***ko'nikmalariga*** ;
- psixodiagnostik tekshiruvni tashkil etish, natijalarni qayta ishlash, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- psixokorreksion tadbirlarni o'tkazish uchun dasturlar tuzish;
- rivojlantiruvchi mashqlarni olib borish;
- hamkasblari ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida psixologik faoliyatini takomillashtirish;
- zarur vaziyatlarda psixologik konsultastiyalar berish;
- turli èsh kontingenti sinflari bilan individual ishlarni olib borish kabi ***malakalarga***;
- psixodiagnostik metodlarni samarali qo'llash;
- ta'lim muassasalarida adaptastiya va dezadaptastiya muammolari bilan shug'ullanish;
- o'quv faoliyati bilan bog'liq qiyinchiliklarda psixologik èrdam ko'rsatish;
- talabalar bilan kasbga yo'naltirish va kasbga ko'nikish va profkonsultastiya ishlarini tashkil etish;
- —Xavf guruhiga kiruvchi talabalar bilan individual va guruhviy shaklda ishlash kabi ***kompetenstiyalariga ega bo'lishi lozim.***

2.3. Muammolarni identifikastiyalash va psixologik diagnoz muammolari. Psixoterapevtik masalalarni ifodalash

Psixologning bemorlar bilan ishlashi psixologik etikani saqlagan holda olib boriladi. Dastlab bemorning psixologga tashrifi sabablari aniqlanadi. Buning uchun unga «Sizni psixologga murojaat qilishga nima undadi?». Sizni nima bezovta qilayapti? Sizga qanday yordam kerak?» kabi savollar bilan murojaat qilish mumkin. Agar bemor yaqinlari bilan kelgan bo'lsa, suhbatni avval ular bilan boshlab, so'ng bemor bilan davom ettirishi mumkin.

Bemorning tashqi ko'rinishiga katta e'tibor qaratish lozim: u o'zini qanday tutayapti, es-hushi joyidami, jismoniy kamchiliklari yoki latigan joylari yo'qmi, qanday kiyingan, kim bilan kelgan?

Harakat koordinastiyasi, yurishi, gavda tuzilishi qanday, giperkinezlar yoki falajliklar yo'qmi? Bemorning his-tuyg'ulari va xulq-atvori qanday? Bu erda bemorni savolga ko'mib tashlamaslik va unga shikoyatini to'la aytishga imkon berish zarur. Qisqa suhbatdan so'ng bemor gapirishni istamasa, avval psixologik testlar o'tkazib, so'ng uning testda belgilagan javoblariga qarab suhbatni davom ettirish lozim. Bunday paytlarda qisqa testlardan foydalangan ma'qul, masalan, Stung, Spilberger-Xanin va temperamentni aniqlovchi testlar. Psixologik testlar orqali bemorlardan juda ko'p ma'lumotlarni yig'ib olish mumkin. Ba'zan bemor juda so'zamol bo'ladi. Bunday paytlarda uning nimani istayotganini bilib olib, suhbat yo'nalishini o'zgartirish zarur.

Suhbat psixologik tashxis uchun juda muhimdir. Shuning uchun bemorni zimdan kuzatib borish lozim. Bemorning nutqiga ham katta e'tibor qaratish kerak, chunki nutqning buzilishi ham juda ko'p (ayniqsa, neyropsixologik) ma'lumotlar beradi. Zaruratga qarab bemorni logopedga yuborish mumkin.

Ba'zi bemorlar (ayniqsa, ruhiy kasallikka chalinganlar) eshikdagi «psixolog» yozuviga ko'zi tushib, huzuringizga tashrif buyurishni xush ko'rishadi. Ularni ko'proq psixolog yordami emas, balki psixologning unga nima deyishi qiziqtiradi. Bunday bemorlarni iloji boricha psixiatrning maxsus yo'llanmasi bilan yoki yaqinlari bilan kelgan taqdirda qabul qilish kerak. Chunki ular psixologni soatlab eshitib o'tirishlari mumkin, biroq qabul tugagandan so'ng berilgan maslahatlarga amal qilishlari dargumon. Ba'zan bemorlarning ruhiy

kasalga chalinganini aniqlash juda qiyin bo'ladi yoki bu psixologik suhbat chog'ida sezilib qoladi. Bunday paytlarda bemorga zarur maslahatlar berib psixiatrغا yuboriladi.

Agar psixiatrda davolanib chiqqan bemor yo'llanma bilan psixolog qabuliga tashrif buyursa (bunday bemorlar, asosan, yaqin qarindoshlari bilan kelishadi), ularning tarixnomasi bilan yaxshilab tanishib chiqish, zaruratga qarab bemorni davolagan psixiatr bilan bog'lanish kerak. Haqiqatan ham ruhiy kasalliklarga chalingan ko'pchilik bemorlar psixiatrlar tavsiyasi bilan kasallikning remissiya davrida psixologga yuboriladi.

Bemorning dunyoqarashini o'rganish, qarindosh-urug'lari, umr yo'ldoshi, ishiga munosabatini ham bemordan so'rash va bu ma'lumotning haqiqatga to'g'ri kelishini uning oila a'zolaridan bilib olish kerak.

Ko'p hollarda bemordagi psixologik buzilishlar ulardagi nevrologik yoki somatik kasalligi sababli emas, balki ish va oiladagi kelishmovchiliklar hisobiga kuzatiladi. Bunday paytlarda umumiy psixologik tekshirishlar o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Ishdagi kelishmovchiliklar, ko'pincha, bemorlarning o'z imkoniyatlarini ortiqcha yoki past baholaganliklari oqibatida kelib chiqadi. Bu esa doimiy stress holatlarini yuzaga keltiradi va psixosomatik kasalliklarning zo'rayishiga ham sabab bo'ladi. Bu erda psixolog bemorning shu kungacha erishgan yutuqlarini uning o'zidan so'rab bilib olishi va unga katta ijobiy baho berishi kerak. Bu bemorda ishi va hayotga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va u o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay boshlaydi. Beriladigan maslahatlar bemorning imkoniyatlari doirasida bo'lishi lozim.

Ba'zan bemor biror surunkali kasallikka chalinib, undan uzoq vaqt natijasiz davolanib yurganidan shikoyat qiladi. Bunday paytlarda bemorning tarixnomasi bilan tanishib chiqiladi va davolash mobaynida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlarga (sezilarli bo'lmasada) bemorning diqqati jalb etiladi. Bu bilan uning sog'ayib ketishiga bo'lgan ishonchi va ixlosi tiklanadi. Shuning uchun ham bemorlar ilohiy joylarni ziyorat qilmoqchi va tabiblarga ham uchramoqchi bo'lsa, bunga aslo to'sqinlik qilmaslik kerak.

Bemor affektiv holatlarga tushganmi, o'ziga yoki birovga hamla qilganmi va bu holatlar qachon bo'lganini aniqlash ham o'ta muhimdir. Uning ichkilik, chekish va giyohvand moddalarga bo'lgan

munosabatini ham aniqlash zarur. Ba'zi bemorlar giyohvand moddalar iste'mol qilishini yashirishga intilishsa, boshqa birlari aynan giyohvandlikdan qutulish uchun ham psixologga murojaat qilishadi. Bunday bemorlarga iloji boricha mutaxassislar ishtirokida yordam qilish rejasini tuzib chiqish kerak. Ularga, ayniqsa, psixologning maslahatlari juda qo'l keladi. Hozirgi kunda giyohvandlikni davolash usullarining aksariyati psixologik ta'sirga asoslangan.

Bemorlarning jinsiy muammolari to'g'risida ham ma'lumot yig'ish zarur. Aytib o'tganimizdek, nevrozlarning kelib chiqishida jinsiy buzilishlarning ahamiyati juda katta. Aniqlangan psixoseksual buzilishlarni, albatta, bartaraf qilish va zaruratga qarab bu ishga psixoseksologlarni jalb etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy-psixologik statusni tekshirish quyidagi masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- 1) bemorning psixologga murojaat qilishining sabablarini aniqlash;
- 2) tibbiy tashxisni aniqlash (mutaxassislar yordamida);
- 3) psixologik tashxisni aniqlash;
- 4) davolash choralarini ishlab chiqish (psixoterapiya, psixofarmakoterapiya va h.k.).

Bemorning psixologik statusini tekshirish sxemasi (*tibbiy-psixologik anketa*)

I. Umumiy ma'lumotlar.

Bemorning ismi, sharifi

Anketa (tarixnoma) ning raqami

Yoshi

Jinsi

Millati

Oilaviy ahvoli

Yashash joyi

Ma'lumoti va kasbi

Mehnatga layoqati

Chapaqay, o'naqay yoki ambidekstr

Klinika (poliklinika) ga murojaat qilgan kuni

Klinika (poliklinika) da qo'yilgan tibbiy tashxis (tashxislar)

Psixologga murojaat qilgan kuni

Asosiy shikoyatlari

Bemorning hayot anamnezi (ilk bolalik davridan boshlab yig'iladi, qanday tarbiyalangan, qanday muhitda o'sgan va h.k.). Bemorning jinsiy hayoti va oilaviy anamnezi

Bemorning tibbiy anamnezi (qanday kasalliklar bilan og'rigan)

Bemorning psixologik anamnezi

Bemorning nasliy anamnezi

II. Yordamchi tekshirishlar va boshqa mutaxassislar xulosalari.

(Bu tekshirishlar zaruratga qarab, psixologik statusni tekshirishdan oldin yoki so'ng o'tkazilishi mumkin)

Laborator tekshirishlar (qon, siydik va likvor), elektro-
enstefalografiya

Psixiatr

Nevropatolog

Patopsixolog

Neyropsixolog

Terapevt

Seksopatolog

Boshqa mutaxassislar

Psixologik testlar xulosasi

III. Bemorning temperamentini.

Suhbat yoki psixologik testlar yordamida bemorning qaysi temperament egasi ekanligi aniqlangach, xulosaga sangvinik, xolerik, flegmatik yoki melankolik, deb yozib qo'yiladi.

IV. Bemorning shaxsi va xulq-atvorini tekshirish xulosalari.

Bemorning yaqinlari yordamida va uning o'zidan ilk bolaligidan boshlab, xulq-atvorining xususiyatlari haqida ma'lumot yig'iladi. Yasli, maktab, o'spirinlik davri, oila qurgandan keyingi hayoti, ishda va jamoada o'zini tutishi har tomonlama so'rab o'rganiladi. Shu maqsadda psixologik testlardan ham foydalaniladi.

Suhbat va testlar yordamida bemorning shaxsi va xulq-atvoriga quyidagicha ta'rif beriladi: mehribon, xudbin, mansabparast, toshyurak, kamtar, kalondimog', xotirjam, intravert, ekstravert va hokazo.

V. Hissiyotni tekshirish xulosalari.

Suhbat chog'ida bemorning mimikasi, o'zini tutishi, psixolog va atrofdagilarga bo'lgan munosabatiga e'tibor qaratiladi hamda bemorning his-tuyg'ulari va kayfiyatiga quyidagicha ta'rif beriladi:

hayajonlangan, g'azablangan, xavotirda, kayfi chog', tushkunlikka tushgan, vahima bosgan.

Bemorning holati aniqlangach, bu haqda (eyforiya, disforiya, depressiya, affekt va emostional ambivalent) xulosalar beriladi. Xulosani yanada oydinlashtirish uchun psixologik testlardan foydalanish mumkin.

VI. Sezgi va idrokni tekshirish xulosalari.

Sezgi buzilishlarini tekshirayotganda, uning organik (nevrologik) va isterik tusda ekanligi aniqlanadi. Ikkala holda ham sezgining quyidagi buzilishlari farq qilinadi: monoanesteziya, gemianesteziya, giperesteziya, dizesteziya, senestopatiyalar, kauzalgiya, og'riqlar (bosh, tana va ichki a'zolar sohasida).

Idrok tekshirilganda, quyidagi patologik holatlarga e'tibor qaratiladi: illyuziyalar (xom xayollar), gallyustinastiyalar, anozognoziya, derealizastiya, depersonalizastiya.

VII. Iroda va maylni tekshirish xulosalari.

Irodani tekshirayotganda, mustahkam irodali, matonatli, maqsadga intiluvchan, ikkilanuvchan, mustaqil, jur'atsiz deb belgilanadi. Shuningdek, iroda va mayl buzilishlariga ta'rif berishda quyidagi atamalardan ham foydalaniladi: abuliya, gipobuliya, giperbuliya, dipsomaniya, dromomaniya, kleptomaniya, mazoxizm, sadizm, anoreksiya, polifagiya, polidipsiya, gomoseksualizm, suistidal mayllar.

VIII. Nutqni tekshirish xulosalari.

Bemorning nutqi to'g'risidagi ma'lumotlar suhbat chog'ida yoki maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi. Nutqni oddiy va murakkab so'zlarni takrorlatib turib ham tekshirish mumkin. Nutq buzilishlarini neyropsixologik testlar yordamida ham aniqlash mumkin. Agar bemorda nutqning murakkab buzilishlari kuzatilsa, ularni davolash uchun neyropsixolog yoki logoped yordami kerak bo'ladi. Nutqning quyidagi buzilishlari farqlanadi: afaziyalar (afferent motor, efferent motor, sensor, amnestik, semantik, dinamik), soqovlik, duduqlanish, dizartriya, dislaliya.

IX. Diqqat va xotirani tekshirish xulosalari.

Diqqatning ba'zi xususiyatlari suhbat chog'ida ham aniqlab olinadi. Diqqatning saqlangan yoki buzilganligi ko'rsatiladi. Amaliyotda parishonxotir atamasi ko'p ishlatiladi. Shuningdek, diqqatni tekshiruvchi testlar (Krepelin, korrektura sinovi va shu kabilar) dan foydalanish mumkin.

Bemorning diqqati tekshirib bo'lingandan so'ng yoki u bilan parallel holda kundalik va bo'lib o'tgan voqealarga bo'lgan xotirasi ham tekshiriladi. Masalan, ma'nosiz (gul, qarg'a, oyna) so'zlardan iborat qisqa qator, qisqa va uzun jumlar hamda matallarni yod olish va qayta esga tushirish kabi. Xuddi shu uslubda ko'rish (turli fotosuratlar ko'rsatib, birozdan so'ng qay darajada yodida qolgani sinab ko'riladi) va harakat xotirasi tekshiriladi (bemor qo'li bi- lan turli harakatlarni amalga oshiradi va ularni birozdan so'ng takrorlash so'raladi). Shu maqsadda Ebbingauz va Luriya tomonidan ishlab chiqilgan turli psixologik testlardan ham foydalanish mumkin.

Xotiraning boshqa buzilishlari (retrograd, anterograd, anteroretrograd, konfabulyastiya, psevdoreminisstenziya) ham tekshiriladi.

X. Tafakkurni tekshirish xulosalari.

Tafakkurni tekshirayotganda uning izchilligi va tezligiga e'tibor qaratiladi. Fikrlash darajasi yoshiga mos keladi, debillik, imbestillik, idiotiya, demenstiya deb xulosa yoziladi. Bu buzilishlarni aniqlash uchun hikoyalarning mazmuni, kichik matematik masalalar, tugallanmagan jumlar, maqollar ma'nosi va tafakkur darajasini ifodalovchi psixologik testlar (Koos kubikchalari, Bine-Simon, Veksler testlari, tafakkur koeffitsientini (IQ) aniqlash) dan foydalaniladi.

XI. Ongni tekshirish xulosalari

Ong buzilishining shartli ravishda nopsixotik va psixotik turlari ajratiladi: birinchisiga obnubulyastiya, somnolenstiya, sopor va koma, ikkinchisiga esa deliriya, trans, amenstiya, somnambuliya, ambulator avtomatizmlar, oneyroid kiradi. Shuningdek, bemorning ong darajasiga ta'rif berayotganda, uning es-hushi joyidaligi, vaqt, joy va vaziyatni adashtirmasligi va atrofdagi voqealarni aniq-ravshan anglashiga e'tibor beriladi.

Olingan ma'lumotlar psixologik testlar, laboratoriya natijalari va boshqa mutaxassislar xulosalari bilan solishtirilgach, bemorga *tibbiy-psixologik tashxis* qo'yiladi. Masalan, bemorda psixosomatik buzilishlar aniqlansa, tashxisni quyidagicha ifodalash mumkin: «Psixosomatik sindrom: psixogen kardialgiya».

So'ngra davolash choralari belgilanib, prognoz aniqlanadi va alohida psixoreabilitastiya rejasi ishlab chiqiladi.

Psixoterapiya - qalb va ruhni davolash degan ma'noni anglatadi. Tibbiyot paydo bo'libdiki, psixoterapiya qo'llanib kelingan.

Psixoterapiya usullari asli Sharqda keng tarqalgan bo'lib, bemorlarni davolashda ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lgan.

Abu Ali Ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, Ismoil Jurjoniy, al-Karvakiy Xazoraspiy kabi buyuk allomalar o'zlarining davolash usullarida giyohlardan tashqari psixoterapiya usullarini ham qo'llashgan. Asab va ruhiy xastaliklar bilan yotib qolgan bemorlar ularning tashrifi va so'zlaridan tuzalib, oyoqqa turib ketganlar. So'z buyuk kuchdir. Psixoterapiyaning asosiy maqsadi ham so'zni topib ishlata bilishdadir. So'zni bemorlarni davolashda ishlata olish ham bir san'atdir. So'z inson uchun berilgan oliy ne'matdir, bundan bemorlarni davolashda o'ta bilimdonlik bilan foydalanish kerak. Ozgina ehtiyotsizlik salbiy natija berib qo'yishi mumkin.

Psixoterapiya usuli Evropada XVII asrda venalik vrach va olim Mesmer tomonidan keng qo'llanib boshlangan. Tibbiyotda bemorlarni davolashda gipnoz usuli XVIII-XIX asrlarda J. Sharko, J. Bred, Z. Freyd, V.M. Bexterevlar tomonidan keng qo'llanilgan. Nevrologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan franstiyalik olim J. Sharko psixoterapiya usulidan asab kasalliklarini davolashda keng foydalangan. Har bir nevropatolog J. Sharkoni bir qancha irsiy-degenerativ kasalliklarni bayon qilgan olim sifatida yaxshi biladi. U Evropada shu qadar mashhur bo'lganidan «nevrozlar Napoleoni» deb laqab qo'yishgan. Undan ta'lim olish uchun yosh olimlar (shu jumladan, Z. Freyd ham) Parijga intilishgan.

Psixoterapiya jarayoni bemor va vrach psixologiyasining asosiy ob'ektidir. Psixoterapiya o'tkazayotgan paytda bemorning ruhiy holati, temperamenti, kasallikni keltirib chiqargan sabablar va organizmning umumiy ahvoriga, albatta, e'tibor qaratish lozim.

Vrach katta bilimdonlik bilan bemorning ko'nglini og'ritmasdan, kasallik sabablarini aniqlab olishi zarur. Bemor kasallik bilan bog'liq barcha sirini vrachga aytib bera olishi kerak. Psixoterapiya usuli har bir bemor uchun individual tarzda ishlab chiqilmog'i lozim. Bemorning shaxsini to'la o'rganish psixoterapiyada muvaffaqiyat qozonishning garovidir. Bemor ruhiga ijobiy ta'sir qilish tashxis qo'yish jarayonidan boshlanadi. Davolashning muvaffaqiyatli bo'lishi vrachning obro'-e'tiborini oshiradi. Psixoterapiyada ishonch va ixlos bilan qarash ham samarali natijaga erishishda muhim rol o'ynaydi. Psixoterapevtik muolajalar bemorning ahvoriga qarab, kasallik anamnezini chuqur o'rgangan holda uzoq yoki qisqa vaqt davom ettirilishi mumkin. Davolash muolajalarining cho'zilib ketishi, bir xil bo'lib qolishi yoki

«Sizni uzoq vaqt davolashga to'g'ri keladi», qabilidagi gaplar ijobiy natijalarni yo'qqa chiqarishi mumkin.

Bu erda Z. Freydning hanuzgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan so'zlarini keltiramiz: «Natijasi qanday tugashidan qat'i nazar, davolash jarayoni oldindan belgilangan vaqtda tugatilishi kerak». Demak, davolash muddati oldindan belgilanishi va buni bemor bilishi zarur.

Bemorni davolashda gipnoz, uqtirish, tushuntirish va ishontirish usullarini qo'llash zarur. Chunki shunday holatlar bo'ladi, bemor vrachning yaxshi mutaxassisligiga ishonadi, lekin o'zining sog'ayib ketishiga ishonmaydi, kasalini tuzalmas, og'ir, deb miyasiga singdiradi. Bu, ayniqsa, nevrozlar uchun juda xosdir. Dard sababli bemor o'z ishi, bola-chaqasi, rafiqasi, qarindosh-urug'i va tinimsiz davom etayotgan davolash usullaridan bezgan bo'ladi. Bunday paytlarda, neyrofiziologlar ta'biri bilan aytganda, bosh miya katta yarim sharlarining po'stlog'ida inert qo'zg'alish paydo bo'ladi. Bu o'choqni «parchalab» yuborishgina bemorni kasallik belgilaridan xalos qilishi mumkin.

Psixoterapiya bir necha bemorni to'plagan holda ham olib boriladi. V.M. Bexterev bemorlarni to'plab, gipnoz o'tkazishning ahamiyati to'g'risida shunday degan edi: «Ko'pchilik bilan seans o'tkazish paytida bemorlar gipnozni bir-biriga yuqtirishadi va uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Bemorni gipnoz usuli bilan davolamoqchi bo'lgan vrach bemor shikoyatlarini aytayotganda nimalarni ko'p takrorlayotganiga ahamiyat berishi va bundan foydalanishi kerak». Gipnoterapiya paytida «bo'rtib» turgan belgilarga e'tibor berish lozim. Gipnoz o'tkazayotgan vrach bemorga *silash, ko'z va so'z* orqali ta'sir qilsa, miya po'stlog'ida joylashgan uchta markaz (sezgi, ko'ruv va eshituv)ni tormozlash imkoniga ega bo'ladi. Bu tormozlanish po'stlog'ning barcha sohalariga tarqaladi va bemor gipnotik uyquga ketadi.

Psixoterapevtik tajribasi bo'lmagan vrach bemorni davolashda qiynaladi, ayniqsa, nevroz bilan kasallangan bemorda psixosomatik belgilar kuzatilsa, tashxis qo'yish ham ancha mushkullashadi. Bu erda nevropatologlar ham, terapevtlar ham bir xil muammoga duch kelishadi. Masalan, bemorga uning shikoyatlariga qarab (maxsus tekshirishlar o'tkazilmasdan), «oshqozon yarasi» tashxisi qo'yiladi. U bu kasallik bilan 10 yildan buyon og'riydi. Qorindagi og'riqlar siqilganda kuchayib, tinchlanganda kamaysa, ovqat rejimiga bog'liq bo'lmasa, tashxisning to'g'riligi, albatta, gumon uyg'otadi. Kuchli

og'riq bilan kechib, 10 yillab davom etadigan «oshqozon yarasi» biron-bir asorat berishi gastroenterolog va jarrohlarga ayon, albatta. Demak, bu o'rinda bemorni maxsus tekshirishlardan o'tkazib, «oshqozon yarasi» tashxisini inkor qilgandan so'ng vrach uni psixologik usullardan foydalangan holda davolashi lozim. Bu ish bilan faqat nevropatolog yoki neyropsixolog shug'ullanishi shart emas, albatta.

O'zining sohasiga taalluqli kasali bo'lmagan bemorni «Sizda nevroz bor, endi nevropatologda davolaning», deb doktordan-doktorga yuboraverish yomon natijalarga olib kelishi mumkin. Qolaversa, nevrozga chalingan bemorga barcha mutaxassislikdagi vrachlar dastlabki yordamni ko'rsata olishlari kerak. Iloji boricha, bemorni davolaydigan vrachlar soni kam bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu haqda mashhur vrach X.F. Gufelyand (1762-1836) shunday degan edi: «Bitta vrach davolasa yaxshi, ikkitasiga ham chidasa bo'ladi, lekin uchtasi - bu dahshat!» Bu bilan bemorni davolovchi vrachlar hadeb ko'payaversa, bemorning tuzalishi qiyinlashadi, demoqchi. Doktorlarni maslahatga chaqirish mumkin, lekin davolovchi vrach bitta bo'lmog'i kerak.

Psixoterapevtik muolajalar farmakoterapiya, fizioterapiya va davolash gimnastikalari bilan olib borilsa, natijasi yanada samaraliroq bo'ladi. Bu borada kasallik anamnezini yig'ishga ham katta e'tibor qaratish lozim. «To'la yig'ilgan anamnez - yarim davo», deb bejiz aytishmagan. Ba'zan bemor shifoxonada necha kun yotsa, shuncha kun anamnez yig'ish bilan o'tadi, natijada tashxis ham, davolash ham hadeb o'zgartirilaveradi. Bu, albatta, bemorning asabiga tegadi. Davolovchi vrach to'plagan anamnez dostentni, u yiqqan anamnez professorni qoniqtirmaydi va hokazo. Anamnez yig'ish boshqa, uni tahlil qilish boshqadir. Masalan, bemor o'zi kuyib-pishib gapirayotgan belgi tashxis uchun ahamiyatsiz bo'lib, kasalning jig'iga tegayotgan bir simptom bo'lishi mumkin, xolos. Vrach tashxis qo'yayotganda, ba'zan sub'ektiv simptomlarning quli bo'lib qoladi. Bunday simptomlar tunda butalar orasidagi sharpaga o'xshaydi. Sharpa eshitiladi, odam qo'rqadi, qochadi yoki bekinib oladi. Aslida, sharpa esib turgan begunoh shamoldir. Kasallikning ob'ektiv belgilariga katta ahamiyat berish lozim. Har bir sub'ektiv va ob'ektiv belgi tanqidiy tahlil qilinishi kerak, ana shunda xatoga yo'l qo'yilmaydi.

Yatrogeniyalar ham aynan mana shu sabablar natijasida paydo bo'ladi. **Yatrogeniya** deb, vrach yoki boshqa tibbiyot xodimining bexosdan aytib qo'ygan so'zi yoki tibbiy muolajalardan bemorda avval

mavjud bo'lmagan kasallik alomatlarining paydo bo'lishiga aytiladi. Buning oqibatida yatropatiyalar rivojlanadi. Masalan, ukoldan so'ng bemorning qo'li yoki oyog'i «ishlamay» qolishi, noto'g'ri tibbiy xulosalardan so'ng organik xususiyatga ega bo'lmagan kasalliklardan davolanib yurish va h.k. Yatropatiyalarga misollar avvalgi boblarda keltirilgan.

Ba'zan vrach tomonidan olib borilayotgan to'g'ri davolash muolajalari ta'siri bemorning yaqinlarini qoniqtirmasligi yoki surunkali kasallikdan aziyat chekayotgan bemor doktordan ko'ra boshqalarga ishonishi ham mumkin. Shunday hollar bo'ladiki, tajribali, obro'li doktor tavsiya qilgan dorini, deylik, tramvay haydovchisi: «E, bu dori bo'lmaydi, mening ammam ichgan edilar, ta'sir qilmadi», desa bemor uni sotib olmay, doktorning oldiga boshqa dori yozib berishlarini so'rab qaytib keladi. Bemorni davolayotgan paytda vrach bu vaziyatlarni ham ko'zda tutishi, bemorning yaqinlari, tanish-bilishlari bilan ham muloqotda bo'lib turishi kerak.

Bemorda psixoterapevtik muolajalar o'tkazayotgan paytda o'z-o'zini boshqarish hissini uyg'ota bilish kerak. Undagi ish onchsizlikni ishonch va ixlos tuyg'ulari bilan, yolg'izlikka intilishni jamoaga intilish hissi bilan o'zgartirish vrachning burchidir. Bu muammolarni hal qilmay turib, psixoterapevtik natija olish ancha mushkuldir. Psixoterapevtik usullar psixotrop dorilarni qo'llab olib borilsa, davolash yanada muvaffaqiyatli kechadi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Psixologik muammolar qanday namoyon bo'ladi?
2. Konsultativ vazifalarni ayting.
3. Psixologik talab haqida tushuncha bering.
4. Muammoli vaziyat va pastientning shikoyatlari tahlili haqida gapiring.
5. Ilk bolalik davri konsultastiyasiga xos talablar haqida gapiring.
6. Kichik maktab yoshi konsultastiyasiga qo'yiladigan talablarni ayting.
7. O'smirlik davri konsultastiyasi talablari nimalardan iborat?
8. Talabalarga psixologik xizmat ko'rsatishga oid talablar haqida gapiring.
9. Identifikastiya deb nimaga aytiladi?
10. Ilk o'spirinlik yoshi necha yosh?

III BOB. KONSULTATIV YORDAM TAMOYILLARI VA KONSULTASTIYA BOSQICHLARI

3.1. Konsultativ yordam tamoyillari. (Sababiyat tamoyili. “Konsultativ alyans”. “Muammoli diagnostika”. Samaradorlik sharti. Psixologik vositachilik. Nomunipulyativ yondashuv. Baholamay qabul qilish tamoyili. Professionalizm tamoyili. Pastientni o’z o’ziga yo’naltirish. Konsultastiya jarayonini qayd qilish. Psixologik xulosa shakllari)

3.2. Konsultastiyani o’tkazish bosqichlari va strukturasi. (Pastient bilan tanishish va suhbatni boshlash. Qayta so’rash. Konsultativ taxmini tekshirish va ifodalash. Korrekstion ta’sir. Suhbatni tugatish).

Tayanch tushuncha va iboralar

Konsultativ yordam tamoyillari: Sababiyat tamoyili. “Konsultativ alyans”. “Muammoli diagnostika”. Samaradorlik sharti. Psixologik vositachilik. Nomunipulyativ yondashuv. Baholamay qabul qilish tamoyili. Professionalizm tamoyili. Pastientni o’z o’ziga yo’naltirish. Konsultastiya jarayonini qayd qilish. Psixologik xulosa shakllari va hokazolar...

3.1. Konsultativ yordam tamoyillari.

(Sababiyat tamoyili. “Konsultativ alyans”. “Muammoli diagnostika”. Samaradorlik sharti. Psixologik vositachilik. Nomunipulyativ yondashuv. Baholamay qabul qilish tamoyili. Professionalizm tamoyili. Pastientni o’z o’ziga yo’naltirish. Konsultastiya jarayonini qayd qilish. Psixologik xulosa shakllari)

Konsultatsiya jarayonining bosqichlarini hisobga olgan holda, biz konsultatsiyachilar tomonidan qo'llaniladigan eng keng tarqalgan texnikaga biroz tegdik. Keyinchalik, konsultatsiya texnikasi va texnikasi haqida gapirganda, biz "1" psixologik konsultatsiyalashuvning oraliq va yakuniy maqsadlariga erishishga qaratilgan konsultantdan olingan reaksiyalar" va "reaksiyalar" ni yodda tutamiz. Konsultatsiyachilar ularni mijozning so'rovining tabiatidan, muhokama qilingan muammoli maydonning kontekstlaridan, mijozning yoshi va individual xususiyatlaridan, u bilan rivojlanayotgan munosabatlardan va boshqalar asosida o'zlarining nazariy yo'nalishlariga asoslangan holda foydalanadilar. Konsultatsiya uchun eng muhim shartlardan biri

psixolog va uning mijozi o'rtasida terapevtik (konsultatsiya) ittifoq (ittifoq, bitim, ish shartnomasi) qurilishi, shuning uchun konsultatsiya usullarini muhokama qilish mantiqan boshlanadi.

Sababiyat tamoyili- bu tamoyilda konsultant mijozni barcha holatlarini fikrlarini o'rganib chiqib faktlar asosida keyingi qadamlarini sababi oqibati haqida fikr yuritadi. Mijozga hozirgi harakati nimalarga olib kelishi haqidagi farazlarni tushuntiradi. Yuqoridan pastga va yuqoriga intilish umid orzularni ko'rsatib beradi lekin qaror chiqarishni mijozga qo'yib beradi.

- kelgusi uchrashuvlar va mazmunli odamlar bilan suhbatlarni kutib olishda qo'rquv hissi yoki tashvish hissi ortdi.

O'zini tomosha qilayotgan mijoz yoki maslahatchi psixolog mijozning xulq-atvori yo'qorida sanab o'tilgan belgilarning bir yoki bir nechtasining namoyon bo'lishiga asoslangan komplekslarning mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarishi mumkin. Bunday belgilar qanchalik ko'p bo'lsa, mijoz qanchalik murakkab bo'lsa va undan ko'p turli xil komplekslarga ega bo'lishi mumkin. Komplekslarni bartaraf etish bo'yicha psixologik maslahat ishida keyingi qadam, qaysi komplekslar aniqlangan belgilarni, qaerda, qachon va qanday namoyon bo'lishini aniqlashdir. Bu mijozlar uchun mavjud komplekslarning tabiatini aniqlash, ularni ma'lum toifalardan biriga bog'lash imkonini beradi (ularning har biri mijozga deyarli o'z tavsiyalarini o'z ichiga oladi).

Komplekslar quyidagi turlarda bo'lishi mumkin.

Haqida xor kompleksi:

- insonning tashqi, jismoniy kamchiliklari, shu jumladan uning shakli, yuzi, qo'llari, tananing boshqa qismlarining kamchiliklari;

- ichki, psixologik kamchiliklar, jumladan, aql, nutq, xotira, e'tibor, bilim, qobiliyat, qobiliyat, ko'nikma, xarakter xususiyatlari.

Quyidagi sohalardan birida ustunlik kompleksi (mo " tadil megalomaniya deb ataladi) :

– ma'lum bir, eng yaxshi, millat yoki "yaxshiroq" jinsga (masalan, intellektual, olijanob, qirol va boshqa kelib chiqishi)milliy-umumiy mansub;

– muayyan, go'yoki eng yo'qori irq (masalan, oq);

– boshqa ijtimoiy guruhlardan (masalan, bankirlar, ishbilarmonlar, siyosatchilar va h. k.) ustun bo'lgan pozitsiyasiga ko'ra ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishli.;

- maxsus, go'yoki yo'qori, fazilatlar, madaniyatga ega bo'lish, qobiliyat, bilim. Dushmanlik majmuasi. Bu o'zini namoyon qiladi:

- kuchga ega bo'lgan va unga egalik qilish unga boshqa odamlarga hukmronlik qilish huquqini berishiga ishonch hosil qilishi mumkin bo'lgan odamning tajovuzkorligining ortishi;

– insonning ishonchi shundaki, barcha odamlar tabiatan bir-biriga dushman bo'lib, hiyla-nayrang va g'azablanishadi, shuning uchun tajovuzkorlik bir kishining boshqasini aldashga majburan javobidir.

Aybdorlik majmuasi. U kuchli rivojlangan vijdon va mas'uliyat tuyg'usi bo'lgan kishi doimo o'zi uchun, uning harakatlari va boshqa odamlarning shunga o'xshash xatti-harakatlari uchun va to'g'ri sabablarsiz tashvishlantiradi. U tez-tez unga va uning atrofida, shuningdek, boshqa odamlar bilan sodir bo'layotgan narsalar uchun shaxsan aybdor deb hisoblaydi, garchi u aslida bunday bo'lmasa ham.

Himoya kompleksi. U insonning ishonchida namoyon bo'ladi, uning atrofidagi barcha odamlar unga qarshi turishadi va unga yomonlik qilishadi. Shu munosabat bilan, inson o'zini odamlardan himoya qilishga doimo tayyor, garchi bunga ehtiyoj yo'q. Taklif etilgan tasnifga muvofiq, qaysi komplekslar aslida psixologiyada va mijozning xatti-harakatlarida namoyon bo'lishini aniqlab, maslahatchi unga tegishli komplekslardan qutulish bo'yicha aniq tavsiyalar berishi mumkin. Ushbu tavsiyalarni ko'rib chiqing. Uning jismoniy kamchiliklari haqida paydo bo'lgan insonning kamsitilish majmuasi butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, chunki kamchiliklarni tuzatish har doim ham imkoni yo'q. Shu bilan birga, har qanday kishi unga nisbatan munosabat va odamlar orasida mashhurligi uning tashqi qiyofasi bilan belgilanmasligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Yillar mobaynida bu omil bolalik va

o'smirlik davridan ko'ra kamroq ahamiyatga ega. Bundan tashqari, insonning tashqi ko'rinishi maxsus jismoniy mashqlar, kiyim-kechak, kosmetika va boshqalar tufayli sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Xuddi shu narsa tashqi xatti-harakatlar, ifodali-ifodali harakatlar, ovoz berish va boshqalarni o'qitish va ishlab chiqish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Psixolog-konsultantni bilish va mijozga yordam berish uchun tegishli sohalardan kerakli ma'lumotlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Kamchilik kompleksi insonlarda yangi, to'liq ruhiy fazilatlarni ishlab chiqish orqali bartaraf etiladi, bu esa tegishli kompleks uchun yaxshi kompensatsiya hisoblanadi. Bu fazilatlar mijozga etishmayotgan fazilatlarga etarlicha yaxshi muvozanat bo'lishi muhimdir. Bundan tashqari, mijozni o'zining kamchiliklari deb hisoblaydigan shaxsning fazilatlaridan xalos etishga qaratilgan faol parallel ishni bajarish tavsiya etiladi. Ulardan ba'zilari, masalan, salbiy ijtimoiy munosabatlar, biror narsani bilmaslik, qobiliyatsizlik kabi, nisbatan osonlik bilan bartaraf etilishi mumkin. Boshqalar-qobiliyat, xarakter xususiyatlari, ildiz odati va boshqalar kabi kamchiliklar katta qiyinchilik bilan bartaraf etiladi. Biroq, har ikkala holatda ham mijozning jiddiy ishi talab qilinadi.

Shu munosabat bilan psixolog-konsultantning vazifalari quyidagicha:

- mijoz bilan qanday aniq kamchiliklar mavjudligini aniqlang;
- ushbu kamchiliklarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish rejasini tuzish;
- mijozga tegishli amaliy tavsiyalarni taklif qilish.

Mijozdan ustunlik majmuasini bartaraf etish bo'yicha ishlar biroz boshqacha bo'lishi kerak. Avvalo, mijoz, albatta, tegishli kompleksga ega ekanligini isbotlashi kerak. Aytgancha, bu har doim ham oson emas. Lekin boshida maslahatchi mijozdan bunday kompleks mavjudligini aniq belgilashi kerak.

Uning mavjudligi, xususan, quyidagi belgilar bilan baholanishi mumkin:

- mijozning xulq-atvorining kuzatilgan uslubiga ko'ra: bunday kompleksga ega bo'lgan kishi odatda mag'rur bo'lib qoladi, o'zi va boshqa odamlar o'rtasida jismoniy va psixologik masofani saqlab qolishga harakat qiladi;
- kuzatilgan suhbat tarzida: ustunlik majmuasiga ega bo'lgan mijoz, odatda, nasidatelnay, axloqiy ohangda maslahatchi psixolog bilan

gaplashadi, ko'pincha oxirigacha tinglamasdan to'xtaydi, deyarli har bir kishi noto'g'ri tarzda gapiradi, hamma narsani oldindan biladi va hamma narsa juda yaxshi yoki yaxshi tushunadi, maslahatchi psixolog kabi. U odatda psixolog-konsultantga nisbatan xushmuomalalik bilan qaraydi, e'tirozlarga toqat qilmaydi va maslahatchiga unga yordam bera olmasligini aytadi. Bunday mijozga, albatta, u mukammallikka ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun va bu kompleksdan qutulish kerakligini, mijozning ruxsatini muloyimlik bilan so'rab, masalan, psixolog - maslahatchi bilan suhbatini audio yoki video yozib olishingiz mumkin. Bundan tashqari, ba'zan mijozga o'z ovozi tinglash yoki o'zi bilan videoyozuvda ko'rish imkoniyatini berish kifoya, shuning uchun u odamlar bilan muloqot qilish tarzida haqiqatan ham noto'g'ri narsa ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Faqat bu holda u mijoz o'zi, birinchi navbatda, ikkinchidan, u qutilish uchun rozi, bunday majmua mavjudligini tan qachon ustunlik kompleksi, uni xalos qilish uchun mijozga har qanday amaliy tavsiyalar taklif qilish mantiqiy.

Mijoz milliy-etnik yoki umumiy asosda yoki ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liq bo'lgan ustunlik majmuasini yo'q qilish jarayonida muayyan o'ziga xoslik mavjud. Ushbu xususiyatni muhokama qilamiz. Milliy-umumiy asosga ega bo'lgan mukammallik majmuasi juda kuchli va afsuski, ko'pincha inson tug'ilgan va yashaydigan ijtimoiy muhit tomonidan faol qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu kompleksni faqat uzoq vaqt davomida tegishli shaxs boshqa ijtimoiy-madaniy muhitda bo'lishi sharti bilan yo'q qilish mumkin, uning urf-odatlar va an'analari avvalgi yashash muhitiga xos bo'lganlardan sezilarli darajada farq qiladi. Natijada, u muqarrar ravishda yangi madaniyatni qabul qilishi, bu madaniyatning u o'sib chiqqanidan kam emasligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, bu kishi aslida madaniyat, urf-odatlar, urf-odatlar, turli millat vakillari, etnik guruhlar, tug'ilish va hokazolarning shaxsiy qadr-qimmati.

Inson tomonidan yangi, boy va turli xil hayot tajribasiga ega bo'lish orqali ijtimoiy – madaniy xarakterdagi ustunlik majmuasi yo'q bo'lib ketadi-bu odamni har qanday ijtimoiy guruhda (diniy, iqtisodiy, siyosiy va hokazo) ijobiy va salbiy deb hisoblaydi. Bu bir ijtimoiy guruhni boshqa ijtimoiy guruhdan ustun qo'yishga imkon bermaydi. Dushmanlik majmuasidan qanday qutulish mumkin? Aksariyat hollarda dushmanlik yoki tajovuzkorlik inson tomonidan qo'lga kiritilgan sifatdir, bu uning muvaffaqiyatli hayot tajribasi natijasidir. Istisno faqat agressivlik

organik asosga ega bo'lgan va inson miyasining patologik faoliyati, xususan, "agressivlik markazi" bilan bog'liq bo'lgan holatlardir. Agressivlik muayyan ichki va tashqi stimullar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, bu esa insonning tajovuzkor xatti-harakatining paydo bo'lishiga va namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Agressivlikning ichki ogohlantirishlari quyidagilardan iborat:

- insonning ishonchi shundaki, istisnosiz barcha odamlar bir-biriga dushmanlik qiladilar;

- yaxshilik insonning ijobiy sifati sifatida mavjud emasligi, insonning xulq-atvorining tegishli shakli aslida kuchli shaxs bo'lish va boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilish imkoniyatidan boshqa hech narsa emas;

- odamlarga nisbatan faqat dushmanlik yoki tajovuzkor harakatlar kerakli natijaga erishishi mumkinligiga ishonish;

- insonning ishonchi shundaki, uning atrofidagi barcha odamlar unga dushmanlik bilan munosabatda bo'lishadi va faqat unga muammo tug'dirishi uchun sababni kutishadi.

5.2. Dialog vaqtida konsultant nutqi chegaranlanganligi. Faol tinglash. Yashirin fikr va hislarni aniqlash. Psixolog maslahat berish jarayonida muammoni faqat muloxazaga asoslanib taxlil qilish bilan chegaralanmasligi kerak.

Bolaning yaqinlaridan, uning uchun qo'rqish, xavotirlanish xissini yo'qotish va bir vaqtdan bola extiyojlariga sezgirlikni kuchaytirish, uning qiyinchiliklarini chuqur tushuntirish psixologning asosiy vazifasi xisoblanadi. Psixolog ota-onalarda xavotirlanish, aybdorlik, ruxiy siqilish xislari mavjudligini sezgirlik bilan payqashi va bu xissiyotlarni ifodalashga ularga imkon berish lozim.

Aybdorlik xissini yo'qotishga qiyinchiliklarni taxlil qilish yuli bilan yordam berish eng yaxshi yul xisoblanadi. Kasallikning vujudga kelishidan aybdor bo'lmasalarda, kasal bolalarning ota-onalaridan yashirin aybdorlik xissi vujudligini nazarda tutish kerak. Iliq, ochiqchasiga suxbatlasha olmaydigan psixoterapevtlarga emas, maslahatchi-psixologlar xam bemorlarning holatini yomonlashtirishi mumkin. (Bu faqat bolalarga emas, ularga g'amxo'rlik qiluvchi kattalarga xam tegishli), xar qanday psixoterapevtik suxbat xam, maslahatchining ota-onalari bilan suxbat xam bola shaxsini, uning

muammolarini xar tomonlama, chuqur va to'g'ri tushunishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu bilan bog'liq ravishda ota-onalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalar bildiriladi: bolani tekshirish chog'ida olingan aniq natijalarni chuqur muxokama qilish- bu ko'pincha maslahatchi xulosalariga katta ishonch tug'diradi; ota-onalar aniq, tushunarli tilda yozilgan psixologik xulosani qo'llariga olishlari kerak, yoki xulosa va tavsiyalarni o'zlari yozib olishlari mumkin, chunki bu maslahat natijalarini o'ylashga, xulosalardan kelib chiqib, aniq choralar izlashga, ularning to'g'riligini bolaning keyingi xulq-atvorida tekshirishga imkon beradi.

Ota-onalar guruhlarida bilan olib boriladigan psixologik konsultastiya va psixokorreksiya ishlar

Ota-onalar bilan ish olib borishning individual shakllari bilan birga guruhiy shakli ota-ona guruhlariga xabarlik qilish xam foydali xisoblanadi. Bolaning ota-onasi shaxslararo muloqotda qiynalishini tan olganlari holda, ular bunday guruhlar tarkibiga kiritilishi tavsiya etiladi.

Ota-onalar guruhlariga xabarlik qilish, bola taraqqiyotining asosiy dalillarini, ularga mos ravishda munosabatlarning o'zgarishni ota-onalar tushunmaganliklarida ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ota-onalar guruhlariga xabarlik qilish xususiy muammolar, bo'yicha maslahat berish shaklida va maxsus ota-onalar treninglari shaklida amalga oshirish mumkin. Zaruriyat tug'ilganda, ota-onalar o'zlarining psixologik muammolarini xal qilishi uchun psixoterapevtik guruhlardagi mashg'ulotlarga tavsiya etish mumkin, bunday mashg'ulotlar ommaviy maslahat berish doirasida keng tarqalgan. Aloxida masalalar bo'yicha maslahat berish guruh azolari uchun, umumiy bo'lgan, munozarali muxokama qilish asosida ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ota-onalar treninglari bola xulq-atvoridagi yashirin ma'noni tushunish asosida ularning xisoyoti va kechinmalariga ota-onalarning sezgirligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi yomon munosabatlarning sababi bolalikda o'zlashtirgan tarbiyaning xato illatlari (stereotiplari) bo'lishi mumkin.

Ota-onalar guruhlarida mashg'ulotlar utkazish xar xil turda bo'lsa, bu ishni tashkil etishning qator umumiy qoidalarini ko'rsatish

mumkin. Amerikalik olim, S.Slavson 3 asosiy qismni o'z ichiga oladigan guruhning dastlabki qoidasini kiritadi:

1) munozara predmeti- bolalar va ular bilan ota-onalarning o'zaro xarakteristik usullari;

2) guruhning xamma a'zolari munozarada erkin ishtirok etish xuquqiga egadir;

3) munozarani olib boruvchi guruhning xamma a'zolari tomonidan majburiy qabul qilinadigan yagona obro'li kishi emas.

Yuqorida sanab utilgan qoidalarga asoslanib, mijoz-markazlashgan da'volash prinsipi asosida to'zilgan ota-onalarga maslahat berish, bola muammosida markazlashgan prinsipidan o'zoklashadi. Maslahat berish jarayonining markazi faqat bolagagina qaratilmasdan, balki bola muammosidan, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabat muammosiga, ota-onalar muammolariga o'zgarib turadi, shu bilan birga ota-onalarning o'zlarini da'volashni amalga oshiradi. Maslahatchi bola xulq-atvorining xususiyatlarini ota-onalarga ochib beradi va muammoni xal qilishning ikki qarama-qarshi usulini bayon qiladi. U yoki bu usulni tanlash ota-onalar xukmiga xavola qilinadi.

Maslahatchining, ota-onalar guruhlari olib boruvchisining asosiy urni shundan, iboratki, muammoni kuyish, munozaratni rivojlantirish va uni xal qilish uchun guruh a'zolari izidan xamma narsani oynaga uxshab aks ettirishi, takrorlashi va tanlab berishi zarur. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, maslahatchining roli, qo'yilgan muammoli vaziyatlarni xal qilish jarayonida ota-onalarni to'g'ri yo'lga solishni tashkil etishdan iborat. Ota-onalarda bola tarbiyasi bo'yicha chuqur bilimga egalikni shakllantirishning psixologik sharoiti bo'lib, bolalar aloqalarini tushunish va empatik muloqot usullarini o'zlashtirish zarurligini ota-onalar anglashi xisoblanadi.

Amerikalik psixolog X.Djaynottning fikricha, teng aloqa muloqotning 3 asosiy qoidasiga asoslanadi. **Birinchidan**, ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy o'zgarishni ma'qullashga intilishlari kerak, xar qanday holatda xam uni kamsitmaslik, bolada ijobiy Men siymosini qo'llab-quvatlashdan iborat. **Ikkinchidan**, bola bilan uning qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik kerak, uning shaxsini salbiy baholashdan qochishi kerak. Kattalarning bolalar haqida fikri, bolaning kelajakdagi taqdirga tashxis qo'yishga, uning oldindan

aytib berishga qaratilmaslik kerak. Maqtash va tanbex berish xam usha qoidaga asosan to'zilishi kerak: tayyor baholash o'rniga qilingan xarakatlar va ular natijasini keng yoritib berishi kerak, xulosa chiqarishi va baxo berishni bolaning o'ziga qo'yib berishi kerak. **Uchinidan**, aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor bo'lishlari kerak. Bunday xarakat usuli to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatni xal qilish imkoniyatlarni bola oldiga shunday quyish kerakki, bolaning o'zi eng to'g'riroq usulni tanlashni mustaqil amalga oshirsin.

Ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar tomonidan bu qoidalarni kundalik xayotda ketma-ket amalga oshirishi mumkin bo'lgan qoidalarni tarbiya amaliyotiga kiritishdan boshqa narsa emas. Psixodinamik nuqtai nazardan ota-ona guruhlariga raxbarlik qilishning maksadi, ota-onalarni bu qoidalardan amalda foydalanish malakasi bilan qurollantirishdan iboratdir. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ota-ona guruhlarining maqsadi ota-onalarni bolani da'volash munosabatida bo'lishni o'rgatishdan iborat.

Xozirgi vaqtda chet elda ota-onalar trening guruhleri bolaga maslahat berish amaliyotida maxsuldor ish shakli sifatida juda ommoviy tus olgan. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, bolaga qaratilgan bir butun tuzatish tadbirlari sistemasidan ajratilgan holda ota-onalar treninglar maslahat berish jarayonida tuzatish vazifalarini muvaffaqiyatli xal qilishning etarli sharti bo'la olmaydi.

Psixolog tomonidan olib borilgan tadbirlar va xulosalar natijasida o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga taklif kilinadi. Malumotlarni o'rganib, o'quvchini xayotda o'zini tutishga va xatti-xarakatiga qarab, psixolog aniq o'rgatilgan tadqiqotlar natijasi bilan xulosa chiqarish o'rtasida farq bor ekanligini tushuna bilish kerak. Xulosalar xamma vaqt taxminiy va bironta narsaga nisbatan chiqariladi. Chunki bu jarayonda psixolog tanqidiy yondasha bilishi kerak. Aynan psixologning shu xulosaga kasbiy taaluqliligi bilinib tursin. Natijada o'quvchining kamchiligi biologik, asabiy buzilish bilan bog'liq bo'lgan xamda vaqtincha bironta tashqi ta'sir asosida paydo bo'lgan bo'zilishlarni farqini ajrata olgan holda xulosa chiqarish kerak. Xulosalar orqali tibbiy ta'sir qilish va bashorat qilish, kelgusida qanday tadbir o'tkazilganda boladagi vaqtincha bo'zilishlar o'tib ketishini taklif qilish kerak. **Masalan: onasining ikkinchi marta turmush qurishini o'g'li juda asabiy bo'zilish bilan qabul qilgan.** Yangi ota

vazifasini bajaruvchi kishi bilan o'g'ilchaning aloqasi umuman kelishilmadi. Yangi ota turli sabablar bilan o'g'ilchani haqoratlar va vaqti vaqti bilan do'pposlab turar edi. O'g'ilcha yakkalana boshladi, seskanuvchan bo'lib qoldi, kechasi alaxsirash, qichqirish, qaergadir chiqib ketish hollari xam paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan u yotoq anjomlarini ho'l qiladigan va o'rnidan tez turib yotoq anjomlarini yangidan tutadigan, ertalab kishi ko'ziga qaray olmaydigan bo'lib qoldi. Lekin o'g'ilcha biroz vaqtdan keyin juda ko'p ovqat eydigan va kayfiyati ko'tarilgan holatga o'tganini ona psixologa gapirib berdi.

Psixolog taklifi: yangi otaning bolaga imkoniyati boricha o'zini yaqin tutishi, otalik xissini tug'ildirishi, onasi esa imkoniyati boricha bola ko'nglini har xil mazali ovqat tayyorlab berish bilan ovlashi kabilar bolani yana sog'lom xayotga qaytarishi mumkin degan xulosa bilan yakunlandi. Bu misoldan ko'rinib turibdiki, psixolog o'z taklifini kimga va qanday uslubda tushuntira bilishidan ko'pgina kelgusi bashoratdan tutilgan xulosalar echimi aniqlanadi. **Demak, amaliy psixologik jarayonda** psixologning shaxsiy xususiyatlari xam asosiy urinni egallaydi. Chunki psixologik taklifni kengligi, chuqurligi, aniqligi fakat u tomondan qo'llanilgan uslublargina bog'liq emas, balki uning bola shaxsini tushuna bilganligi va yorqin muomala jarayonini tashkil qila bilganidadir.

Ammo hayotda barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin.

Axloq normalariga amal qilishda har bir tarbiyachi odob-axloq qoidalarini bo'zmasligi, shu bilan birga xar bir tarbiyachining xulqi o'quvchilarning xatti-harakatlarini, o'zaro munosabatlarini ham tartibga solib borishi lozim.

Voqeiy hikoyat. To'qqizinchi sinf o'quvchisi Karim bir kuni darsni tayyorlamay keldi. Muallima unga «ikki» baho qo'ydi. Oilada Karim onasi bilan yashaydi, otasi boshqaga uylanib ketgan. Muallima Karimga «yomon» baho qo'ygani etmagandek, unga zarda bilan: «Otang sizlarni bekorga tashlab ketmaganga o'xshaydi, bunday boladan qochib qutulishdan boshqa chora yo'q», - deb uni sinfdan chiqarib yubordi. Muallimning bu muomalasi o'quvchini tahqirlash bilan birga sinfdagi boshqa o'quvchilarning ham noroziligiga, nizo kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Talabchanlik o'qituvchi odobining normalaridan biri hisoblanadi. O'qituvchining bolaga qo'yayotgan talabi adolatli bo'lmog'i kerak. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan chuqur ishonchi ifodalanadi. Bu insoniylikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, o'ziga va jamiyatga foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risidagi g'amxo'rlikdir. Odatda, bolalar murosasozlik va oliftagarchilikni— betayinlik, o'ta muruvvatni — mas'uliyatsizlik, prinstipsizlik deb tushunadilar. Aksincha, yaxshi niyat bilan qilingan oqilona talabchanlik — qattiqqo'l muallimga bolaning hurmati va minnatdorligini oshiradi.

Voqeyiy hikoyat. To'lqin maktabda quyi sinflarda past baholar olib o'qirdi. Sakkizinchi sinfga o'tganida fizika o'qituvchisi D. Sh. juda talabchan, hech kimni erkalatib qo'ymaydigan kishi bo'lib chiqdi. Muallim uni doskaga chiqardi. To'lqin fizikaga doir masalani echa olmaydi. O'qituvchi unga boshqa masalani beradi va o'sha boshlagan usuli bilan echishni aytadi.

Nihoyat u, masalani to'g'ri echadi. O'qituvchi: «Mening fikrimcha To'lqin, sen uchun bu oddiy masala. Sen murakkabroq masalalarni ham echa olasan, faqat, ko'proq ishlash kerak» deydi. Bu gap bolaga ijobiy ta'sir etadi, u darslarni ko'proq tayyorlaydigan bo'ldi, ayniqsa fizikaga qiziqib qoldi. Maktabni bitirgach, texnika universitetiga o'qishga kirdi. Muhandislik kasbini egalladi. Bir kuni To'lqin o'quvchilik yillarini eslab bunday dedi: «Fizika o'qituvchimiz kattiqqo'l, talabchan edi. U bizni boshqa fanlarga qaraganda fizikani ko'proq o'qishga majbur etardi. Biz uning aytganlarini bajarar edik, chunki u yaxshi odam, hatto do'stimiz edi».

Muallim har qancha hushyor, ehtiyotkor bo'lsa ham sinfdagi hamma bolalarning ruhiy holatini, iztiroblarini bilmasligi mumkin. Bu ishda muallim sinf bolalar jamoasining ko'magiga tayanmog'i lozim. Sinf jamoasi boshiga tashvish tushgan bolaning holiday xabardor, unga hamdard bo'lishiga erishmoq kerak. Shunda muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala natijasida sodir bo'ladigan ayrim xatolarning oldini olish imkoni tug'iladi.

Voqeyiy hikoyat. Sanobarning oilasida uning otasi bilan onasi o'rtasida kelishmovchilik, janjallar bo'lib turishini sinfdoshlari biladi. Bugun u darsga ko'zlarining atrofi qizargan, ma'yus holda keldi. Kecha ularning uyida bo'lgan janjal tufayli uy vazifasini ham bajarolmay

kelgani, kitobni o'qisa ham boshiga hech narsa kirmayotgani ko'rinib turardi. Sinfdoshlaridan biri unga sezdirmay bu holatni sinf rahbariga ma'lum qilib, yaxshisi muallimlar bugun Sanobarni doskaga chiqarmasliklari, undan uy vazifasini ham so'ramasliklari lozimligini aytdi. Sinf rahbari o'z darsi jarayonida bevosita usullar bilan Sanobarga tasalli berishga harakat qildi. Shu tariqa sinf jamoasi qalbi jarohatlangan Sanobarga nisbatan to'g'ri muomala qilishda o'qituvchilarga yordamlashdi.

Bolaning ruhiy holatini tushunish, sinfdoshlarida unga nisbatan xayrixohlik, g'amxo'rlik xis-tuyg'usini uyg'otish o'qituvchining yuksak pedagogik, axloqiy madaniyatidan dalolat beradi. Odobli, madaniyatli muallim bolalar bilan qo'pol muomala qilmaydi, o'quvchining «sirini» oshkor etmaydi, uning ustidan kulib, qalbini jarohatlamaydi. Aksincha, fikr-mulohazasi qotib qolgan, bolalarning qalbi, ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olmaydigan, hammaning xulqini bir xil qolipda baholaydigan muallim ko'pincha pedagogik muomala odobi normalarini bo'zadi, bolalar orasida obro' ham ololmaydi. Bunday muallim odatda, agar bola mo'min-qobil bo'lsa, uni yaxshilar qatorida ko'radi, agar tanqidiy fikrlaydigan bo'lsa - manman, takabbur deb hisoblaydi. Qobiliyatli, lekin sho'x bolalarni xush ko'rmaydi, natijada o'qituvchiga hurmatsizlik, konflikt - mojarolar kelib chiqadi.

Voqeiy hikoya. Ikkinchi sinfga boshqa maktabdan yaqinda kelgan Diloromni muallim o'qish uchun doskaga chiqardi. Dilorom harflar va bo'g'inlarni zo'rg'a o'qiyotgani, o'qiy olmay qiynalayotganidan uyalib qizardi, to'xtalib qoldi. Sinfdagi bolalar kulib yubordilar. Chunki bu sinfdagi bolalarning hammasi yaxshi o'qiydigan bo'lib qolgan edilar. Bolalarning bu kulgusi Diloromga qattiq salbiy ta'sir etdi. Muallim qiynalib zo'rg'a o'qiyotgan Diloromni o'qishdan to'xtatib, kulgan bolalarga tanbeh berdi. Bolalarning bu qiligi odob qoidalariga to'g'ri kelmas edi.

Muallim bolani doskaga chaqirayotganda ham, yoki o'quvchi bajargan ishni boshqalarga namuna qilib ko'rsatayotganida ham me'yorga amal qilmog'i lozim. Agar yaxshi o'qiydigan bola ha deb doskaga chiqarilaversa yoki har safar bir bolaning bajargan ishi boshqalarga namuna sifatida ko'rsatilaversa bu, axloqiy jihatdan salbiy oqibatlariga olib keladi.

Insonning maqsadi doimo asoslangan bo'ladi. Sabab (vaj) muomala odobining, xatti-harakatning, qiliqning bir qismi bo'lib, biror harakatni bajarishga, uning yaxshi yoki yomon ekanligini baholashga asos bo'ladi. Motivlar (sabab, vaj) ijtimoiy qimmatli yoki xudbinlik xarakteriga ega bo'lib, ko'zlangan maqsadga erishish uchun vositalar tanlashga ta'sir etadi. Lekin axloqiy maqsadga faqat axloqiy vositalarni qo'llash bilangina erishish mumkin.

Voqeiy hikoya. Shahardagi maktablardan birida uchinchi sinfda shunday hodisa sodir bo'ldi. Sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, tuvalarda gul o'stirib, sinf xonasini bezatish uchun musobaqa o'tkazishdi. Bolalar uylaridan gul tuvak, gul ko'chat keltirib, gul o'stirishga kirishdilar. Musobaqa (o'yin)ni yakunlashga bir hafta qolganida birinchi tuvakdagi gullar so'lib qoldi. Bolalar har qancha urinsalar ham foydasi bo'lmadi. Maktabning biologiya o'qituvchisiga murojaat qilishga to'g'ri keldi. Biolog muallim gul ko'chatlaridan birini tortib ko'rsa, uning ildizi kesilgan ekan. Bu ishni ikkinchi guruhning etakchisi Salima qilganligi ma'lum bo'ldi. Salima buni, nima qilib bo'lsa ham, o'z guruhi g'olib chiqishi uchun qilgan ekan. Bu voqeaning tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarning hammasida bir xil maqsad – gul o'stirib, sinf xonasini bezash maqsadi bo'lgan. Lekin ular musobaqa jarayonida turli sabablarga ko'ra harakat etganlar. Guruhdagi bir bolaning xudbinligi tufayli ko'ngilsiz hodisa ro'y berdi.

Xilma-xil psixologik muammolar manbalari ichida maktab ham muxim o'rin egallaydi. Masalan: tibbiyot mezonlariga qaraganda, maktab yoshidagi bolalarning 18-20% qisqa muddatli yoki doimiy psixoterapiyaga muxtoj-dirlar. Maktab, kollejda keng tarqalgan muammolar juda ko'p: o'quv motivastiyasi yo'qligi, past o'zlashtirishi, o'qituvchi va o'z tengdoshlari bilan nizoli munosabatlar, o'z-o'zini past baxolashi, jamiyatga qarshi gruppalarda ishtirok etishga layoqatlilik va boshqalar.

Ta'lim tarbiya muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifalaridan biri bu o'quvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu nafaqat u yoki bu ta'lim tarbiya muassasinigina emas konkret o'quv guruhi sinfga ham ta'lukli. Chunki qaerda, qaysi jamoada shaxslararo munosabatlar yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, shu jamoa o'z oldida turgan ijtimoiy vazifalarni muvofaqiyatli bajarishga asos yaratilgan bo'ladi. Bunday jamoada o'z-o'zligini boshqarishni joriy qilish ham yaxshi samaralar berishi mumkin. Bugungi kun

o'qituvchisi, sinf rahbarlari, psixologlarini qiynayotgan muammolardan biri bu o'quvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni tashkil kila bilish imkoniyatlarini beruvchi maxsus psixodiagnostik vositalarning etishmasligidir. Shaxslararo munosabatlardan, o'rganish metodlaridan biri, sostiometriya metodidir. Sostiometriya tushunchasi Amerika olimi J.Moreno tomonidan taklif etilgan bo'lib, guruhdagi o'zaro munosabatlarni o'rganish degan ma'noni bildiradi. Sostiometriya metodi turli guruhlarda, jamoilarda shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini o'rganishning psixologiyada keng qo'llaniladigan eng samarador vlsitalaridan hisoblanadi. Sostimetrik tahlil ma'lumotlari shaxsning guruhda tutgan o'rni, guruhda shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari guruh yo'ldo'zlari, guruh lideri (guruhning tan olingan sardori) guruhning yakkalanib qolgan (izOlimstiyaga) tushib qolgan a'zosi guruhdagi kichik guruhchalar (mikrogruppalar) ularning tarkibi, o'zaro munosabatlari va yana qator shu kabi ma'lumotlarni olish imkonini beradi, sostiometrik tadqiqotni o'tkazishda avvalo shaxslararo munosabatlarning u yoki bu jihatini baholovchi muhim mezon tanlab olinadi, buning uchun ma'lum bir real vaziyatga taaluqli bo'lgan savol to'ziladi. Bu savol sostiometrik mezon bilan xizmat qiladi. Sinaluvchilar shu berilgan savollarga o'zlariga shu guruhdan sherik tanlash bilan javob berishlari kerak bo'ladi.

Sostiometrik mezon bilan tadqiqot maqsadiga mos tushgan xolda shaxslararo munosabatlarning ma'lum bir jihatiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Sostiometrik mezonlarni shartli ravishda quyidagicha bo'lish mumkin.

1. «Agar sen sinf (guruh) boshlig'i bo'lsang, biron bir jiddiy vazifani, topshiriqni bajarish uchun ajratilgan guruh tarkibiga kimni kiritgan bo'lar eding».
2. Funkstiyali (funkstional) «Sening fikringcha sinfdoshlaringdan (guruhdoshlaringdan) kim sinf (guruh) boshlig'i bo'la olishi mumkin».
3. Amaliy: «Agar sinf (guruh) tarkatib yuboriladigan bo'lsa, unda sen yangi sinfga (guruhga) shu sinfdoshlaringdan (guruhdoshlaringdan kim bilan birga tushishni xoxlar eding)».
4. Emostional: O'zing uchun og'ir damlarda sinfdoshlaringdan (guruhdoshlaringdan) kimga murojat qilgan bo'lar eding.

5. Kommunikativ: o'z ta'tilingni sinfdoshlarindan (guruhdoshlarindan) kim bilan birga o'tkazishni xoxlar eding.

Sostiometrik mezonlarni tanlashda va savollarni tuzishda konkret vaziyatlar nazarda tutilishi lozim. Sostiometriyaning samaradorligi so'raluvchining, o'rganilayotgan guruh a'zolarining psixologik tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Sostiometrik kartochkani to'ldirish sinaluvchining ixtiyoriy, shaxsiy ishidir. Ba'zi bir sinaluvchilar tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortishlari mumkin. Bunday xolatlar yo'l kuymasligi uchun oldindan «Sostiometrik razminka» qilish, tadqiqot vazifalarini tushunarli formada bayon etishi, uning muhim ekanligini o'quvchilarga tushunturib borish va eng muhim ularning javoblari boshqalardan sir saqlash, ularning hech kimga ko'rsatilmasligiga kafolat berish. Ularni bunga ishontira bilish kerak. Tadqiqot natijalari sinaluvchilarga aytilmaydi. Ularni bu haqida qisman, yuzaki ma'lumot beriladi. Shuni esda tutish lozimki guruhdagi norasmiy aloqalar sistemasini hammaga aytish guruh tizimida kutilmagan noxush xodisalarga olib kelishi, munosabatlar o'zaro muloqotda, o'zaro nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Strategik kartochkalarni tuldirishda xar bir ukvchtga mustaqillik berilishi kerak. Xech qanday aytib berish va kartochkalarni uyga olib ketishga yo'l qo'ymaslik kerak. Eng yaxshisi guruhning barcha a'zolarini tadqiqotdga jalb kila olishdir. Sostiometrik tadqiqot olib borayotgan o'qituvchi o'zini erkin ishonchli ochiq tutishi kerak. Strategik kartochkalarini o'qituvchi butun sinf uchun oldindan tayyorlab qo'yishi maqsadga muvofiqdir. Bunda kartochkaning yuqori qismining o'ng tomoniga tadqiqotda ishtirok etayotgan o'quvchining familiyasi yoziladi.

Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emostional munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

5.3.Konsultastiya jarayonini tizimlashtirish va ustalik bilan yangi nuqtai nazarga o'tish

Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa bilan keskin shaklda muomalada bo'lish, suhbatdosh nomiga tez-tez bildirilib turiladigan e'tirozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovo'zkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-bo'ysinuvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi. Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemehrlik, behurmatlik kabilar oiladagi samimiy muloqotga putur yotkazadi. Agar aksariyat hollarda iltimoslardan, maslahatlardan, o'zaro kelishuvli savol-javoblardan, o'z niyat-istaklarini, xatti-harakatlarini xotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa, oilada o'zaro yordam, o'zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo'lsa, unda bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo'lgan psixologik muhit yuzaga keladi.

Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushunishning yotishmasligi ko'pincha muloqotdagi to'siq bo'lib, shaxslararo munosabatlar bo'zilishining sababi hisoblanadi. Bizlar boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o'zimizning fikr-o'ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emostional holatlarini his qilish, ularni ko'rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushunishga intilishga o'rgatilavermaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik holatlarda, hatto bir-biriga eng yaqin, bir-biriga zid manfaatlarga ega bo'lmagan odamlar ham hayotda bir-biriga noxushliklar yotkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovo'zlik qilish niyatida yoki o'zlari yovo'z odamlar bo'lganliklari uchun emas, balki shunchaki bir-birini tushunmaganliklari «nima qilayotganliklarini bilmaganliklari» uchun sodir etadilar. Shunga o'xshash holatlar odamlarning o'zaro munosabatlari, muloqotlarida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi.

Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlar.

Psixologik to'siq — bu sherigiga ma'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini

samimiy izhor etishiga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga halaqit beruvchi o'ziga xos ichki psixik tormozdir.

Vaziyatli to'siqlar — bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondoshishlari bilan bog'liq.

Mazmuniy to'siqlar — odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari suryapti, nimani nazarda tutyapti, nimaga olib boryapti va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivastion to'siqlar shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini yotarlicha anglay olmaydi, yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarning psixologik madaniyatlik nuqsonlaridan biri, ya'ni ularning yo eshitishni va yoki tinglashni bilmasligi, «teskari aloqaning» yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning yotishmasi tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishligi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta «aqlli» dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zini, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish, o'z gapi bilan suhbatdoshini qiziqтира olish qobiliyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiy qoidasi: boshqa odamlarning, suhbatdoshlarining ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishini yodda tutishi lozim.

Odamovilik va uning psixokorreksiya. Odamovilik – og'ish bo'lib, muloqot doirasining torayishi, atrofdagilar bilan emostional munosabatda bo'lish imkoniyatining kamayishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda yosh davrlariga xos bo'lgan qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi.

Bu og'ishning sababi quyidagilar bo'lishi mumkin: O'zoq davom etgan stress (masalan ota-onaning ajrashishi), emostional muloqotning etishmasligi (masalan, o'zoq vaqt kasalxonada bo'lish,

yoki ba'zan bolaning ota-ona uchun kutilmagan yoki istalmaganligi, ota-onaning bolaga mehr ko'rsatmasligi), emostional sferaning o'ziga xos individual patalogik xususiyati (psixik jarayonlarning sustligi va h k).

Odamovilik bolaning munosabat o'rnatishi va uning davom ettirish imkoniyatini kamaytiradi, tez-tez ota-onasi va tengdoshlariga, odamlarga salbiy munosabat chaqiradi. Bu bolaning axvolini yanada chuqurlashtirib, og'irlashtirib yuboradi. Odamovi bola yolg'izlikda yashashga o'rganib qoladi va bu uning shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Muloqotga ehtiyojni emostional kontakt bosadi, odamovilik bolani ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiladi. Agar bola juda ta'sirchan bo'lsa odamovilik uning psixikasini zo'riqishdan himoyalaydi.

Odamovi bola qovog'i solingan, norozi bo'lib ko'rinadi. Shu sababli ota-ona «Biz unga barcha sharoitni yaratib berganmiz, u yana nimadan norozi» deb xafa bo'lishadi. Bu holatda ota-onaning «minnatdorlikka munosiblikni» da'vo qilishlari bolaning ahvolini battar og'irlashtirib yuborishi mumkin. Bola bu narsani o'zining olamiga bostirib kirish deb baholaydi. Bolaning «Nimaga men bilan gaplashmaysiz, nimaga mening ko'zimga qaramaysiz» kabi savollari ular bilan munosabat o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Odamovilik uyatchanlikdan sifat darajasi bilan farq qilganidek autizmdan ham farqlanadi. Uyatchanlik ijtimoiy muloqotga kirishishning yaxshi shakllanmaganligi natijasi. Shu sababli uning korrekstiyasi bola ta'limiga muloqot malakasini qo'shish, o'zgaralar harakatini tahlil qilish va o'zlashtirishni eplay olish xolos. Odamovilik uchun bunga o'xshash harakat korrekstion ishning yakuniy bosqichi xolos. Ba'zida ijtimoiy kompesetornistlikning oshishi parallel holatda korrekstiyaning boshqa turini o'tkazishni talab qiladi (tugallovchi bosqichda lekin bu hech qachon asosiy korrekstion harakatdan ilgarilab ketmasligi kerak.

Odamovi bola bilan korrekstion ishning mohiyati bolani atrofdegilar bilan emostional munosabat o'rnatishiga yordam berishdan iborat. Buning uchun ota-onalarning bittasi bola bilan emostional aloqa o'rnatishda

Odamovi bola bittagina oynasi ochiq qolgan xonaga o'xshaydi (masalan, ota-onalarning bittasi bilan munosabat). Korrekstiyada bu imkoniyatdan foydalanishi kerak, ammo unitmaslik kerakki, agar u

ijtimoiy samara bermasa ham munosabat o'rnatishning oxirgi yo'li yopilishiga yo'l qo'ymaslik psixologning burchi.

Korreksiyaning bu qoidalari odamovi bola bilan ishlashning asosiy yo'nalishlarini beradi:

5. Buzilishga olib kelgan sabablarini bartaraf etish.
6. Bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatini tiklash yoki qayta qurish.
7. Bolaning oila va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarini tartibga solish (nafaqat bolani boshqa odamlarga «o'girish», balki bola ular o'ylaganidek, yomon yoki yovo'z emasligini ko'rsatish).
8. Bolaning muloqot malakasi ta'limi va aloqa o'rnatish.

Bola ta'sirchanligining yuqoriligi sababli korreksiya juda qiyin kechadi, shu sababli u sekin-asta olib borilishi kerak.

Odamovi bola bilan diagnostika ishi quyidagilar bo'lishi mumkin:

3. Birinchi uchrashuvda psixolog bolaga to'g'ridan-to'g'ri savol berishdan (Sening oting nima? kabi), bolaga ko'z tashlab qo'yishdan, uning «o'ychanligini» aniqlash uchun «yopishib» olishdan, kuchli sezgi uyg'otishdan qochish kerak. Bola bilan munosabat o'rnatishning boshlanishida bosim o'tkazmaslik lozim. Munosabatda salbiy tajribaga ega bo'lgan bola uni yana o'zi uchun yoqimsiz bo'lgan vaziyatga tortayotganlarini tushinmasligi lozim.

4. Psixolog qilayotgan harakat bolaning o'zi qilayotgan harakat ramkasidan chiqmasligi lozim. Unga o'zining o'yinini taklif qilish emas, balki bola nima qilayotganligini ko'zatib, u bilan birga shug'ullanishi lozim.

Xullas, psixologik maslahat berish sohasidagi insonlar: psixolog, o'qituvchi ilmiy bo'lim mudiri tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchilar ham ma'lum darajada psixologiyadan xabardor bo'lmoqlari lozim, chunki sanab o'tilgan kasb egalari individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi bolalar bilan ishlaydilar. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish ruxiy jarayonlari, ya'ni sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvurlari, individual-psixologik xususiyatlari, xarakteri, temperamenti, kobiliyatlari, emostional-irodaviy soxasi, xissiyoti, emostiyalari, irodaviy xulq atvor xususiyatlari, faoliyat motivastiyasiga ega bo'ladi. Ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishini talab

qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to'g'ri keladigan va yaroqli bo'lgan usul ko'pincha o'smirlarga nisbatan yaroqsiz va xato bo'lishi mumkin. O'qituvchining bilishi mutloqo zarur bo'lgan individual farqlar bitta yosh doirasida nihoyat darajada katta bo'ladi.

Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilardan qaysi birlarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlar.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Konsultastiya o'tkazishning besh qadamli modelini izohlab bering.
2. Konsultastiya o'tkazish mikrotexnikalari haqida gapiring. (Suhbatning boshlanishi. Psixologik qo'llab-quvvatlash vositalari. Hissiyot va emostiyalardan ozod bo'lish. Pastient "to'lqinlanishlariga" mayl bildirish.)
3. Dialog vaqtda konsultant nutqi nima uchun chegaralanadi.
4. Yashirin fikr va hislar qanday aniqlanadi?
5. Qator amerikalik olimlar ota-onalar bilan maslahatining so'nggi suxbatida nechta bosqichni ko'rsatadilar?
6. Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilardan qaysi birlarini farqlaydilar?
7. Odamovilik va uning psixokorreksiyasi qanday amalga oshiriladi?
8. Konsultastiya jarayonini tizimlashtirish va ustalik bilan yangi nuqtai nazarga o'tish uslubi qanday amalga oshiriladi?
9. Odamovi bola bilan korreksion ishning mohiyati nimada?
10. Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar ?

Korreksion ta'sir mexanizmlari

5.4. Shikastlovchi kechinmalarni uyg'unlashtirish. Psixologik muammoning azob-uqubatlarini engillashtirish. Muammoga o'zgacha qarashning qirralarini izlash. (Ma'nosini yo'qotgan holat rekonstruksiyasi. Dunyoga yangicha ko'z bilan qarash. Qadriyatlarni qayta baholash. "Aksincha" istaklarni qo'zg'atish. Psixologik madadni izlash. "Hozir" va "shu erda" tamoyili)

Paralingvistik ta'sir, psixologik madad, dunyoga yangicha ko'z bilan qarash, qadriyatlarni qayta baholash, normal taraqqiyot,

muammoning azob-uqubatlari, psixologik krizis, stress, depressiya, **“Men”konstepstiyasi** va xk..

Shikastlovchi kechinmalarni uyg'unlashtirish. Psixologik muammoning azob-uqubatlarini enigillashtirish. Muammoga o'zgacha qarashning qirralarini izlash. (Ma'nosini yo'qotgan holat rekonstrukstiyasi. Dunyoga yangicha ko'z bilan qarash. Qadriyatlarni qayta baholash. “Aksincha” istaklarni qo'zg'atish. Psixologik madadni izlash. “Hozir” va “shu erda” tamoyili)

Shaxs shakllanishini tabiatdan anatom—fiziologik shart—sharoitlariga ega bo'lgan bola ijtimoiylashishi jarayonida insoniyatning yutuqlarini o'zlashtirib olam bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Ushbu jarayonda shakllangan qobiliyat va vazifalar shaxsda shakllangan odamning sifatlarini takror ishlab chiqaradi .

Shaxsiy korrekstion psixologiyaning xususiyatlarini hisobga olib uchta aloxida soxalarning xar birida anik vazifalarni joylashtirish mumkin. Kognitiv soxa; (shaxsiy korrekstion psixologiyada etakchi, biografik- tushuntirishi):

- 1) o'zining xulqi – atvori, munosabati, rekstiyasi sababini anglash;
- 2) his-tuyg'u va xulq – atvor stereotiplarni anglash;
- 3) psixologik omillar va somatik bo'zilishlar orasidagi bog'liqlikni anglash;
- 4) mojarolar va ruhiy jaroxatlovchi vaziyatlarni kelib chikshida o'zining roli va javobgarligini his qilishi;
- 5) boshdan kechirishi sabablari va munosabat usullarini hamda o'zining munosabati shakllanishi sharoitlarini anglashi.
- 6) mijozni mutaxassis tomonidan emostional qo'llab—quvvatlash;
- 7) mijoz tomonidan tuyg'ularni anglab va yuzaga chiqarish;
- 8) o'ziga nisbatan yanada samimiy munosabatni shakllantirish;
- 9) boshdan o'tkazish va emostional munosabatlar usullarini o'zgartirish;

Korrekstion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar. Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi.

Psixokorrekstion ishlarda mijozga psixologik ta'sir o'tkazish quyidagilarga qarab baholanadi: **a).** Ichki kechinmalarining sub'ektiv mohiyatining o'zgarganligi. **b).** Ta'sir etgandan so'ng mijozning ijobiy tomonga o'zgarishi.

Psixologik ta'sirning samarasini belgilashda quyidagi metodlarni ishlatish mumkin: ishontirish, verbal va noverbal ta'sir etish, paralingvistik ta'sir, rag'batlantirish, jazolash va hk. Ular insonning somatik fiziologik va psixik funkstiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaraliligi kriteriysi xar bir shaxsdagi salbiy o'zgarishlarni aynan uni o'ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta'siri shu o'zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog'liqdir. Korreksion psixologiya, yuqorida aniqlaganimizda, mijozning qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan ruhiy rivojlanishining xususiyatlarini «to'g'rilashga», qaratilgan mutaxassisning faoliyatini aks ettiradi.

Bola psixik taraqqiyotini tuzatishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bola shaxsiy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish asosida psixik taraqqiyotdan chetlashishlarni tuzatishdan , shaxsiy va axloqiy taraqqiyotidan yoqimsiz salbiy yo'nalishlarni oldini olishdan iboratdir. Psixik taraqqiyotni tuzatish, "Korreksiya qilish" atamasi dastlab deffektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, amaliy yosh psixologiyaning rivojlanishi bilan "tuzatish" tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo'llanila boshlandi. D.B. Elkonin tuzatishning yo'nalganligini korreksiya xarakteriga bog'liq ravishda tuzatishning ikki usulini ajratishni taklif qiladi:

1. taraqqiyotdan chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish
2. taraqqiyotdan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish hisoblanadi.

Psixologik maslahat berish amaliyotida normal taraqqiyot korreksiyasi va nonormal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. **Normal taraqqiyotda** tuzatishning mazmuniga kura quyidagi turlari ajratiladi, aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs taraqqiyoti korreksiyasi, salbiy xolatlarning oldini olish korreksiyasidir. Psixolog ishida korreksion vazifalarni echish maqsadida psixologik yordamni tashkil etishga bog'liq ravishda uning to'rini ko'rsatish mumkin: madaniy okartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va guruhiy korreksiya.

Madaniy oqartuv ishlari - ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Bunda bola taraqqiyoti asosiy qonuniyatlari, yosh psixologik xususiyatlari , xar bir yoshning

qiyinchiliklari, muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha umumiy tavsiyalar beriladi.

Maslahat va tavsiyalar berish ishi bola boshidan kechirgan qiyinchiliklar sabablarini aniqlash asosida olib boriladi. Bunda psixolog ota - onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar hamda bolaning bajaradigan ishlarini tavsiyanomada beradi. Uchinchi, mexnatni ko'p talab etadigan psixologning tuzatish **ishi -ota -onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi, yoki individual bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi.** Ishning ana shu turi ancha mexnat, vaqt, ko'p metod va metodikalarni qo'llashni talab etsa ham ancha natijali hisoblanadi.

Bolalar psixik taraqqiyotini tuzatish muammosi bo'yicha chet el psixologiyasiga murojaat qilishimiz quyidagilar bilan bog'liq:

1) Chet - el psixologiyasida tuzatish ishlarining texnikasi, uni o'tkazish tartiblari, metodlari, juda yaxshi ishlangan bo'lib, amaliy psixologik vazifalariga moslashtirilgandir:

2) So'nggi vaqtlarda tuzatish metodlari va texnikalarini, ularning nazariy manbalari va asoslarini tahlil kilmasdan to'g'ridan - to'g'ri notanqidiy o'zlashtirish kuchaymoqda;

Chet-el psixologiyasidagi bola psixik taraqqiyotini tuzatish muammosidagi barcha nuqtai nazarlarni 2 guruhga ajratamiz:

a) **psixodinamik nuqtai nazar** bo'yicha terapevtik kuch ongni, uning to'zilishini rivojlantirishga qaratiladi:

b) **xulqiy nuqtai nazar** bo'yicha individning tashqi muxitda aktivligini aniqlaydigan stimol- reakstiya bog'lanishining ko'rinishini o'zgartirishdan iborat.

Psixodinamik nuqtai nazar - ishlangan va obro'yga ega bo'lgan psixonalitik yo'nalish bo'lib, Freyd va gummanistik psixologiya asoschisi K.Rodjers nazariyalarida aks etgan.

Psixodinamik yo'nalish 19 asrning 50-60 yillarida davolanishning ikkinchi asosiy usuli sifatida qo'llanilgan. Bu yo'nalishda o'yin, san'at bilan davolash yoki rasmlar bilan davolashdir. Bolalar yoshi uchun tuzatish ishlarining yaxshisi sinalgan usuli o'yin bilan davolash hisoblanadi.

Davolovchi bola bilan birga o'ynaydi va bolaning o'zi erkin o'ynashi mumkin va shu o'rinda uch asosiy tuzatish vazifalari bajariladi. 1. Bola o'zini ko'rsatishga imkoniyati kengayadi. 2. Hissiy barqarorlik va o'zini boshqarishda erishiladi. 3. Bola kattalar sistemasidagi munosabatlari korrekstiya qilinadi.

O'yin bilan davolashning 2 usuli farqlanadi.

1) Individual va 2) Guruhiy

Psixolog olim Rodjers qaysi usulda qanday vaqtda foydalanish mumkinligi haqida shunday deydi: " Bolaning ijtimoiy moslashishi haqida gap ketganda guruhiy davolash individual davolashga karaganda foydaliroqdir" Hissiy qiyinchiligi haqidagi muammolarni echishda esa, individual davolashdan foydalaniladi. O'yin bilan davolash quyidagi xollarda o'tkaziladi:

- Ijtimoiy etilmay qolishlik (infantilizm) kelisha olmaslik, odamovi, ya'ni odamga kushilmaslik, tez moslashuvchanlik, xar kimning aytganini qilish, xulq - atvorning bo'zilishi va zararli odatlari mavjud bo'lganda. Agar individual o'yin bilan davolashni aqliy nosog'lomlikning og'ir formalarida o'tkazib bo'lsa, guruhiy o'yin bilan davolash uchun qarshi ko'rsatkichlar doirasi kengayadi. Bunday qarshi ko'rsatkichlar quyidagilar: yaqqol ifodalangan bolalar qizg'anishi , tez jinsiy etilishi, xaddan tashqari tajovo'zkorligi va boshqalar. Barcha yuqoridagi xollarda avval individual o'yin bilan davolab, keyin guruhiy o'yin bilan davolash o'tkaziladi.

Xulqiy nuqtai nazar -xatti - harakatlarni davolashda kuzatishning maqsadi xatti -harakatning yangi usullarini o'rganish yoki sub'ektning urganib qolgan usullarini yo'qotish sifatida ifoda etiladi. Xatti -harakatli trening 4 qismni o'z ichiga oladi.

1. O'rganiladigan namunalarni namoyish qilish;
2. O'rganiladigan harakatli reakstiya qo'llanmasi bilan mijozlarga ogzaki va yozma belgilar yordamida tushuntirish;
3. Yangi reakstiyalarni mustaxkamlash va egallash uchun zarur mashqlar;
4. Erishilgan natijalar haqida ma'lumot beruvchi teskari aloqa asosida nazorat qilish;

Psixologik konsultatsiya vaqtida qachon qaror qabul qilish muhimdir "gunoh" mijozga o'z shaxsiy mas'uliyatini tushunishga yordam beradi harakatlar va xatti-harakatni ijobiy yo'nalishda o'zgartirish va qachon, aksincha, hayot muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga to'sqinlik qiladi. Konsultant har doim mijozni aybdorlikdan ozod qilmasligi kerak. Ichida haqiqiy aybdor bo'lsa, qutqarish masalasini muhokama qilish muhimdir. Mijoz hamma narsani biladi va faqat o'ziga ishonadi. Ushbu turdagi mijoz hammasi savol, qarama-qarshilik, lekin ayni paytda uning haqiqati ishonchidir. Ushbu turdagi mijozlarga do'stona ishtirok etish aniq ifodalarni yumshatish uchun salbiy belgilar qulay

imkoniyatlar yaratadi. Mijozlarga konsultatsiya berish depressiya va o'z joniga qasd qilish niyatlari bilan Ruhiy tushkunlik bilan mijozlarga psixologik yordam. Konsultatsiyalashuvda siz tez-tez shunday deb atashingiz kerak odatda hodisalarga reaksiya sifatida paydo bo'lgan "reaktiv depressiya", travmatik hayot (somatik kasallik, nizolar, samimiy muammolar, turli xil yo'qotishlar, jumladan, yaqinlaringizning o'limi va boshqalar). Depressiya birinchi navbatda kayfiyat o'zgarishida namoyon bo'ladi. Inson u g'amgin va g'amgin bo'lib qoladi, u muvaffaqiyatsiz bo'lgan fikrlari bilan engib chiqadi hayot, o'tkir aybdorlik hissi yoqadi. Hayot va qobiliyatning ta'mini yo'qotadi qiyinchiliklarga qarshi turish, ilgari bo'lgan narsalarga qiziqish yo'qotadi jalb etildi. Motor harakati sekinlashadi, jarayonlar oqimi fikrlash. Depressiya ahamiyatsiz bo'lsa, shaxs hali ham davom etishi mumkin ish, kundalik vazifalarni bajarish, lekin bularning barchasi to'xtaydi unga quvonch keltiring. Depressiyaning kuchayishi bilan yo'qoladi har qanday faoliyat. Inson hamma narsaga befarq bo'ladi (masalan, televizorda soatlab o'tirishi yoki faqat yolg'on bo'lishi mumkin). U ko'radi atrofida hamma narsa "qorong'u nur". Depressiv shaxsning eng yorqin xususiyati o'z-o'zini yo'q qilishdir. Qachon depressiya odam hech narsa, ziyon ko'rguvchilardir, va hokazo his u har bir narsaga juda sezgir bo'lib qoladi va u ham kamayadi o'z-o'zini hurmat qilish. Depressiya holatida, shaxs tinchlik hissi deb hisoblaydi faqat to'g'ri va depressiyasiz hayot davrlari taqdim etiladi u illüziya. Depressiya holatida bo'lgan odam faqat o'zi bilan band muammolar, ularning salomatligi. U ko'pincha alomatlar haqida gapirishga moyil, depressiya bilan bog'liq, ammo depressiya haqida emas. Shuning uchun u ifodalanadi jismoniy sog'liqqa oid xavotirlar, shikoyatlarni ta'kidlaydi uyqusizlik, erta uyg'onish, ishtahani yo'qotish, umumiy charchoq. Ba'zida tananing turli tizimlarini buzish haqidagi shikoyatlar "maskalanadi" depressiya ("maskeli depressiya" deb ataladigan holatlar). Konsultant depressiyani tushunishni buzib tashlashini unutmaslik kerak o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv Inson o'tmishda yaxshi narsa bo'lmaganiga o'xshaydi, hech qanday lümen yo'q. U o'tmishda unga hamroh bo'lgan hollarni unutadi muvaffaqiyat va bugungi kunda bunday epizodlarni ta'kidlay olmaydi. Depressiya paydo bo'lganda, shaxs odatda bilan aloqa qilishni xohlaydi boshqa odamlar, ularga yordam berishni xohlaydilar. Biroq, ko'pincha uning depressiyasi bu kayfiyat shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Ichida natijada, depressiya kuchayadi,

chunki shaxs bu kabi ko'rinadi boshqalar uni siqib chiqarishga harakat qilishadi. Bu erda u tasdiqni topadi o'zingiz uchun yoqtirmaslik. Shunday qilib, boshqalar bilan aloqalarni izlash asta-sekin to'xtaydi odamlar, ulardan olib tashlash va kamtarlik bor. Depressiya holatining oqibatlaridan biri-qaramlik boshqa odamlarning, ayniqsa yaqin kishilarning fikrlari. Inson bo'lishni to'xtatadi boshqalar u haqida nima deb o'ylayotganiga befarq. Qaramlik va tanqidga nisbatan sezgirlik noaniqlikni keltirib chiqaradi va bu o'z navbatida bundan tashqari, qaramlikni oshiradi. Konsultatsiya berayotganda, mijoz konsultantni qabul qilishga intiladi uning hayoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Konsultant qaror uchun javobgar emas depressiv mijozning muammolari, uning hayotidagi o'zgarishlar uchun emas, balki u qabul qilgan qarorlar. Biroq, depressiv mijoz etarli emas, konsultant o'z taqdirini belgilashga yordam beradi. U istaydi sevimli odamning o'rnini bosuvchi konsultant yuziga ega bo'ling. Qachon bunday istaklar bajarilmaydi, mijoz ko'pincha noroziligini bildiradi g'azabni ifodalaydi.

Depressiya holatida bo'lgan odam deyarli har doim boshdan kechiradi qanday g'amgin va baxtsiz bo'lishidan qat'i nazar, muayyan g'azab (o'lgan turmush o'rtog'i uni tark etgani uchun, yomonlikka oid shikoyatlar do'stlar va yaqinlaringizga murojaat qilish; boshqalar tomonidan g'azablanish, qoniqish hayot va boshqalar). Muayyan qarama — qarshilik mavjud-tashqi ko'rinish dushmanlik noqulaylikni oshiradi, chunki ehtiyoj ortib bormoqda odamlar. Biror kishi ochiq g'azabni ifoda eta olmasa, u o'zini ayblash shaklini oshiradi va oladi. Shunday qilib, yopiq chiqadi depressiya va qaramlik bir-biri bilan chambarchas bog'langan doira, o'z-o'zini yo'q qilish va g'azablanish. Shuning uchun, depressiya ba'zan deyiladi Depressiv mijoz bilan ishlashda har qanday yo'l bilan rag'batlantirmang mijoz. Bu faqat depressiyani kuchaytiradi. Avvalo, depressiyaning xarakterini aniqlash kerak: namoyon bo'lish psixotik kasallik, nevrologik depressiya yoki normal achchiq voqealarga munosabat. Depressiya boshqalar bilan aralashmasligi kerak buzilishlar. Ba'zan konsultant depressiya alomatlarini oladi charchoq, jismoniy yoki ruhiy charchoq va tavsiya qiladi mijoz ko'proq dam olish, uxlash, vitaminlarni iste'mol qilish, sanatoriyaga borish biroq, depressiya holatida bu juda oz yordam beradi.

Depressiv mijozlar bilan ishlashda konsultantning vazifasi

savol: mijozni qo'llab-quvvatlash va unga psixologik tushuntirishda yordam berish qiyinchiliklar. Qo'llab-quvvatlash va tushunish azob va

tajribani kamaytiradi aybdorlik, o'z-o'zini hurmat qilishga yordam beradi. Mijoz kamida bitta narsani ko'radi uni tushunadigan va qadrlaydigan kishi o'rnatishni o'zgartirishi mumkin boshqalarga ijobiy munosabatda bo'lish. Maqsadlar uchun mijozning o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini tiklash kerak u vakolatli bo'lgan sohalarga va uning sobiq a'zolariga e'tibor bering yutuqlar. Mijozning agressiv motivlarini safarbar qilish muhimdir u hayot sinovlari bilan muvaffaqiyatli kurashishi mumkin edi. Konsultant kutmasligi kerak (bu ko'proq xafa bo'ladi depressiv mijoz va depressiyani chuqurlashtiradi), lekin faol ravishda gapiring mijoz o'zining tajribalari va tashqi sharoitlari haqida. Depressiv iste'molchilar kontingentning qolgan qismiga qaraganda ko'proq faoliyatni talab qiladi. Bunday taktikalar mijozning passivligi, uning mustaqil ravishda istamasligi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish. Agar konsultant jimgina o'tirsa, u faqat mijozning etarli muloqotga qodir emasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun konsultatsiya boshida bir mutaxassis uchun asosiy javobgar bo'ladi suhbat. Konsultant tez-tez depressiv mijoz bilan uchrashishi kerak, ayniqsa, o'tkir depressiyaga duch kelganda. Uchrashuvlarning chastotasi bo'lishi mumkin 2-3 haftasiga bir marta asta-sekin kamayib boradi mijozning holati. Konsultatsiya jarayonida engib o'tish kerak mijozning qaramligi va uni har biri bilan yanada faol rol o'ynashga undash keyingi uchrashuv. Depressiya holatlarida odatda dori ishlatiladi shifokor tomonidan tavsiya etilgan antidepressantlar. Konsultant bilishi kerak, uning mijozi dori-darmonlardan foydalanadimi va ularning ta'siri qanday? Biroq, mijozga dori yoki dozani tanlash bo'yicha konsultatsiya berilishi kerak emas rivojlanayotgan masalalar tayinlangan shaxs bilan muhokama qilinishi kerak shifokor tomonidan dori. Konsultant biologik va psixologik haqida bilishi kerak ba'zi kishilarning murakkablikdagi depressiv reaksiyalarga moyilligi hayot sharoitlari. Bunday mijozlar depressiya holatiga ega bo'lishi mumkin salbiy holatlarda takrorlang. Depressiya, ayniqsa tashqi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan shartlar hayot o'zgarganda yo'qoladi. O'z joniga qasd qilish niyatlari bo'yicha konsultatsiya berish xususiyatlari .Depressiya holatida bo'lgan odam ko'pincha xavf tug'diradi o'z-o'zidan, chunki u aniq va yashirin tarzda o'z-o'zini yo'q qilishga moyil shakllar. Odatda o'z joniga qasd qilish harakati (parasuitsid) va o'z joniga qasd qilish. Davisga ko'ra, ayollar to'rt marta erkaklarnikidan ko'ra tez-tez o'z joniga qasd qilishga harakat qilishadi va erkaklar o'z joniga qasd qilish bilan to'rt marta tez-tez tugaydi. Odamlar harakat qilmoqda o'z joniga qasd

qilish, qayta urinish. Shocket ma'lumotlariga ko'ra, 12 da% hollarda qayta urinish uch yil davomida amalga oshiriladi. Depressiya holatidagi barcha odamlar emas o'z joniga qasd qilish, ammo depressiyadan tashqarida o'z joniga qasd qilish juda kam.

Kennedi bir necha xavf mezonlarini ko'rsatadi:

1. Yolg'iz erkaklar (ajrashgan va yaqin do'stlari bo'lmagan) kattadir 40 yosh.
2. Yolg'iz yashaydigan odamlar.
3. Spirtli ichimliklar.
4. Katta yo'qotishlarga duch kelgan odamlar.
5. Badandagi kasalliklarga chalingan keksa odamlar.

5.5. Psixologik inqirozni bartaraf etish taktikasi. Ijobiy “Men”konstepstiyasini qo'llab-quvvatlash. (“Refleksiv oyna”. “O'z” va “o'zgalar” muammosini qiyoslash qobiliyati. O'tgan tajribalarni qayta o'ylab ko'rish). Psixologik cheklanishlar va shartlanganlikdan qutulish.

O'tgan asr o'rtalarida garb psixologi D.Mexanball o'zini boshqarishga yo'naltirgan korrekstion dasturini ishlab chiqargan. Bu dastur salgina o'zgartirilib, ta'sirchan, juda harakatchan va tartibsiz o'quvchilarning xulq - atvorini tuzatishga foydalaniladi. Chet - el psixologiyasida psixik taraqqiyotni tuzatish muammosiga xulosa qilib, quyidagilarni aytish mumkin: Korrekstion amaliyotning nazariy asosi - bu psixik taraqqiyotni tushuntirishda ta'rifni inkor etish hisoblanadi.

Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti - harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. **Verbal ta'sir** - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasiidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni hojlaydi.

2. **Paralingvistik ta'sir** - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyastiya, tovushlar,

to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan xarakterlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bulsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan "Albatta bajaraman!", desa ishonamiz, albatta.

3. **Noverbal ta'sirning** ma'nosi "nutqsiz"dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, xolatlari (yaqin, o'zoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita xis qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, "Ko'rganimdan biram xursandman", desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi xarakterlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Mehrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal xarakterlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri : "Ust - boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi".

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. Ta'sirning tashabbuskori - bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati - ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bulmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bulsa, u tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Ishontirish—mijozning ongiga uning shaxsiy tanqidiy muloxazasiga (uy—fikriga) murojat qilgan holda ta'sir qilish usuli. Ishontirish usuli asosini tanlab olish, ta'sir maqsadiga kura

fakt (haqiqat) va xulosalarni mantiqiy tartibga solish tashkil qiladi. Ishontirish rastional psixoterapiyaning asosini tashkil qiladi. V.M.Bexterev (1911) ishontirish va ko'ndirishni birlashtirishni, ayniqsa o'z—o'zini tanqid qilishi past rivojlangan mijozlarda, juda foydali deb hisoblangan. Ishontirishdan, mutaxassisni shaxsiy obrusi bilan bog'liq va umuman maslahatlashuv jarayoni natijasiga ta'sir kiluvchi, suggestiv elementni ajratib olish mumkin emas. Qayta (takror) ishontirish (persuaziya) __ avval shakllantirilgan jarayonni qayta tiklashdir. Psixologik yordam ko'rsatish paytida takror ishontirish mijoz muommosini mohiyati va uni echish usullari haqidagi tasavvo'rini o'zgartiruvchi maqsadga yo'naltirilgan, ishontirishni shakillanish ketma-ketligi ko'zda tutiladi.

Ta'sir etish- mijozni ruhiy ta'sir doirasiga bevosita yoki bilvosita maqsadli ta'sir qilish jarayonidir. Ta'sir qiluvchi ob'ekt mantiqiy qayta ishlashi va uni tanqidiy baho bermay qabul qilish hamda ruhiy va somatik jarayonlar kechishiga ta'sir qilib maxsus ishlab chiqilgan ma'lumotlar yordamida amalga oshiriladi. Boshqa omillar esa (mimika, harakat, imo-ishora) odatda qo'shimcha hisoblanadi.

Ta'sir etishni bir necha turkumlari mavjud.

1. Ta'sir etish va o'z-o'ziga ta'sir etish .
2. Ochiq va yopiq.
3. Aloqali va aloqasiz.

Ta'sir etish mijozga turli holatlarida qo'llaniladi: uygok xolida , tabiiy uyku xolida, gipnotik uykuda.

Psixokorreksiya amaliyotida ta'sir etish u yoki bu darajada mijoz bilan mutaxassisning har bir uchrashuvida mavjud bo'ladi, lekin psixoterapevtik ta'sirning aloxida usuli bo'lishi ham mumkin.

Mustaqil psixoterapevtik ta'sir sifatida ta'sir etish mijozning holati va muammosini xarakterini hisobga olgan xolda va maxsus tipdan foydalanib, aniq formulalarni aytish yordamida amalga oshiriladi.

Xulq-atvor bo'zilishi va korrekstion ishlar olib borish. Olimlar tomonidan ta'kidlanishicha, inson yosh davrlarini tahlil qilish, ularning har bir bola, o'smir va o'spirin hayotini chuqur o'rganishdan boshlanadi. Bu esa yosh davrlarining xarakter xususiyatlaridagi o'zgarishlarini psixologik qonuniyat asosida amalga oshishini bilish maqsadga muvofiqdir.

Amerikalik psixolog A.Gezell o'smir yoshining davrlanishiga alohida e'tibor qaratib, o'ziga xos xususiyatlarni sharhlab o'tgan edi. Masalan:

10-yosh o'smirlar muvozanatli hayotni tez idrok etuvchi, ishonuvchan, ota-onalariga itoatli, tashqi qiyofaga e'tiborsiz bo'lganligi bois bu "oltin yosh" hisoblanadi.

11-yosh organizmda qayta qurish yuz beradi, bolalar g'ayri shuurli, negativlikni namoyon qiladi, kayfiyati tez o'zgaradi, ota-onalariga nisbatan norozilik bildiruvchi.

12-yosh tez jazavaga tushuvchan, dunyoga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, o'smirda oilasiga nisbatan avtonomlik va tengdoshlariga ta'siri ortadi. Ularda aqllilik, hazil-mutoyibaga moyillik, chidamlilik, tashabbuskorlik, tashqi qiyofa va qarama-qarshi jinsdagilarga e'tibori orta boshlaydi.

13-yosh o'zining ichki dunyosiga e'tiborlik, introvertlikka xos bo'ladiki, ular o'zini o'zi tanqid qilishga, va tanqidlarga nisbatan ta'sirlanuvchan, ota-onalarga tanqidiy munosabat bildiruvchi, do'st tanlovchi, to'lqinlanish va hayojonlanish ortadi.

14-yosh o'smirlardagi introversiya ekstraversiyaga almashinadi, shijoatli, xushmuomila, o'ziga ishonch uyg'onadi, boshqalarga e'tibori ortadi va ular o'rtasidagi farqni ajrata boshlaydi.

15-yosh bu yoshdagilar uchun mustaqillik ortadi, bu esa ularning oila va maktab bilan bog'liq zo'riqishlarga duchor etadi. Ularni guruhli harakat qilishga va guruhdagilarga moslashishga intilish ortadi.

16-yosh o'spirinlar hisoblanib, ularda muvozanatlashuv, hayotdan quvonish, ichki mustaqillik, emostional barqarorlik, muomalaga moyillik, kelajakka intiluvchanlik ortadi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bilan yosh davrlarni xarakterli jihatlarini sharhlab o'tdik, chunki yosh xususiyatlarining psixologik tavsifi, bolalarni xulq-atvoridagi o'zgarishlarini baholash imkoniyatini beradi.

“Tarbiyasi qiyin” o'smirlarning kelib chiqishi. Inson xulq-atvoridagi salbiy og'ishlar borasida olimlar bir qator tipologiyalarni yaratishgan.

XX asrning oxirlarida bolalarni ijtimoiy va psixofiziologik o'zgarishlarga qarab V.Klayn (1991) yosh qonun bo'zarlarni olti tipga ajratadi.

1. **“Esi past”**. Ularning xulq-atvorida sho’xlik, yoqimsiz hatti-harakatlar etakchilik qiladi. Uyga kech kelish, aldash, ta’lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo’lishlari, kinoga biletsiz kirishlari, doim janjallashish, atrofdagilarni ko’nglini qoldirish, narkotikni tatib ko’rishga moyil bo’ladilar.

2. **“Ota-onaning dushmani”**. Bu toifadagi o’smirlar o’z hatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatga qoldiradilar, ularga norozilik hissini ochiq-oydin bildiradilar. Ular ota-onasini munosabatini tushunmaydilar. Bu davrda salbiy hislarni orttirib yuboradilar.

3. **“Axloqsiz bola”**. Bunday o’smirlar asostial yo’nalishga ega. Ularning hissiy va intellektual taraqqiyotida o’zgarishlar yo’q, xulq-atvorlarida ham yaqqol og’ish ko’zatilmaydi. Ularda qonun bo’zarlar bilan aloqada bo’lishga moyillik bor. Bu holat bolaga nisbatan oiladagi e’tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zamirida vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun bunday bolalar jinoiy olam me’yorlarini qabul qiladilar va ularga bo’ysinadilar.

4. **“Organik”**. Bu toifadagi bolalarda miyadagi lat eyish, yoki aqliy taraqqiyotda ortda qolish xos. Natijada bolaning intellektual rivojlanishi ortda qoladi bu esa tartib-intizomni hamda xulq-atvorning bo’zilishiga olib keladi. Bunday bolalar ko’pincha o’z tengdoshlari bilan asabiylashadilar va janjallashadilar.

5. **“Psixotiklar”**. Aqliy etilmagan, kasalmand bolalar bo’lib, ular uchun gallyustinasiya, jinoiy harakatlardan xursand bo’lish, bo’zg’unchi fikrlar hukumronlik qiladi. Hattoki 14 yoshli bu toifadagi bola ota-onasini otib tashlagan.

6. **“Nasliy buzuqlik”**. Bu toifadagilar birlamchi psixapatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy hatta-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy bo’zuqlarda hatti-harakatlar ilk yoshligidayoq namoyon bo’ladiki, asostiallanishga moyil. Ularda ma’suliyat hissi yo’q va ishonib bo’lmaydi. Ularni tuzatish va yordam ko’rsatish ancha mushkul.

Affekt. Psixologlarning fikricha, affekt emostional taraqqiyotning eng past darajasi. Affekt biror vaziyatga bog’liqligi bilan xarakterlanadi (Har doim qo’zg’atuvchidan keyin boshlanadi), qisqa vaqtli va yorqin tashqi ifodalanuvchi. Yosh bolalarda affekt ovutib bo’lmaydigan darajadagi yig’i yoki kulgi, qattiq qo’rquv bilan ifodalanadi. Ko’pincha bunaqa xulq boshlangan ishni oxiriga etkazmaslik, topshirilgan ishni bajarishni xoxlamaslik bilan birga namoyon bo’ladi. Salbiy affektiv

kechinma xulqning unga muvofiq shakllarini yuzaga keltiradi: gap ko'tarolmaslik, tajanglik, qaysarlik, negativizm, ko'pchilikka aralashmaslik va emostional befarqlik. Bolani affekt holatidan hech nima chiqara olmaydi, yalinib yolvorish, nasihat, kattalar e'tibori ham ta'sir qilmaydi. Shuni e'tiborga olishimiz lozimki, emostional taraqqiyotning bo'zilishi va bola xulqidagi qiyinchiliklar psixik kasallik emas, balki normal holatdan chetga og'ish xolos.

Nevrotik reakstiya rivojining katta qismi maktabgacha tarbiya yoshi davriga tegishli. Buning sababi nimada? Tadqiqotchilar sabablarni analiz qilishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratmoqdalar: nerv sistemasining asosiy taraqqiyoti shu davrga to'g'ri keladi, hayotiy tajribaning etishmasligi, noto'g'ri tarbiya va hokozolar.

Bizning fikrimizcha bolalar tasavvurining etarli darajada rivojlanmaganligi ko'pgina affektiv reakstiyalarni yuzaga keltiradi. Chunki aynan tasavvur bolaning reja asosida harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydi.

A.N.Leontevning ko'rsatishicha affektning alohida o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning anglanilmaganligidir. Affektiv xulq tadqiqotchilarini faraz qilishlaricha vaziyatni aniqlash uchun bolaning o'zini javobini analiz qilish emas, balki real holat xarakteristikasi bilan solishtirish, ota-ona va tarbiyachi bilan ham suhbatlashish lozim.

Bolalar javobi, ularni analiz qilish real holatni kattalar javobi bilan solishtirish shu yoki shunga o'xshash vaziyatda yorqin affektiv reakstiya namoyon qiluvchi bolalarni guruhlarga ajratishga imkon beradi.

Bu bolalarning xulqi va faoliyatini psixologik analizi hissiy rivojlanishi, uni boshqarish qobiliyati va ijodiy tasavvur orasida o'zviy bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

Affektiv xulqli bolalarni quyidagi tartibda aniqlash mumkin: "Bola kattalar taklif qilgan o'yindagi quyonni o'ynaydi. Bola o'yinga qiziqib ketib devorni taqilatadi. Yonidagi katta odam buni bo'ri deb taxmin qiladi va boladan eshikni ochib, bo'riga quyon yo'q deb aytishini so'raydi". Shu va shunga o'xshash vaziyatlardagi bolalar holati asosida affektiv xulqning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib olish mumkin. Affektiv xulqli bolalar aniq va ravshan holatlarga juda ham qaram bo'ladilar. Bola unga go'yoki «yopishib» qoladi. Ko'p hollarda bu bolalar o'z qo'rquvlarini mutlaqo xavfsiz vaziyatga reflektor halda o'tkazadilar. Hattoki kattalarning o'zi vaziyatni hal qilaganlarida ham bola o'zoq vaqt undan chiqa olmaydi. Masalan, magazinda qizchaga

o'zi yoqtirgan o'yinchoqni sotib olib berishganida ham bari bir u yig'isini davom ettiradi.

Affektiv xulqli bolalarning boshqa xarakterli tamoni xulq erkinligining past darajadali. Bu shunday toifa hisoblanadiki biror narsadan qo'rqadigan bola (masalan maxluqdan) doimiy, engib bo'lmaydigan qo'rquvni his etadi, doimo uning rasmini chizadi, o'ylaydi, o'yinlariga kirgizadi. Affektiv xulqning uchinchi xarakteristikasi bola shaxsining kognitiv va emostional sferasining aniq ajratilganligi bilan bog'liq. Affekt va intelektning yagonaligi L.S.Vo'gotskiyning ko'rsatganidek bola shaxsi to'zilishining muqarrar sharti. Bunaqa bolalarda o'z xulqi ustidan nazorat qilishga yordam beradigan kognitiv faktor bo'ziladi va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shuning uchun bola kattalarga «Men uning televizordan chiqa olmasligini bilaman, ammo baribir undan qo'rqaman va qochaman» deb aytadi. Nixoyat, affektiv xulqli bolaning to'rtinchi xarakteristikasi kattalarga ichki itoatkorligi, tashabbussizligi hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan o'yindagi bola eshikni ochib tashqaridagi bo'riga xonada quyon yo'qligini aytishi kerak edi. Ko'pgina bolalar eshikka borishadi, uni ochishadi, ammo ovozi bo'g'ilishi natijasida hech nima deya olmaydilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagilar affektiv xulqining analizi ko'rsatishicha bola vaziyatni qabul qiladi, bir vaqtning o'zida uni qayta tahlil qila olmasligi bilan affekt sababi yakunlanadi. Bunaqa holat bilan u vaziyatdan chiqa olmaydi va uni boshqara olmaydi.

Umuman yuqorida keltirib o'tilgan psixik holatlarni shart-sharoitga ko'ra namoyon bo'lish jarayoniga qarab xulosa chiqariladi. Ammo buning sabab va oqibatlarini to'liq aniqlash uchun psixologik testlarni qo'llashga ehtiyoj seziladi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda bolalarning xulq-atvordagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berishga qaratilgan diagnostik metodikalar mahalliy sharoitga moslashtirilmaganligi ushbu jarayonni qiyin amalga oshishiga olib kelmoqda. Aynan ushbu holatlarni inobatga olib quyidagi bobda diagnostik metodikalar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Mustahkamlash uchun savollar

- 1.Konsultastiya o'tkazishning besh qadamli modelini izohlab bering.
- 2.Konsultastiya o'tkazish mikrotexnikalari haqida gapiring. (Suhbatning boshlanishi. Psixologik qo'llab-quvvatlash vositalari.

Hissiyot va emostiyalardan ozod bo'lish. Pastient "to'lqinlanishlariga" mayl bildirish.)

3. Dialog vaqtida konsultant nutqi nima uchun chegaralanadi.

4. Yashirin fikr va hislar qanday aniqlanadi?

5. Qator amerikalik olimlar ota-onalar bilan maslahatining so'nggi suxbatida nechta bosqichni ko'rsatadilar?

6. Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilardan qaysi birlarini farqlaydilar?

7. Odamovilik va uning psixokorreksiyasi qanday amalga oshiriladi?

8. Konsultastiya jarayonini tizimlashtirish va ustalik bilan yangi nuqtai nazarga o'tish uslubi qanday amalga oshiriladi?

9. Odamovi bola bilan korrekstion ishning mohiyati nimada?

10. Psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar ?

11. Shikastlovchi kechinmalarni uyg'unlashtirish haqidagi fikrlaringiz.

12. Psixologik muammoning azob-uqubatlarini enigillashtirish deganda nimani tushunasiz?

13. Psixologik inqiroz bartaraf etish taktikasi haqida gapiring ?

14. Muammoga o'zgacha qarashning qirralarini izlash. (Ma'nosini yo'qotgan holat rekonstruksiyasi. Dunyoga yangicha ko'z bilan qarash.

15. Qadriyatlarni qayta baholash. "Aksincha" istaklarni qo'zg'atish qanday amalga oshiriladi?

16. Psixologik madadni izlash. "Hozir" va "shu erda" tamoyilini tushuntirib bering?

17. Ijobiy "Men"konstepstiyasini qo'llab-quvvatlash. ("Refleksiv oyna". "O'z" va "o'zgalar" muammosini qiyoslash qobiliyati. O'tgan tajribalarni qayta o'ylab ko'rish),qanday amalga oshiriladi?

18. Psixologik cheklanishlar va shartlanganlikdan qutulish yo'llarini sanab bering?

19. Ta'sir etish deganda nimani tushunasiz?

20. Affektiv xulqli bolalarni qanday tartibda aniqlash mumkin?

VI BOB. PSIXOLOGIK KONSULTASTIYANING MAXSUS MUAMMOLARI

6.1. Xavotirlangan patsientlar konsultastiyasi. Fobiya va qo'rquv holati konsultastiyasi.

6.2. Tajovuzkor va qasoskorlik kayfiyatidagi patsientlar psixologik konsultastiyasi.

6.3 .“Motivastiyalashmagan” patsientlar konsultastiyasi.

6.4. Yuqori talab qo'yuvchi patsientlar konsultastiyasi.

Tayanch tushunchalar

Xavotir, fobiya, qo'rquv, Tajovuzkor, qasoskor, yig'loqi, isterik, shizoid, obsessiya, alkogolizm, suistid, depressiya va hk.

6.1. Xavotirlangan patsientlar konsultastiyasi. Fobiya va qo'rquv holati konsultastiyasi.

Ma'lumki, mustaqil O'zbekiston buyuk kelajak sari yuz tutgan ekan, shubxasiz dunyoning rivojlangan davlatlari tajribalaridan foydalanib, u erlarda amalga oshirilgan va oshiralayotgan tadbirlarni o'zimizda xam joriy qilishga olib keladi. Shunday tadbirlardan biri psixologik xizmatni keng tadbiq qilishdir. Bunday xizmatga bugungi kunda xamma soxalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi tizimida xam kuchli extiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, xozirgi kundagi o'smir yoshdagi bolalarning psixologik tomonidan tarkib topishlari turlichadir. Ozod O'zbekistonimiz mustaqilligi yillarida o'zbek xalqi o'z soxasini xamma jabxalarida xam yorqin bir tarzda namoyon qila oladi. O'zbekiston o'z gerbi bayrog'i, madxiyasiga ega. Mustaqil O'zbekiston Davlati dunyoda o'z nufo'zi va makonini egalladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda maorif soxasida, jumladan maktab soxasida jiddiy siljishlar yuzaga keldi. Qiziqishlar ancha oldin sezila boshladi.

O'qituvchilar jamoasi har qancha o'rinshidan qat'iy nazar, ta'lim jarayonida xulqi og'ir o'smirlar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'latvordagi nuqsonlarning xaddi-harakati nosog'lomligining oldini olish va to'zatishtish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xulqi og'ir , injiq, xulqi salbiy bolalarning kelibchiqishining ishtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O'quvchilarda nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkileri har hildir. qonuniy bo'zishi yoki qoidaga hilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi keyin o'smirlar jinoiy qonun,buzar va oddiy qoida ,buzar (tartib ,buzar) guruhlarga ajratiladi.

Shaxsning biologik o'smirdagi nuhsolar sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperametirdagi qusirlar tarbiyasi qiyilarni keltirib chiqaradi.Shaxsning mavjud emasligini, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosibli va xokazolar xatti-harakatini izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar: ahloqiy xislarining etishmasligi, o'qituvchi sinf jamoasi oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muxim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi o'zilishlar; maktab faoliyatidagi: o'qitishdagi nuqsonlar tarbiyaviy chora va tadbirlardagi hatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning tasiridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shoxvoniy xayotga berilishi, balog'tga yetgan tengqurlarining ta'siri, madaniy-marifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar hamxulqi og'ir o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Xavotirlanish haqida.O'smirlik yoshi – inson rivojlanishining eng murakkab davrlaridan biri. Mazkur yosh davrida xavotirlanish va depressiya ko'plab sabablarga ega va kutilmagan oqibatlarga olib keladigan o'ta murakkab hodisadir. Ushbu yoshda depressiv holatning vujudga kelishi qator sababli omillar natijasida ro'y beradi. Afsuski, mazkur holat o'ta og'ir holatga o'tmaguncha uni anglash, sezish nihoyatda qiyin. Ko'plab olimlar va faylasuflar eramizdan avvalgi davridayoq depressiv holat deb nom olgan holatdan qutilish borasida ko'plab tavsiyalarni barishgan.

Zamonaviy bolakay o'zining rivojlanish tendensiyalari va mazmuni jihatdan murakkab olamda yashaydi. O'smir bolalarning ruhiy holati har doim maktab psixologlari, o'qituvchilari, ota-onalarning diqqat-

e'tiborida bo'lgan. Ruhiy tushkunlik holatidagi bolalarda stress holatiga kuchli reakstiya holati ko'zatilib, ular nihoyatda emostinal hamda hama narsani ko'ngliga yaqin oladilar, oqibatda ularning depressiya holatiga zaifligi kuchayib boradi.

Shaxs uchun turli narsalar haqida tashvishlanish xususiyati xosdir, bu esa uning hayotga nisbatan befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba'zida noadekvat shaklda bo'ladi, ya'ni shaxs asoslamagan holda bu holatni boshdan kechiradi. Psixik holat sifatida xavotirlanish tushunchasining ko'pqirraligi shundan kelib chiqadiki, turli xil tadqiqotchilar "xavotirlanish" tushunchasini turli ma'noda talqin qiladilar.

Xavotirlanish – bu odamning doimo o'zini tashvishli his etish, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishga moyilligidir.

Xavotirlanishning boshdan kechirishi ham individual xususiyat bo'lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo'ladi. Xavotirlanish ro'y berishi mumkin bo'lgan yoki ehtimol tushilgan noxushliklar, odat va vaziyatdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo'lishi odatda faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq – atvori bilan birga kechadi. Odatda xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi vaziyat bilan bog'liq ikki turi farqlanadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va o'zoq davom etadigan noxush muloqot bilan bog'liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog'liq bo'lgan va undan tashqarida namoyon bo'lmaydigan tashvishli holatdir.

Ma'lumki, inson qanchalik ko'p vaziyatli xavotirni his qilsa, uni shaxsiy xavotirlanishi shunchalik barqarorlashadi.

O.P.Elesiev, Ya.Strelyau, V.S.Merlin tadqiqotiga asoslangan holda shuni ta'kidlanadiki, shaxs faolligini o'zgarishida bu bog'liqlik o'zgarishi mumkin. Ya'ni shaxsiy xavotirlanish reaktiv xavotirlanishning pasayishi bilan barobar rivojlanib borishi mumkin. Shunday qilib, jiddiy xatar oldida faollik va shaxsiy xavotirlanish ortadi. Buning natijasida vaziyatli sust reaktiv xavotirlanish pasayadi. Inson tashqi tomondan anchagina tinch, chidamli bo'ladi. Ch.Spelberger yana biri xavotirni uch ma'nosini ajratadi, xavotir murakkab jarayon sifatida o'ziga stress va xatar tarkibiy qismlarini

oliuvchi u xavotir holatini o'zgarishini stress darajasi funkstiyasini vaqt va intensivligida tavsiflaydi.

Shu tariqa xavotirlanishni tushunishda psixologiyada quyidagi nuqtai nazarlar yuzaga keladi:

1.Xavotirlanish-bu -ichki xavotirni psixik holati, xavotirni his qilishdagi taranglik; yomon hislar, xatarni kutishni sub'ektiv his qilish; emostional diskomfortni his qilish; nevrotik reakstiya (avtonom nerv tizimini faolligining oshishi bilan kechuvchi emostional reakstiya); salbiy emostiyalar: qo'rquv, jahl va g'amginlik kompleksi (ba'zilar bunga qiziqishni ham kiritadi); murakkab psixik holat, kognitiv emostional va operastional tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, emostionalni dominantligida; shaxs tuzilishida deffektlarni paydo bo'lishi ular turli kasalliklarning kelib chiqishidir; shaxs faol harakatini tabiiy va majburiy xususiyati shaxsni o'zini mukammallashtiruvchi stimol sifatida namoyon bo'ladigan holat.

Xavotirlanish-bu murakkab psixik holat, ma'lum vaziyatga reakstiya sifatida, o'ziga kognitiv, emostional, harakat, fiziologik komponentlarni birlashtirgan; emostional diskomfortni his qiluvchi individ sog'lig'i va harakatiga zarar keltirishi mumkin, xuddi shunday emostional jabhada ham faoliyatga yo'naltirilgan ichki kuch va samaradorlikni stimullashtiruvchi.

Xavotirli holat-bu jarayondir: Bunda affektiv fenomenlar bir-birlarini almashtirib turuvchi ketma-ketlik; bosqichlarning almashishi kelib chiqishdan bartaraf etish mexanizmlarigacha; ko'payish intensivligini o'zgarishi bo'yicha sustidan ortiqcha qo'rquvgacha bo'lgan jarayondir. O'smirlik davrida xavotirlanish holatini depressiya bilan aloqadorligini tekshirish maqsadida sinaluvchilar guruhida bir necha metodikadan (kuzatish, suhbat, proektiv metod "Avtoportret rasmi") foydalanildi. Mazkur metodka sinaluvchilar guruhida o'tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

O'smirlik davrida xavotirlanish va depressiya holatini o'zaro munosabati (o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha)

Sinaluvchilar soni	Xavotirlanish	Depressiya
50 nafar	35	15

Jadval natijalaridan ko'rinadiki sinaluvchilar v guruhida havotirlanish 35 ni tashkil qiladi. Bu tajribada ishtirok etgan sinaluvchilarning

umumiy ko'rsatgichi bo'yicha yuqori darajani tashkil qiladi. Shuningdek xavotirlanishning ortishi o'smir shaxsida emostional beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Shu o'rinda savol tug'iladi xavotirlanishning ortishi depressiya holatining ortishiga ham sabab bo'ladimi? Ta'kidlash joizki, tajriba natijalariga ko'ra o'smirlar guruhida xavotirlanish bo'yicha natijalarni yuqoriligi depressiya bo'yicha ko'rsatgichlarni yuqori ekanligini ko'rsatadi. Unga ko'ra sinaluvchilar guruhida depressiya holati 15 ni tashkil qilganligi ma'lum bo'ldi. O'z navbatida depressiya holati o'smir shaxsi uchun ustuvorligini izohlash mumkin. Chunki ularda jismoniy va psixologik o'zgarishlarga muvofiq ravishda o'z-o'zidan qoniqmaslik atrofda gildardan alohida bo'lish, ya'ni mustaqillikka intilishning kuchliligi bilan o'zviy bog'liq bo'ladi. Shu bois o'smirlik davrida emostional o'zgarishlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday emostional holat ikkinchi bir emostional holatni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois har qanday emostional holatni ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Psixik holatlarning xulq-atvorga ta'siri. Qo'rquv. Boshqa yoqimsiz hissiyotlar kabi qo'rquv ham doimo zararli bo'lmaydi. Har qanday hissiyot ma'lum bir funkstiyani bajaradi va bolaga ham, katta odamga ham o'zini o'rab turgan moddiy va ijtimoiy muhitni bilib olish, tushinish imkonini beradi. Demak, **qo'rquv insonni ko'chadan o'tishda, tog'dagi sayohatda va shunga o'xshash boshqa holatlarda ortiqcha tavakkaldan himoya qiladi hamda insonni xavfli vaziyatlardan saqlaydi yoki ogoh etadi, ba'zan esa faoliyatni, xulqni tartibga solib turadi. Bu qo'rquvning himoya funkstiyasi.** U o'z-o'zini saqlashni ta'minlovchi ichki hissiyotda, instinktiv xulqda ishtirok etadi. Bundan tashqari **qo'rquv xulqni tuzatishda yordam beradi**, u kechinmalardan kelib chiqadi. Qo'rquv psixikaning normal faoliyati uchun zarur. Bolaning organizmiga nafaqat shakar, balki to'z ham kerak bo'lganidek, psixika ham yoqimsiz, ba'zan keskin emostiyalarga ehtiyoj sezadi. Ba'zan balaning o'zi qo'rquv kechinmalarga ixtiyorsiz ravishda berilib ketadi. Ba'zan kechqurun bir erga to'plangan bolalar dahshatli voqealarni hikoya qila boshlaydilar, yana buning ustiga keskin emostional tugallanishda—oxirgi so'zida hikoyachi to'satdan qichqirib yuboradi, yonida o'tirgan bolaning qo'lidan birdan ushlab olib ularni qo'rqitadi. Bundan keyin odatda

«dahshatli qichqiriq», kulgi va agressiyani emirishga yo'naltirilgan psixik energiyani bo'shatib yuboruvchi – motiv ko'zatiladi. Bunday holat ba'zan psixik apparatning moslashish tartibini bo'zib yuboradi. Bu kabi salbiy holatlarni oldini olish istagidagi ota-onalar farzandlari uchun yaxshi sharoitlarni yaratish maqsadida, uni har qanday yoqimsiz hodisadan, kuchli kechinmalardan himoya qilish uchun psixolog maslahatiga tez-tez murojaat qilishadi.

Bolalar qo'rquvi uning taraqqiyotining odatiy hodisasidir. U bola uchun zaruriy ahamiyatga ega. V.V.Lebedinskiy ta'kidlab o'tganidek har qanday qo'rquv yoki qo'rquv turi faqat aniq bir yosh davrida ko'zatiladi, har bir yosh davrining «o'zini» qo'rquvi bor, normal rivojlanishda ma'lum bir vaqtda yo'qoladi.

Qo'rquvning namoyon bo'lishi bolaning psixomotor taraqqiyotining birdan o'zgarishi bilan vaqtinchalik munosabatiga mos keladi, masalan: bola fazoni o'zlashtirib olganida va mustaqil yurishning boshlanishida yoki o'zining yaqinlarini taniy boshlaganida begona kishining paydo bo'lishi unda qo'rquvni chaqirishi mumkin. Bolalar qo'rquvi normal taraqqiyotning muhim qismi hisoblanadi. **Qo'rquv bola xulqini tartibga soladi va moslashishda ijobiy maqsadga ega. Qo'rquv boshqa hissiyotlar kabi o'z vazifasini aniq bajarib keyin g'oyib bo'lganida foydali.** Bola taraqqiyotining izdan chiqmasligi, bo'zilmasligi uchun yosh davrlariga xos bo'lgan, normal qo'rquvdan korrekstiya qilinishi talab qilinadigan patologik qo'rquvni ajratib olish kerak.

Patologik qo'rquvni muayyan mezonlar bilan ajratib olish mumkin: agar qo'rquv shaxs taraqqiyotiga, psixikaga, muloqotga kirishishga to'sqinlik qilsa, ijtimoiy moslashishni qiyinlashuviga olib kelsa va undan keyin autizmga, psixik kaslliklarga olib kelsa bu shubhasiz patologik qo'rquvdir. Qo'rquv bo'zishdan mustaqil ham bo'lishi mumkin (masalan, katta itga to'qnash kelganda qattiq qo'rquvni his qilish). Ba'zan shaxs bo'zililishi bilan ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu hodisalarning hammasida umumiy sog'lomlashtiruvchi psixoterapiya butun psixikaning ishini yaxshilash uchun foydali. Bunda chiniqtirish jarayoni bolaning kun tartibi va ovqatlanishini tartibga solish bilan bir qatorda olib borilishi lozim. Uyqu oldidan sayr foydali, bu bola organizmi va psixikasiga yaxshi ta'sir qiladi va yana bola qo'rquv haqida emas dam olish haqida o'ylaydi. Madomiki, organizm va psixika bir butunlikni tashkil qilar

ekan, birining yaxshi yoki yomon holati ikkinchisiga ta'sir qiladi. Bola qo'rquvini yo'qotishdagi korrekstiya ishida bir qancha qo'llanmalarni ko'rsatish mumkin. Korrekstiya usuli bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi va samaradorlik ham bolaning individual xususiyatlariga bog'liq.

Psixologiyada qo'rquv muammosining ilmiy tadqiq etilishi. Insonlar ko'pincha qo'rquv holatini xavf- xatar vaqtida, ba'zan biror bir shaxs oldida, muhim ish va muhim uchrashuvlardan oldin, nizoli vaziyatlarda, o'qish va ishda muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda, jamoa oldida so'zga chiqqanda, kutilmaganda sodir bo'ladigan cho'chituvchi vaziyatlarni boshdan kechiradilar. Ko'pincha psixologik adabiyotlarda qo'rquv muammosi taniqli olimlar tomonidan keng doirada tahlil qilinib, bu borada ilmiy-nazariy ta'riflar ishlab chiqilgan. Keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra:

Qo'rquv – sub'ekt o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon etishi mumkinligi haqida, unga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf- xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Kishi qo'rquv hissiyotiga berilganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda biladi va ushbu (ko'pincha etarlicha ishonarli bo'lmagan) taxminga binoan harakat qiladi. Qo'rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo'lishi yoki ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan tarzda yoki affektiv holatga tushgan tarzda kechishi mumkin .

Qo'rquv – odamning o'ziga yoki yaqin kishilariga taalluqli bo'lgan haqiqiy yoki xayoliy xavf - xatarga nisbatan qaytaradigan emostional reakstiyasidir. Qo'rquv yuzning oqarishi, badanning titrashi va boshqa bir qancha ixtiyorsiz tovushlar, harakatlar bilan ifodalanadi. Qo'rquv xavf- xatardan qochish yoki harakatsiz turib qolish holatida ham namoyon bo'lishi mumkin .

Qo'rquv holati shaxsda psixik jarayonlarning normal kechishiga kata ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda sezuvchanlikning o'ta oshib ketishi yoki pasayishi vaziyatning mohiyatini tushunmaslik, idrok etishning yomonlashuvi kabi holatlarni kuzatish mumkin. Qo'rquv tafakkur jarayoniga ham ta'sir ko'rsatib, ba'zi insonlarda fikrlashning ravonlashuvi va vaziyatdan tezroq chiqib ketishga intilish bilan namoyon bo'lsa, boshqalarda, aksincha, taffakur mahsuldorligining pasayishi, nutq va harakatlarda mantiqsizlik aks etadi. Juda ko'p

holatda irodaviy soha zaiflashib, inson biror qaror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga o'zida kuch topa olmay qoladi. Qo'rquv vaqtida ko'pincha nutq bo'zilib, tovushda titroq paydo bo'ladi. Qo'rquv va xavotirlik diqqat jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Odatda, diqqat juda tarqoqlashib, inson o'z diqqat e'tiborini bir erga to'play olmay qoladi va ba'zan, aksincha diqqatining barqarorligi oshib, aynan bir ob'ektga tomon yo'naltirilganligini ham ko'rish mumkin.

A.Kempinski qo'rquvni keltirib chiqaruvchi holatlarni 4 guruhga ajratadi: hayot uchun bevosita xavfli ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ijtimoiy tahdidlar, faollikni shaxsan tanlash imkoniyatining mavjud emasligi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlardagi bo'ziliblar. Kelib chiqish sabablariga ko'ra qo'rquvni biologik, ijtimoiy, ruhiy va dezintegrastion turlarga bo'lish mumkin.

Qo'rquv xavf-xatardan himoyalanihga va undan qochish yo'llarini izlashga undovchi normal emostional holat hisoblanadi. Hech qachon qo'rquvni his qilmaslik mumkin emas, holbuki qo'rquv va xavotirlikning yo'qligi ham psixik bo'zilib belgisidir. Ammo ba'zi insonlarda ma'lum bir vaziyat va holatga nisbatan noadekvat reakstiyalar bilan ifodalanuvchi yopishqoq qo'rquvlar va fobiyalar ham uchrab turadi. Fobiyaga duchor bo'lgan inson qo'rquvning asossiz ekanligini tushunib etadi, ammo qo'rquvdan xalos bo'la olmaydi. Yopishqoq qo'rquvlarning paydo bo'lish ehtimoli har bir insonda mavjud. Shuning uchun ham fobiyalar etarlicha keng tarqalgan.

Fobiya - biror vaziyat, hodisa predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turg'un va asossiz qo'rquvdir. Fobiya bilan aziyat chekuvchilar qo'rquvlariga sabab bo'luvchi predmet yoki vaziyat haqida hatto o'ylaganlarida ham ularni vahima qamrab oladi. Fobiya insonlarning normal hayot kechirishlariga to'sqinlik qilib, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Fobiya qo'rquvdan kuchli va turg'un holda namoyon bo'lishi, qo'rquv uyg'otuvchi ob'ektdan qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumotlarga qaraganda er yuzi aholisining 10- 11 % i turli xil fobiyalardan aziyat chekadi. Bu holat insonda kutilmaganda va anglanmagan sababga ko'ra paydo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bolalarda qo'rquv va fobiyalar ularning jamiyatga, o'rab turgan

olamga moslashish jarayonlarida ko'proq uchraydi. Ko'rsatilishicha, fobiyalar fantaziyasi yaxshi rivojlangan, xavotirlanuvchan xarakterga ega bo'lgan, o'ziga ishonmaydigan, o'ziga past baho beradigan, muloqatga kirishish malakalari yaxshi shakllanmagan insonlarda ko'proq ko'zatilar ekan. Bu jarayonga irsiyat hamda tarbiya ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fobiya erkaklarga qaraganda ayollarda ko'proq uchraydi. Bu holat ayollarning hissiyotga beriluvchanliklari va ko'pincha agressiyaning ob'ektiga aylanib qolishlari bilan bog'liqdir.

Fobiyaning juda ham ko'p turlari mavjud: odamlar biror hayvondan, hashoratdan, balandlikdan, yolg'iz qolishdan, kasalikka chalinishdan, ochiq yoki berk bo'shliqdan qo'rqadilar. Hatto insonlarda fobofobiya, ya'ni biror fobiyaga duchor bo'lishdan qo'rqish kabi turi ham uchraydi. Odamlarning doimo qo'rquv hissini qo'zg'atuvchi vaziyatdan qochishlari fobiyaning belgisidir.

Fobiyalar vaqtida inson qo'rquv ob'ektiga nisbatan vegetativ nerv sistemasidagi qo'zg'alishlar natijasida 2 xil usulda javob reakstiyasini ko'rsatishi mumkin:

1 – holatda, simpatik nerv sistemasi qo'zg'alib, yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining ko'tarilishi, terining qizarishi kabi belgilar ko'zatilsa, 2 – holatda esa parasimpatik nerv sistemasining ko'zg'alishi natijasida yurak urishining sekinlashuvi, qon bosimining pasayishi, teri rangining oqarishi, sovuq ter chiqishi kabi holatlar namoyon bo'ladi [81].

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, fobiya nasldan-naslga o'tadi. Ota-onada biror fobiya mavjud bo'lgan bo'lsa, farzandga ham shu holatga nisbatan moyillik nasliy yo'l bilan o'zatiladi, ammo bu moyillik aynan shu fobiya turiga nisbatan bo'lmasligi mumkin.

Fobiyalar inson hayotiy faoliyatining deyarli hamma jabhalarida uchrashi mumkin:

1) Insonning uyda bo'lish, xo'jalik ishlari, shaxslararo munosabatlar va hokazolar bilan bog'liq fobiyalar: yong'in chiqishidan, gaz bilan zaharlanishdan, tok zarbasidan (urishidan), suv bosib ketishidan, balandlikdan, ifloslikdan, yuvish vositalaridan, dorilardan, maishiy asboblardan portlab ketishidan, uyning qulab tushishidan, yolg'izlikdan yoki qorong'ulikdan qo'rqish.

2) Ish faoliyati bilan bog'liq fobiyalar (hamkasblar va boshliqlar bilan munosabatlardan, atrof - muhitdan va hokazolardan qo'rqish): ishni boshlashdan, ishni yo'qotib qo'yishdan, yangi mutaxassisligiga

mos bo'lmalikdan, ish joyida shikastlanish yoki baxtsiz hodisadan, nafaqaga chiqishdan, hamkasblari bilan o'zaro bir- birini tushuna olmaslikdan, boshliqlardan, nazorat – tekshiruvchi tashkilotlardan, muhim mo'zokaralardan, masuliyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqish.

3) Insonning shaxsiy, jinsiy hayoti bilan bog'liq fobiyalar: homiladorlikdan, farzandsizlikdan, zo'rlanishdan, jinsiy yuqumli kasalliklar yuqishidan, turli kasalliklar bilan kasallanishdan, qarilikning qiyin kechishidan, soch to'kilishidan, allergik reakstiyalardan qo'rqish va boshqalar.

4) Yashirin fobiyalar: Qarama - qarshi jins vakillaridan; biror illatga berilib qolishdan; alkogol, narkotik mahsulotlariga, dori vositalariga va boshqa xil tobelik yuzaga kelishdan; omadsizlikning takrorlanishidan, kimningdir joniga qasd qilishdan; o'ldirilishdan; yopiq joylardan, binolardan, o'zini o'ldirishdan, boyligini yo'qotishdan, aqldan ozishdan, o'zga sayyoraliklar bilan uchrashuvdan, turli ranglardan, ruh va arvohlardan qo'rqish.

5) Ota-onalarda kechadigan fobiyalar: o'z bepushtligidan, homiladorlikdan homilaga zarar etishdan, tug'ruq og'riqlaridan, turmush o'rtog'i bolani sevmasligidan, bolada qandaydir illat aniqlanishidan, unga ziyon etkazishlaridan qo'rqish.

Yuqorida keltirib o'tilgan fobiyalardan tashqari bolalar va o'smirlar, yigit va qizlar, erkaklar va ayollar uchun xos bo'lgan juda ko'p fobiya turlari mavjud. Ta'kidlab o'tilganidek, bu holatlarning oddiy qo'rquv yoki xavotirlik sifatida namoyon bo'lishi tabiiy hol. Ammo shu kabi o'y – fikrlarning inson miyasini band etishi, biror narsadan qattiq qo'rqish, hatto o'sha narsaning nomini eshitish yoki suratini ko'rishning o'zi ham insonning dahshatga tushishiga sabab bo'lishi va eng asosiysi bu qo'rquvlardan odam o'z iroda kuchi yordamida xalos bo'la olmasligi fobiyaning xarakterli xususiyatlaridandir .

Fobiyalar ma'lum vaziyatlar, hodisalar va tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan doimiy xavotirlar va qo'rquvlar asosida tez va sezilarsiz shakllanishi hamda og'ir psixopatologik asoratlar darajasigacha o'sib keladigan qiynoqli ruhiy kechinmalarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Xavotirlik, qo'rquv va fobiyalar kechishning davomiyligi bilan ajralib turadi, o'sib rivojlanishga, ortib borishga, o'z shakllarini o'zgartirib, boshqa hayotiy vaziyatlar, predmetlar shakllariga

aylanishga moyil bo'ladi. Ular doimiy tushkunlik, g'amginlik, holsizlik yoki agressiya holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bir odamning o'zida bir necha fobiyalar ko'zatilishi mumkin. Bunda inson o'z kasalligining barcha ko'rinishlarini tanqidiy idrok etishi to'liq saqlanib, bu hol uning ruhiy azoblarini yanada kuchaytiradi.

Fobiyalar inson xulqining ba'zi noodatiy holatiga ham sabab bo'lishi, atrofdagilarning nomuvofiq reakstiyasiga olib kelishi mumkin. Masalan, fobik qo'rquvlar sodir bo'lishi timsoli mavjud bo'lgan baxtsizlikdan himoyalanih maqsadida o'tkaziladigan butun boshli marosimgacha bo'lgan harakatlar, ko'pincha sog'lom fikr nuqtai nazaridan erish bo'lgan xulq-atvor ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, fobiya-insonlar emostional sohasining patologik holati bo'lib, asossiz ravishdagi kuchli qo'rquv ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Qo'rquv borasidagi ilmiy qarashlarning rivojlanishi. Shaxsdagi xavotirlilik va qo'rquv holatlari orqali insonda turli xissiy kechinmalar namoyon bo'lishi mumkin hamda bu holat shaxs kamolotiga ta'sir etishi mumkin. Bu boradagi g'oyalar sharq allomalari tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, shaxsning his-kechinmalari, qo'rquv va xavotirlanish kabi tuyg'ularning namoyon bo'lish holatlari haqidagi fikrlarini o'z asarlarida bayon etganlar.

Sharq allomalari asarlarida shaxs shakllanishi masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi jarayonida ro'y beradigan psixik-jismoniy o'zgarishlar muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turishi borasida qator fikrlar ilgari suriladi.

Sharqning qomusiy olimlaridan Abu Rayhon Beruniy insondagi axloqiy sifatlarning tarkib topishida ulardagi qo'rquv, xavotirlanish holatlarini muhim sanaydi.

Abu Ali ibn Sino esa o'zining keng doiradagi psixonevrologik amaliyotida ob'ektiv kuzatish metodiga juda katta e'tibor beradi. Shunga ko'ra turli emostiyalar organizmda, yurakda, qon tomirlarida, nafas olish organlarida har xil o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, nerv iztiroblari, kechinmalar va qo'rquv organizmning madorsizlanish holatiga olib kelishi mumkinligini isbotlaydi. Shunday qilib, ibn Sino fiziologik hodisalar bilan ruhiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanish borligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. U ruhiy kasalliklar jismoniy betoblik natijasi, deb hisoblaydi. Ibn Sino o'z faoliyati davomida

markaziy nerv sistemasining etakchilik roliga qayta ahamiyat berib, asab bo'zilishi (qo'rquv, asabiylik, iztiroblanish) butun organizmning darmonsizlanishi va susayishiga olib keladi, deb ko'rsatgan edi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda shaxs xavotirliligi va qo'rquv holatlariga ham alohida ahamiyat berilgan.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida, sharoitlar, vaziyatlar, ob'ektlar insonlarni cho'chitishi yoki yashirin qo'rqituvchi bo'lish mumkin. Boshqa fundamental hissiyotlardan ko'ra qo'rquvni ilmiy o'rganishning zaruratini shu bilan izohlash mumkin. Qo'rquvni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ushbu hissiyotni yanada kengroq tushunish imkonini beradi. (Bowlby, 1973; Gray 1971; Lewis, Rosenblum 1974; Rachman, 1974).

Qo'rquv – insonning fundamental emostiyalari kategoriyasiga kiradi (Gelgorn E, Lufbor – Roudj, 1966). Qo'rquv emostiyasi xavf solayotgan stimulg nisbatan javob reakstiyasi sifatida yuzaga keladi deb tasavvur etish mumkin. Xavfni tushunish, uni anglash hayotiy tajriba va shaxslararo munosabat jarayonida shakllanib boradi. Lekin bola uchun ba'zi indefferent qo'zg'atuvchilar asta-sekin xavfli ta'sirlar xarakteriga ega bo'ladi.

Qo'rquv hissi ixtiyorsiz ravishda yuzaga kelib, kuchli his-hayajon, xavotirlik yoki dahshat hissi bilan birgalikda kechishi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qo'rquv – affektiv xavfni qabul qiluvchi insonning his- kechinmalari va uning natijasidir deb aytish mumkin.

I.P.Pavlovning fikricha, qo'rquv tabiiy refleksning ko'rinishi, miya katta yarim sharlari po'stlog'ining tormozlanishi va passiv himoyalovchi reakstiyasidir.

Qo'rquv o'z-o'zini saqlab qolish instinktiga asoslanadi, himoya xarakteriga ega va yuqori nerv faoliyatining ma'lum fiziologik o'zgarishlari bilan birgalikda kechadi.

T. Ribo bolalarda sababsiz qo'rquvlar mavjud bo'lishini ta'kidlagan. Bu borada K.N.Kornilov quyidagi fikrni bildirgan: Qo'rquv hissi nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham xos tuyg'udir. Bu holat ularning faoliyat jarayonlarida atrof-muhit, notanish predmetlar va sharoitlar bilan tanishish mobaynida namoyon bo'ladi va insonlarni ongli ravishda undan qochishga undaydi.

Qo'rquv o'zining intensivligiga qarab odamda avvaldan sezish, ishonchsizlik, himoyasizlik sifatida namoyon bo'ladi.

Bu vaziyat insoning o'z hayotiga, tanasiga yoki ruhiy holatiga nisbatan xavfni his qilganda aks etadi.

Ballning yozishicha, qo'rquv sezgisi o'zining eng oddiy shaklida aniq qarama- qarshi tabiatga ega bo'lib, tadqiq qilish instinkti va o'z jonini saqlashga intilish instinkti o'rtasidagi kurashning mavjudligi bilan bog'liqdir. Bu ikki qarama- qarshi tendensiya qo'rquvni boshlang'ich holatda hayratda qolish va so'nggida o'ziga xos moslashish fe'l - atvorini namoyon qilishda ko'rinadi.

Qo'rquv «qorong'ulikdan paypaslab qutilish» kabidir, ya'ni u xavfni durustroq baholashdan oldin sodir bo'ladi.

Qo'rquv o'zining salbiy jihatlariga qaramasdan, insonning ruhiy hayotida turli xil funkstiyalarni bajaradi: Qo'rqish xavf- xatarga javob reakstiyasi sifatida u bilan to'qnashishdan qochishga imkoniyat yaratadi, ruhiy o'z- o'zini boshqarish tizimida himoyaviy, moslashtiruvchi rolni o'ynaydi.

K.Izardning ta'kidlashicha, qo'rqish xavfni oldindan tasavvur qilish, tashvishlanish, xavfsirash sifatida boshdan kechadi. Insonda go'yo vaziyat nazoratdan chiqib ketgandek hissiyot paydo bo'ladi va odam o'zida borgan sari ishonchsizlik seza boshlaydi. Qo'rquv odamda mutlaqo himoyasizlik va o'zining xavfsizligiga ishonmaslik sifatida kechadi. Izard qo'rquv sabablarini 4 turga ajratadi:

- a) Tashqi hodisalar va jarayonlar.
- b) Xohish, intilish va ehtiyoj.
- v) Emostiyalar.
- g) Shaxsning kognitiv jarayonlari.

Shu sabablar natijasida kelib chiqqan qo'rquvlar tug'ma yoki orttirilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

A.Kempinski o'z tadqiqot ishlarida qo'rquvning 4 turini tasvirlab beradi. Bular: biologik, ijtimoiy, ma'naviy hamda dezintegrastion.

Biologik qo'rquv odamning o'z hayotiga yoki nasliga xavf bilan bog'liq. Ijtimoiy qo'rquv ijtimoiy sohada aloqalar bo'zilgan vaziyatda paydo bo'ladi. Ma'naviy qo'rquv esa shaxs o'zining xulq-atvori me'yoriy orientiri sifatida atrofdagilar taklifini qabul qilmaslik natijasida paydo bo'ladi.

Dezintegrastion qo'rquv informastion oqim tizimining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi.

A.I.Zaxarov vaziyat bilan bog'liq va shaxsga aloqador qo'rquvlarni solishtirish natijasida quyidagicha fikrga kelgan: Vaziyatga bog'liq qo'rquv xavf tug'diruvchi sharoitlar bilan bog'liq bo'lsa, shaxsga tegishli qo'rquv inson tabiati bilan aloqadordir. Ular o'rtasidagi tafovut yana shunda ko'rinadiki, vaziyat bilan bog'liq qo'rquvlar amalga oshadigan va tig'iz, shaxsga bog'liqlari esa tasavvur qilinadigan va surunkali bo'ladi.

T.V.Abakumov qo'rquvni tasniflashda bir necha mezonlarni taklif qilgan:

A) Qo'rquv paydo bo'lishida inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan manbalar (biologik, texnogen).

B) Atrof-muhitdagi haqiqiy holat to'g'risida to'la va aniq tasavvurning yo'qligi (ijtimoiy va bolalarda uchrovchi qo'rquvlar)

V) Ontologik (diniy, ekzistenstional).

G) Gnoseologik (ma'lumotlarning ko'pligidan haddan ziyod qo'rqish). Qo'rquv va fobiyalarning kelib chiqishi va kechish mexanizmlari to'g'risida ko'pgina ilmiy nazariyalar va qarashlar mavjud. Turli psixologik maktab namoyondalari insonda fobiyaning kelib chiqish sabablarini turlicha talqin qilishadi. Z.Freydning psixodinamik modeli bir vaqtlar katta e'tibor qozongan bo'lsa, keyingi (oxirgi) yillarda bu borada bixevioristlar nazariyalari juda ko'p qo'llab-quvvatlanishlarga sazovor bo'ldi.

Psixodinamik nazariya: Z.Freydning fikricha, fobiya – yashirin xavotirlilikni nazorat qilish uchun insonning siqib chiqarish va ko'chirish himoya mexanizmidan ortiqcha foydalanishi natijasidir. Bunday insonlar ko'pincha qo'rquv va xavotirlilikni keltirib chiqaruvchi signallarni ong ostiga siqib chiqarishadi va nazorat qilish oson bo'lgan neytral ob'ekt yoki vaziyatga nisbatan mavjud qo'rquvlar bilan aralashtirib yuborishadi [32].

Psixoanaliz ta'limotiga ko'ra nazorat qilinmaydigan, avtomatik tarzda vahima bilan kechadigan qo'rquv shaxs taraqqiyotining ilk, arxaik bosqichini eslatadi. Signal qo'rquvga qobillik esa, aksincha shaxsning ma'lum darajada etukligini bildiradi. Ayni paytda avtomatik qo'rquv «Men»ni ezib, yanchib, tashlashga qobil bo'lsa, signal qo'rquv «Men»ga xizmat qiladi, uni xavf haqida ogohlantiradi.

Xavfdan bunday himoyalalanish unga real qarshi turish qobilligidan iborat bo'lishi kerak. Lekin bolalikda hali bunday qobiliyat shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham bolalar qo'rquvining keng

tarqalganligi tabiiydir. Bolalar «Men» ida afsuski bunday qoʻrquvlarga qarshi turishning kerakli xulq usullari yoʻq.

Zaruratdan kelib chiqib, bola oʻzini qoʻrquvdan himoya qiladigan psixik mexanizmlarini kashf qiladi. Qoʻrquv bir muncha chidasa boʻladigan darajaga kamayadi. «Men» oʻz himoyasi uchun uni orqasiga oʻtib berkinsa boʻladigan oʻziga xos «devor» quradi. Buning uchun himoya «devori» qoʻrquvni qaytarishga qobil darajada baquvvat boʻlishi kerak. Xavf esa har doim ham tashqaridan kelavermaydi, u ichki shaxsiy psixik qobiqni ham yorib oʻtishi mumkin. Tashqi va ichki xavfdan saqlaydigan himoya devori oʻrtasidagi farqni bilish psixoanaliz taʼlimotidagi asosiy gʻoya edi [60].

Freydning fobiyani yuzaga kelishi borasidagi nazariyasi yillar davomida ilmiy jihatdan qoʻllab-quvvatlanmadi, zamonaviy psixodinamik, gumanistik, kognitiv va biologik model namoyondalari ham fobiyaning odamlarda yuzaga kelishi borasida aniq bir fikr bildira olmadilar. Ammo bixevioristlarning bu boradagi ishlari ilmiy jihatdan qoʻllab-quvvatlandi va hozirgi kunda terapevtik sohada ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Bixevioristik nazariya. Bixevioristlarning fikricha, fobiyaga duchor boʻlgan insonlarda biror obʻekt, vaziyat yoki hodisaga nisbatan qoʻrquv klassik yoʻnalish qoidasiga muvofiq kechadi. Lekin qoʻrquvni his qilgan insonlar qoʻrqayotgan obʻekt va vaziyatlaridan qochishga harakat qiladilar va bu bilan oʻz qoʻrquvlarini nazorat qilish imkonini yoʻqotadilar.

Bixevioristlar aslida xavfli boʻlmagan obʻekt va vaziyatlarga nisbatan qoʻrquvni yuzaga kelishini oʻzida muvofiqlashtiruvchi klassik yoʻnalishlarini ishlab chiqishdi. Klassik yondashuvga koʻra bir vaqtda sodir boʻluvchi 2 voqea inson ongida oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib qoladi. Soʻng esa inson har ikkisiga ham bir xil munosabatda boʻladi. Agar bir voqea insonda qoʻrquvni keltirib chiqarsa ikkinchi holat ham xuddi shunday taʼsir koʻrsatadi.

Qoʻrquvning kelib chiqishi modellashtirish usuli orqali, yaʼni kuzatish va taqlid qilish orqali ham sodir boʻladi. (Bandura and Rosenthal, 1966). Odam birovning biror predmet yoki hodisadan qoʻrquvini koʻzatib borishi natijasida oʻzida ham shunday holat paydo boʻlishi mumkin.

Bixevioristlarning taʼkidlashlaricha, insondagi qoʻrquvlar oʻsib, rivojlanib, miqdor jihatdan oshib borishi mumkin. Boshqacha qilib

aytganda, biror bir stimulgga ko'rsatilgan reakstiyani shunga o'xshash boshqa stimular ham keltirib chiqarishi mumkin. Natijada reakstiyani keltirib chiqaruvchi stimullar hajmi kengayib boradi.

Bixevioristlar tomonidan o'tkazilgan ba'zi laboratoriya eksperimentlari odamlar va hayvonlarda shartli refleksni hosil qilish orqali qo'rquv reakstiyasini vujudga keltirish mumkinligini ko'rsatadi.

Qo'rquvga og'riqqa qarshi shartli reakstiya deb qarash mumkin, og'riq esa birlamchi tasodifiy mayl bo'lib, qo'rquv ob'ektidan qochishning mustahkamlanishi natijasidir. Shuni aytish mumkinki, sun'iy ravishda hosil qilingan qo'rquvda ham, garchi u haqiqiy og'riq bilan bog'liq bo'lmasa-da, qochish reakstiyalari hosil bo'ladi va saqlanib qoladi. Qo'rquv erishilgan va mustaqil hissiyot bo'lib, uni har xil sabablar bilan bog'lash mumkin.

Bunday fikrlar birinchi marta Maurer (Mowrer, 1939) tomonidan bayon etilgan edi. Bu hol 1926 yili Freyd taklif etgan qo'rquv borasidagi psixoanalitik nazariyaning ikkinchi varianti sifatida qo'llanilgan edi. Bu nazariyaga binoan qo'rquv "real", ya'ni faol signal bo'lib, yaqinlashayotgan xavfdan ogohlantiruvchi va himoya reakstiyalarini namoyon etadi. Maurerning ta'kidlashicha, qo'rquv ilk bor og'riq his qilingan vaziyat bilan bog'liq signal stimullarini chaqiradi. Og'riqqa nisbatan shartli namoyon bo'lgan qo'rquv keyinchalik qochish reakstiyasi bilan aks etuvchi tasodifiy zo'riqish holatidagi avtonom maylga aylanadi. Kelajakda qo'rquv og'riq mavjud bo'lmagan holatda ham qochish reastiyasi bilan namoyon bo'la boshlaydi.

Bu ta'rifdan Maurer (Mowrer) 1938 yilda odamlar bilan o'tkazgan tadqiqotida foydalandi. Sinaluvchilar barmoqlariga yorug'lik signali bilan bir vaqtda engil elektr toki ta'sir ettiriladi. Natijada sinaluvchilarda elektr toki yorug'lik nuriga nisbatan ko'proq ta'sirlanishlariga sabab bo'lgani aniqlandi. N. Miller o'zining (Miller, 1941, 1948) qo'rquvni o'rganish borasidagi qator tadqiqotlari asosida quyidagicha fikrga keldi: Qo'rquv og'riq stimullariga nisbatan vegetativ nerv sistemasining shartsiz reakstiyasi orqali namoyon bo'ladi. U boshqa shartli sistemalar orqali ham kelib chiqishi mumkin. Ammo qo'rquv bir vaqtning o'zida reakstiyani keltirib chiqaruvchi stimuly vazifasini ham bajaradi.

Xallning tushuntirishicha, qo'rquv bilan mayl ba'zi qarama – qarshiliklarga ega. Hayvonlarda o'tkazilgan eksperiment natijasiga

ko'ra ularda og'riqni yuzaga keltiruvchi ta'sirdan tezroq qochish holatlari ko'zatiladi. Bir qancha sinovlardan so'ng hayvonlarda hatto og'riq ko'zatilmasdan avval ham ta'sirotdan qochishga harakat holati namoyon bo'lgan, aniqrog'i, ularda og'riqdan qochish ko'zatilgan. Bu holatlar refleks natijasi sifatida yuzaga kelmaydi. Bu jarayonni qo'rquvni maylning funkstiyasi sifatida qarash orqali tushuntirish mumkin. Qo'rquv ta'sirida qochish reakstiyasi bu reakstiyani mustahkamlaydi va uning so'nishiga qarshilik qo'rsatadi (qo'rquvning o'zi butunlay yo'qolmaguncha).

Olimlarning ta'kidlashlaricha "noma'lum" va "yangi" narsa insonlarda, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda qo'rquv hissini vujudga keltirar ekan.

Sharlotta Byullerning fikricha, biror predmet yoki hodisaning noma'lum va sirli holatda aks etishi butun organizmni qamrab oladigan va salbiy emostional reakstiya sifatida namoyon bo'ladigan qo'rquv hissini vujudga keltiradi va faqat o'sha "noma'lum" hodisa bilan tanishgandan so'nggina salbiy emostiyalar ijobiy tarafga o'zgaradi. E.Franus o'z tadqiqotlarida aniqlashicha, bolalarda izlanish refleksi qo'rquvning ilk reakstiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Qachonki yangi ta'sirot tushunarsiz yoki bola avval qo'rqqan narsa bilan bog'liq bo'lsa, bu holatda qo'rquv yoki xavotirlik reakstiyasi vujudga keladi. Susulovskayaning tadqiqotlariga ko'ra biror bir yangi predmet yoki hodisaga nisbatan insonda yuzaga keladigan birinchi reakstiyasi - bu qo'rquv bo'lgan. Xebning konstepstiyasida ham ushbu fikr tasdig'ini ko'rish mumkin, ya'ni bunga ko'ra qo'rquvning shartsiz reakstiyasini biror bir ma'lum va tanish bo'lgan voqea - hodisa bilan bog'lab bo'lmaydigan sirli jarayonlar yoki yangi ko'rinishda namoyon bo'layotgan predmetlar yuzaga keltiradi. Qo'rquv va xavotirlik tufayli shu ob'ektga nisbatan emostional aloqa o'rnatila olinmaydi, chunki bu hissiyotlar repulsiv reakstiyalarni keltirib chiqaradi. Ayni paytda esa emostional aloqa propulsiv reakstiyalarni, ya'ni shu reakstiyalarni keltirib chiqargan predmetdan o'zoqlashtiruvchi emas, balki unga yo'naltirilgan reakstiyalarni taqozo etadi .

Qo'rquvning kelib chiqishga biologik omillar sabab bo'ladimi yoki atrof muhit omillarimi degan savol hali xano'z olimlarni qiziqtirib kelayapti. Biologik kelib chiqishni yoqlaydigan tarafdorlar qo'rquvni evolyustiya jarayonida genetik yo'l bilan nasldan- naslga o'tgan, deya e'tirof etadilar. Chunki qorong'ulikdan, balandlikdan, hayvonlar va shu

kabilardan qo'rqadigan insonlar o'z nasllarini davom ettirish uchun etarlicha o'zoq yashash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Qo'rquvning kelib chiqishida atrof-muhit omillarini etakchi o'ringa qo'ygan olimlar esa insonlarning hayotiy tajribalari ularni bolalik chog'laridanoq qo'rquvning haqiqiy manbasi bo'lgan ob'ektlarni aniqlashga o'rgatadi va bu holat ko'pgina odamlarda shunga muvofiq keluvchi qo'rquvlarning shaklanishiga olib keladi, degan fikrni bildiradilar.

Qo'rquvning sabablari xavfdan xabar beruvchi voqealar, sharoitlar yoki vaziyatlar bo'lishi mumkin. Tahdid hamda yashirin holdagi shikast jismoniy va psixologik ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Boulbining (Bowlby, 1973) ko'rsatishicha, qo'rquvning sababi taqdid soluvchi xavfning mavjudligi yoki xavfsizlikni ta'minlovchi omilning yo'qligi (masalan, go'dak uchun shunday ob'ekt bo'lib ona hisoblanadi) bo'lishi mumkin.

Greyning qayd qilishicha, voqealarni kutilmagan vaqtda sodir bo'lishi ham qo'rquv chaqirishi mumkin. Qandaydir voqeaning qo'rquvni chaqirishi hodisa qanday kontekstda sodir bo'layotganiga va har bir shaxsning temperament hamda harakter xususiyatlariga bog'liq (Kagan 1974, Charlesworth 1974, Hersild, Holmes, 1935, Gray, 1971)

Olimlarning ta'kidlashicha, azob- uqubat ham qo'rquv chaqiradi, bu ular orasidagi aloqa bilan bog'liqdir.

Grey (Gray, 1911) qo'rquvning barcha sabablarini to'rtta kategoriyaga ajratadi: intensivligi, yangiligi, xavf haqidagi evolyustion yo'l bilan yaratilgan xabarlar, ijtimoiy munosabatlarda paydo bo'luvchi sabablar shular jumlasidandir.

Boulbi (Bowlby, 1973) qo'rquvning tug'ma determinatlarini ajratib, ularni tabiiy stimullar va ularning hosilalari deb ataydi. Yolg'izlik, g'ariblik, ta'sirning to'satdan o'zgarishi va hokazolar qo'rquvning tabiiy stimuli hisoblanadi. Boulbining fikricha, bu vaziyatlarning barchasida qo'rquvni boshdan kechirish tendenstiyasi patologik ko'rinishda bo'lmasligi tabiiy holdir, buning ustiga bu holat ma'lum darajada odamda bolaligidan qariguniga qadar saqlanib qoladi va boshqa hayvonlar turlariga ham xosdir. Qo'rquvning tug'ma determinantlari xavf-xatar ehtimoli yuqori bo'lgan vaziyatlar bilan bog'liqdir. Qo'rquvning orttirilgan stimullariga esa qorong'ulik, hayvonlar, notanish predmetlar va notanish odamlar kiradi. Boulbining

ta'kidlashicha, qorog'ulikdan qo'rqish yolg'izlik va notanishlik kabi tabiiy stimullarning kombinastiyasi bo'lishi mumkin.

Boulbi hamda boshqa mualliflarning (Lewis, Rosenblum, 1974) ko'rsatishlaricha, qo'rquvning tabiiy stimullari yosh davrlari bilan bog'liq holda kechadi. Ushbu olimlarning fikricha yolg'izlik qo'rquvni yuzaga kelishining eng asosiy sabablaridan biridir. Bolalik yoki qarilikda kasallikka chalinish ehtimoli yolg'izlikda jiddiy kuchayadi.

Boulbi qo'rquv jarayonlaridagi ta'sirchanlik va boshqa xatti – harakatlarga oid bir qancha aktlarni sanab chiqadi va ularni qo'rquvning indikatorlari sifatida baholaydi. Bularga ehtiyotkorlik bilan tikilib qarash, harakatning sekinlashuvi, qo'l va oyoqning qaltirashi, yig'lash, qochib ketish va hokazolar kiradi.

Charlzvort tomonidan taklif qilingan qo'rquvning indikatorlari ro'yxatiga esa xulq-atvorda qisqa muddatli yoki o'zoq davom etgan tormozlanish yoki sekinlashish, yuqori xushyorlik, qo'g'atuvchidan qochish, yuzdagi jiddiylik yoki hadiksirash belgilari kiradi. Charlzvolt qo'rquv yana ehtiyotkorlik yoki hadiksirash, hatto tabassum va kulgu bilan birgalikda namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Go'daklarning begonalarga nisbatan reastiyalarini eksperimental tahlil qilish qo'rquvning ba'zi keng tarqalgan indikatorlari aslida boshqa emostiyalarni ifodalaydi, deb fikrlashga asos bo'la oladi.

Bronsonning (Bronson 1972 -1974) aniqlashicha, 3-4 oylik go'daklar begonalarga o'zoq va sinchiklab tikilar, begona odamlar yuzlarini ilgaridan tanish bo'lgan yuzlar tasviriga moslashtirishga harakat qilar ekanlar. 9 oylik go'dak begonalarning tashqi ko'rinishning juda tez o'zlashtirib oladi va ularga o'xshash odamlar bilan avvalgi sodir bo'lgan noxush voqealar ta'sirida bolada salbiy reakstiyalar paydo bo'ladi. Bronsonning qarashlari amaliyotga, tajribaga asoslanmagan bo'lsa ham, uning kuzatishlari bolaning boshidan kechirgan emostional holatlari mazmuni to'g'risidagi an'anaviy tasavvurlarni shubhaga olish uchun asos bo'la oladi.

Kagan o'z ilmiy izlanishlari natijasida qo'rquvda 4 ta holatdagi “azob - uqubat” mavjudligini ta'kidlab o'tadi. Ular quyidagilardir:

- A) aralashib ketmaslik ixtilofi;
- B) noxush hodisani bashorat qilish;
- V) vaziyatni avvaldan aytib bera olmaslik;
- G) qarashlar va xulq-atvor o'rtasidagi nomuvofiqlikni e'tirof qilish;

D) turli qarashlar o'rtasidagi ixtiloflarni tan olish.

Kagan sanab o'tilgan sabablardan beshinchisini azob-uqubat holatining manbai sifatida qaraydi va uni "qo'rquvdan xavfsirash" deb ataydi. Umuman olganda har qanday emostiya qo'rquvni vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Qo'rquv ham o'z navbatida boshqa emostiyalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Qo'rquv bilan boshqa emostiyalarning neyrofiziologik mexanizmlari o'xshash, ko'pincha ular shu mexanizmlarning faollashtiruvchilari hisoblanadi.

Tomkinsning ta'kidlashicha, agar odamni o'zoq davom etgan va kuchli qo'rquvdan bexosdan to'liq ozod qilinsa shodlikka, agar chala ozod etilsa qo'zg'alishga olib keladi. Qo'rquv bilan qo'zg'alish o'rtasidagi bilvosita mustahkam aloqa borligini Ballning "qo'rquvda gipnotik ishontirish" ga bag'ishlangan ilmiy ishida ham ko'rish mumkin.

Shaxs takomillashuvi jarayonida har qanday boshqa emostiyalar ham qo'rquvning sababchisi bo'lib qolishi mumkin. Shubhasiz, qo'rquvning o'zi odamning o'z-o'zini ichki faollashtiruvchisi va kuchaytiruvchisi hisoblanadi

Kognitiv jarayonlar ham qo'rquvning eng umumiy va keng tarqalgan sabablari deb tasavvur qilinadi. Masalan, qandaydir ob'ektning xotirada fikran yaratilishi yoki antistipastiya qo'rquvni vujudga kelishga etarli asos bo'la oladi.

Shunday qilib, predmet yoki biror vaziyat qo'rquvning ob'ekti bo'lishi mumkin va u quyidagi yo'llar, ya'ni:

A) g'oya va gipotezaning shakllanishi:

B) antistipastiya:

V) bevosita to'qnashish orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, xorij psixologlari tomonidan qo'rquv hissi o'rganilib, uning sabablari, kechish mexanizmlari atroflicha yoritib berilgan.

holat esa bu borada hali ko'p ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida psixologlarni qo'rquv va xavotirlanish holatini o'rganishga qiziqishlari ortib bormoqda.

Qo'rquv holatini bartaraf etuvchi psixokorreksiya mashqlar tavsifi

Hozirgi kunda fobiyalarning 600dan ortiq turi mavjud ekan, ularni korrektsiya qilishda bu holatning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi psixologik omillar hisobga olingan holatda yondoshiladi.

Fobiyalarni korrektsiya qilishda psixoanaliz, kognitiv terapiya va boshqa psixoterapevtik usullardan foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda fobiyalarni korrektsiya qilishda emostional obrazli terapiyadan ham keng foydalaniladi. Ushbu usul o'z mohiyatiga ko'ra fobiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni tez sur'atda aniqlash va tezda bartaraf etish imkonini beradi.

Bu metodning eng asosiy ijobiy xususiyati shundaki, bunda terapiya natijasi «shu erda va hozir» qoidasiga muvofiq ayni vaqtning o'zidayoq aks etadi.

- 1) Kuzatish - obrazning (obraz deyilganda qo'rquv ob'ekti nazarda tutilmoqda) biror bir salbiy xususiyatiga ko'ruv, eshituv va kinestetik sezgilar orqali diqqat qaratiladi va bu holat ong osti sohasida psixologik korrektsiyaga olib keladi.
- 2) Fikriy harakat - bunda shaxs muammosini adekvat hal qiluvchi obrazlar bilan fikriy xatti-harakatlar amalga oshiriladi (obrazni engish va yo'qotishga harakat qilish bundan mustasno).
- 3) Dialog - bunda obraz bilan suhbat quriladi va barcha qiziqtirgan savollarga javob olinadi. Bu usulning maqsadi hodisalarning psixologik mohiyatini insonga anglatishdir.
- 4) Qarama-qarshiliklarning o'zaro ta'siri - bunda qarama-qarshi his-tuyg'ularni keltirib chiqaruvchi obrazlarning o'zaro ta'siri ko'zda tutiladi.
- 5) O'rin almashtirish - aynan fikriy o'rin almashtirish nazarda tutilib, bunda salbiy obrazlar ijobiy obrazlar bilan almashtiriladi.
- 6) Hissiyotlarni namoyon etish - «bosib qo'yilgan», yashirilgan his-tuyg'ularni aks ettirish, namoyon etish jarayoni (boshqariluvchi katarsis).
- 7) Obraz hayotini yashab o'tish-obrazning paydo bo'lish tarixini va kelajagini hayolan bosib o'tish, tasavvur etish.
- 8) Erkin fantaziya - mijozning obrazga qaratilgan erkin fantaziyasini spontan yakun yoki insayt holatigacha qo'llab-quvvatlash.

- 9) Shaxs xususiyatlari o'rtasida yangi munosabatlarni tarkib toptirish- Shaxsning avval rad etilgan xususiyatini boshqa muhim munosabatlarni tarkib toptirish asosida qabul qilish.
- 10) Yangi qarorni ma'lum qilish - salbiy hayotiy qarorni aks ettirgan obrazga shaxs o'zining ijobiy qarori haqida ma'lum qilishi. Bu holat o'sha obraz yo'qolguncha davom ettiriladi.
- 11) Salbiy energiya konversiyasi- ilgari salbiy his-tuyg'ularni yaratish uchun sarflangan ijobiy energiyani hayolan qaytarish.
- 12) Paradoksal ijozat metodi - obraz shaxs uchun man etgan tuyg'u va xatti-harakatni amalga oshirishga obrazning o'ziga ruxsat berish.
- Ushbu emostional obrazli terapiya usullaridan fobiyalarning turli ko'rinishlarni korrekstiya qilishda foydalanish mumkin.
- Sostiofobiya jarayoni shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosi bilan bog'liq ekan, ushbu holatni korrekstiya qilishda ham shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosini ko'tarish evaziga amalga oshirish mumkin. Buning uchun o'smirlarda o'zini anglashga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga, o'z-o'ziga adekvat baho berishga hamda shaxslararo munosabatlarda muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi mashqlardan iborat trening mashg'ulotidan foydalanish mumkin.

Nevrozlar va isteriklar - ruxiy faoliyatning asliga keltirish mumkin bo'lgan ruxiy faoliyat bo'lib, u ruxiyatga zarar etkazadigan, ta'sir qiladigan omillar va bemorning o'z kasalligini to'g'ri tushunishi va borliq dunyoni to'g'ri tasavvur qilishga bog'liqdir. Nevrozlardan tashqari, nevrozsimon holatlarni ajratishadi, ular birorta kasallik sababli paydo bo'ladi va o'zining tashqi alomatlari bilan nevrozlarga o'xshaydi. Mamlakatimizda nevrozlar sifatida an'anaviy ravishda nevrasteniya, isteriya va yopishqoq holatlar nevrozi tafovut qilinadi. Nevrasteniya kamida to'rtta obligat simptomlar bilan tavsiflanadi.

1. Tashqi ta'sirotlarni ko'tara olish bo'sag'asining pasayishi, shu tufayli, bemor o'zining (emostional) reakstiyalarini, ya'ni his hayajonlarini nazorat qila olmaydi, bu tutoqib ketish, g'azabkorlik, o'zini tuta olmaslik, yig'loqilik bilan namoyon bo'ladi.
2. Bemorning jismonan va ruhan holi juda quriydi, mehnat qobiliyati pasayib ketadi, darrov toliqib qoladi, lanj bo'ladi, diqqatini uncha to'play olmaydi.
3. Uyquning bo'zilishi - bemor darrov uxlay olmaydi, uyqusi yuzaki bo'ladi, kundo'z kunlari juda uyquchan bo'ladi, ertalab uyqudan lanj

bo'lib turadi.

4. Polimorf somatovegetativ bo'zilishlar - bosh tortib og'riydi (nevrasstenik kaska), bemor tomirning urishini sezib turadi, yurak sohasi og'riydi, ishtahasi pasayadi, meteorizm, ichi qotadi, goho ichi ham ketib turadi, panjalar va oyoq kaftining lokal gipergidrozi bo'ladi, qovoqlari o'chadi, qo'l barmoqlari qaltiraydi, yuz mushaklari tiki paydo (aksari qovoqlarda) bo'ladi, jinsiy qobiliyat pasayadi, erkaklarda shahvat tez ketib qoladi, ayollarda frigidlik (erzadalik) bo'ladi.

Nevrasteniyaning kechishida uchta davr tafovut qilinadi.

1-bosqich - o'ta jahldorlik, o'z his-hayajonlarini nazorat qila olmaslik simptomlari ustunligi bilan tavsiflanadi.

2-bosqich - obligat nevrasstenik simptomlarining ozib ketish (vahima, depressiya) bilan bir kechishi bilan farq qiladi.

3-bosqich - tezda ozib ketish, gipodinamiya, lanjlik, depressiya bilan xarakterlanadi.

Nevrasteniyani kasallikning bosqichini hisobga olgan holda davolanadi.

1-bosqichda trankvilizatorlar; 2- bosqichda trankvilizatorlar va nootrop vositalar; 3- bosqichda antidepressantlar va psixostimulyatorlar qo'llaniladi. Nevrasteniya nevroz juda toliqib qolish yoki asabni buzadigan omillar o'zoq ta'sir qilib turishi natijasida paydo bo'lishi tufayli kasallikning barcha bosqichlarida psixoterapiya buyuriladi.

Isterik nevroz. Isteriya - nevroz polimorf funktsional ruxiy, somatik va nevrologik bo'zilishlar bilan paydo bo'ladi va juda ta'sirchanlik, o'z-o'ziga ta'sir qilish, qanday yo'l bilan bo'lmasin atrofdagi odamlarning diqqatini o'ziga tortish bilan namoyon bo'ladi. Isterik nevroz to'satdan: qattiq ruhiy iztirob yoki og'ir ozor etkazadigan vaziyatning sekin-asta o'zoq vaqtlar ta'sir qilib turishi natijasida, odatda konstitutsional - shaxs xususiyatlariga ega odamlarda paydo bo'ladi.

Isteriyaga moyil odamlarning shaxsiy xususiyatlari odatda chaqaloqligidan, uni juda avaylab, papalab noto'g'ri tarbiya qilganda, barcha injiqliklariga ko'nganda yoki aksincha bolaga yomon, beshafqatlik bilan qaraganda paydo bo'ladi. Bunday odamlar katta bo'lganlarida hayot qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar, oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishga noqobil bo'ladilar. Ana shunda bemorda ruxiy raqobatlar paydo bo'lib, nevrozga olib boradi.

Isteriya uchun quyidagi belgilar xos. Egostentrizm, odamlarni

qanday yo'l bilan bo'lmasin o'ziga qaratishga intilish, jumladan kasallikning g'ayrioddiy simptomlari. Oliftagarchilik, o'zini ko'z-ko'z qilish, injiqlik, infantillik, atrofdagi boshqa odamlarning oldida kasallik alomatlarining zo'rayishi. Hayot qiyinchiliklaridan qochib, ba'zan odam o'zi bilmagani holda kasallik bilan bo'lib qolishi

Isteriyaning klinik manzarasini nevrologik, ruxiy va aralash bo'zilishlarga bo'lishadi. Nevrologik bo'zilishlar harakat, sensor (sezgi) va vegetativ bo'zilishlar bilan namoyon bo'ladi. Harakat bo'zilishlari aksari yurishning juda o'zgarishi, statik ataksiya, falajliklar, parezlar bilan namoyon bo'ladi, shunda ham reflektor sferada o'zgarishlar bo'lmaydi.

Asab qattiq bo'zilganda paydo bo'ladigan isterik tutqanoqlar nihoyatda odamlarni o'ziga tortadi. Epileptik tutqanoqlardan farq qilib, bemorlar hech qachon hushlaridan ketmaydilar, shikastlanmaydilar, tillarini tishlamaydilar va siyib yubormaydilar. Tutqanoqda tomoqqa narsa tiqilgandek bo'ladi, shundan keyin bemor yig'lay boshlaydi, o'kirib yig'lashga o'tadi, keyin birdan xaxolab kuladi; bemor bezovta bo'lib, titrab-qaqshaydi, erda yumalaydi, qo'llari va oyoqlari bilan erni uradi, bukilib oladi, sochlarini yuladi. Isterik tutqanoq bir necha daqiqadan, bir necha soatgacha cho'ziladi, shundan keyin bemor jimib qoladi, to'la yoki qisman amneziya bo'ladi.

Sensor bo'zilishlar sezgining odatda anesteziya bilan, gemitipda, qat'iy o'rta chiziqda yo'qolishi bilan namoyon bo'ladi. Biroq tananing deyarli turli sohalarida sezgi o'zgargan joylar ham uchraydi, bu innervastiyaning anatomik zonalariga mutlaqo mos kelmaydi.

Vegetativ - vistseral bo'zilishlar hozirgi paytda ancha keng tarqalgan. Silliq mushakning spazmi munosabati bilan bemorning tomog'i qisiladi («isterik narsa tiqilishi»), havo etishmaydi, nafas olishi qiyin bo'ladi, yuragi og'riydi, jag'lari tortishadi. Ayollarda «soxta homiladorlik» paydo bo'lishi mumkin, go'yo amenoreya bo'ladi, qorin kattalashadi, sut bezlari kattalashadi. Jinsiy hayot ham o'ziga xos bo'ladi, frigidlik bilan birga noz-qarashmalar qilganda ham jinsiy qoniqmay, erkaklarda esa potentsiya susaygani holda shahvoniy hirs kuchayadi.

Isteriyada ruxiy bo'zilishlar polimorf bo'ladi. Odatda bular oliftagarchilik qilish, qo'llarni chalkashtirib, oh-voxlarni qilish, bilan kechadigan fobiyalardir.

Isteriya har qanday kasallikda ruxiy simptomlar bilan yuzaga chiqadi. Bu xildagi nevrozni davolash kompleks olib boriladi, psixoterapiya

o'tkaziladi, umumquvvatga kirituvchi vositalar, trankvilizatorlar va kichikroq dozada neyroleptiklar qo'llaniladi.

Isterik nevroz (Isteriya)

«*Isteriya*» so'zi yunoncha «*hysteria*» so'zidan olingan bo'lib, *bachadon* degan ma'noni anglatadi. Bu kasallik belgilari haqida qadimgi risolalarda ko'p yozilgan va isteriyani avvallari bachadon funkstiyasi bilan bog'lashgan, chunki uni, asosan, ayollarda kuzatishgan. Keyinchalik isterik buzilishlar erkaklarda ham aniqlangan bo'lsa-da, uning avvalgi nomi saqlanib qolgan. Isteriya nevrozning boshqa turlari kabi keng tarqalgan kasallikdir.

Isterik nevroz, asosan, yoshlik davrida, ko'proq ayollarda kuzatiladi, ayni paytda, uning kelib chiqishi xulq-atvorning bolalikdan isterik tarzda shakllanishiga bog'liq.

Ortiqcha ta'sirlanish, har narsaga haddan tashqari e'tibor berish, mustaqil fikrlay olmaslik, ortiqcha ish onuvchanlik, rang-barang his-tuyg'ularga berilish isteriya uchun juda xos belgilardir. Ular ruhan va jismonan zaif kishilar hisoblanadi. Ko'pchilik isterik bemorlar fe'l-atvori bolalarniki kabi bo'ladi. Bunday bemorlar uchun atrofdagilar diqqatini o'ziga jalb etish xosdir. Isterik buzilishlar faqat nevrozlarda emas, balki psixopatiyalarda ham kuzatiladi. Isterik nevroz simptomlari aksariyat hollarda xilma-xil kasalliklar alomatini eslatadi, shu bois ham isteriyani «katta mug'ombir» deb atashadi. Ularda barcha somatik kasalliklar belgisini kuzatish mumkin, aslida esa bunday kasalliklar ularda aniqlanmaydi.

Isterik nevrozning turlari xilma-xildir. Ularning barchasi, odatda, ruhiy jarohat (ayniqsa, janjal va xafagarchilik) dan so'ng paydo bo'ladi.

Endi isteriyaning keng tarqalgan turlari bilan tanishib chiqamiz.

Es-hushning kirdi-chiqdi bo'lib qolishi. Birdan boshlanadigan va aksariyat hollarda tez tugallanadigan holat bo'lib, bunda bemor atrofga befarq bo'ladi, qaerda ekanligini fahmlay olmaydi, hozir soat nechaligi va o'zi nima qilayotganini bilmaydi. Bu holat bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Es-hushning isterik torayishida bemor atrofda sodir bo'layotgan voqealardan qisman voqif bo'lsa-da, bo'lib o'tgan hodisalarni eslab qola olmaydi.

Isterik fuga (lotincha «*fuga*» - qochish demakdir). Bunda bemor janjal yoki boshqa bir ruhiy jarohatdan so'ng to'satdan uy, ishxona yoki boshqa joydan qochib chiqib ketadi, uning xatti-harakatlari maqsadsiz bo'ladi, vaziyatni tushunish va atrofda nimalar sodir bo'layotganini

fahmlash buziladi. Ammo, chetdan qaraganda, boshqa birovlariga uning yurish -turishi maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. Arzimagan urush-janjaldan so'ng bunday shaxslar, hatto, boshqa shaharga ham ancha vaqtga ketib qolishi mumkin. Keyinchalik bu bemorlarning ko'pchiligi ular bilan nimalar sodir bo'lganini eslay olmaydi yoki qisman eslaydi, ammo gipnoz holatida hamma narsani eslatish mumkin.

Isterik shaxslarda uchrab turadigan yana bir sindrom **Ganzer sindromidir**. U, odatda, o'tkir rivojlanadi, ruhiy shikastdan so'ng to'satdan boshlanadi. Uning asosiy xususiyati bemorning aql bovar qilmaydigan tuturuqsiz harakatlaridir. Ular eng oddiy savollarga tuturuqsiz javob berishadi. Masalan: «Ikki karra ikki necha bo'ladi?» deb so'ralsa, bemor oliy ma'lumotli bo'lishiga qaramay, «Besh », deb javob beradi yoki qo'lda nechta barmoq bor desa, og'ziga kelgan sonni aytadi. Uning belgilari demenstiyani eslatadi, lekin demenstiyada bemorlar aksariyat savollarni tushunishmaydi, ulardan iltimos qilgan narsalarni emas, boshqalarini bajaradilar yoki fikrlarini to'g'ri ifodalay olmaydilar, avval orttirgan ko'nikmalarini yo'qotishadi. Demenstiya belgilari, odatda, zo'rayib borsa, isterik «demenstiya » belgilariga o'tib ketadi.

Ruhiy jarohat g'oyat kuchli bo'lganda **isterik stupor** rivojlanishi mumkin. Bunday paytlarda bemor tamomila harakatsiz bo'lib qoladi, indamaydi va atrofga befarq bo'ladi, yuzida aziyat chekkan ifoda paydo bo'ladi. Bu holat bir necha soat yoki kun davomida o'tib ketishi mumkin. Lekin davolash muolajalari o'tkazilmasa, bu holat bir necha oygacha davom etadi.

Puerilizm - bolalar xatti-harakatini eslatuvchi holat bo'lib, yoshi kattalarda kuzatiladi. Ular bolalarga xos bo'lgan qiliqlar qilishadi: boladek ingichka tovush chiqarib gapiradi, ko'zlarini katta-katta ochadi, kipriklarini pirpiratadi, birov gapirganda og'zini ochib turadi. Bemor shu qilig'i bilan boshqalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Ammo bundan oldin orttirilgan ko'nikmalari saqlangan bo'ladi.

Isterik buzilishlarning yana bir turi **isterik depressiyadir**. Bunda bemor o'ta past kayfiyatda bo'ladi va bu qilig'i bilan atrofdagilar diqqatini o'ziga jalb etishga intiladi, ularni o'ziga rahmdil bo'lishga chaqiradi. U naqadar og'ir ahvolda ekanligiga boshqalarning e'tibor berishlarini istaydi va hokazo.

Isterik **tutqanoq** xuruji ham keng tarqalgan simptomlardan biridir. Isteriyada kuzatiluvchi tutqanoqlar har xil bo'ladi va ularning

epilepsiyada kuzatiladigan haqiqiy tutqanoqlardan farq qiladigan tomoni ko'pdir. Isterik tutqanoq hech qachon bemor yolg'iz qolganda ro'y bermaydi, chunki unga doim tomoshabinlar kerak bo'ladi. Talvasa tutganda, bemor birdan erga yiqilib, mushaklari tortishadi va talpina boshlaydi, lekin boshi bilan qattiq narsalarga urilmaydi. Ular tutqanoq xuruji paytida o'ziga qulay joy topib, biror joyiga qattiq shikast etkazmasdan yiqilishadi. Xuruj paytida bemorlar, odatda, yoy singari egiladi - bunga **isterik yoy** deb ataladi. Bunday fe'l-atvor ko'pgina injiq va erka bolalarga xosdir. Masalan, onasi yangi o'yinchoq olib bermasa, do'konda erga yiqilib, qo'l va oyoqlarini, goho boshini ham erga urib qattiq chinqirib yig'laydi. Agar qo'rqib ketgan ona so'ragan o'yinchog'ini olib bersa, bola shu zahoti tinchlanadi. Bu odat keyinchalik voyaga etgan yoshda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Isterik xurujda mushaklar tortishuvi (xalq orasida buni tomir tortishuvi deb ham atashadi) hammavaqt ham kuzatilavermaydi va xilma-xil bo'ladi, ularda soxtalik va atayinlik seziladi. Masalan, bemor go'yo uni kimdir urmoqchi bo'lgandek, yuzini qo'li bilan berkitadi, qichqirib yuboradi, xo'rsinib yig'laydi va hokazo. Isterik tutqanoqda bemorlarning es-hushi joyida bo'ladi, tevarak-atrofnini to'la idrok etishadi va unga tegishlicha reaktsiya qilishadi. Masalan, agar xuruj tutganini birov mazax yoki kalaka qilgudek bo'lsa, bemor darhol xurujni to'xtatadi va o'rnidan turib ketadi. Xuruj paytida bemor epilepsiyada bo'lgani kabi tilini tishlab olmaydi va bexosdan qovug'i bo'shab ketmaydi.

Xafaqon kasalligi xuruji yoki yurak xurujini eslatuvchi isterik tutqanoqlar ham ko'p kuzatiladi. Yurakning tez-tez urishi, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va hushni yo'qotish bilan kechadigan vegetativ xurujlar ana shular jumlasidandir. Xuruj paytida bemor boshdan-oyoq titraydi va «Hamma joyim qaqshab og'riyapti», deb noliydi. Me'da spazmi bilan kechuvchi xurujlarda qorinda kuchli og'riq paydo bo'ladi, bemor to'lg'anib yotib oladi, qayt qiladi.

Isterik nevrozda turli xil falajliklar ham kuzatiladi. **Isterik falajlar** ba'zan miya insultidan so'nggi klinik holatni eslatadi. Bu esa mutaxassis bo'lmagan kishining fikrini chalg'itishi mumkin. Isterik falajliklarda reflekslar va mushaklar tonusi o'zgarmay qoladi, patologik reflekslar kuzatilmaydi. Tananing qoq o'rta chizig'i bo'ylab, falajlangan tomonda sezgi ham buziladi. Periferik falajlikda kuzatiluvchi mushaklar atrofiyasi, mushak kuchining susayishi qayd

qilinmaydi. Bordi-yu, isterik falajlik noto'g'ri davolansa yoki uni davolash cho'zilib ketsa, bemorda uzoq vaqt davom etadigan oyoq-qo'llardagi harakatsizlik mushaklarning dif-fuz atrofiyasiga sabab bo'lishi mumkin, xolos.

Isteriyaga chalingan bemorlarda **giperkinezlar** (beixtiyoriy harakatlar) ham kuzatilishi mumkin. Bu harakatlar bemorda hayajonlanganda kuchayadi va tinchlanganda kamayadi yoki butunlay to'xtaydi. Giperkinezlar isterik xuruj tugagach ham yuz berishi mumkin. Ba'zan bemorda falajliklar giperkinezlar bilan birgalikda kuzati-adi. Isterik giperkinezlar butun gavdaning silkinishi, bosh va oyoqlarning titrashi, ayrim mushak guruhlarining uchib turishi, qo'llarning g'ayritabiiy harakat qilishi bilan kechadi. Chin giperkinezlardan farqli o'laroq, ular bemorning hissiy h olati va ruhga shikast etkazuvchi vaziyatga ko'p jihatdan bog'liq. Bu simptomlar uzoq vaqt davom etishi va arzimagan kelishmovchilik-larda kuchayib ketishi mumkin.

Isterik astaziya-abaziya. Bu h olat tik tura olmaslik va yura olmaslik bilan namoyon bo'ladi. Bosh miya katta yarim sharlari peshona bo'lagi zararlanishlaridagi astaziya-abaziyadan farqli o'laroq, isteriyada kuzatiladigan bu sindromda bemorlar erga emas, balki uni ushlab turgan odam ustiga ag'anaydi. Ularda ham mushaklar gip otoniyasi kuzatiladi, lekin boshqa organik nevrologik simptomlar kuzatilmaydi. Diagnostik murakkab holatlarda para-klinik tekshiruvlar o'tkaziladi.

Isterik algiyalar (ya'ni og'riqlar) - eng ko'p tarqalgan buzilishlardan bo'lib, deyarli barcha isterik sindromlarda turli ko'rinishlar-da kuzatiladi. Bemorlar tananing turli joylari - orqa, qorin, yurak, bosh sohalari doim og'rishidan shikoyat qiladilar. Og'riq, shuningdek, bo'g'im, qo'l yoki oyoq, til, xullas, tananing barcha joyida paydo bo'ladi. Ayni paytda, bunday og'riqdan shikoyat qiluvchi bemorlar turli ixtisoslikdagi doktorlarga murojaat qilib yurishadi. Ba'zan bemorlar jarrohlik operastiyasi o'tkazishni qattiq talab qilishadi.

Isteriyada yuqorida aytib o'tganimizdek, turli xil **sezgi buzilishlari** ham kuzatiladi. Organik va funkstional sezgi buzilishla -ri orasidagi farqni faqat maxsus nevrologik tekshiruvlardan so'ng aniqlab olish mumkin. Har bir nerv tanadagi muayyan sohaning sezgisi va harakati uchun javob beradi. Isterik anesteziyalarda bu qoida saqlanmaydi. Ayni paytda, pay reflekslarida ham o'zgarish-lar kuzatilmaydi, eng jiddiy

nevrologik tekshiruvlar ham sezgi buzilishini izohlab beradigan hech qanday organik kasallikni aniqlab bera olmaydi.

Tarixiy adabiyotlarda befarzand ayollarda uchraydigan **isterik homiladorlik** haqida ham yozib qoldirilgan. Bu holatni ba'zi mutaxassislar ichaklarga ortiqcha gaz to'planishi bilan izohlashsa, boshqa birlari qorin mushaklarining vaqtincha bo'shashib kattalashishi hisobiga deb tushuntirishadi. Isterik homiladorlikda qorin uncha kattalashmaydi.

Shuningdek, «sehrli shifolar» haqida klassik adabiyotlarda uchratish mumkin: bemor sehrli tumorgacha emaklab borib, ularga qo'l tekkizgan zahoti shifo topgan, o'rnidan turib, yurib ketgan. Isteriyada «soxta o'lim» haqida ham ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bunday bemorlarga tabib «sehrli» qo'lini tekkizganda yoki og'ziga sehrli giyoh eritmasini tomizganda, ular «tirilgan».

So'nggi davrda isterik buzilishlarning klinik alomatlari o'zgaradi, bu kishilar hayot tarzining o'zgarganiga ham bog'liq. Bu vaziyatni axborot hajmi va tibbiyotga oid adabiyotlar ko'payganligi, odamlarning internetdan salomatlikka oid ma'lumotlardan foydalanib boshlaganliklari bilan ham tushuntirish mumkin. Bu adabiyotlar odamlarning tibbiy sohaga oid bilimlarini bir oz kengaytirdi. Bu ma'lumotlarning ijobiy tomonlaridan tashqari, salbiy tomonlari ham ko'pdir.

Aksariyat hollarda isterik nevroz simptomlari birmuncha xil-maixil bo'lib, uning kechishi ko'p tarqalgan kasalliklarni eslatadi: insult, meningit, enst efalit, tarqoq skleroz, o'sma kasalliklari va hokazo. Ba'zi hollarda, isterik bemordagi kasallik belgilari uning boshqa kishilarda kuzatgan yoki tibbiy adabiyotlarda o'qigan kasalliklariga o'xshab ketadi. Shu bois, tashxisni to'g'ri qo'yish uchun turli ixtisosdagi vrachlar nafaqat isterik nevrozning klassik alomatlarini, balki «zamonaviy» isterik simptomlarning klinik belgilarini ham o'zlashtirib borishlari kerak.

Ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar turli ixtisoslikdagi vrachlarga isterik buzilishlarni chin kasalliklardan ajratishda yordam beradi. Shuningdek, isterik nevrozning barcha alomatlari soxtadir. Bemor atrofida qilargalarga shunday deb yuboradi: «Menga e'tibor bermaganingizdan ana shu ahvolga tushib qoldim-ku! Men falaj bo'lib qoldim (yoki ovozim bo'g'ildi, eshitmay qoldim, ko'rmay qoldim va

shu kabilar), sizning aybingiz bilan a'zoi badanim qaqshab og'riyapti va dardim bedavo bo'lib qolgan», deb zorlanadi.

Isterik belgilarni davolashni o'ta qisqa muddat ichida olib borish kerak. Davolash muolajalari qancha ko'p cho'zilsa, ijobiy natijaga erishish shuncha qiyin bo'ladi. Bemorlar to'la tuzalgandan so'ng ham o ilaviy va boshqa mojarolar oqibatida yana doktor qabuliga kelib qolishlari mumkin. Isterik bemorlar vrachlar va tabiblarga eng ko'p qatnaydigan bemorlar sirasiga kiradi.

Yopishqoq holatlar nevrozi. Bu nevrozda harakatlar va tushunchalarning miyadan ketmasligi asosiy simptomlar hisoblanadi. Miyaga o'rnashib qolgan vahima o'z mazmuniga ko'ra, ikki yo'nalishda bo'ladi, o'z hayoti uchun juda vahimaga tushish va ko'pchilik oldida odobsizlik, axloqsizlik qilib qo'yishdan qo'rqish.

Birinchi guruhdagi fobiyalardan to'satdan o'lib qolish, miokard infarkti bo'lib qolish, yashin urishidan qo'rqish, rak bo'lib qolish, tanosil kasalliklari bilan og'rib qolishdan qo'rqish xos bo'ladi. Ehtimol kasalliklar yuqib qolishining oldini olish uchun bemor qo'llarini tez-tez yuvadi, takror-takror EKG qildiradi, qonini turli tibbiy muassasalarda Vasserman reakstiyasiga tekshirtiradi. Miyada o'rnashib qolgan harakatlar turli-tumanligi bilan farq qiladi - hadeb bir sonni sanayverish, harakatlarni hadeb bir xilda qilaverish miyaga joylashib qolgan marosimlarni qilishga olib keladi.

Miyada ketmaydigan fikrlarning **ikkinchi guruhi** birorta bema'ni harakat qilib qo'yish, notanish odamlar oldida baqirib yuborishdan, magazin vitrinasini sindirib qo'yishdan qo'rqishdir va hokazo. Bunday nevrozlarni davolashda psixoterapiya o'tkaziladi. Zamonaviy xalqaro tasnifda, jumladan qayta ko'rilgan kasalliklarning xalqaro tasnifida nevrozlar haqida an'anaviy tushunchalar ko'rib chiqilmagan. Buning o'rniga «stressga va somatotrop bo'zilishlarga bog'liq «nevrotik» bo'zilishlarga tushuncha kiritilgan, ular, o'z navbatida vahimalik-fobik bo'zilishlarga, obsessiv kompul'siv (miyadan ketmaydigan), og'ir stressga va adaptastiyaning bo'zilishiga reakstiya, konversion (isterik) bo'zilishlar, somatoform (ichki a'zolar ishining bo'zilishi bilan namoyon bo'ladigan) bo'zilishlarga bo'linadi.

Yopishqoq holatlar nevrozining asosiy xususiyati takrorlanaveradigan miyadan ketmaydigan qiyin fikrlar yoki harakatlar hisoblanadi. Miyadan ketmaydigan harakatlarda bemor bir xil qiliqlarni yoki marosimni hadeb takrorlayveradi. Bu harakatlar hech qanaqa

foйда keltirmaydi, uning mazmuni kelajakda bemorga zarar qilishi mumkin bo'lgan birorta aql bovar qilmaydigan narsalarning go'yo oldini olishdan iborat bo'ladi. Bemorlar bu harakatlarining bema'niligini biladilar va unga qarshi kurashadilar, lekin buning uddasidan chiqmaydilar. Bunday miyaga o'rnashib qolgan fikrlar odatda sharmandali, Tajovuzkorli yoki shunchaki bema'ni bo'ladi, bemorlar ularni qilmaslikka o'rinadilar, lekin qo'llaridan hech narsa kelmaydi.

Hissiy zo'riqishlar, miyadan ketmaydigan fikrlar yoki obsessiya.

Obsessiya-(lot obsessio-“qamalda qolish”, ”o'rab olish”) deyiladi. Shaxsda ma'lum xissiy zo'riqishlar davomida paydo bo'luvchi fikrlar g'oyalar, bog'lovchi fikrlar xoxlamagan holatda paydo bo'lishi, tez-tez takrorlanib turuvchi – sindrom. Shaxs ushbu fikrlarga bog'lanib qoladi ushbu fikrlar yomon xayol va xissiyotlarga olib keladi. Bemor bu fikrlardan xoxlasa xam o'zi qutila olmaydi. Ushbu fikrlardan qutilish qiyin va ularni boshqarish xam qiyin.

Obsessiyalar-yo'naltiruvchi harakatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin ammo har doim ham emas. Bemaxal qo'rquv (fobiya) va shunga yo'naltirilgan harakatlar obsessiyalarga kirmaydi.

Obsessiya tarixi;

1614 yil - Feliks Plater Nevrozning brinchi klinik belgisini holatini, tarkibini asoslab berdi. 1834 yil –J.-E.D.Eskirol Og'ir holatini asoslab berib. Fobiya bilan obsessiya haqida yorqin fikrlar yozib qoldirdi.

1858 yil –I.M.Balinskiy “Bog'lovchi holat” atamasini umumiy belgilarini hamda kuzatilishini aytib o'tdi. 1860 yil –B.O.Morel Xissiyotning buzilishi orqali obsessiyalarning paydo bo'lishini yozdi. 1866 yil- J.P.Falre Ikkilanishlar haqida yozdi. 1868 yil- V.Grizinger Yana birta obsessiv holat “Naslsizlik bilimdonligi” haqida yozdi. 1877 yil- K.F.O.Vestfal Obsessiyalarni izohlab; Boshqa munosabatlar ta'sir etilmagan intilektda yuzaga chiqadi va ularni bemor o'z ongidan yo'qotib bilmaydi. Fikrlar buzilishi yo'naltirilgan harakatlar asosida yotadi deb. Hozirgi zamon qabul qilingan obsessiyalar nazariyalari bilan birga taxmin qiladi. 1885 yil- J.M.Sharko (1892yil esa J.J.V.Monyan) bilan birgalikda “Onomatmaniya” ta'rifi berildi. 1890-1892 yillar V.M.Baxterev Obsessiyalarda brinchi bo'lib muvofaqiyatli psixoterapiyani qo'lladi.

Tavsif; A.V.Snijevskiy bo'yicha pozitiv sindrom tarkibidagi obsessiyalarni tartibga solish juda qiyin deb yozadi.

V.P.Osipov.E.S.Averbux. V.Gilyarovskiy va E.A.Popov ularning tavsifiga qarshi chiqqan sababi bir insonni o'zida bir necha obsessiyalar va kompulsiya va fobiyalar birga bo'lishi,birga kelishi mumkinligi haqida yozadi.Biroq ularni urinib ko'rgan tavsifi umumiy qabul qilingan.Obessiya sindromlari psixiatrik sindrom tasnifi nuqtai nazaridan fiziologik qoidalar bilan tavsiflanadi. Ichki psixik buzilish aqilga sig'maydigan fikrlarning yog'ilib kelaverishi, o'ylovlarning buzilishi.

K.T.Yaspersu(1913) obsessiyani quyidagicha bo'ldi;

1.Chalg'igan (kuzatib bo'lmaydigan o'zgartirilgan affektlar orqali):

1.Naslsizlik bilimdonligi;

2.Yopishqoq hisob;

3.Yopishqoq xotiralar (ba'zi bir holatlar);

4.So'zni bo'g'imlarga bo'lish.

2.Tasavvurida (og'ir betoqatli qo'rquvning affekt bilan birga kelishi)

1.Yopishqoq ikkilanish;

2. Yopishqoq ishtiyoq qiziqish;

3. Yopishqoq bog'lovchi xotiralar;

4.Qamrab oluvchi tasavvurlar.

LI. Beru obsessiyani 3ta asosiy guruhga bo'ldi:

1.Aqlga sig'maydigan agressiv fikrlar;

2.Aqlga sig'maydigan jinsiy qiziqish fikrlari;

3.Xudojo'ylik diniy aqidaparastlik fikrlari.

Ulardan tashqari A.M.Svyadosh Yasper va Snejnevskiy ishini modifikastiya qilib o'z klassfikastiyasini yaratdi.

1.Oddiy qo'rqishdan keyin paydo bo'lishi.

2.Yopishib qoluvchi qaerdan kelishi no'malum.

Hozirgi kunda obsessiyaning aniq qaerdan kelib chiqishi to'liq o'rganilib chiqilmagan qaysi olimlar fikrini o'rganib to'g'riligini aytish qiyin. Aynan har xil psixik buzulishlardan kelib chiqadi deb farazlar mavjud.

1.Biologik .

1Bosh miya faoliyatining buzilishi vegetativ nerv sistemasining buzilishi.

2.Moddalar almashinuvining buzilishi .Birinchi serotonin -dofamin va noradrenalin.

3.Ginetik –Ekizaklar o'xshovlik taraflari tahlil qilingan.

4.Yuqumli virusli faktr (PANDAS-sindromi nazariyasi).

2. Psixologik ;

1. Psixologik nazariya;

2. Pavlov va uning izdoshlari nazariyasi;

3. Konstitutstion tipologik – turli xil xarakter aksentuatstiyasi .

4. Tashqi muxit ta'sirida – Oilaviy er xotin munosabatlarida yoki tabiiy.

3. Ijtimoiy (kichik va katta ijtimoiy) va kognitiv nazariyalar (qattiq diniy tarbiya. bir andozada o'z qobig'ida o'ralgan . Jarayonlarda o'z fikrini boshqalardan ustun qo'yuvchi.

Yopishqoq fikrlarning farqli tomonlari;

1. Obsessiyalarda – individning ixtiyorsiz o'zi xoxlamagan tarzda miyasiga har xil xayollar fikrlar yog'ilib kelaverishi . Faqatgina ong bu erda o'z faoliyatini yo'qotmagan xolatda aniq va ravshan bo'ladi. Shaxsni o'zi ixtiyoriy obsessiyani yo'qotib bilmaydi. Shunga qaramay u bilan kurashishga xarakat qilaveradi. aktiv xolatda xam passiv xolatda xam o'zi kurashishga xarakat qiladi. Kamdan – kam holatda shaxslar qaltis xarakatlar qilishga urinadilar. Ba'zi xolatda o'tkir tig'li narsalardan o'ziga jaroxat etkazadigan joylardan o'zlarini olib qochadilar. Pichoq qaychi shunga o'xshashsh o'tkir tig'li buyumlarni yoshintirib yuradilar.

2. Obsessiya xayol maxsuli u shaxs tafakkuriga ta'sir etmaydi.

3. Obsessiya ko'proq xissiyotga bog'liq. Tushkun kayfiyat, bezovtalanishday vaximaga o'xshaydi

4. Obsessiya shaxs intilektiga, amallarni bajarishda natijalarga ta'sir etmaydi.

5. Obsessiv shaxslar tanqidchi ko'rinadilar. Yopishqoq fikrlari shaxs bemorligini bilintirib turadi. Bu fikrlardan qutilish imkoni borligiga ishonmaydi ularga nisbattan tanqidiy yondoshadi. Xis tuyg'uning kuchayib ketishi xayajonga berilish, yig'lash o'zini kuchliyig'i yoki kulgudan to'xtata olmaslik.

Obsessiyada diqqatning bo'linishi;

Zurriyot qoldirmaslik naslsizlik bilimdonligi- obsessiyaning bir turi bo'lib. Ular o'zidan farzand qoldirishni shart xam emas foydasiz. Oila yoki farzand ularning vaqtiga eyadigan ovqatiga sherikligini istashmaydi. Farzand tarbiyasi bu shaxslarga muammo keltirib chiqarishini xoxlamaydi. Kun bo'yi mexnat faoliyatidan so'ng o'zim uchun dam olaman yashayman degan fikrlarda yuradi. Masalalarni ko'proq o'zi hal qilishga harakat qiladi. O'zi

ovqatini tayyorlaydi, o'zi eydi, o'z kiyimini yuvadi dazmollaydi va bashqalar.

O'z axloq qoidalarga ega xudojo'yligi. Misol uchun; Yosh bir ayol ko'cha boshida turib o'ziga o'zi savol beradi .Xozir shu itni mashina uradi. Kichkina ekan nimjongina xech kim ovqatam bermasa kerak.Urib pachoqlab ketsa yo bir xasta bo'ladi xolosmi – oyog'ini bossami qornidan bossa kerak! Xaydab yuborsammi yo bron kishiga aytsam olib ketsami , to yo'ldan o'tganicha oldida o'tirsam o'tgan mashinalarni ogohlantirib . Agar o'sha it o'lsa o'zimni aybdor deb his qilaman.Odamlar nima deydi.Yo aybdor emasligimni bron kishi asoslaydimi? Degan fikr o'y xayollar bezovta qilaveradi.Goxida aqillilik shuncha yuqori bo'ladiki,boshqa bir dunyoqarash bilan sizga sizning fikringizga qarshi chiqishadi. Qarama qarshi fikrlar, dunyoqarash uning o'y xayollaridan chiqa olmaydi goxida rejalashtirishga ta'sir etib o'z har kunki ishlarini rejalashtira olmaydi.

Yopishqoq xotiralar- bosh miyada keraksiz xotiralarni paydo bo'laverishi axamiyatsiz xolat jarayonlarini eslash xotirlash. Birov bir gapirganda xar bir so'zini taxlil qilish. So'z turkumlariga o'ta e'tiborlilik. Rasm tomosha qilganida vaysi ranglar ishlatilgan, qaysi rang qo'shilishidan hosil bo'lgan.Ranglarga injiqlik,yoqtirmaslik baxona izlash kabi xususiyatlarni namoyon bo'lishi.Kampulsiyaga tegishli taomil yoki odatlarni diqqatdan chetga qolgan obsessiyalardan farqlaydi –taqqoslaydi tabaqalaydi.

Obrazli (ta'surotli)-obsessiya ;

Yopishqoq ikkilanishlar –bron ishni to'g'ri qilyapmanmi? Xaqiqatga to'g'ri keladimi,qonunga to'g'ri keladimi,shunday bo'lishi mumkinmi?Asosan shu holatda mos kelishi agar har bir harakatni qaytib ko'rish imkoni bo'lsa, ishonch hosil qilishi uchun bir necha yo'llarni o'ylab ko'radi.Misol uchun eshikni qulfini bir necha marta tortib ko'radi.Agar iloji bo'lmasa qulfladimmi yo'qmi degan savollar qiynaveradi.

Odatda, obsessiyalar ko'p asabiylashganda, boshqalar tomonidan qandaydir tushunmovchilik, murosaga kelmaslik, nohaq ayblov yoki uydirmalar, natijasida shaxslarda bo'lib o'tgan voqealarni ichga yutish ya'ni yurakka olish va yaqinlarini yo'qotish, hayotning qiyinchiliklariga bardosh berolmaslik natijasida paydo bo'ladi.

Miyadan ketmaydigan fikrlar nevrozning bir turi hisoblanib, uning uchun psixoastenik belgilar xosdir, ya'ni doimiy shubha, qo'rquv,

miyaga azob beruvchi tasavvurlar va g'oyalar, turli harakatlar va intilishlar. Bemor bu fikrlarning barchasidan qutulishga harakat qiladi, davo choralarini izlaydi, lekin bu urinishlar, ko'pincha, zoe ketadi, uni miyaga o'rnashib qolgan fikrlar qiynayveradi.

Obsessiyada bemor xom –xayollarga beriladi. Bu xayollar gohida almashinib turadi. Miyada aylanadigan fikrlar o'rniga boshqa fikrlar kelib turadi. Bu bemorlarda ob'ekt o'zgardiki xom-xayollar o'zgaraveradi, bir g'oya o'rniga boshqasi yog'ilib kelaveradi. Shaxsning atrofdagilar tomonidan e'tirof etilmasligi, uning tan olinmasligi, fikrlariga nisbatan hurmatsizlik, ajratib qo'yish kabi holatlar bunga asos bo'ladi. Miyadan ketmaydigan fikrlarning doimiyliigi, takrorlanuvchanligi va ulardan qutulishning o'ta qiyinligi bemorni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bu holatlarga bemor tanqidiy nuqtai nazar bilan qaraydi, ularning asosli emasligini, g'alati ekanligini tushunadi, ularga bardosh berishga intiladi, lekin fikrlar uning irodasiga va xohishiga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'laveradi. Bemor ularni mustaqil ravishda eng olmaydi.

Obsessiyaning belgilari:

Fikrlarning ko'pligi unga tinchlik bermaydi. Uyquasi buziladi. Uyga sig'may qoladi, yugurib ko'chaga chiqadi, behollik, betoqatlik, bir joyga o'tirolmaslik, norozilik, ko'p yig'lash, hayotdan to'yish, tana vaznining kamayishi yoki ko'payishi odamovilik, odamlardan o'zini chetga olish, atrofdagilarga befarq bo'lish, bir joyga tikilib qolish, uydan chiqmaslik, muloqotdan qochish, qo'rslik, hadeb o'zini ayblayverish yoki boshqalarni ayblash, ishtahaning buzilishi, uzoq safarga chiqa olmaslik, yomon ko'rgan odamlariga nisbatan nafrat, adovat, qasos olish ko'zi bilan qarash kabi holatlarda bo'ladi.

Obsessiyaning holatlari:

“Yuragim to'xtab qoladi“, “bar bir tuzalman“, “devona bo'lamanmi“, “ichimda nimadir bor“, “kabi salbiy fikrlar, boshqalarni hadeb ayblayverish, odamlarning faqat yomon tomonlarini ko'rish, bir tushni hadeb ko'rish, tushdan chiqolmaslik, tushning davomiyligi (har kecha bir tushning davomini ko'rish). O'zini cho'kkan holatda ko'rish, ko'rish. «betobman » deb hadeb dori ichaverish, “-bosh og'rig'im ketmaydi, boshimda nimadir o'rnashib olganga o'xshaydi ” kabilar. Yo'q joydan tanadagi og'riqlar, shifokor ko'rigidan o'taverish, tahlil natijalarining ijobiyligiga qaramay, ikkilanishning yuqoriligi va boshqa shifokor huzuriga borish. Obsessiyalarda idrok fenomenlari

ya'ni agglyutinastiya, giperbolizastiya, gallyustinastiyalar ko'p kuzatiladi. Sababi haddan ortiq hissiyotga erk berish, hayollarga berilish natijasida yo'q narsalar idrok etiladi.

Obsessiyadagi boshqa holatlar:

Asosan, ayollarda, erkaklarga nisbatan, ko'proq kuzatiladi. Kuchli emostional holat bora-bora hissiy zo'riqishga olib keladi. O'ziga hech kuch topa olmaydi. Bemor "qo'limdan hech narsa kelmaydi" deydi. Bajarayotgan ishi: «tushimda-mi ? yo o'ngimda bo'ldi-mi ?» degan savollar bezovta qiladi. Depressiyaga nisbatan, obsessiyalarda bemorlarning qayta tiklanish davomiyligi uzoqroq davom etadi. 6 oydan bir yilgacha, ba'zan undan ham ko'proq vaqtni talab etadi. Aytaylik bemor qo'lini kesdi yoki « - biror kasallikni yuqtirib oldim – » deb hadeb qo'lini yuvaveradi. Hatto bu kabi holatlar bir necha oylab davom etishi mumkin. Obsessiya boshqa yosh davrlariga nisbatan o'rta yosh (etuklik) davrida ko'proq uchraydi. Terida sarg'ayishlar kuzatiladi. Bemor tuzalgandan keyin qaytib o'z holatiga keladi. Lekin uzoq vaqt psixolog nazoratida bo'lishi kerak.

Obsessiyaning kelib chiqish sabablari:

- kuchli psixik zo'riqish
- emotstional (hissiy) holatning yuqoriligi
- kuchli qo'rquv
- affektiv holatning ko'pligi
- echimsiz muammolarning ko'pligi
- passiv hayollarning buzilishi

Obsessiya turlari:

I – bosqichi obsessiyaning boshlanishi hisoblanadi.

O'z-o'zini tushunmaslik, depressiv holatlarning ilk bosqichlaridek holatlari namoyon bo'ladi. Asabiylashadi, yuzga chiqarmaydi. Tashqi ta'sirlarning sezgi jarayoni bilan bog'liq holatlarda buzilishilar bo'ladi. Go'yoki tanada birdan og'riq boshlanib, birdaniga og'riqning qolishi misolida. Inson xarakterida o'zgarish: loqaydlik, biror ish buyurilsa, uni bajarishdan bosh tortish, muloqot jarayonida suhbatdoshga diqqat bilan qaramaslik, unga e'tibor bermaslik, go'yoki uni eshitib turganday qarash kabi holatlar kuzatiladi. Ilgarilari muloqotni xush ko'ruvchi insonlar, o'zini chetga oluvchi, muloqotdan qochuvchi bo'ladi. Iloji boricha yolg'iz qolib yana o'sha bo'lib o'tgan ishlarga, xayolga beriladi. O'zlaricha muhokamaga, murosasozlikka boradi. Xayolga berilish natijasida

ishtahasida buzilishlar bo'ladi. Qo'rquv, vahimaning ilk bosqichlari ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, biror kishi bilan urushib yoki arazlashib qolgan kishilarda, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng oralaridagi araz va gina ketsa, ular xursand bo'lib yana negativ xayolga emas, aksincha pozitiv xayolga beriladilar. Go'yoki, xayollarida ular bilan yarashib, yana hech nima bo'lmaganday yurishadi. Ular bilan arazlashgan kishilarni o'zlariga yaqin olib, « - yo'q bu do'stim yaxshi – » , « - yo'q men noto'g'ri gapiribman – » , kabi shunga o'xshash fikrlar bo'ladi. Lekin ular bilan yana oralaridagi munosabatlar buzilsa, ularda frustativ holat ya'ni, orzu- havaslarning chippakka chiqishi kuzatiladi. Va ayni shu holatlarning ko'p davom etishi, qo'zg'ovchi omillar bo'ladi.

II – bosqichi bir necha yillarni o'z ichiga oladi.

Bu og'ir davr hisoblanib O'ziga – o'zi gapirish go'yoki, xayolidagi odamlar bilan murosa qilayotganday, ularni jerkiydi, urushadi . Lekin ular doim emas, kun davomida 3 – 4 yoki undan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Ma'lum bir ish faoliyatida yolg'iz qolganda, xayolga berilishi bo'ladi. , uydan chiqib ketish, sababsiz janjanlashish, oynaga qarab o'z – o'ziga gapirish, kiyinishda e'tiborsizlik, maqsadning pasayishi. Oila a'zolariga nisbatan juda qo'pol munosabatda bo'ladi. O'zicha kulib, asabiylashib, go'yoki kimnidir urushadi, haqorat qiladi. Uyqusi yo'qoladi. Aynan uyqu yo'qolishining o'zi ham uni asabiy (nevroz) holatiga olib boradi. Uyqusidan turib o'zicha kimgadir gapiradi, urushadi. Ovqatlanayotganda ham atrofdagilarga e'tibor bermaydi. Ularning fikriga munosabat bildirmaydi, ovqatlanayotganda ham uyqusidagi kabi holatlar takrorlanadi. Bu kabi holatlar, ayniqsa yolg'iz qolganda juda ko'p takrorlanadi. Ko'cha – ko'yda garchi, o'ziga – o'zi gaplashmasa ham, lekin turli xayollar bilan yuriydi. Bajaradigan ishi sifati mahsuldorligi yo'qoladi. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanganda tez charchab qolish. Bajaradigan ishi sifati mahsuldorligi yo'qoladi. Aksariyat erkaklar ichkilikka ruju qo'yadi.

Obsessiyalarda tavsiya etilmaydi:

- juda og'ir jismoniy mehnat qilish;
- katta hajmdagi roman, qissa, hikoya va shunga o'xshash asarlarni o'qimaslik;

-jangari, qo'rqinchli va shaxsning emostional holatiga qattiq ta'sir qilish qiluvchi kinolar, video filmlar va og'ir qo'shiqlar eshitish va ko'rish tavsiya etilmaydi.

Obsessiyalarni davolash usullari va tavsiyalar:

- avvalo bemorning umumiy somatik holatini yaxshilashdan iborat;
- iloji boricha ularni o'ylashga majbur qiladigan holatlardan uzoqroq qilish. -hayotga qiziqishini ortirish, orzu, umid, istak, uyg'otish;
- tungi sayr, suv bilan muolaja;
- qisqa va chiroyli rasmlar hajmi jihatdan kichikroq hikoyalarni o'qish;
- oddiyroq va jismoniy zo'riqishlarga olib kelmaydigan ish faoliyati bilan shug'ullantirish;
- psixologik treninglar o'tkazish va ruxshunos nazoratida bo'lish;
- xotirani qo'zg'atuvchi vaziyatlar, holatlar, joy, hidlar, esga soluvchi musiqalardan (edetizm) holatidan saqlanish;
- bemorni yakka-latib qo'ymaslik.

Xulosa : Inson o'z hissiyot va hayolotini jilovlab bilsa, haddan ziyod hissiyotga berilmasa. To'g'ri, va sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'sa, muammolardan qo'rqmasdan o'z idroki va taffakurini rivojlantirsa, irodasini mustahkamlasa bu kasalliklarga uchramaydi.

Stress nima? Stress («Stress») inglizcha – **bosim, kuchlanish, tanglik** degan ma'nolarni anglatadi. Psixologiya, fiziologiya va medistinada – og'ir sharoitlarda odamda paydo bo'ladigan psixik (ruhiy) tanglik holati hisoblanadi.

Stress tushunchasini dastlab Kanadalik fiziolog G.Sele adaptastion sindromini tavsiflaganda qo'llagan (1936).

Ma'lumki, organizm o'z ichki muhiti tarkibini doimo bir hilda saqlab turish xususiyatiga ega. Buni «gomeostaz» deyiladi.

Sele fikricha, stress bo'zilgan gomeostazni qayta tiklash uchun o'rinishdir. Stress qo'zg'atuvchilari stressorlar deyiladi. Stressorlarning kuchi va ta'sir etish sharoitiga qarab stress holati turli-tuman bo'ladi. Masalan. uning adaptastion (moslashish) sindromi ijobiy natija keltirib chiqarsa, og'ir shakli esa shok holatini keltirib chiqaradi.

Agar zararli ta'sirlar o'zluksiz davom etsa, organizmda yuz beradigan o'zgarishlarni **3 bosqichga** bo'lish mumkin: 1. **Tashvishlanish yoki xavotirlanish** bunda stressorlar ta'sir qilgan zahoti boshlanib, bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi. 2. **Rezistentlik (chidamlilik)** bu ikki va undan ortiq hafta davom etib, organizmda adaptastiya (moslashish) jarayoni sodir bo'ladi va nihoyat 3. **holdan toyish** bunda

organizm o'zidagi barcha energiyani sarflab qo'ygani uchun stressorlarga kurashish qobiliyati juda kuchsizlanib ketadi.

Stress odam faoliyatiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, musobaqada qatnashayotgan sportchiga bir vaqtning o'zida bir necha stressor, ya'ni kuchli ruhiy va jismoniy zo'riqishlik (nagro'zka), mas'uliyat xissi va boshqalar ta'sir qilgani sababli organizmning fiziologik imkoniyati chegaradan oshib ketadi va organizm o'zini himoya qilishga jadallik bilan intilishi tufayli tormozlanish - hushdan ketish ro'y berishi mumkin (**salbiy stress**). Muayyan – me'yor darajadagi stress esa kishini tetik qilib, uning barcha fikrlarini ma'lum nuqtaga to'playdi. Masalan, imtihon topshirish oldidan talaba yoki o'quvchi ma'lum darajada hayajonga tushmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi va h.k. (**ijobiy stress**).

Ma'lumki, hayotda har qanday odam, bir yoki bir necha bor stress holatiga tushadi. Ammo uni aksariyat hollarda odam xis etmaydi, e'tibor bermaydi. Natijada yuqorida aytilgan ikki xil salbiy yoki ijobiy natija bilan tugaydi.

Stress holatida odamda quyidagi nohush klinik belgilar paydo bo'ladi: qo'zg'oluvchanlik, jahldorlik, jizzakilik, nevroz holati, tushkunlikka tushishlik, uyquning bo'zilishi, tez charchashlik, mushaklar esa tirishishlik, badanida go'yoki chumoli yurgandek sezgi, taxikardiya, yurak qisqarish ritmining o'zgarishi (to'xtab-to'xtab yurak qisqarishi), qorinda og'riq sezishlik kabi klinik belgilar paydo bo'ladi. Uni «**Stress sindromi**» deyiladi.

«Stress» holatidan qutulish va oldini olish uchun nimalarga e'tibor berishlik kerak?

Ma'lumki, inson o'z hayotiy jarayonida turli xil salbiy holatlarga duchor bo'ladi, kayfiyati bo'ziladi, og'ir ahvol holatiga tushib qolganda nima qilishini bilmay qoladi va ayrim hollarda u yomon oqibatlariga olib keladi. Bunday holatlardan holi bo'lish va chiqish, albatta, insonning o'z qo'lida deb tushunish kerak va quyidagilarni ko'zda tutishi va bajarishi lozim bo'ladi:

1. Muntazam ravishda va me'yorida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish kerak.
2. Ba'zi bir bo'lib o'tgan yoki bo'layotgan noxushliklarga berilmaslik, ular haqida o'ylamaslik, kayfiyatni oshiradigan narsalar haqida fikr yuritishlik.

3. Hayotni iloji boricha xursandchilik bilan o'tishini tashkil qilabilishlik.
4. O'z hayot faoliyatini to'g'ri tashkil eta olishlik va to'g'ri rejalashtirishlik.
5. Hayotga yangicha – yondoshib, har qanday holatlarga ijobiy munosabatda bo'lishlik.
6. Umrni egovlaydigan holatlardan o'zini saqlamoqlik.
7. Ovqatlanishlikni to'g'ri va sifatli darajada muntazam ravishda uyushtirabilishlik.
8. Do'stlarga va tanish bilishlarga yaxshi e'tibor bilan yondoshishlik.
9. Atrof muhitga yaxshi kayfiyat bilan munosabatda bo'lishlik.
10. Hayot turmush tarziga optimistik qarash bilan yashashlik – dunyoga, kelajakka va turmushga doimo yaxshi umid bilan har qanday ishning muvaffaqiyatli chiqishiga ishonch bilan yashamoqlik va boshqalar.

Umuman har bir inson yuqoridagilarga amal qilgan holda o'zligini anglab, o'zining holatini to'g'ri nazorat qilaolsa va ularga valeologik nuqtai nazardan qarab aql-idrok bilan yashasa, albatta, maqsadiga erishgan va o'z umrining o'zayishiga asos solgan bo'ladi.

Ta'bir joiz bo'lsa ta'kidlab o'tmoqchimizki, olimu-allomalar aytganidek, jumladan mashhur fors-tojik shoiri Abdu Abdulloh Rudakiy deydilar:

Aqllilar aytur, aql podshodur,

Har ikki olamda aqlli obod.

Aql bilan tirik jon, u bilan zavol

Aql turmush asli, buni yodlab ol.

Aqldan g'amginlik, shodlik o'ktamlilik,

Aqldan borlig'u, yo'g'ligu kamlik.

Kishi ish qilarkan beaqlu idrok,

Bo'lur qilmishidan yurak bag'ri chok.

Ey Aziz o'quvchi o'ylab ko'ring va mag'zin chaqing – bunda chuqur falsafa ham bor. To'g'rimi?

6.2. Tajovuzkor va qasoskorlik kayfiyatidagi patsientlar psixologik konsultastiyasi

Agressiv (Tajovuzkor) xulq-atvor haqida. Turli chet ellik olimlar o'z tadqiqotlarida «agressiya» va agressivlik»ka turlich ta'rif berishadi. Lorend va Andri insonning tug'ma o'zini himoya qilishi vositasi sifatida, Morrison hukumronlikka intilish vositasi sifatida, Xorni va Fromlar esa shaxsning atrofdagi odamlar dushmanligiga qarshi reakstiyasi sifatida ta'riflashadi. Agressivlik deganda shaxsning bo'zg'unchilikka intilishi bilan xarakterlanuvchi xususiyat bo'lib asosan sub'ektlararo munosabatlar sohasida namoyon bo'ladi. Ehtimol inson aktivligining bo'zg'unchilik komponenti yaratuvchilik faoliyatida zarur hisoblanar, chunki individual rivojlanish talabi beixtiyor kishilarda bu jarayonga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni bartaraf etish, parchalab tashlash qobiliyatini shakllantiradi.

Aslida g'azab qo'rquv va boshqa emostiyalar insonni o'rab turgan muhitga adaptastiya funkstiyasini bajaradi. G'azab tasodifiy reakstiya, u insonga o'zi uchun xavfli vaziyat davom etayotganida paydo bo'ladi va inson uchun kerakli holat. Ammo u yig'ilib boraversa va doimiy siqilish bilan ko'zatilsa buni normadan tashqari holat hisoblash mumkin. Stressning o'zoq davom etuvchi harakati adaptastiyani boshqarishga qaratiladi. Qachonki bu holatda agressivlik paydo bo'lsa, yuqori xavotirlanish va boshqa nerv simptomlari **o'z-o'zini boshqarish tizimining bo'zilishidan darak beradi.**

Quyidagilarni normadagi hodisa deyishimiz mumkin bir yoshli bolaning onasi unga qandaydir yoqimsiz narsani qilgani uchun qo'l ko'tarishi, ikki yoshli bolaning boshqa bolani urishga harakat qilishi, balalarning o'yinchog'ini tortib olishga urinishi. Bu reakstiyalarning barchasida jahl tasodifiy va adekvat hodisa, biroq bo'zilishning o'sib borishiga sabab ham bo'lishi mumkin. Har qanday bo'zilish o'z boshlanishida konkret vaziyatni oladi. Jahldorlik reakstiyasining o'sib borishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin

Ota – onaning doimiy agressiv xulqi. Bola ularga taqlid qiladi va ularning agressivligini «yuqtirib» oladi. Bu shundan dalolat beradiki bolaning emostional o'z-o'zini boshqarishi ota-onasining emostional o'z-o'zini boshqarishi tipida quriladi.

Bolaga mehirsizlik ko'rsatilishi, unda himoyasizlik tuyg'usining shakllanishi, atrofni o'rab turgan olamga xavf va dushmanlik tuyg'usi

Ota-ona yoki biror bir hadisa sababli tez-tez bo'ladigan va o'zoq davom etuvchi frustrasiya.

Bolaga ota-onasi tomonidan bo'ladigan kamsitish, tahqirlash. Bu tez-tez bo'lib turadigan frustrasiya hodisasi, ammo u bola shaxsining shakllanishida muhim, shu sababli korrekstiyaga muhtoj.

Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega. Barcha xususiyatlar kabi u ham turli darajada ifodalanadi. Agressivlik har bir insonda ma'lum bir miqdorda mavjud.

Tajovuzkor shaxs tiplari va ular bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar. Psixologiya fanida agressiv shaxslarning quyidagi tiplari mavjud.

1. «*Namoyishkorona*» tip – bu turli xil yo'nalishlarda jo'shqin faoliyat yurituvchi xolerik. Bundaylar ko'zga tashlanib yurishni yoqtiradilar. O'zlarini shunga mos tutishadi. O'ziga yuqori baho berish ko'zatiladi. Odatda aqlli, farosatli.

2. «*Rigid*» (nodon) – bunday tipdagi odamlar yangi muxitga moslasha olmaydilar, atrofdagilarning fikri va nuqtai nazarini e'tiborga olmaydilar. Juda tez xafa bulishadi, izzattalab, hech kimga ishonmaydilar. O'z xulqiga tanqidiy yondoshmaydi, o'zini ta'kidlashlarini yoqtiradi.

3. «*Pedant*» – bundaylar odatda juda puxta, injiq, ijrochi bo'lsada odamovi, odamlar bilan muloqotdan qochadi.

4. «*Ziddiyatsiz*» - o'zi angalagan holda ziddiyatdan qochadigan, o'z fikr va baholarida noturg'un, o'zgalar ta'siriga beriluvchan, biror qaror qabul qilganda ma'suliyatni o'zgalarga yuklaydi.

5. «*Amaliyotchi*» - «Eng yaxshi hujum – himoya» shiori ostida harakat qiladi. Bunday odam uchun eng muhimi atrof muhitni o'zgartirish o'zga odamlarning pozistiyasiga tayanish. Buning oqibatida turli xil to'qnashuvlarga uchraydi.

Robert Bremson quyida agressiv odamlarning o'zga xos tipologiyasini taklif qiladi. «*Tajavo'zkorlar*» - qo'pol va andishasiz gaplarni gapiradigan, uni tinglamasalar jaxli chiqadigan odam. Odatda uning jaxli ortida o'z ishini yaxshi bilmasligini fosh bo'lishdan qo'rqish yotadi.

«*Shikoyatchi*» - qandaydir g'oyaga ega bo'lgan odam bo'lib, bu g'oya amalga oshmagani uchun ko'pchilikni, ba'zida butun olamni ayblaydi, lekin bu muommoni hal qilish uchun hech nima qilmaydi.

«*Darg'azab bola*» - bu tipdagi odam tabiatan jahldor emas, u hissiyotlar bilan vaziyatni qo'lga olaman deb o'ylaydi.

«*Maksimalist*» - zarurat bo'lmagan taqdirda ham biror ishni zudlik bilan qilishga shoshiladigan odam.

«*Indamas*» - hamma narsani o'ziga oladi, o'zini xafa ekanligini yashiradi, so'ngra kimgadir g'azabini sochadi.

«*Yashirin qasoskor*» - qandaydir nayrang bilan odamlarni qiynovchi odam. Kimdir noto'g'ri ish qilgan bo'lsa adolat o'rnatmoqchi bo'ladi.

«*Soxta alturist*» - go'yo sizga yaxshilik qilmoqchidek bo'ladi-yu, yuragining tubida bundan afsuslanadi. Ba'zida u yaxshilik qilishlarini ham talab qiladi.

«*Doimiy ayblovchi*» - o'zgaralar aybini axtaruvchi odam, u doimo o'zini xaq deb biladi.

Shunday qilib ziddiyatli odamlar bilan muomala qilganda unda siz nafaqat do'stini, balki yaxshi sifatlarni ham ko'rishga harakat qilishingiz kerak. Chunki siz bunday odamlarning na dunyoqarashini va qadriyatlarini, na psixologik xususiyatlari va nerv sistemasi sifatlarini o'zgartira olasiz.

Maktab dargoxlarida yosh avlodni Mustaqil Respublikamizning munosib fuqarolari qilib tarbiyalashda muhim boskich ekanligini hisobga olib, keyingi davrlarda ta'lim-tarbiyani milliy lashtirish, ma'lum ta'lim-tarbiya sifatini oshirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Konferenstiyalar», o'quv, ta'lim-tarbiya dasturi va yangi bir qancha fanlarga sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida shunday deb yoritilgan. Endilikda bizga faqatgina xar tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki xar tomonlama uyg'un, sog'lom bolani, rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga etkazishda xar insonning asosiy burchi ekanligi zarurligi uqtirib o'tilgandir.

Shunday qilib fanda **2 turli ortda qolishni** farqlaymiz:

1. nerv sistemasining organik bo'zilishi natijasida ortda qolish; (ularga klinik-psixologik va

2. tibbiy diagnostika va terapiya lozim bo'ladi) hamda vaqtincha ortda qolish va noadekvat xatti-harakat (ular asosan sog'lom bolalarda rivojlanishning nomutanosib ichki va tashqi shart-sharoitlar asosida yuzaga keladilar). Psixodiagnostika nuqtai-nazariga ko'ra bu ikkita masalani hal qilmoq lozim.

a) ortda qolishning bartaraf etish maqsadida uni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi nomutanosiblik shart-sharoitlarini o'z vaqtida diagnoz qilish.

b) ko'rilgan choralarga qaramay noadekvat xatti-harakatni saqlab qolishga bo'lgan tendensiya ustunlik qiluvchi o'quvchilarga, pedagogik choralar ko'rish maqsadidagi diagnostika qilish kerak.

Korreksion choralar ko'rish uchun asosiy shart- sharoit noadekvat xatti-harakatning tub sabablarini psixodiagnostik ochib berish hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida o'zgarishlarni o'rganish uchun psixodiagnostik metodlar ishlab chiqilmog'i lozim.

Pedagogik jarayonni boshqarish o'quv dasturini amalga oshirishi va kechishi haqidagi ma'lumotlarni talab qiladi. Bu xil ma'lumotlar maktab direktoriga, metodistlarga, o'quv jarayonini boshqarayotgan pedagoglarga juda zarurdir. O'quvchilarning o'zlashtirishini taqqoslash imkonini beruvchi standartlashgan usullarni qo'llash psixologlar va pedagoglar birgalikda ochishi muhim bo'lgan masalalardir.

Dushman va tajovuzkor mijozlarga konsultatsiya berish

Konsultatsiyalashuvda ko'plab muammolar salbiy fikr yuritmoqda yoki ochiq dushman mijozlar. Konsultantlar boshqacha munosabatda bunday mijozlarga: ba'zilari dushmanlik uchun bezovtalanish va dushmanlik; boshqalar xushmuomalalik va samimiylik ko'rsatishga harakat qilishadi; boshqalar mijozlarning ahvolini e'tiborsiz qoldiradilar, hech narsa qilmaganday harakat qilishadi bu sodir bo'ldi. Barcha hollarda mijoz tomonidan dushmanlik namoyon bo'ladi ushbu holatning sabablarini tushunish kerak. Tushunchalar qachon "g'azab" va "dushmanlik" xususiyatlar juda kuchli ko'rinadi, ularning so'zlari qat'iy tarzda ifodalanmasligi kerak. Misol uchun, "siz baxtsiz narsa kabi ko'rinasiz", " siz xafa bo'ldingizmi?", "Emas biror narsa aytishni xohlaysizmi?", "Bu sizni g'azablantirgandek tuyuladi" va boshqalar. Agar konsultant faqat mijozni dushmanlikda gumon qilsa, u oydinlik: "nima sodir bo'ldi?", "Men noto'g'ri narsa aytdim yoki qildim?". Har holda, mijozning dushmanligiga duch kelganda, quyidagilar bu holatni jiddiy davolash uchun, terapevtik aralashuvga to'sqinlik qiladi o'zaro aloqalar. Mijozning noroziligining sabablari oddiy bo'lishi mumkin - yo'q konsultantning ko'rinishi yoki so'zlari kabi, konsultant juda yosh va boshqalar.

Mijozning g'azabining sabablarini tushunish va samarali unga javob berish uchun konsultant uning asosiy xususiyatlarini tushunishi kerak

G'azab patologik yoki g'ayritabiiy narsa emas. Har bir inson vaqti-vaqti bilan g'azablangan yoki g'azablana oladi. G'azab nafaqat xavf haqida ogohlantiruvchi signal, shuningdek, o'z-o'zini himoya qilish tuyg'usi. Konsultant g'azabning kelib chiqishini bilish muhimdir. Sabablari har bir mijozning g'azablari uning hayotiy sharoitlarida yashiringan. G'azab "tarixiy", ya'ni uning o'tmishi bor. Hayot davomida, ayniqsa bolalik yillari, shaxsiy "dushmanlik uslubi" hosil bo'ladi, ya'ni. Biz g'azablanamiz, g'azab qanday to'planadi va yo'q qilinadi. Ba'zi mijozlar konsultant majburiy ohangda gapirganda g'azablangan; boshqalar-qachon nima qilish kerakligini aniq va aniq ko'rsatmaydi; boshqalar-juda ko'p shaxsiy so'rashganda savollar, chunki bu ularga ortiqcha qiziqish kabi ko'rinadi. Xuddi shunday ba'zi mijozlarning shartlari dushmanlik qiladi, boshqalari esa yo'q. Ular bu farqlar hayot tajribasining o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Konsultant g'azabni "olib kelganini" tushunishi kerak konsultatsiya berish va to'g'ridan-to'g'ri gapiradigan va qilgan narsalar bilan bevosita bog'liq emas konsultant. Konsultant muayyan shaxsni yoki vaziyatni "o'zgartirishi" mumkin mijozning oxirgi hayotidan. Mijoz, ayniqsa boshida konsultatsiya, dushman, shubhali, g'azablangan, konsultant bilishi kerak, ushbu his-tuyg'ularning manbai mijozning ichida. Bunga ishonishda mijozning erkin ifoda eta olmaydigan konsultantsi sizning noroziligingiz yoki g'azabingiz yomon konsultantdeb tushunadi. konsultatsiya Ichida ba'zan g'azabni maxfiy qilsangiz tashvishni yodda tutish lozim. Bunday hollarda mijozga uni tushunishga yordam berish kerak haqiqiy his-tuyg'ular va shuning uchun dushmanlikni o'zgartiring. Garchi konsultant bilan ishlashda xotirjam bo'lish oson bo'lmasa-da agressiv mijoz, ammo dushmanlik bilan javob berish demakdir hatto ko'proq dushmanlik keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda his-tuyg'ularingizni tushunib o'zingizni aniqlang mijozga uni engishga yordam berish uchun norozilik g'azablanishholatizniqo'lga oling.

Konsultant bilan mijozning g'azabi o'rtasida katta farq bor, konsultatsiya jarayonida yuzaga keladigan va to'g'ridan-to'g'ri haqoratlar konsultant manziliga zid. Konsultant hech qanday holatda haqorat qilmasligi kerak ular, shuningdek, mijozga zarar sifatida bag'rikenglik qolish. Odatda konsultantga nisbatan tajovuz bilvosita ifodalanadi (masalan, mijozning oldida uchrashgan konsultantning hamkasblarini haqorat qilish). Ichida bunday hollarda, uning o'rnini

belgilash emas, balki, faqat mijoz to'liq baham ko'rish imkoniyatini berish kerak. Aytish kerakki, agressiv xatti-harakatlar qabul qilinishi mumkin emas intizomiy choralar ko'rish zarur.

6.3. "Motivastiyalashmagan" patsientlar konsultastiyasi

O'zbekistonda o'tkazilgan tadqiqotlarda ajrimlar tufayli bolaning ham psixofiziologik, ham ijtimoiy-psixologik holatlarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berishi isbotlangan. Masalan, ayniqsa, o'smir yoshli bola bunday voqeani juda og'ir his qilishi ko'zatilgan. Ota-onasi ajrashib ketgan bolaning ijtimoiy maqomi ham o'zgaradi, sinfda sotsiometrik maqomi birdan pastlaydi, o'zi haqidagi fiqolari yomonlashadi, do'stlar davrasidan o'zini chetga oladigan, topshiriqlarni xafsalasizlik bilan bajaradigan, irodasiz bo'lib qoladi. Ayrim o'smirlar oiladagi muhit bois "ko'cha bolalariga qo'shilib ketadi, darslarni muntazam qoldiradigan, hattoki, maktabdan umuman voz kechib, uyga bormaydigan ham bo'lib qoladi. Shuning uchun bizning oila borasidagi siyosatimizning bosh maqsadi - mustahkam oila barpo etish, ota-onalarning qonuniy va vijdoniy masu'liyatlarini bulmish farzand tarbiyasiga e'tiborlarini kuchaytirishdir. Zero, oila mustahkam va undagi munosabatlar barqaror va samimiy bo'lsa, unda tarbiya topayotgan farzandlar baxtiyor, intellektual salohiyatli, barkamol bo'ladi.

Proteksiya umuman bir inson tomonidan ikkinchi insonni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlar.

Gipperproteksiya - ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo'lib, bu ularni bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborini ayamaliklarida namoyon bo'ladi. Ya'ni, g'amxo'rlikni ota-ona hayot tarziga aylantiradi, ya'ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi.

Erkalatib g'amxo'rlik ko'rsatishga asoslangan gipperproteksiya - bu ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilishlari bo'lib, ular bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uni barcha istaklarini joyida bajo keltirishi, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka tayyor bo'ladi, o'zaro munosabatlarda erkalatish va erkalanish odatga aylanib qoladi. Bolasi uchun "jonini jabborga beruvchilar" odatda o'zlari bilmagan holda farzandlariga

yomonlik qilayotganliklarini sezishmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo'q, ko'pchilikning ichida o'zini tuta olmaydigan, xayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga o'tganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola kun jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi,

Ortiqcha g'amxo'rlikka asoslangan gipperprotektstiyada erkalatishdan ko'ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va hatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berishi nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubi turli xil ta'qiqalar, chegaralashlar ("u mumkin emas", "bu mumkin emas" qabilida) bisyor bo'ladi. Bunday sharoitda katta bo'lgan bola odatda mustaqil fikrlay olishi, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo'lolmaydi, lekin salga jaxli chiqadigan, ko'p narsalardan norozi holda katta bo'ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarning hamma yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib, aytib berishlariga o'rganib qoladi: onasisiz dars tayorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan bo'ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko'nikib ketadi.

O'ta kuchli axloqsiz ma'suliyat - bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xoxish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to'ng'ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak", degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish kabi masuliyatli va og'ir ishlar ham yo'qlanadi.

Emotional raddiya - bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-ona xayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi,

u bo'lmaganida ota-onaning xayoti boshqacha bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo'lmasa, boshqa arzandaroq, suyuqliroq inson bo'lsa; vaziyat yanada og'irlashadi, "sen bo'lmaganingda..." yoki qiz bolaga qarab: "Sening o'rningda o'g'il bo'lganda edi..." qabilidagi kesatiklar tez-tez aytib turiladi.

Ayrim ota-onalar bu kabi emostional jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, "nega bolani yoqtirmaysan?" kabi savollarga aslida uni sevishi kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo'lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o'z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga o'rinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og'ir botadi.

Qattiqqo'llik - bir qarashda emostional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqrok va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga juda befarqlik, uning bor-yo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchiligi qilish, ota-ona tazyiqidan kutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-ona xukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyo'ladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi. A. *Freyd* nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada bolalarning kamida 1%ni oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar.

Amerikalik olim *S.D.SHerri*s (2003) oiladagi ana shu kabi qattiqqo'lliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'rganib, ularning harakterida ro'y beradigan o'zgarishlarga to'xtalib o'tgan. Jismoniy jihatdan bolaga zulm qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vaqillariga xosdir. Hayotda, ish-

faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muxabbat qurboni bo'lgan, lekin farzand ko'rgan ayollarning aksariyati achchig'ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora xayotiy ko'nikmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-ona (masalan, ishsizlar, uyi yo'qlar, ish qidirib boshqa erlarga ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbonlari, kambag'allar) o'z ijtimoiy muammolarini hal qila olmay, tug'ilgan bolasidan o'ch ola boshlaydi. Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o'ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo'lishini olimlar o'rganishgan. Shunisi harakterliki, bolasini tez-tez do'pposlaydigan ota-ona ayrim holatlarga unga qattiqqo'lliklarining sababini aytib, bu kabi harakatlarni nima uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, ko'mak berishga chaqiradi. Masalan, topganini o'zi kuchada eb, alkogolga almashtirib kelib, achchigini yana boladan oladi-da, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Bunda bolaning yoshi unchalik ahamiyatli ham emas, 2 yoshdan o'tgan bolaga nisbatan jazo choralari kurilganligini ayrim holatlarda OAVda aks ettirladi.

Tashlab qo'yilgan bolalar yoki tashlandiq bolalar-odatda yoshligidan na moddiy, na ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan bolalardir. Ular masalan, qorni to'ymaganidan jismoniy taraqqiyotdan orqada qolsa, nazorat va e'tiborning yo'qligidan turli jinoyat yo'llariga kirib qoladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehrning yo'qligidan jamiyatda, odamlar orasida o'z o'rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo'lib o'sadi. Bularning barchasi ularning kelajakda jinoyat yo'llariga kirib qolishiga yoki zararli odatlarga o'rganishi (giyoxvand moddalar iste'mol qilish)ga sabab bo'ladi. "Mehr tayanchi" markazi aynan shunday bolalar toifasini to'g'ri xayotga qaytaradigan., gipoprotektsiyaning qurbonlarini oilaviy muhiti sharoitini o'rganganidan so'ng ota-onasini chaqirtirib kelib, ular bilan pedagogik-korreksion, psihologik uslublarda ishlaydigan muassasa hisoblanadi. Markazdagi bolalarning barchasi oiladagi noto'g'ri tarbiyaning qurbonlaridir.

Zarur-motivatsion muammolar bo'yicha maslahat berish

Avvalo, biz kerakli motivatsion muammolar deb ataydigan narsalarni aniqlaymiz. Bu, birinchi navbatda, yuzaga keladigan va o'zini namoyon qiladigan muammolar, masalan, odamlarga bo'lgan qiziqishning

yo'qolishi, ish uchun, uning atrofida sodir bo'layotgan narsalar. Zarur motivatsion muammolarning kelib chiqishi natijasida inson faoliyatining pasayishi, maqsadni yo'qotish, hayotning mazmuni bo'ladi.

Bunday muammolar yuzaga kelganda, shubhasiz, bu ishni va unga jalb qilingan odamlarni emas, balki nafaqat bu odamning qiziqishini yo'qotganlarni emas, balki bu odamning o'zi ham azob chekadi, chunki u boshqa odamlardan oddiy darajada qo'llab-quvvatlaydigan rag'batlantirishni to'xtatadi uning insoniy mavjudligi.

Odamlarga bo'lgan qiziqishni yo'qotib, inson aslida ular bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib, uning psixologik farovonligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan narsalarni surunkali ravishda yo'qotadi. Ma'lumki, juda keng manfaatlarga ega bo'lgan va turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlar jismoniy va ma'naviy jihatdan bilimga ega bo'lmagan va cheklangan muloqot doirasiga ega bo'lganlarga qaraganda ancha yaxshi his etadilar. Buning sababi shundaki, motivatsion boy odam odatda motivatsion kambag'allarga qaraganda ancha faoldir. Borayotgan faoliyat-bu asosiy xususiyat va farovon inson mavjudligining asosiy shartidir.

Psixologik maslahatga murojaat qilgan mijoz uchun motivatsion va zarur rejaning muammolari qanday tavsiflanadi?

Bu, masalan, quyidagi xususiy xususiyatlarga ko'ra baholanishi mumkin. Birinchidan, motivatsiya nuqtai nazaridan muammoli odam deyarli har doim befarq va charchagan ko'rinadi. Bu, o'z navbatida, ko'pincha odamlarga va uning atrofida sodir bo'layotgan narsalarga qiziqish yo'qligi tabiiy oqibatidir. Insonning ijtimoiy faolligining asosiy omili uning sabablari va ehtiyojlari.

Ikkinchidan, zaif rivojlangan motivatsion sohaga ega bo'lgan kishi, qoida tariqasida, u bilan va boshqa odamlar bilan nima sodir bo'lishidan juda kam qiziqish uyg'otadi va boshqa odamlar odatda juda jonli va hissiy jihatdan javob beradigan narsalarga deyarli javob bermaydi. Bunday odam atrofdagi odamlar orasida nimalar sodir bo'layotganiga nisbatan emotsional bo'lmagan reaksiyalari bilan ajralib turadi. Uchinchidan, ehtiyoj-motivatsion reja muammosiga ega bo'lgan kishi, u allaqachon mavjud bo'lgan narsalar bilan xursand bo'ladi, hatto u haqiqatan ham zarur bo'lgan narsalardan kamroq bo'lsa ham, u to'g'ri ishlashi mumkin bo'lgan narsaga erishish uchun ozgina harakat qilsa ham. Mijozni kuzatishdan tashqari, maxsus psixologik testlar

yordamida murojaat qilish mumkin. Biroq, ular, masalan, xarakterli testlardan farqli o'laroq, ko'pincha o'ziga xosdir va butun motivatsion sohani emas, balki insonning shaxsiy ehtiyojlari, motivlari va manfaatlarini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun, motivatsiyaning psixologik testiga murojaat qilishdan oldin, o'rganilayotgan shaxs haqida barcha mavjud ma'lumotlarni to'plash va uni umumlashtirib, uning motivatsion muammolari haqida juda aniq gipotezani shakllantirish tavsiya etiladi. Shundan keyingina kerakli psixologik testlarni aniq tanlab olish va ulardan foydalanib, mijozning motivatsiyasi haqida to'g'ri va aniq ma'lumot olish mumkin bo'ladi. Keling, maslahatchi psixolog allaqachon mijozning motivatsiya bilan bog'liq muammolarga duch kelganini aniqladi. Biroq, bu ularning amaliy qarorlarini darhol boshlash uchun etarli emas. Bundan tashqari, mijozning ushbu motivatsion muammo yuzaga kelishiga haqiqiy sabab bo'lganligi va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish kerak. Shu munosabat bilan, insonning motivatsion tabiat muammolari, shuningdek, ularning sabablari va hayotiy namoyon bo'lishining ba'zi odatiy holatlarini ko'rib chiqing. Muammo 1. Insonning, masalan, tabiiy ravishda qiziqish ortib borishi kerak bo'lgan narsalarga qiziqish bolada yo'qligi. Bunday muammo, masalan, hayot uchun foydali bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lishni istamasligi mumkin. Bunday muammolarning paydo bo'lishining ehtimoliy sabablaridan biri shundaki, u faqat qisqa muddatli manfaatlar bilan yashaydi, ular orasida kelajak uchun bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lishni o'z ichiga olmaydi. Ularda bu odam oddiygina kerak emas, chunki ular o'z lahzali ehtiyojlarini qondirish uchun kerak emas.

Yana bir aniq misol: muayyan yoshdagi bola qiziqarli o'yinlar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bilan mashg'ul bo'lishi mumkin, ammo kattalar uni rag'batlantiradigan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lishga hojat yo'q. Va kattalar talab qiladigan narsa bolaning hozirgi ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga umid qilish mumkin emas. Qiziqishning etishmasligining yana bir sababi kelajak haqida o'ylamaslik odati bo'lishi mumkin, oldindan tayyorlanmaslik kerak. Bunday holda, motivatsion muammoni amaliy hal qilish insonni o'z kelajagi haqida o'ylashga undashdir, shuning uchun ertaga uning shaxsiy farovonligi bugungi kunda nima qilayotganiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Buni bolalarga tushuntirish juda qiyin, chunki ularning xatti-harakatlari bevosita , shuningdek, hayot tajribasi yo'qligi va o'z aqlari kattalar talablarining adolatliligini tushunishga yordam bermasdan va shu asosda kelajakka jiddiy tayyorgarlik ko'rishni boshlash uchun rivojlanmagan.

Shu bilan birga, bu muammoni bolalik davrida hal qilish mumkin, chunki bolalik – bu o'z-o'zidan kelajakka qaratilgan vaqt. Bolaning ongida uning kelajagi tushunarsiz va mavhum bir narsa emas, balki haqiqiy manfaatlar va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan juda aniq, haqiqiy ko'rinishga ega bo'lishiga erishish muhimdir. Muhokama qilinayotgan muammoning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uchinchi sabab, hozirgi vaqtda yashayotgan ehtiyojlari bilan atrofdagilarni rag'batlantirishga intilayotgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning ahamiyatsizligi bo'lishi mumkin. Shu sababli, insonga qo'yilgan bilim va ko'nikmalar unga mutlaqo keraksiz ko'rinadi va u hozirgi vaqtda ularni rivojlantirish uchun jiddiy rag'batlarga ega emas.

Muammo 2. Mijozning mavjudligi ma'nosini belgilaydigan juda muhim, jiddiy hayotiy maqsadga ega emasligi.

Bu psixologik jihatdan juda chuqur motivatsion muammo bo'lib, uning hal etilmasligi inson uchun uzoq oqibatlarga olib keladi. Hayotning maqsadi, agar insonda mavjud bo'lsa, uni turli tadbirlar bilan muntazam ravishda shug'ullanishga undaydi, shu bilan hayotni inson uchun juda mazmunli va qiziqarli qiladi. Hayotning maqsadi, odatda, insonning eng muhim hayotiy ehtiyojlariga mos keladigan narsa bo'lib, bu kishi eng kuchli, hissiy jihatdan ijobiy mustahkamlanishi mumkin. Bolaligidan boshlab, barcha odamlar, odatda, ma'lum bir hayotiy maqsadga ega. Biroq, agar u bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra yagona va deyarli erishilmasa yoki bu maqsadga erishilsa, inson kutilgan hissiy qoniqishni qabul qilmasa, umidsizlik paydo bo'ladi, hayotning mazmuni qisman yoki to'liq yo'qoladi. Qadimgi, odatiy hayot maqsadi yo'qoladi va yangi paydo bo'lmaydi. Buning oldini olish uchun inson o'zining hayotiy istaklarini bitta maqsadga cheklamasligi kerak. Agar u bola bo'lsa, u bolaligidan bir-birini to'ldiruvchi yoki o'zaro almashtiradigan hayotiy maqsadlarga ega bo'lgan tarzda o'qitilishi va o'qitilishi kerak. Biz bunday maqsadlar haqida gapiramiz, ularning har biriga bo'lgan intilish boshqa maqsadlarga erishishga yordam beradi va ulardan birining yo'qolishi bu odamning hayotini butunlay ma'nosiz qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson hayotida har qanday

hayotiy yo'qotish uchun kamida bitta muhim hayotiy maqsadga ega bo'lish uchun etarli bo'lgan turli xil maqsadlarga ega bo'lishi kerak.

Agar bitta hayotiy maqsadga ega bo'lgan kattalar to'satdan uni yo'qotsa va uning hayoti buning natijasida maqsadsiz (ma'nosiz) bo'lsa, unda bunday shaxs bilan maxsus va uzoq muddatli psixoterapevtik ishlarni amalga oshirish kerak, masalan, V. Frankl tomonidan logoterapiya usuli.

Ushbu protseduraning mohiyati shundan iboratki, uning oldingi, tegishli maqsadini yo'qotgan va hayotning ma'nosini yo'qotgan kishi, aslida hayotning juda boy va qiziqarli ekanligini kashf qilish uchun, har bir kishi, agar xohlasa, o'zi uchun bir emas, balki bir nechta yangi, juda qiziqarli, jozibali hayot maqsadlari. Shu bilan birga, o'zi uchun yangi hayotiy maqsadni qabul qilib, uni amalga oshirishni boshlagan mijoz darhol zarur emotsional ijobiy mustahkamlashni qo'lga kiritishi muhim ahamiyatga ega.

Muammo 3. Bu muammoning mohiyati-u yoki uni amalga oshirish uchun amaliy harakatlarni boshlash emas, yoki bunday harakatlar va bu yo'lda birinchi muvaffaqiyatsizliklar azob boshlash, to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarini to'xtatadi qachon maqsadga erishish uchun shaxsning aniq istagi yo'qligi.

Ushbu motivatsion muammoning qalbida quyidagi sabablar bo'lishi mumkin:

1. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchsizligi, kam o'zini o'zi hurmat qilish, da'volarning past darajasi.
2. Muvaffaqiyatga erishishning kam rivojlangan sababi.
3. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun juda rivojlangan sabab. Ushbu holatlarning birinchi qismida, shaxs o'z maqsadiga erishish uchun kerakli sa'y-harakatlarni amalga oshirmaydi va bu o'z-o'zidan ishonchli emas yoki bu maqsadga erishish mumkinligiga ishonch hosil qilmaydi. Ushbu salbiy motivatsion tendentsiya odatda o'z-o'zini hurmat qilishni kuchaytiradi. Bu holatda bo'lgan kishi o'z qobiliyatlarini qadrlamaydi va shunga asoslanib, u hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmaydi, deb hisoblaydi. Da'volarning past darajasiga kelsak, u odatda odamning o'zidan uzoqlashmasligiga olib keladi.

6.4. Yuqori talab qo'yuvchi patsientlar konsultastiyasi

Gipperprotekstiyaning ham haddan ziyod shakli borki, unda bola ota-ona nazoratidan ataylab tashlab qoldirilgani sababli, uning noto'g'ri yo'llarga kirib ketayotganligiga ham kattalar befarq, bo'ladilar. *A.E. Lichko, A.A. Vdovichenkolarning* Rossiyada o'tkazgan tadqiqotlarida yomon yo'lga kirib ketgan, voyaga etmagan jinoyatchilarning ota-onalarida jiddiy xatoliklar aniqlangan. Ular bolasining noto'g'ri xatti-harakatini oqlamoqchi ham bo'ladi, yoki aybni boshqalarga, masalan, ko'cha bolalariga, maktabdagi intizomsizlikka, o'qituvchilarning befarqligiga to'nkamoqchi bo'ladi, faqat o'zlarining aybini sezmaydi yoki tan olmaydi.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli - **ziddiyatli tarbiya**. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya usullarini ko'zlaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini - "xali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", kabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini *E.Lengard* o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu -bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lislari kerak.

Yolg'iz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bo'lgan oilalarning paydo bo'lishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikoxsiz paydo bo'lgan oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo'lishi ham (yoshi o'tib borayotganligidan nikohsiz bo'lsa ham bitta farzand tug'ib, uni yolg'iz o'zi katta qiladi), juda yosh bo'lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo'lib qolgan holatlar) ham mumkin. Odatda turli sabablarga ko'ra yolg'izlanib qolgan noto'liq oila a'zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolgizlikka mahkum bo'ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo'lgan yumushlarning bir

qismini: o'z elkasiga olishga majbur bo'ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no'noq bo'lgani uchun uning do'stlari kam bo'ladi. Asosiy muloqot ob'ekti ona bo'lib, u ham ko'pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga etarli e'tibor berolmaydi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayrilig'ini juda ko'ngilariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko'taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisholmaydigan, agressiv bo'lib qoladi.

Injiq bolani yolg'iz o'zi tarbiyalashga majbur bo'lgan onalarda odatda depressiya holati ko'zatiladi. Ko'pincha bunday ona o'zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko'pincha xafa bo'lib yradi va ich-ichidan o'zini bolalari oldida gunoxkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi. *M. Listal* (2003)ning yozishicha, yolg'iz ota-onalarning shaxsiga qo'yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo'lib, undan katta emostional yukni va nixoyatda ishchanlikni talab etadi. Bunta afsuski, hamma ham chidayvermaydi.

Rus amaliy psixologlari ko'proq «tarbiyasi qiyin» o'smirlar bilan ishlashda A.E. Lichko ishlab chikkan «Patoxarakterologik diagnostika savolnomadan (PDS) foydalanib, xarakterga urg'u berishning (patologik xarakterning) quyidagi tiplarini ajratadilar.

Ular:

1. Gipertim tip – G
2. Stikloid - C
3. O'zgaruvchan tip - U
4. Asabiy zaif tip – A
5. Senzitiv tip – S
6. Ruhiy zaiflik – R
7. Shizoid tip – T
8. Tutqanoqli tip – T
9. Jazavali tip – J
10. Bo'sh tip – B
11. Moslashuvchan tip – M

G - Gipertim o'smirlar. Bu tipga mansub o'smirlar to'polonchi, tez zerikadigan, xaddan tashqari mustaqil, hatto botirlik, sho'xlik bilan ajralib turadilar. Ular notanish kishi oldida uyalmaydilar, tortinmaydilar. O'yinlarda tengdoshlariga buyruq berishni uqtirishadi. Hamma ularning sho'xligidan arz qilishadi. Maktabda yaxshi

qobiliyatlarga qaramasdan, tartibsizliklari, tez chalg'ishlari hisobiga yaxshi o'qimaydilar.

O'smirlik davrida asosiy xususiyat - har doim yaxshi ko'tarilgan kayfiyatda bo'ladilar. Bunday o'smirlar erta mustaqillik va erkinlik ko'rsatishadi, qat'iy tartib va rejimni yoqtirishmaydi. Qonun va qoidalarga engiltaklik bilan qarashadi. Ular xar doim ulfatlarga intilishadi, yolg'iz qolishni yoqtirishmaydi, tengdoshlari orasida raxbarlikka intilishadi. Tanishlarni tanlashda yaxshi-yomonni farq qilmaydi va osonlik bilan shubxali ulfatlar orasiga tushib qolishi mumkin. Sargo'zashtlarni, xavf-xatarni, qaltis yurish-turishini yoqtiradi. Yaxshi yangi narsani his qilish xarakterlidir, yangi odamlar, joylar, predmetlar uni o'ziga tortadi. Bunday o'smirlar osonlik bilan ilhomlanib, boshlagan ishini oxiriga etkazmaydi, to'xtovsiz ravishda «sevimli ishi»ni o'zgartirib turadi. O'zoq o'tirib ishlashni talab qiladigan, diqqat bilan ishlashni, mayda ishni eplay olmaydi. Va'dasini bajarishda pul masalalarida xam betartiblik bilan ajralib turmaydi, osonlik bilan qarzga botib qoladi. Oliftagarchilikni yaxshi ko'radi. Kelajakni shirin xayolda tasavvur qiladi. Muvaffaqiyatsizlik kuchli reakstiya ko'rsatishi mumkin. Lekin o'zok vaqtgacha yo'ldan chiqarishga qodir emas, jahldan tez tushadi. Jinsiy hissiyot erta uyg'onadi va kuchli bo'ladi. Shuning uchun erta jinsiy xayotga kirishishi mumkin.

C – Stikloid tip. Odatda ularga tegishli bo'lmagan kattalar ustidan xatarli hazillar va xamma erda kinoya qilishi xos bo'ladi. Xayotiy stereotipni tubdan o'zgartirishda, kamroq qarshilik ko'rsatadi (masalan, maktabdan oliy o'quv yurtiga o'tishda). Bunday o'zgartirish subdepressiv fazani to'sishi mumkin. Bu bosqichdan nasixat, gina-kudrat, ayblashlarga tanlab javob qaytaradi. Bolalik davrida tengdoshlaridan farqlanmaydi. O'smirlik yoshi boshlanishi bilan birinchi subdepressiv bosqich boshlanishi mumkin. Keyinchalik bu bosqichlar ko'tarilishi va bir xil kayfiyat bosqichlari bilan almashinishi mumkin. Bosqichlarning davomiyligi dastlab kunlar, 1-2 hafta, yosh o'tishi bilan ular ko'payishi yoki aksincha bartaraf bo'lishi mumkin.

Subdepressiv bosqichdan lanjlik, kuchsizlanish, xamma narsa qo'ldan tushib ketishi ko'zatiladi. Ilgari oddiy va osonlik bilan erishilgan narsa katta zo'riqishni talab qiladi. O'qish qiyin bo'lib qoladi. Atrofdagi kishilarni yoqtirmaydi, ulfatlardan qochadi, sargo'zashtlar va xavf-xatarga qiziqmay qo'yadi. O'smirlar bu kunlari

uydan chiqmaydigan bo'lib qoladi. Kichik muvaffaqiyatsizliklar va kungilsizliklar xam ish qobiliyati pasayganligi tufayli bu davrda og'ir qayg'uriladi. Tanbex va malomatlarga qo'pollik va ta'sirlanish bilan javob qaytaradi, ruxan umidsizlikka tushadi, ko'proq zerikishdan arz qiladi. Agar bu kunlari ko'proq muvffakiyatsizlikka duch kelsa, shaxsiy irodasizligi, etukmasligi, hech nimaga arzimastligi haqidagi fikrlarga osonlik bilan berilishi mumkin. Qattiq vaximaga tushishi, o'z-o'zini o'ldirishigacha olib kelishi mumkin. Tengdoshlari bilan guruhlar tashkil etish ko'zatilib, subdepressiv fazaning ko'tarilish davrida so'na boshlaydi. «Sevimli ishi» o'zgaruvchan bo'ladi. Subdepressiv fazada ularni tashlab qo'yadi, ko'tarilish davrida unga qaytadi yoki yangisini topadi. Uydan qochish, taksikoman xulq-atvor xos emas. Ulfatlar orasida faqat ko'tarishlar davrida aroq ichadi.

U - O'zgaruvchi tip. Bolalikda tengdoshlaridan ajralmaydi o'smirlik davrida asosiy xususiyat bu tez o'zgaruvchan kayfiyat bo'lib, xatto arzimast, atrofdagi bo'lar-bo'lmas sababga ko'ra xam o'zgarishi mumkin. Kimningdir bexosdan aytgan so'zi, tasodifiy suxbatdoshning sovuq qarashi xam, jiddiy ko'ngilsizlik va muvaffaqiyatsizlik bo'lmasa xam, ruxan tushkunlikka tushishi mumkin. Aksincha, qiziqarli suhbat, bir daqiqalik maqtov, kimdandir eshitgan xavasni keltiradigan, kelajak xam xushchaqchalik va quvnoklikka olib kelishi mumkin. Ochiq va hayajonli suxbatlar davrida yo kulgini yoki ko'zida yoshni ko'rish mumkin. Bunday vaqtda xamma narsa kayfiyatga bog'liq bo'ladi: o'zini his qilish xam, kayfiyat xam, uyquasi xam, ish qobiliyati xam.

Ulfatlarining o'zgaruvchan vaziyatini yoqtiradi, ozodlikka intilishi o'rtamiyonadir. Agar noqulay oilaviy sharoit bo'lsa, bu intilishi kuchayadi. Tengdoshlari bilan guruhlariga ajralish kayfiyatga bog'liq bo'ladi. Kayfiyat yaxshi bo'lganda ulfatlarni izlaydi, kayfiyat yomon bo'lganda, ulardan qochadi. Tengdoshlari orasida yo'l boshchi rolida da'vo qilmaydi Sevimli ishi bekordan-bekorga o'zoq gap sotish, ba'zan badiiy xavaskorlik yoki ayrim uy xayvonlari bo'lishi mumkin. Jinsiy faollik odatda tegishish va boshqa jinsga mulozamat qilishi bilan chegaralanadi.

A – Asabi zaiflik. Bolalikdan quyidagi belgilar ko'zga tashlanadi: yomon uyqu, ishtaxasi yo'qlik, injiklik, qo'rqqoqlik, ba'zan kechasi qo'rqish, duduqlanish va boshqalar. O'cmirlik davrida tez charchash, tez jahli chiqish, vaxima tushishi asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Charchash ayniqsa, aqliy mashg'ulotlar yoki jismoniy va

hissiy zuriqishda, musobaqa sharoitida yaqqol ko'rinadi. Ko'pincha bo'lar-bo'lmas sabab jahli chiqish, birdan jazavasi tutishga olib keladi. Jaxli chiqish, ko'pincha afsuslanish va ko'z yosh bilan almashadi. Vaximaga tushish ayniqsa kuchli bo'lishi mumkin.

Bunday o'smirlar kichik tana sezgilariga xam e'tibor berishadi, bajonudil da'volanadilar, o'rin-to'shak qilib yotib oladilar. Ko'pincha o'g'il bolalarda vahimaga tushish manbai yurak hisoblanadi.

Spirтли ichimliklarni iste'mol qilishi xos emas. Tengdoshlariga, ulfatlarga intiladi, lekin ulardan tez charchaydi va yolg'izlikni afzal ko'radi yoki do'st bilan muomala qilishni yoqtiradi. O'z-o'zini baholash sog'lik xaqida g'amxurlikni aks ettiradi.

S – Senzitiv tip . Bolalikdan qo'rqadigan va hurkadigan bo'ladi. Ko'pincha qorong'idan qo'rqadi, xayvonlarni chetlab o'tadi, bir o'zi uyda qulflanib yolg'iz qolishga qo'rqadi tengdoshlaridan yotsiraydi. Xarakterli o'yinlarni va janjal to'polonni yoqtirmaydi. Notanish kishi bilan osonlikcha muloqotga kirisha olmaydi. Bularning bari atrofdagilardan ajralgandek va odamlardan yotsiraydi, - degan noto'g'ri tasavvurga olib kelishi mumkin. Haqiqatda esa bunday bolalar o'rganib qolgan kishisi bilan ko'p gaplashadi, o'zidan kichkinalar bilan o'ynashni yoqtiradi, chunki ular bilan o'zini xotirjam va ishonchli sezadi. Tug'ishganlari va yaqin kishisiga mehr qo'ygan, «uy bolasi» hisoblanadi. Maktab ularni tanaffuslardagi shovqin suron, urishi bilan qo'rqitadi. Odatda tirishib o'qiydi. Xar xil nazorat, tekshiruv, imtixonlardan qo'rqadi. Ko'pincha doskada javob berishga, maxmadona deb nom chiqarishdan uyaladi. Bir sinfga o'rganib va xatto ayrim sinfdoshlari tomonidan ta'kibga olinishdan iztirob chekib, boshqa sinfga o'tadi. O'smirlik yoshining boshlanishi hech qanday asoratsiz o'tadi. Katta o'smirlik yoshiga o'tishi bilan qiyinchiliklar boshlanadi. Bu tipning ikki asosiy xususiyati ko'zga tashlanadi. Xaddan tashqari ta'sirlanuvchanlik va shaxsiy etukmaslikni his qilish, o'zidagi ko'p kamchiliklarni, ayniksa axlokiy va irodaviy soxalarda ko'radi. Tug'ishganlariga bolalarcha mehr quyish saqlanib kolgan. Yaqin kishilarining g'amxo'rlikiga bajonudil ko'nikadi.

Javobgarlik, burch hissi, o'ziga atrofdagilarga haddan tashkari axloqiy talablar erta shakllanadi. Tengdoshlaridan yotsiramaydi, ularga intiladi, lekin do'st tanlashni yaxshi biladi, do'stlikda mehr qo'ygan. Shovqinli ulfatlardan yaqin do'stni afzal ko'radi. Bunday o'smirlarni qiziqishi ikki xil bo'ladi. Birinchisi aqliy axloqiy o'smirlarning xarakteri kasb

etadi (san'at, musiqa, rassomlik, uy gullari va boshqalar). Bu jarayonda orom oladi, umuman katta natijalarga intiladi. Qiziqishlarning ikkinchi xili shaxsiy etukmaslikni bartaraf etishga intilishdan iborat. Bu erda erishadigan natija va tan olish muhimdir. O'g'il bolalar irodasizlikni sportning kuchli turlari bilan shug'ullanib, bartaraf etmoqchi bo'ladilar. Qiz bolalar bo'lsa, tortinchoqlik va uyatchanlikni jamoat ishlarini bajarish bilan bartaraf etishga intiladilar.

R – Ruhiy zaiflik . Bolalik davrida tortinchoq va qo'rqqoqlik bilan xarakatlarning qovushmaganligi, fikrlashga layoqatlilik va yoshiga mos bo'lmagan intellektual qiziqishlar erta uyg'onadi. Ba'zan notanish kishilardan va yangi predmetlardan qo'rqish, qorong'ilikdan, yopiq eshik ortida qolishdan qo'rqish ko'zatiladi. Psixoastenik xususiyatlari turlicha ko'rinadigan qiyin davr maktabning 1-sinfiga to'g'ri keladi. Bu tipning asosiy xususiyatlari-ikkilanuvchanlik, xar xil fikrlarga ishonish va o'z yaqinlarining kelajagidan hadiksirash turidagi tashvishli gumonsirash va boshqalardir. O'g'il bolalarga onasidan xavotirlanish xos. Ikkilanuvchanlik xos, ayniqsa mustaqil qaror qabul tanlashi kerak bo'lganda, o'zoq o'ylanadi. Lekin qaror qabul qilinganidan keyin tezda bajarilishi kerak, bunda kishini xayron qoldiradigan chidamsizlik xos. Jismoniy taraqqiyot yaxshilikni istashdan iborat. Barcha qo'l ko'nikmalarini va sport mashg'ulotlarini yaxshi egallay olmaydi. Bundan sportning oyoqqa og'irlik tushadigan turlari mustasno. Bu turlardan ba'zan yaxshi natijalarga xam erishishi mumkin.

O'smirning ozodlikka intilish reakstiyasi kuchsiz ifodalangan, bu reakstiya ko'pincha qandaydir yaqin kishilar bilan bog'liqlik bilan almashgan, tengdoshlariga intilish tortinchoqlik shakllarida ko'rinadi. Qiziqishlar intellektual-axloqiy sevimli ish bilan chegaralanadi. Jinsiy hayot qisman umumiy jismoniy taraqqiyotidan ustun keladi. O'smiringa xulq-atvor bo'zilishi (uydan qochish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish) xos. O'z-o'zini taxlil qilishga layoqatli bo'lishga qaramasdan o'z-o'zini baholash to'liq va to'g'rilik bilan farqlanmaydi.

Ruhiy zaiflik xususiyatlari «yuqori aqliy javobgarlik» sharoitida kuchayadi, ya'ni, kattalar, bolalarga, kichiklar yoki nochor a'zolariga qarshi topshirilganda zo'rayadi.

Sh – Shizoid tip. Bunday bolalar bolalikdan yolg'iz o'ynashni yoqtiradi. Ular tengdoshlariga kam intiladi, shovqinli o'yinlardan qochadi, kattalarning o'zaro suxbatlarini jim o'tirib, tinglashni afzal ko'radi. O'smirlik yoshda shizoid tipning barcha xususiyatlari

chuqurlashadi. Dastlab odamlarga aralashmaslik va o'zoqlashishni ko'rish mumkin. Ba'zan yolg'izlik, o'z qiziqishlari bilan yashaydigan o'smirlarni oz darajada o'ziga tortadi. Aloqa o'rnata olmaslik qobiliyati xammadan ko'p uni tashvishga soladi. O'ziga o'xshash do'stni izlashdagi muvaffaqiyatsiz urinishlar, aloqaning tez o'zilishi yanada tortinchoq bo'lishga majburlaydi.

O'zgalar uchun ichki dunyosi xar doim yopiq va ko'pincha sargo'zasht ishlar bilan to'la bo'ladi, shizoid o'smirlar to'satdan yaxshi tanish bo'lmagan va tasodifiy kishiga xam ichidagini aytib, yorilishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda ularning ichki dunyosi yaqin kishilarga noma'lumligicha qolishi mumkin. Ichki dunyosini anglab bo'lmaslik va his-tuyg'ularini ko'rsatishda tiyiklik ko'p xatti - xarakatlarini boshqalar uchun kutilmagan va tushunarsiz qiladi. Shizoid o'smir turmushdagi mayda g'amxo'rlikka chidashi mumkin, u buni sezmasdan o'rnatilgan tartib va rejimga bo'ysunishi mumkin. Lekin uning sargo'zashtlari, qiziqish dunyosi haqida ruxsatsiz gapirishga urinishga xam qat'iy norozilik ko'rsatishi mumkin.

Atrofdagilar uning jinsiy faolligini sezmasligi mumkin. Lekin tashqi «shaxvoniylikka qarashli», jinsiy hayotdan hayratlanish yorqin ishqiy sargo'zashtlar bilan birikishi mumkin. Guruhiy qonunni bo'zishlar xos emas. Lekin guruh «o'z odami deb tan olinishi uchun», «guruh uchun» jinoyat qilishga ham tayyor. Shizoid o'smirlar o'zgalar uchun tasodifan eng qo'pol shakllarda jinsiy faollik ko'rsatishi mumkin.

T – Tutqanoqli tip. Ba'zi xollardagina bu tipning xususiyatlari bolalikdan namoyon bo'ladi. Bunday bola soatlab yig'lashi mumkin, uni ko'ndirishda shafqatsizlik ko'rinishlari namoyon bo'ladi, bunday bolalar hayvonlarni qiynashi, kichiklarning jig'iga tegishni, ojizlarning ustidan kulishni yoqtiradi. Maktabda o'quv qurollarini tutishda juda tartibli. Ko'pchilik xollarda bu tipning xususiyatlari o'smirlik yoshida namoyon bo'ladi. Ulardan asosiysi eng yomoni darg'azab bo'lgan davrda va zahrini sochish mumkin bo'lgan insonni izlash hisoblanadi. Bunday xolat soatlab, kunlab davom etadi. U jazava tutishi bilan bog'liq. Affektiv portlash to'satdan ro'y berganga o'xshaydi. Affekt o'zok, asta-sekin sodir bo'ladi. Arzimas narsa portlashga sabab bo'lishi mumkin. Qattik xayajonlanish xolati fakat kuchli bo'lib qolmay, u o'zoq vaqt davom etadi.

Instinktiv xayot qattiq zo'riqish bilan ajralib turadi. Kuchli jinsiy qiziqish shafqatsizlik layoqatlari bilan birlashishi mumkin. Sevgi bilan birga kuchli rashk xam mavjud. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish og'ir janjallar bilan tugaydi. Mastlikda qilgan ishini bilmaydi.

Qimor o'yinlariga ishqiboz. Boyishga bo'lgan qiziqish tez uyg'onadi. To'plangan narsasining moddiy boylik bo'lgani uchun uni to'plashga qiziqadi. Sport jismoniy kuchni rivojlantirishga imkon bergani uchun o'ziga tortadi. Qo'shiq aytish va musiqa bilan yolg'iz shug'ullanishni yoqtiradi, bunda u zo'r hissiy orom oladi. Bunda imillab harakatlanish, besunaqaylik, xarakat va hissiyotdan tortib, tafakkur va shaxsiy qadriyatlargacha xamma narsada ko'rinadigan sustlik umumiy xususiyat hisoblanadi. O'z ishiga zexni etsa xam hamma qoidalarga birma-bir rioya qiladi. O'z sog'ligiga katta e'tibor berish, shaxsiy qiziqishlarga rioya qilish, gina saqlash, xafagarchilikni unutmashlik, qiziqishlarning ozgina cheklanishidan g'azablanish bilan birikadi.

J – Jazavali tip . O'zidan boshqani o'ylamaslik, o'zini hammadan baland qo'yish (egocentrizm), atrofdagilarning xar doim unga e'tibor berishlariga intilish, u bilan faxrlanishlariga, unga hayron qolishlariga, hurmatlashlariga, hamdard bo'lishlariga intilish asosiy xususiyat hisoblanadi. Eng yomoni faqatgina kelajakda oddiy hech kim nazariga ilmaydigan, oddiy odam bo'lib qolishidan xam cho'chib, o'ziga nisbatan nafrat qo'zg'iydi, g'gazabi qiynaydi. Qolgan barcha sifatlar shu xususiyat bilan aniqlanadi. O'ziga e'tiborni qaratish uchun o'z shaxsini bo'rttirib yolg'on so'zlaydi, xom xayol suradi. Haqiqiy chuqur hissiyot mavjud emas.

O'smirlik yoshida xuddi shu: o'rtoqlarining e'tiborini qaratish maqsadida xulq-atvor bo'zilishlaridan foydalanishi mumkin. Ular dars qoldiradilar, mehnat qilishni istashmaydi, ularni bir xil hayot qoniqtirmaydi, ularning obro'talabligini qondiradigan ukish va mehnatda hurmatga sazovor bo'lish uchun ham, tirishqoqlik ham etishmaydi. U bekorchilik qilishi bilan bir vaqtda kelajakda zo'r kasb egasi bo'lishga da'vo qiladi. Jamoa joylarida kishining jig'iga tegadigan xulq-atvorini namoyon qiladi. Odatda xulq-atvorning juda og'ir bo'zilishidan qochadi.

Uydan qochib ketish bolalik davridan boshlanishi mumkin. Uydan qochgan bolalar, ularni izlab boradigan joylarda bo'lishga yoki milistiyaning e'tiborini o'zlariga qaratishga intilishadi. Spirtli

ichimliklarni ko'p iste'mol qilib, mast bo'lishni yoktirishadi.

Tengdoshlar bilan guruhlarga birlashganda rahbarlikka da'vo qiladi. Guruhning kayfiyatini juda yaxshi his qilganlari uchun bunday o'smirlar undagi intilishlarni, takliflarni, xodisalarni birinchi bo'lib ifodalaydilar, tashabbuskori bo'ladilar. Qiziqishlar hammanikidan baland. Buning uchun badiiy havoskorlik ham yoglar gimnastikasi xam, zamonaviy falsafiy oqimlar tanlanishi mumkin, bunda bu mashg'ulotlar ko'p mexnat talab qilmasligi kerak.

B – Bo'sh tip . Bolalikdan quloq solmaslik bilan ajralib turadi, xamma joyga «burnini tiqadi», lekin ular jazodan qo'rqib, boshqa bolalarga osonlik bilan bo'ysunishadi. Xulq-atvorning oddiy qoidalarini qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Ulrni xar doim ko'zatib turish kerak. Ularda birinchi sinfdayoq o'qish istagi yo'q. Qattiq nazorat qilishganda ilojsizlikdan bo'ysunishadi, lekin ilojini qilib, darsdan qochishga xarakat qiladi. Kattalar buyurgan xar qanday ishda, burch va majburiyatlarni bajarishda to'liq irodasizlik namoyon bo'ladi.

Bekorchilikka, maxmadonagarchilikka, o'yin-kulgiga, kayf-safoga kuchli intilish juda erta seziladi. Darsdan qochib, kinoga kiradi yoki ko'chada o'ynab yuradi. O'rtoqlari tomonidan gijgijlangani uchun, ulfatlarni deb, engiltak xulq-atvor egalariga bajonidil taqlid qiladilar. Har bir kunni ko'chadagi ulfatlar orasida o'tkazishga tayyor. Bolalik davridanoq chekishni boshlaydi. O'smirlik davrida bezorilarcha harakat qiladi. O'yin-kulgi qilish uchun xulq-atvor bo'ziladi. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish erta (ba'zan 12-14 yoshdan) boshlanadi. Ular hech kachon yaqin kishilarni chin dildan sevmaydilar. Oilaviy tashvishlarga beparvo qaraydilar. Uning uchun yaqin kishilari eng avvalo o'yin-kulgi manbai hisoblanadi. Ko'chadagi yomon bolalarga erta qo'shilishga intiladi. Bo'sh o'smirlarda tashabbuskorlikning etishmasligi va qo'rqqoqlik, ularni bunday guruhlarning quroli bo'lib qolishiga olib keladi. Guruhiy qonun bo'zishda ular «emagan somsasiga pul to'laydilar». Qandaydir mexnatni talab qiladigan qiziqishlarga ular erisha olmaydilar. Shuning uchun tasodifiy uchrashib qolgan kishi bilan soatlab gap sotadilar.

M – Moslashuvchan tip . Asosiy xususiyat tevarak-atrofga doim moslashish xos. Ularning hayot qonuni-«hammaga o'xshab» o'ylash, «hammaga o'xshab» harakat qilish, hamma narsa hammanikiday bo'lishiga intilishdir. Bunda «hamma» deb tevarak atrofdagi kishilar tushuniladi. Ular «hammadan» qolib ketishni

istamaydi. Bu ayniqsa kiyimlar modasida aniq ko'rinadi. Qandaydir yangi moda chiqqanda, uni moslashuvchan tip vakilaridan ko'p qoralovchilar bo'lmaydi. Ular yangi modani o'zlashtirib olganlari zaxoti bu kiyim ularga yoqib qoladi, ilgari bu kiyimni yomonlaganliklarini xam unutilib yuborishadi.

Tevarak-atrof xar doim mos bo'lishga intilib, hech kachon unga qarshi chiqa olmaydilar. Shuning uchun yaxshi kishilar orasida yaxshi bo'lib, xamma ishlarni bekamuko'st bajarishadi. Bezorilar orasiga tushib qolganlarning xulq-atvoridagi barcha odatlarni va qiliqlarni o'rganib olishadi. Moslashuvchan o'smirlar «ulfat uchun» ichaverib piyonista bo'lib ketishi va guruhiy qonunbo'zarlikka tortilishi mumkin.

Moslashuvchan tipning bolaligi kattalar tomonidan nazorat qilib turilsa, yaxshi o'tadi. Bu tip faqat o'smirlilik yoshida ko'rinadi. Ular o'rganib qolgan o'smirlar guruhini qadrlashadi, bu guruhning muntazamligini, tevarak-atrofnings doimiyiligini yoqtirishadi. Kasb tanlashda yoki o'qishni qaerda davom ettirishni tanlashda, ko'pchilik o'rtoqlari qaerni tanlashsa, u xam shu erni tanlaydi. Agar moslashuvchan o'smirga o'rganib qolgan guruhni nima uchundir ruyixushlik bermasa, bu eng og'ir psixik kasallikdayok idrok etiladi. Ular ota-onalari yoki tarbiyachilari, o'rganib qolgan o'rtoqlari muxitdan qaytarib olingandagina bundan qutilishadi. Moslashuvchan tipning xarakteridagi bo'sh joy-bu keskin o'zgarishlarga chiday olmasligidir. Hayotiy stereotipning bo'zilishi, o'rganib qolgan muxitdan ajralishdan qattiq azob chekishi mumkin. Bu o'smirlarning o'z-o'zini baxolashi yomon emas. Ularning ko'pchiligi o'z xarakteridagi asosiy xususiyatlarni to'g'ri baxolashadi.

Bu savolnoma 13-21 yoshdagi o'smirlar va yoshlarni tekshirishga mo'ljallangan. A.E. Lichko va uning xodimlari taklif etgan tiplarga bo'lish yordamida xarakterga urg'u berish (akstentuaciya) tipiga bog'liq ravishda to'zatishtish ishlarini olib borish mumkin.

Xakeri o'zgargan o'smir bilan ishlashning usullaridan biri akstentuastiya tipiga bog'liq ravishda unga yaxshi tashqi sharoit yaratishdir. Masalan, shizoid o'smirlarni faol jamoatchilik faoliyatiga jalb etishning, ko'p odamlar qatnashadigan jamoa tadbirlariga chorlashning foydasi yo'q. Uni chuqur individual mashg'ulotlarni talab etadigan aqliy yoki jismoniy ishning biror turiga jalb etish ko'proq foydaliroq bo'lur edi. (Masalan, matematik tugaraklarga qatnashish, kompyuter uchun o'yinlar va programma tuzish va xakozo).

Biz yuqorida tarbiyasi qiyin bolalarni va o'smirlarini xar xil toifalarga ajratishdan ba'zi qarashlarni bayon qildik. Psixolog ishning u yoki bu yo'nalishini tanlab olishi, u o'z oldiga kuygan vazifalarga bog'liq ravishda «tarbiyasi qiyin» bolalarni ajratishning o'z metodlarini xam ishlab chiqish mumkin. Ko'pincha xar xil nuqtai nazarlarni qo'llash foydali bo'ladi.

Yuqori talab qo'yuvchi patsientlar konsultastiyasi kanday amalga oshiriladi?

Isterik shaxslarga konsultatsiya berish Isterik shaxs ehtiyojning ustunligi bilan ajralib turadi boshqalar kabi va qo'rquvni engib o'tish istagi, bu mumkin emas e'tiborni jalb qilish. Bu faoliyat, dramatizatsiya, yolg'onchilikda namoyon bo'ladi, ajablanadigan, jinsiy jihatdan qo'zg'atuvchi xatti-harakatlarda, etuk va boshqalarga haqiqiy bo'lmagan qaramlik. Konsultatsiyadagi isterik mijozlar undan foydalanishga harakat qilishadi uning fazilatlarini, ayniqsa, qarshi jinsdagi konsultant bilan (klassik versiya ayol mijoz va erkak konsultant). Odatda ular kontaktga erotik, jinsiy rang berishga harakat qilishadi. Isterik shaxs aslida uning ta'sirini tushunmaydi xatti-harakatlar, shuning uchun boshqalar ko'pincha buzilgan aldanib qolishadi,. Isterik shaxs faqat taassurot qoldiradi aloqa uchun issiqlik va qulaylik. Aslida, u doimo u haqiqiy sevgi va samimiy muhabbatda muammolarga duch keladi. Isterik shaxslar ko'pincha oilaviy munosabatlar va jinsiy hayot bilan bog'liq muammolarni hal qilishadi,

Ayollar, odatda, qo'rquvga munosabat bo'lgan frigidlik haqida shikoyat qiling uning jinsiylikidan oldin. Erkaklar isterikasi ko'pincha azoblanadi iktidarsizlik va gomoseksualizmga moyil. Isterik shaxslar turli shakllardan foydalanadilar psixologik himoya (repressiya, fantaziya) konsultant bilishi kerak. Aksariyat isterik mijozlar, ayniqsa ayollar uchun xarakterli ko'plab shifokorlar uchun davolanishning uzoq tarixi. Isterik nevroz bilan tez-tez ayirboshlash hodisasi mavjud: ichki psixologik ziddiyat uning ramzi bo'lgan tana belgisi bilan ifodalanadi. Odatda konvertatsiya belgilari yo'qotish shaklini oladi sezuvchanlik: ekstremitalarning anesteziyasi, ko'rlik, karlik va boshqalar. Isterik shaxslar uzoq vaqt davomida turli xil somatik davolanishadi Nevrologik alomatlar mijozga ikkinchi darajali foyda keltiradi. Bu foyda mijoz faqat qisman xabardor yoki xabardor emas. Isterik simptomlar uchta asosiy maqsadga xizmat qiladi:

1. mijoz dushmanlik qilgan shaxslarni "jazolash";

2. mijozga yoqimsiz, qo'rqinchli, potentsial ravishda yo'l qo'ymaslik uchun yordam bering kamsituvchi vaziyatlar;

3. boshqalarning xushnud bo'lishiga yordam bering yoki ularga murojaat qiling diqqat. Shuning uchun, ko'pincha, mijoz tomonidan bildirilgan qarama-qarshilik mavjud istak va his-tuyg'ular va uning belgilari haqida gapirish. Bu shunday qarama-qarshilik konsultantda mijozning nosamimiy va shubhali ekanligi haqida shubha tug'diradi simulyatsiya. Bundan tashqari, isterik shaxsning xatti-harakati ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun konsultant, ular bilan ishlash mijozlar doimo his-tuyg'ularini nazorat qilishlari kerak.

Paranoid kasalliklar bo'yicha konsultatsiya Asosiy paranoid sindromlarga ta'qib qilish maniasi va buyuklikning mani. Paranoyak shaxsning o'ziga xos xususiyati bu maniam boshqalar bilan aloqalarni bog'lashga qodir emas odamlar va ijtimoiy ajralish, shuningdek, tarqalishni aks ettiradi shaxsiy kimligi, bir kishi, deb ajrata qilish qiyin bo'ladi qachon o'z shaxsiyatiga va nima bo'lmasligiga ishora qiladi. Quvg'inning mohiyati boshqalarning shubhasi yomon niyat. Bu mania bilan bog'liq va juda keng tarqalgan rashk. Turmush o'rtog'ining bevafoqlikda shubhasi-paydo bo'lish uchun zamin paranoid qo'rquvlar. Megalomaniac o'zini o'zi belgilashda namoyon bo'ladi taniqli iste'dod va qobiliyatlar (ixtirochilar sifatida o'zini namoyon qiladi, dunyoni qutqara oladigan ijodkorlar). Ba'zan paranoya o'zini namoyon qiladi erotomaniya, agar inson sevgida deb hisoblasa va vasvasaga solmoqchi bo'lsa qarama-qarshi jinsning yuzi.

Paranoyak shaxslar boshqa odamlar bilan yaqinlik qilishni xohlashadi, lekin ular aldanishdan qo'rqishadi. Bu asosiy shubhani sababdir. Rad etishdan qo'rqish, inson o'zini hamma narsadan uzoqlashtiradi. Paranoid mijozga konsultatsiya berishda quyidagilar bo'lishi kerak uning ishonchsizligi va dushmanligiga tayyor. Bunday mijozlar doimo konsultantga qanchalik ishonish mumkinligini "tekshiring". Yengish ishonchsizlik va dushmanlik bilan ishlashda eng muhim shartdir paranoid mijozlar. Konsultant paranoidlarni yodda tutishi kerak xuddi shunday, barcha odamlar bilan muomala qilganda. Paranoid bilan ishlash mijozlar muayyan masofani kuzatishlari kerak, chunki juda tez yoki juda chuqur "bosqinchilik" ularga sabab bo'ladi yoqtirmaslik. Bunday mijoz bilan ishlashda samarasiz bo'lgan munozaralar yoki manyaning haqiqiyliги haqidagi bahs, mantiqiy dalillarni izlash.

Munozara ma'nosiz, chunki paranoid mijozga til, mantiq begona. Muloqotda u paranoid metafora foydalanadi. Vazifa konsultant-bu bayonlarning maqbulligini aniqlash emas mijoz fikrlarini. manianing mavjudligi va ishonchning haqiqati juda muhimdir mijoz o'zining haqqoniyligida.

Shizoid shaxslarga konsultatsiya berish. Shizoid shaxsiyati eng katta qiyinchiliklardan birini ifodalaydi, shizoid shaxsning konturlari bo'yicha konsultant ishi quyidagicha ta'riflanishi mumkin shizofreniyaning asosiy belgilari. Birinchi marta "shizofreniya" atamasi 1911 yilda mashhur psixiatr **Eugen Bleuler** tomonidan ishlatilgan, eng muhimi bu ruhiy kasallikning belgilari u mashhur formulani tasvirlab berdi "to'rt A":

1. Ta'sir. Shizofreniya kasalligi hissiyotlarni soha buzadi. Uning hissiy hayoti juda kam bo'ladi. Ko'pincha hissiy reaksiyalar etarli emas (masalan, o'lim haqidagi hikoyada qahqaha yaqin kishi).
2. Assotsiatsiya. Shizofreniya mantiqiy yo'qotish bilan tavsiflanadi fikrlar ketma-ketligi. Erkin yuzaga asoslangan uyushmalar, ular bir fikrdan boshqasiga o'tadi.
3. Autizm. Shizoidni o'ylash juda oznel va egosentrikdir. U bu asta-sekin tush va fantaziyalarga botib ketgan ko'rinadi haqiqatni almashtirish. Ko'pincha so'zlar alohida ma'noga ega va konsultant mijozning nima haqida gapirayotganini tushunish qiyin. Bunday shaxsiy lug'at otistik fikrlashni ko'rsatadi.
4. Ambivalence. Aksariyat odamlar tajribaga ega bo'lsa-da muayyan vaziyatlarda ikkiyuzlamachilik, shizoid shaxsiyati ambivalent deyarli hamma narsada. U qarama-qarshiliklar bilan to'lib-toshgan boshqa odamlarga nisbatan his-tuyg'ular, qarashlar va qarashlar uning hayot sharoitlari. Shizoid mijozlari psixologik konsultatsiya olishmoqda turli sabablarga ko'ra. Odatda shizoidlar qarama-qarshi jinsdagi shaxslar bilan munosabatlarni saqlab qolishga ayoqqa o'rnatishga qodir emasligi haqida shikoyat qiladilar. Shizoid mijozlari bilan aloqada ko'p qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Boshqa odamlar shizoid mijozlari yaqinlik, samimiylikdan qo'rqishadi, chunki boshqa odamlarning reaksiyalari ularga qarama-qarshilik his-tuyg'ularini keltirib chiqaradi. Ular yaqinlikdan ular o'zlarini himoya qiladilar, shaxslararo munosabatlardan har qanday hissiy ko'rinishdan qochishadi. Shizoid yaqin munosabatlaridan qochish iste'molchilar bunday munosabatlar, shuningdek, ularni zaiflashtiradi, deb tushuntiradi boshqalar uchun

qiyin. Muloqotda o'zingizni "tejash" ga olib keladi ehtiyotkorlik va o'z-o'zidan harakat qilishiga yo'l qo'ymang. Yaqin shaxslararo aloqalardan qochish uchun o'rnatishning paydo bo'lishi bolalik davrida ota-onalarning o'ziga xos xatti-harakatlari bilan izohlanadi. Bola ota-onasidan juda ko'p jismoniy va ruhiy energiya oladi va bolaning dunyosiga begona bo'lgan shizoit ota - onalar, uning ehtiyojlari, ular charchagan o'zlarini his qiladilar. Natijada, bola qabul qilmaydi unga sevgi va tushunish kerak. Uning ishonchi bor lekin sevgi faqat tasavvurda mumkin. Keyinchalik, kattalarda, hissiy munosabatlar o'zaro boyituvchi emas, balki qanday qilib charchab, va eng xavfsiz ulardan qochish ko'rinadi. Tashqi dunyo bilan aloqalarning etishmasligini to'ldirishga harakat qilish, shizoid shaxslar boy xayoliy dunyoni yaratadilar. Shizoid shaxslar boshqalarga qaram bo'lishi mumkin, ular o'zlariga g'amxo'rlik qilish yoki o'z hayotlarini tartibga solishga qodir emasligiga ishonishadi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Xavotir nimadan paydo bo'ladi?
2. Fobiya nima?
3. Qo'rquv holati haqida gapiring?
4. Tajovuzkor va qasoskorlik kayfiyatidagi patsientlarga qanday psixologik konsultastiya olib boriladi?
5. O'ziga yuqori talab qo'yuvchi shaxslarga qanday muammolar paydo bo'ladi?
6. Yig'loqi, isterik shaxslarning psixologik xususiyatlari haqida gapiring
7. Psixosomatik bo'zilishlar qanday namoyon bo'ladi?
8. Suistid nima? U qanday namoyon bo'ladi?
9. Obsessiya nima qaysi holatlarda ortiriladi?
10. Yuqori talab qo'yuvchi patsientlar konsultastiyasi kanday amalga oshiriladi?

VII BOB. KONSULTASTIYA AMALIYOTIDAGI AYRIM YO'NALISHLAR

7.1 Turli madaniy va etnik olam vakillariga konsultastiyani joriy qilish. Ayrim madaniy guruh vakillariga konsultastiyani joriy qilishning o'ziga xosligi.

7.2. Konsultastiyada yosh xususiyatlari. Individual va guruhiy konsultastiya.

Oila-nikoh konsultastiyasi.

7.3. Mansab masalalariga oid konsultastiya. Telefon orqali konsultastiya.

Tayanch tushunchalar

Etnik vakil, individual, guruhiy psixokorreksiya, shaxs shakllanishi, shaxs rivojlanishi, individ, stress, frustrasiya, kognitiv soha, emostional soha. Oilaviy hayotda psixologik moslashish. Er-xotinning belgilarining mos kelmasligi. Oila ichidagi muammolar tizimi. Oilaviy hayotdagi asosiy va ikkinchi darajali muammolar. Tinglash qobiliyati. Raqib. Kelishuv. Intellektual rivojlanish darajasi. Aloqa bilan bog'liq bo'lgan belgilar xususiyatlari. Shaxslararo muammolar. Ikki tomonlama oilaviy nizolar. Bir tomonlama oilaviy nizolar. Patriarxal oila ichidagi nizolar. Oilada jinsiy hamjihatlik. Oila ichidagi g'ayratli munosabatlar. Mojarro-o'z oilasida o'g'lining xatti-harakatlarini baholashda otionalarning kelishmovchiligi. Oilaviy nizolar uchun katalizator. "Qaynonasi – kelini" kabi ziddiyat. "Qaynonasi – qaynonasi" kabi ziddiyat. Qarindoshlarning oilaviy to'qnashuvi Insonning ziddiyatlari. Insonning moslashuvchanligi. Odamlar o'rtasidagi dushmanlik munosabatlari. Odamlar o'rtasidagi tushunarsiz munosabatlar. Ajratilmagan (noaniq) insoniy munosabatlar. Rahbar va bo'ysunuvchilarning norasmiy shaxsiy munosabatlari. Vazifalarni oqilona taqsimlash. Birgalikda harakatlarni muvofiqlashtirish. Faoliyatni nazorat qilish va baholash. Avtomatlashtirilgan ko'nikmalar va ko'nikmalar. Moddiy rag'batlantirish. Axloqiy rag'batlantirish. Bo'ysunuvchilarning shaxsiy ishlari. Qabul optimallashtirish echimlar. Eng yaxshi ish echimlari. Qaror qabul qilishda zudlik. Qabul qilingan qarorni tuzatish. Qabul qilingan qarorni

amalga oshirishni nazorat qilish. Nutq axloqi shakllari. Konstruktiv javob.

7.1. Turli madaniy va etnik olam vakillariga konsultastiyani joriy qilish. Ayrim madaniy guruh vakillariga konsultastiyani joriy qilishning o'ziga xosligi.

Psixologiya fani nimadan bahs yuritadi - degan savol mavjuddir, biroq hozirgi zamonda korrekstion psixologiya fani nimani o'rgatadi, kanaka predmet degan savol to'g' ilmoqda. Ma'lumki psixologiya fani shaxsni o'rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini falsafa, pedagogika, logika, sostiologiya, xatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Korrekstion psixologiya fanida esa inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishni taqozo qiladi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida aloxida ahamiyat kasb etadigan narsa bu -bolalar, o'quvchilar, talabalarning xulqi va muomalasidagi bo'zilishlar, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganadi. Psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotidagi xulqi va muomalasidagi nukson va kamchiliklarni asta sekin to'zatishtirish, korrekstiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tadbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi va ijodiy qobiliyatlarni ustirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korrekstion ishlarda guruhning qadriyatlarga yo'nalganligi etnopsixologik va etnomadaniyati xususiyatlari, elat tarixi, millat odati, usuli, rasm-rusmlari va boshqa etnos o'z aksini topishi lozim. Bulardan tashqari o'quvchilar, talabalar va murabbiylar o'rtasida nizolarni yo'qotish, egallagan o'rnidan, mavqeidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun treninglar, rolli o'yinlarni tashkil qilishdan iborat.

Yuqoridagi muloxazalardan ko'rinib turibdiki, ta'lim o'z mazmuni va maqsadi bilan turmush, voqelik, xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning aktual extiyojlari bilan o'zviy bog'liq bulsa u (o'zuvchi) tanlagan kasbini o'zlashtiradi va insonning ijtimoiy xayotida o'z o'rnini topishi katta ahamiyatga egadir. Korrekstiyada har bir shaxsning xar tomonlama va garmonik kamolga etkazish fanning zarur talabi bo'lib, xar bir mashuglotlarda amalga oshirildi. His-xayajon bilan utilgan mashg'ulot va treninglar tinglovchilar qalbida iz qoldiradi,

fikr yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, fantaziyani uyg'otadi, tafakkuri, qobiliyati, diqqati rivojlanadi.

Korrekstion ishlar ma'lum tartibda ilmiy tanlov asosida maxsus mashg'ulotlar va treninglar bo'yicha o'tkaziladi. Bu bilan birga emostional zo'riqishga uchragan shaxsning millati, yoshi, jinsi, individual tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinadi va to'zatishtish ishlari kasb xususiyatiga mos mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi. Shuni xam ta'kidlab o'tish joizki, korrekstiyada psixolog bolalar, o'quvchilar va talabalarning yosh xususiyatlarini xamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ularning psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur, ijtimoiy ushish talabiga javob beruvchi umuminsoniy va etnopsixologik qonuniyatlar muxitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb hisoblaydi. Shu bilan birga korrekstion psixologiyada bolalarni maktabgacha tayyorgarligini aniqlash va maktab o'quvchilari muammolari va xokazolarni o'rganadi.

7.2.Konsultastiyada yosh xususiyatlari. Individual va guruh konsultastiya. Oila-nikoh konsultastiyasi

Individual psixokorrekstiya xususiyatlari

Psixologik korrekstiya, yuqorida aniqlaganimizda, mijozning qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan ruhiy rivojlanishining xususiyatlarini «to'g'rilashga», qaratilgan mutaxassisning faoliyatini aks ettiradi. Shaxsiy yondashuv asosida, Adler tomonidan yaratilgan yo'nalish shaxsiy psixologiyaning ba'zi negizlarini o'z ichiga olgan va moxiyati bo'yicha gumanistik psixologiya va ekzistenstializmni ko'pkina holatlarini maftun qilgan. Asosiy tushunchalari: «odam», «shaxs», shaxsiy rivojlanish, «turi», «yoshi» tengligi stress, «frustrastiya» deb qabul qilingan. Odam –Erda hayot rivojlanishini yuqori pogonasini gavdalashtirgan zot, ijtimoiy – tarixiy faoliyat sub'ektidir. Shaxs - ijtimoiy rivojlanish fenomeni, ong va tushunchaga ega aniq tirik odam.

Shaxsiy rivojlanish - ijtimoiylashtirish va tarbiyaalanish natijasida turini ijtimoiy xususiyati sifatida shaxsni shakillanish jarayonidir.

Shaxs shakllanishini tabiatdan anatom—fiziologik shart—sharoitlariga ega bo'lgan bola ijtimoiylashishi jarayonida insoniyatning yutuklarini o'zlashtirib olam bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Ushbu jarayonda shakllangan qobiliyat va vazifalar shaxsda shakllangan odamning sifatlarini takror ishlab chiqaradi.

Individ - (individium) - Inson birligining aloxida namoyandasi; kurol, belgilardan foydalanuvchi va ular orqali shaxsiy fe'l—atvori va ruhiy jarayonlariga ega buluvchi, tabiiy(biologik) chegaradan tashqariga chiquvchi ijtimoiy mavjudot, ushbu tushuncha bilan individuallik tushunchasi chambarchas bog'liqdir, u hamda boshqa odamlardan ijtimoiy ahamiyati tomonidan farqlanadigan odamdir, individning shaxsi va o'ziga xos ruhiyati uning takrorlanmasligidadir.

Yosh—shaxsiy rivojlanishini vaqtinchalik xususiyatlarini belgilash uchun xizmat qiladigan turkum. Psixologiyada yoshni xronologik tushunchalari muxokama qilinadi. Xronologik yosh – «turini to'g'ilganidan boshlab yashash davomiyliligini aks ettiradi». Psixologik yosh - «xronologik yoshdan farqli ravishda»—bu organizm shakllanish qonuniyatlari yashash, o'qish va tarbiyalanish sharoitlarini asoslaydigan hamda muayyan—tarixiy kelib chiqishga ega, ontogenetik rivojlanishining o'ziga xos aniq sifatli tushunchasini bildiradi.

Yosh inqirozi - keskin psixologik o'zgarishlar bilan xarakterlanadigan ontogenezni aloxida nisbatan o'zoq davom etmaydigan davrlaridir. Asabiy va jaroxatli xarakterga ega tangliklardan farqli ravishda shaxs rivojlanishining me'yoriy ketma – ketligiga zarur bo'lgan me'yorlarga taalluklidir.

Ctress - turli xil ekstremal ta'sirlar - stressorlarga javoban yuzaga keluvchi keng doiradagi holatlarni belgiluvchi holat.

Frustrastiya – ma'lum maqsad yulidagi mavjud mavxum to'siqlarni paydo bo'lishiga nisbatan hosil bo'ladigan muvaffakiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat,

Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va turli xususiyatlari shuningdek sub'ektiv vokeligidan kelib chikib tushuntiriladigan shaxs resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Psixokorreksiyaluvchi ta'sirining asosiy quroli sifatida psixolog chiqadi va korrekstion jarayon psixolog - mijoz juftligida

kechadi. Mijozlarning turli xil talablarini va shakllangan vaziyatga munosabatlarini to'rtta asosiy strategiyaga birlashtirish mumkin.

- 1) vaziyatni o'zgartirish;
- 2) vaziyatni o'zgartirish uchun o'zini o'zgartirish;
- 3) vaziyatdan chikib ketish;
- 4) mazkur vaziyatda xayotni yangi xususiyatlarini tanish.

Psixokorreksiyaning so'ngi vazifalari uchta asosiy soxalarni istalgan o'zgarishlariga erishishidir:

- kongnitiv;
- emostional; (his- tuyg'u).
- o'zini tuta bilish.

Shaxsiy psixokorreksiyaning xususiyatlarini hisobga olib uchta aloxida soxalarning xar birida aniq vazifalarni joylashtirish mumkin. **Kognitiv soxa;** (shaxsiy psixokorreksiya etakchi, biografik- tushuntirishi):

- 1) o'zining xulqi – atvori, munosabati, rekstiyasi sababini anglash;
- 2) his-tuyg'u va xulq – atvor stereotiplarni anglash;
- 3) psixologik omillar va somatik bo'zilishlar orasidagi bog'liqlikni anglash;
- 4) mojarolar va ruhiy jaroxatlovchi vaziyatlarni kelib chikshida o'zining roli va javobgarligini his qilishi;
- 5) boshdan kechirishi sabablari va munosabat usullarini xamda o'zining munosabati shakllanishi sharoitlarini anglashi.

Emostional; (his- tuyg'u) soxa;

- 1) mijozni mutaxassis tomonidan emostional qo'llab—quvvatlash;
- 2) mijoz tomonidan tuyg'ularni anglab va yuzaga chiqarish;
- 3) o'ziga nisbatan yanada samimiy munosabatni shakllantirish;
- 4) boshdan o'tkazish va emostional munosabatlar usullarini o'zgartirish;

O'zini tuta bilishi , xulq- atvor- soxasi:

- 1) mijozni mos kelmaydigan reakstiyasini korrekstiyalash;
- 2) xulq – atvorini yaxshi usullarini o'zlashtirish.

Individual psixokorreksiyaning o'tkazish shartlari:

- 1) mijozni psixologik yordam olish uchun ixtiyoriy roziligi;
- 2) mijozni muttaxassisga ishonchi;
- 3) mijozni tadqiq qilish jarayonida , korrekstiya dasturini shakllanishi va amalga oshirishida mijozni faolligi.

Individual psixokorreksiya ko'rsatma:

- 1) mijozni xohishi;
- 2) mijozni muomalasi xarakteri (shaxsiy muammosi)
- 3) mijozni guruhda ishlashdan bosh tortishi yoki ba'zi sabablarga kura guruhda qatnasha olmasligi (jismoniy holati, kasallik);
- 4) mijoz xavotirini yuqori darajadali;
- 5) o'tkir qayg'uli holat.

Individual psixokorreksiya qarshi ko'rsatma:

- 1) yaqqol ifodalangan qo'zg'aluvchanlik;
- 2) ongining etarlicha rivojlanmaganligi;
- 3) axloq – odob me'yorlarining pastligi.

Individual psixokorreksiyaning samaradorligi quyidagilar bilan aniqlanadi:

- 1) psixologning shaxs sifatidagi xususiyatlari (ijtimoiy kelib chiqishi, jozibadorligi, intellektual rivojlanishi, iroda. xarakterini xususiyatlari);
- 2) mijoz va psixolog o'rtasida shakllangan munosabat (ishonch, mutaxassisning obru kozongani, mijozni mutaxassisga tobeligi);
- 3) mijozga nisbatan psixologning tanlagan vaziyatining mosligi (psixologning tutgan yuli, psixologni mijozga nisbatan munosabatida kabul qilgan boshqarish strategiyasi; Ushbu tanlov psixolog tomonidan mijozning shaxsiy xususiyatlarini va vaziyatni xossalaridan ishlab chiqqan xolda amalga oshiriladi.
- 4) mutaxassis tomonidan ma'lumotlarni shakllantirish usullari (isbotlash darajasi, mantiq, his-tuyg'ularga kayta yondashuv). Shaxsiy psixokorreksiya texnika tanlovi mutaxassisning afzal kurgan, mijozni shaxs sifatidagi va uning muommosi xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda olib boriladi. Shaxsiy psixokorreksiya verbal ta'sirni asosiy usullari ishontirish «persuaziya» va ta'sir etish hisoblanadi.

Korreksiya ishning extimoliy natijalari:

- 1) Mijoz o'zining talablari, kechinmalari, fikrlariga diqqatini kuchaytirishi.
- 2) O'z-o'zini baholashi va keraqliligini oshirish.
- 3) O'zini bilishga ruhsat berish (o'z-o'zini tushunish, o'z-o'zini kabul qilish, shakllantirish yoki orttirish)
- 4) O'z-o'zini takomillashtirishni rivojlantirishga harakat qilish
- 3) psixokorreksiyaning eng asosiy natijasi mijozni o'z hayoti uchun javobgarligini va uni nazorat qilishni qabul qilishdir.

4) psixologik o'zgarishlar o'zgaruvchanligini demak, har bir uchrashuvdan samarali natija kutib bulmasligini yodda tutish.

Shaxsiy immunokorreksiyaning asosiy bosqichlari:

- shartnoma tuzish;
- mijozni muammosini tadqiq qilish;
- muammoni echish yo'llarini qidirish;
- psixokorreksiya dasturini ishlab chiqish;
- dasturni amalga oshirish;
- samaradorligini baholash;

Shartnoma tuzish. Bu bosqich mijozga mutaxassis tomonidan ma'lumot berishni o'z ichiga oladi:

korreksiyaning maqsadi haqida;

- o'zining malaka darajasi;
- haq to'lashi;
- psixokorreksiyaning taxminiy davomiyligi;
- mazkur holatda psixokorreksiyaning maqsadga muvoffiqligi;
- psixokorreksiya jarayonida vaqtinchalik yomonlashuv xavfi mavjudligi haqida;

sir saqlanish darajasi haqida.

Sir saqlashni mutloq asosga ko'tarish mumkin emas, chunki bu tushuncha nisbatdir, bir tomondan taqdim etilayotgan ma'lumotlar xarakteriga bog'liq bulsa, ikkinchi tomondan mijozga ziyon keltirmaydigan materiallar ushbu qoidaga buysunmaydi. Quyidagi holatlarda kasb siriga rioya qilinmaydi:

- mijoz hayotiga katta xavf solinganda;
- mijozning jismoniy harakatlari;
- mijozni kasalxonaga yotqizish zarur bo'lganda;

5. uchinchi kishilar manfaatdorligi (qarindoshlar, yaqinlari, mijozning tanishlari).

Mijozni muammosini tadqiq qilish mutaxassis tomonidan quyidagi usullardan foydalanish natijasida olib boriladi: suhbat, intervyu, psixologik testlar.

Suhbat, mutaxassis tomonidan maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil qilinganda, butun psixokorreksiya jarayonini olib borishni asosiy usuli hisoblanadi. Bunda «mijoz-mutaxassis» muloqati jarayonida olingan aniq ma'lumotlar asosida tadqiqotchini qiziqtirayotgan bog'liqlik aniqlanadi. Psixologik (ruhiy) maslahat turli

bosqichlarda qo'llaniladi. Suhbatning spetifik turi sifatida intervyu farqlanadi.

Intervyu – og'zaki so'rov yordamida ijtimoiy ruhiy ma'lumotlar olish usulidir. Intervyuning ikki xil turi mavjud: erkin va standartlashtirilgan. **Erkin intervyuda** suhbat mavzusi va shakliga bog'liq emas va zarur ma'lumot olish uchun mijoz bilan hamkorlik qilishga mo'ljallangan. **Standartlashgan intervyu** shakliga ko'ra anketaga yaqin, biroq kengroqdir. U muammoni tushunish uchun maslahatlashuv jarayoni boshida juda foydalidir. Olingan ma'lumotlar keyinchalik aniqlashtiriladi va yangi fikrlarni ilgari surishda foydalaniladi. Yutuqlari: ma'lumotlilik, vaqtni tejash, natijalarni miqdoriy aks etish. Kamchiligi: keyinchalik himoya mexanizmlarini faollashuvi natijasida bevosita xulq-atvor reakstiyalarini susayishi, mijoz bilan emostional aloqani yo'qotish xavfi mavjud.

Kuzatish – mutaxassis tomonidan mijozni ruhiy ko'rinishlari maqsadga yo'naltirilgan va idrok qilgan holda qabul qilinishiga mujassamlashgan ruhiy tadqiqotning elektrik usulidir. Mutaxassisga mijoz haqida ma'lumot to'plash, voqelikni ahamiyatli lahzalarini ajratib olish, uning holatidagi o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi.

Psixologik testlar – alohida biror-bir ruhiy holat yoki xususiyatni rivojlanishi yoki holati darajasini o'lchashning standartlashtirilgan usulidir. Psixokorreksiya doirasida testlar mijoz muammosi turiga qarab tanlanadi va idealda jarayon dinamikasini kuzatish uchun psixokorreksiyaning boshida, o'rtasida, oxirida qo'llaniladi. Psixologik qo'llab-quvvatlash butun psixologik yordam davomida olib boriladi va verbal hamda noverbal bosqichlarda mutaxassisni mijozga nisbatan intonastiyasini ifodalanishi bilan namoyon bo'ladi.

Verbal darajaga bevosita so'zlar, so'z birikmalari, metaforalardan mijoz o'z nutqida foydalanishi, hamda hamdardligi va tushunishining yaqqol ko'rinishlari kiradi.

Noverbal darajaga: 1. «tana tili» (holati, imo-ishora, mimika);
2-psixofiziologik reakstiyalar (teri qoplamalari rangi, nafas olish chuqurligi va tezligi, ter ajralish darajasini o'zgarishi va xokazolar)
3-tovushlari xarakteristikasi (ohang, temp, intonastiya)

Noverbal bulmagan ma'lumotlar asosida qilingan taxminlarni haqiqiyiligini mijoz bilan birga qayta tekshirish talab qilinadi. Bu imzosiz bulmagan ma'lumotlarni bir qator omillar yordamida aniqlash bilan asoslanadi. Masalan voqealar konteksti, mijozni shaxsiy

xususiyatlari, yaqin odamlari bilan o'zaro munosabatlari va boshqalar. Mutaxassis ularning ko'pchiligi haqida bilmasligi mumkin, bu esa u olayotgan ma'lumotlarga noto'g'ri ma'no berishi va natijada muammoni mohiyati va uni echimi haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga olib keladi.

Muammoni echish yo'llarini izlaganda ushbu muammoni paydo bo'lishiga olib keluvchi his tuyg'u, kechinmalar-maqсад, talabalar-harakati, boshqalar reakstiyasi, sabablar zanjirini ajratib olishi zarur.

* *turmush o'rtog'idan yiroqlashish, ketib qolish* – bu ham ma'lum ma'noda bir-birini nazoratda ushlab tashning bir ko'rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;

* *befarqlik* – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bo'lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bo'lib qoladi.

Shu kabi munosabatlar mohiyatan shaxslararo munosabatlarning ko'rinishlarini ifoda etadi.

E.G'ozievning fikricha, oilada yuzaga keladigan ziddiyatlar va oila buzilishlarining sabablari quyidagicha: er-xotinning xarakter jihatidan mos tushmaganligi, farzand ko'rmaslik, kelinning ma'naviy va jismoniy jihatdan haqoratlanganligi, moddiy ta'minotdagi kamchiliklar, tarbiyaviy qashshoqlik, oilada ortiqcha an'ana va marosimlarning mavjudligi, ichkilikka ruju qo'yish, rashk, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatining yo'qligi, qarindosh-urug'chilikdagi ko'ngil buzar ishlar mavjudligi.

Krizis (grekcha *krisis* - echim, qaytarilishi joyi) – inqiroz, tinch turgan joyda intizomning buzilishi, biror narsada to'satdan kuchli qo'zg'alish, og'ir o'tish davri, biror narsada kuchli qiyinchilikka duch kelish. “Krizis” so'zi kutilmagan favqulotdagi holat, do'q po'pisa va zarur bo'lgan hatti harakatni o'zida yorqin ifodalaydi. Krizisli vaziyat - bu ham hissiy ham aqliy stressli vaziyat, qisqa vaqt ichida kishining o'zidan ham, boshqalardan ham katta o'zgarishni talab qiluvchi holat.

Oilaviy krizis – oilaviy muhitdagi uchrab turadigan holat bo'lib, gomeostatik jarayondagi intizomiy buzilish bilan xarakterlanadi, oilani boshqarishda umidsizlikka tushib qolinadi. Yangi bir og'ir vaziyatni eski qo'llanilgan uslublar bilan hal qilishning iloji bo'lmay qoladi.

Oilaviy krizis davrida oilaning kelajakdagi ravnaqi uchun ikkita potentsial tizim ishlab chiqish mumkin:

1. Destruktiv (vayron qiluvchi) – oilaviy munosabatlarda intizomiy buzulishga etaklab boruvchi va uning mavjudligiga xavf soluvchi;
2. Konstruktiv (bunyod qiluvchi) – oilani yangi pog'onaga o'tishida potentsial imkoniyatlarni qo'llashni o'z ichiga oladi;

Oilaviy krizis davri – har bir er-xotin o'rtasida ro'y beradigan eng og'ir damdir. Bu davrda er-xotingga har doim xafagarchilik, notinchlik, ko'z yoshlar, asabiylik va yana qaytadan murosaga kelish hamroh bo'ladi. Er xotin ikkisi ham shuni yodida tutish shartki, bu davr

hammada bo'lishini va bu o'tkinchiligini unutmasligi, asosiy vazifa – inqirozning tegirmonidan eson-omon va butun chiqish ekanligi bo'lishi lozim. Lekin bu oddiy vazifa emas va buni hamma ham uddalayvermaydi. Kim buni uddalasa ertaklardagidek uzoq va baxtli yashash nasib etadi.

Hayratlanarli, ammo fakt: odam qanchalik kech turmush qurishiga qaramay, inqiroz davrlari turmush qurgan kundan boshlab o'z faoliyatini boshlaydi. Eng qizig'i, xatto janjallar sababi va mavzusi ham o'sha o'sha o'zgarmas ko'rinishda bo'lar ekan. Yuqoridagi gaplardan shunday xulosaga kelish mumkin va buni ikkita fikr bilan izohlaymiz:

1. Taskin beruvchi xulosa – bu erda aybdor yo'q, ularni qidirish foydasiz;
2. Falsafiy xulosa – agar bu inqiroz davridan qochib bo'lmasa, demak unga tayyor turish kerak;

Psixologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, sevgining ham bioritmi bo'ladi: u ham tug'iladi, ulg'ayadi, mustahkamlanadi, og'rinadi, tuzaladi. Shuning uchun eng baxtli nikohda ham juftliklar orasida hissiyotlarning vaqtinchalik sovushi vujudga keladi. Bu hol har bir munosabatda mavjud. Ehtirosli sevgi har doim ham lovullab yonib turmaydi. Uning biroz muddat sovushiga juftliklar oldindan tayyor bo'lishi lozim.

Inqirozli davr juftlik orasida keskin va nosoz davr bo'lib, bu vaqtda ulardan kuchli matonat talab etiladi. Inqiroz davrning o'zaro ta'sir etuvchi to'rt elementi mavjud. Oila ma'lum bir davriga kelib, o'sha elementlardan ikki yoki uchtasini o'z ichiga olgan bo'lsa ham, demak u inqiroz davrida. U elementlar quyidagilar:

1. Stress keltirib chiqaruvchi vaziyatlar tez-tez sodir bo'lsa;
2. Vazifalarni uddalashda qiyinchiliklarga duch kelinsa;
3. Oilaning asosiy mas'uliyatli vazifalarida surunkali qiyinchiliklarining ko'rinishi;
4. Qo'llab-quvvatlashning sezilarli darajada yo'qligi;

O'zaro ta'sir etuvchi bu elementlar o'rtasidagi farq shuni ko'rsatadiki, har bir inqiroz o'zgacha bir olam. Quyida esa inqiroz davridagi odamda yuz beradigan belgilar va inqirozga yuz tutgan oilaning simptomlari berilgan bo'lib, bu bilan inqiroz holatidagi odamning va oilaning kechinmalarini aniqlash mumkin.

Oilaning krizisili davrlarining paydo bo'lishi turlicha bo'ladi. Krizis davri deyarli barcha oilada kuzatiladi va bu vaqtinchalik bo'ladi. Bu

degani har bitta oila inqiroz davrini bir xilda boshdan kechiradi, degani emas. Agar er yoki xotinning harakatida odatdagidan boshqacharoq o'zgarishlar yuz bera boshlasa va yuqoridagi belgilar kuzatilsa, balki bu haqida o'ylab ko'rish kerakdir, o'sha juftlikning oilasiga inqiroz davri soya sola boshlagandir.

Oila krizis davrlari bir necha etaplardan iborat bo'lib, psixologlar bu davrlarni turlicha ifodalagan. Masalan, Virdjini Satir oila rivojida o'nta inqiroziy nuqtani aniqlagan:

1. Birinchi inqiroz – xomiladorlik va farzand ko'rish;
2. Ikkinchi inqiroz – bolaning tili chiqishi;
3. Uchinchi inqiroz – bola atrofdagilar bilan muloqatga kirisha boshlashi va aloqa o'rnatishi, ya'ni maktabga bog'chaga borishi;
4. To'rtinchi inqiroz – bola o'smirlik yoshiga etishi;
5. Beshinchi inqiroz – bola ulg'ayib oilani tark etishi;
6. Oltinchi inqiroz – bolaning turmush qurishi: uyda kelinning yoki kuyovning paydo bo'lishi;
7. Ettinchi inqiroz – ayol hayotida klimikas davrining boshlanishi;
8. Sakkizinchi inqiroz – erkaklarda jinsiy faollikning susayishi;
9. To'qqizinchi inqiroz – ota-ona buvi va buvaga aylanishi;
10. O'ninchi inqiroz – er-xotindan birining vafot etishi;

Boshqa mutaxassislar oiladagi inqiroziy davrlarni quyidagicha ifodalagan:

Bir yillik krizis. Bir yillik krizis davri – statistika ma'lumotlari bo'yicha, nikohning buzilishi to'ydan 1 yil o'tganddan so'ng juda ko'p yuz berar ekan.

Nikohning dastlabki yillaridagi muammo shuki - bir birini odatlariga ko'nika olmasligi yoki ko'nikib ketishi muammoni yuzaga keltirib chiqaradi. Buni nikohning ilk inqiroz davrlari deb atash mumkin. Baxtga qarshi bu davrda ajralishlar soni kam bo'ladi deb ayta olmaymiz.

Bu davrda yuqorida aytilganidek, ikki xil dunyoda katta bo'lgan, ikki xil oilaning tarbiyasini ko'rgan juftlikka bir-birini xarakteriga ko'nikish biroz qiyin bo'ladi. Ular bu davrda bir tanu bir jon bo'lishga qiynalishadi. Har xil xohishli bo'lish - oiladigi burchlarni bir biriga yuklashga olib keladi. O'zlari istamagan holda odatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi va bu kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xarakterlar moslashishi – bu oilaviy hayotda muhim omillardan biridir. Xissiyotlarni sovushi psixologiyada “niqoblar echilishi” deb

ataladi. Nikohning ilk yilidagi eng zo'r davri bu "asal oyi" sodda qilib aytganda "chilla davri"dir. Hammasi chilladan so'ng boshlanadi, yana o'sha oddiy hayot, muammolarga to'la yashash boshlanadi, kamchiliklar sekin sekin yuzaga chiqa boshlaydi.

Intim. "Taqiqlangan meva" o'z qo'lingizda bo'ladi va hohlagan vaqtingiz undan ta'tib ko'rish imkoniga ega bo'lasiz va bunday imkoniyatga ega bo'lganingizdan kayfiyatingiz yuqori yuradi.

Oradan yarim yil o'tgach, er - xotinlar juda ko'p narsani tushunib eta boshlaydilar, juftini o'zi o'ylaganchalik ideal emasligi sezila boshlaydi.

Turmush. Bir biriga kundan kunga qo'pol gapira boshlaydilar, har xil narsalarni bahona qilib urush qiladilar. Yuvilmagan idishlar, moddiy qiyinchiliklar, uyni yig'ishtirilmagani sekin asta asabga tega boshlaydi. Bir birlariga yomon muomalada bo'la boshlaydilar.

Did. Avvalari romantik, antiqa, boshqalarga qaraganda yaxshiroq narsalarni xohlangan bo'lsa, endi ular ko'ngli nimani tortsa shuni eshitgisi keladi. To'ygacha ulardagi did ham xohish ham bir bo'lgan bo'lsa, endi hammani xohishi o'zi istaganicha bo'la boshlaydi. Axir bir umr rol o'ynab yurish osonmasda.

Odatlar. Ikki yosh to'ydan oldin o'zlarining yaxshi qiz va yaxshi yigit degan rollarini o'ynab yuradi. To'y o'tgandan so'ng rol o'ynashga xohish ham toqat ham qolmaydi. Birga yashash boshlangandan keyin xarakterdagi ulkan sirlar ochiladi.

Ko'pincha, ikki yosh ham to'ydan oldin ota-onasining topgan puliga hech narsani o'ylamay hayot kechirishgan bo'ladi. Ammo nikohdan so'ng barcha mas'uliyat o'z zimmalariga yukalanadi.

Turmushning ikkinchi yilidagi inqiroz. To'ng'ich inqirozi. Bu davr 1 yilgacha cho'zilib, asosan farzand tug'ilgan paytda yuzaga kela boshlaydi. Ayol homilador bo'ladi va farzand ko'radi. Bu farzand oilaga nafaqat quvonch olib keladi, balki shu bilan birgalikda er-xotin munosabatlariga biroz sovuqchilik ham keltirishi mumkin. Shu o'rinda erga kam vaqt ajratadi, erga e'tibor va diqqat etishmasligi oqibatida ayolini o'z farzandidan rashk qiladi. Jinsiy hayot tarzi ham buziladi, ayolidan qonimaydi, bu narsa uni ranjitib ayoliga hiyonat qilishi mumkin. Ayol esa asabiylashadi, eridan shubhalana boshlaydi siqiladi, janjal ko'taradi. Ayol bunday vaqtda o'zida kuch topib, eriga vaziyatni tushuntirishi lozim, kam e'tibor sevmaydi degani emas, bu hozir shunaqa davr va bu o'tkinchi ekanligini aytish kerak.

Uch yillik inqiroz - psixologik tomondan noturg'un bo'lgan davr hisoblanadi: hissiyot, sevgi, tuyg'ularni yorqinligi – bularning bari ikkinchi planga o'tib oladi.

Intim munosabatlar. Bu davrda ikkala tomon ham bir-birni fizologik jihatdan juda yaxshi o'rganib bo'lgan bo'ladi. Farzand tug'ilishi bilan onaning bor e'tibori bolaga qaratiladi, yosh, kuchli erga esa diqqat va e'tibor etishmaydi, buning natijasida esa erda ilk jinsiy fantaziyalar paydo bo'la boshlaydi.

Turmush. Bu davrda o'rtadagi tortishuvlar paydo bo'la boshlaydi – kim ahlatni tashlab keladi, bolaga qarash, tushlikni yoki kechki ovqatni kim tayyorlaydi. Vaqt o'tgan sari ularning bo'ynidagi vazifalari ko'paya boshlaydi. Bu davrda “kemadagi portlash” yuz beradi, ammo bu yaxshi tomonga deyish mumkin. Axir har bitta narsaning umri uzog'i bilan 3-4 yil, o'shanda bir ichidagini to'kib sochishmasa qachon dildagini sochishadi.

Did. Bu davrda er-xotin birgalikda televizor ko'rishga ham, teatrga birga borishga ham usta bo'lishadi, ammo ayolning futbol haqida fikrlari yoki erining spektakl haqidagi fikrlari bir-birini g'ashiga tegishi mumkin. Ammo ikkisi ham bir birini fikrni hurmat qilishi va quloq tutishi lozim. Axir maqsadlari tinch va totuv yashashku.

Odatlar. Bunda ikkisi ham “barmoqlar orasidan” qarashni boshlaydi. Bir birini kamchiliklari ko'ziga ko'rina boshlaydi. Hamma o'zini odatni yaxshi taraflarini ko'rsata boshlaydi.

Besh yillik inqiroz davri – qaytish inqirozi. Bu inqiroz davri 5 yildan so'ng ayol ishga qaytsagina yuz beradi. Bu davrning inqiroz sanalishiga ayolga berilgan imkoniyat tufaylidir. Bu davrda ayol oradan shuncha vaqt o'tib ishga qaytgan bo'ladi, endi unda mas'uliyat yanada ortgan bo'ladi: bola va erga qarash, uy ishlarini qilish, ishlariga ulgurish – bularning hammasiga bir vaqtning o'zida ulgurishi lozim. Undan tashqari uning hayotidagi yaqindagina boshlangan ishxonadagi yangicha hayot – odamlar bilan muloqatda bo'lib turish, odamlarning e'tiboriga tushish bularning bari aynan shu inqiroz davrini chaqiradi. Er-xotin ham ikkilasida yuz berayotgan ishida o'sish tufayli ikkisining bir-birida qoniqmaslik paydo bo'la boshlaydi. Ayol avvalgiday uy ishlariga ulgura olmaydi va buning oqibatida uyda yuz berayotgan bunday o'zgarishni er qabul qilishga qiynaladi.

Etti – to'qqiz yillik inqiroz davri. Bir ohangli inqiroz davri. Bu davrda hammasi bir maromga tushgan bo'ladi: turmush tarzi, intim,

muloqat, ish, xullas hammasi. Er ham xotin ham ishlayotgan bo'ladi, farzandlar ulg'ayayotgan ammo shu bilan birgalikda hayot va jinsiy hayot o'ta oddiy va bir xil ko'rinishga ega bo'lgan bo'ladi. Shu sababdan, bu davrda ikkisi ham hayotida yangilik nimadir o'zgarish istab qoladi. Bu davrga kelib ayol ham er ham bir biridan to'yingan bo'ladi. Ko'pgina erkaklar ayollarinig o'zgarib qolganidan, romantik munosabatlarni rad qilayotganidan arz qilishadi. Ayol uchun esa farzandlar ulg'ayib olgani va hayoti har doimgiday bir maromda turgani uchun hayot zerikarli bo'la boshlaydi. Balki hayotiga boshqa erkak ham kirib kelishi mumkin. Er ham o'z o'rnida boshqa ayol bilan munosabatga kirishishi mumkin. Ammo er oilani saqlab qolishga harakat qiladi, ya'ni xushtori bilan ham munosabatni uzmaydi ayolini ham xaydamaydi, oilasini asrashga intiladi, ammo ayolda shu hol yuz bersa erini tashlab ketishi ko'proq yuz beradi.

O'n to'rt – o'n olti yillik inqiroz. Qirq yoshlilik inqirozi. Agar xatto er-xotin uzoq yillar davomida ahil-inoq yashab kelgan bo'lishsa ham, 40 yoshga yaqinlashganlarida eng asosiy inqiroz davri yaqinlashadi. Sababi ayolda yaqinlashib kelayotgan klimaks davri sababli, uning xarakterini yomon tarafga o'zgarib borishi, agressiyasini ortishi natijasida bo'lsa, erkaklarda esa o'tgan umrini tahlil qilish boshlanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har qanday juftlikda vaqt o'tishi bilan jinsiy va hissiy jixatdan bir joyda to'xtab qolish yuz beradi. 40 va 50 yoshlar oralig'idagi har 5 ta erkakdan bittasi shu yoshda yangidan nikohdan o'tadi. Yarimidan ko'pi o'zidan 15-20 yosh kichkina qizga uylanadi, boshqalari esa atrofida xushtorini ko'paytiradi. Shu sababdan bu davrni "qirq yosh qo'zg'aloni" - ya'ni erkaklardagi klimaks davri deyiladi. Bu garmonlarning qayta tiklanishi natijasida yuz beradi. O'sha aytganimizdek, erkaklar o'tgan umrini sarhisobini tahlil qila boshlaydi, nimalarga erishganini, xotinidan ko'ngli to'ldimi yo'qmi, istaganidek ayolga uylana oldimi yo'qmi, bularning hammasi yashirin nevrozga sabab bo'lishi mumkin. Ayol ham bu borada qolishmasligi, u ham ichidan "Endi bir umr shu odam bilan yashab o'tamanmi?" degan kechinmalar o'ta boshlaydi.

Bu davrda ikkisining ham tuyg'ulari barqarorlashgan va ularning o'rtasidagi muhabbat ko'proq do'stlikni eslatadi. Bu davrga kelib ikkisining ham o'ziga bergan bahosi oshib keladi. Inqirozning cho'qqisi ayolda o'ziga berilgan bahoning o'ta yuqoriligi bilan belgilansa, erkaklarda esa o'zini namoyon qilish hissi ortib boradi.

Bu davrda hissiyotlarning sovushining yana bir sababi - “hayot o’rtasida” hissidir. Bu nikohdagi eng og’ir damlardan biridir. Bunda hayotini butulay o’zgartirish hissi paydo bo’ladi. Ammo ajralishlar kam kuzatiladi.

Er-xotinlardan ikkisida ham jinsiy munosabatlarda yangilanish paydo bo’ladi. Bu qaynoq kuchli hissiyotli turmush tarzida hammasi o’zgarimas ko’rinishga kelgan: barqaror va hamma narsasi yo’lga qo’yilgan. Aynan shu barqarorlik va yo’lga qo’yilganlik tufayli ham bu davrda er-xotinlar oila bag’ridan chiqib ketgisi, hammasini noldan boshlagisi kelmaydi. Mayda chuyda narsalar bahslashishga va hafalashishga sabab bo’la olmaydi, er-xotinlar bir biriga e’tiborli bo’lishni o’rganishadi. Xatto ba’zan juftliklardan biri chidamsizligi bilan hayratda qoldirsa ham, bu unchalik ham e’tiborga olinmaydi.

20 -25 yillik inqiroz. Mutaxassislarining fikricha, nikohning bu davrida asosan ikki kishilik hayot ilgari suriladi, chunki bu davrga kelib, farzandlar ota onadan biroz uzoqlashgan bo’ladi. Ota-ona farzand tarbiyasidan qutiladi, farzandlar ulg’ayib, mustaqil hayot kechira boshlashadi. Endi er-xotin ikkisi haqida qayg’urishi lozim bo’ladi. Shu sababdan bu davrda ikkisidan birining bevaqt vafoti sherigiga juda qattiq ta’sir qiladi. Ular barhayot bo’lishsa, endi farzand tarbiyasi bilan emas, nabiralarni tarbiyalashga o’tadi. hamma o’zi bilan o’zi band bo’lib qoladi.

Inkiroz – bu ham hissiy ham aqliy stressli vaziyat bo’lib, qisqa vaqt ichida ham o’zidan, ham boshqalardan katta o’zgarishni talab qiluvchi holat. Ayniqsa, oilada krizis yuz berganda bu holat oilani parokandalash darajasigacha olib kelishi mumkin.

M.A.Sog’inovning ta’kidlashicha, o’zbek oilalarida er-xotinlarni yoki ulardan birini ajralishga undovchi muhim sabablar sirasiga: turmush o’rtog’ining qo’polligi, turmush o’rtog’ini hurmat qilmasligi: yosh oila hayotiga ota-onalarning noo’rin aralashuvi: turmush o’rtog’ining oilaning umumiy masalalariga befarqligi va boshqalar kiradi.

X.Karimov o’tkazgan tadqiqotlar natijasiga ko’ra, o’zbek oilalaridagi er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitiga xos bo’lgan nikoholdi omillarining xususiyatlari: ya’ni ba’zida tanishish imkoniyatining bo’lmasligi yoki qisqaligi ham ta’sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o’zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o’zaro

munosabatlar qo'pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi ko'rsatib o'tiladi.

Oilaviy munosabatlar ikki kishi er va xotin orasidagi hissiyotlarga asoslanib shakllanadi. Agar hissiyotlar ortda qolib, hayot muammolari ustun kelib, er o'zini tergovchi sifatida tutsa, xotini doimiy tergov ostida ushlansa, yoki xotini doimo moddiy muammolar, boylik, ro'zg'or hisob-kitobini qilib erni doimo tergasa bir-birlariga bo'lgan his-tuyg'u yo'qolib ketadi. Inson ba'zida o'ziga yaqin bo'lgan odamlarni tushunmaydi. A.Grin o'zining asarlaridan birida "Bizning ichki dunyomiz qamdan-kam odamni qiziqtiradi", deydi. Er va xotin bir-birlarini juda yaxshi biladigan, tushunadigan -deb o'ylashadi. Aslida esa yaqin odamni ichki dunyosini ko'ra bilish uni tushunishni xohlashmaydi.

Er va xotin turmush qurib, nafaqat jismonan bir-biriga yaqin bo'lishi, balki qalban yaqin bo'lishlari darkor. Bu yaqinlikka erishish uchun unga intilish, qiziqish va yaqin odami bilan doimo suhbatda bo'lish, suhbat orqali uni ichki dunyosiga kira olish kerak. Bu munosabatlar qiziquvchan, erkin va teng huquqli insonlar orasida paydo bo'ladi. V.A.Sisenko oilaviy munosabatlarni mustahkam yoki sustligini asosi er va xotin bir-birlarini ko'nglini ola bilishidadir deb biladi. Ularning bir-biriga bo'lgan mehrida, bir-birini xohlashida, tushunishida va oilada doimo yaxshi kayfiyat, kulgi bo'lishidadir.

Munosabatlarni samimiyligiga va turmushning buzilishiga V.Satirning fikricha quyidagi qo'rquvlar sabab bo'ladi:

1. Men hato qilib qo'yishim mumkin.
2. Kimgadir qilg'im yoqmasligi mumkin.
3. Kimdir ustimdan kuladi.
4. Kimdir meni maqtanchoq deb o'ylaydi.
5. U meni yomon deb o'ylaydi.
6. Biror-bir aybim borligini bilib qolishadi.
7. U meni tashlab ketadi.

Ammo, kimki bu fikrlarni o'zidan chetlasa, erkin tutsa va o'z ustidan kulishidan qo'rqmasa, munosabatlar osonlashadi. Inson turmush qurishdan oldin bu hayotda o'zining dunyoqarashiga ega bo'ladi. U o'zi uchun aziz va qimmatli narsalarni belgilab qo'yadi, shuning uchun o'z yonida tushunadigan, uning g'ururiga tegmaydigan dunyoqarashi ustidan kulmaydigan, ta'na qilmaydigan ko'pincha chqin bir inson bo'lishini istaydi. U boshqa o'ziga yaqin insondan uni

dunyoqarash, g'ururini, hayotdagi o'rnini, hurmat qilishini xohlaydi. Faqat shunday insongina turmush o'rtog'i bila olishi va shundagina mustahkam oila qurishi mumkin.

Oilani mustahkamlovchi ikki muhim faktorni V.A.Sisenko belgilab beradi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy ta'minlanganlik darajasi va vaqt ajratilishi.

2. Ijtimoiy-psixologik faktlar oilaviy hayotdan mamnun bo'lish darajasi.

Shu ikki faktor oilani mustahkam qilishda V.A.Sisenko asosiy shart deb biladi.

Er-xotinning bir-biridan uzoqlashishi yoki bir-birini tarbiyalashga urinish oilaviy munosabatlarni buzilishiga olib keladi. A.Kronik bir qator sabablarni ko'rsatib o'tadi. Ulardan: — boshqa odamlar hayotida aralashishi; — o'z qadrini bilmaslik (o'zini erga urish); — bir-birining jinsiga, xarakteriga to'g'ri kelmaslik. Lekin, eng yaxshi yo'l bu qiyinchiliklarni birga engish, er qoqilsa xotin tergovchi, xotin qoqilsa er tergovchi bo'lish oilani saqlashga olib keladi. A.A.Kronik va S.A.Kroniklar munosabatdagi hissiyotlarni saqlashda quyidagilarni taklif qiladi.

1. Xotiralar oilaviy, birgalikda o'tkazilgan yaxshi munosabatlar o'tkazilgan yaxshi munosabatlar, yaxshi kunlarni asrash.

2. Birgalikda o'tkazilgan yillarga, kunlarga, daqiqalarga ijodiy yondashish, hozirgi kun bilan yashash.3. Birgalikda kelajakka intilish, umumiy rejalar tuzish, shundagina birgalikdagi hayot qiziqarli, yorqin va mustahkam bo'ladi. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda qo'shimcha faktorlarga:

1. Er-xotinning oilani saqlashga intilishi.

2. Oilani mafaati yo'lida kelishib ish qilish.

3. Oilaviy ishlarda tashabbus ko'rsatib, o'z hissasini ikkalasi ham baravar qo'llashi.

4. Mavjud bo'lgan muammolarni oilani unutmagan holda u bilan birgalikda echish.

5. Qiyin va og'ir kunlarda birga bo'lish bir-birini qo'llab quvvatlash.

6. Er-xotin tashqi ko'rinishida estetik jozibalikni saqlash. Oilada o'zini tuta bilish.

7. Oilada ishonch, quvonch, mehr-oqibat sharoitini yaratish kabi faktorlar kiradi.

Ko'pchilik to'ydan oldin harakat qilib, qo'ngil olib, to'y o'tgandan so'ng bo'ldi. Endi maqsadga erishildi deb, harakatni susaytiradi. Lekin aksincha, hamma e'tibor harakat to'ydan keyin boshlanishi kerak, chunki arzimagan narsa, hattoki kiyimga, o'z ko'rinishiga e'tiborsizlik ko'ngil qolishiga olib keladi. To'ydan so'ng oilada umumiy qiziqishlar bo'lishiga harakat qilish kerak, bu oilani mustahkamlaydi. Fundamentni shakllantiradi. Bolalar oilani mustahkamlaydi, lekin umumiy ma'naviy qiziqishlar ham bo'lishi kerak. Oila baxtli bo'lishida turmush qurganlar bir-birlariga do'stona munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, yoshlikda turmush qurib, yillar davomida ikki shaxs bir-biriga bog'lanib qoladi. Ular bir-birini tarbiyalaydi, bir-birini o'rganadi.

Devid Berns oilaviy munosabatlarni salbiy rivojlanishida quyidagi sabablarni keltiradi.

1. Bir-biriga qat'iy qarama-qarshi qutb asosida fikr yuritishi (faqat oq va qora tarzida izoh qidirish).

2. Hodisa va turmushdagi yuzaga keladigan voqealarni ko'pirtirib, yuzga solish (har doim shunaqa qilasan; hech qachon yaxshi bo'lmagan...).

3. Doimo turmush o'rtog'ini tanqid qilish, uning yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini yuziga solish.

4. Hamma narsaga salbiy qarash teskari burish, ijobiy natijalarni kamsitish (bu ishing hech qachon yaxshi bo'lmaydi).

5. Shoshilib xulosa chiqarish odati, "fikrlarni o'qish" ("shu bilan u, meni xech narsaga arzimaydigan demoqchi bo'ldi", "bundan xech narsa chiqmaydi, xammasi bundanda yomon bo'ladi"...)

6. "Teskari teleskop" metodini qo'llash: yaqin, bo'lishi mumkin bo'lgan narsa inkor etilib yoki qisqartirilib, uzoq kelajakdagi bajarish imkoniyati past narsa ko'pirtiriladi.

7. Dunyoda bo'ladigan ishlarni faqat his-tuyg'u, emostiyalar orqali idrok etish.

8. "Men qilishim kerak", "men bajarishim darkor" iboralaridan haddan ortiq foydalanish, bunda "men xohlayman", "Menga kerak", "menga yoqadi" ma'nolari siqib chiqariladi.

9. Boshqalarning xulqiga, harakatiga tamg'a bosish (u o'zi shunaqa).

10. Qo'ldan kelmagan narsalar uchun aybni doimo o'ziga olish, ayniqsa yaqinlari bilan bo'lgan voqealarda.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish kerakki, sevgi va baxt formulasi har kim uchun o'ziniki bo'ladi. Bu formulani har kim o'zicha tuzadi va shu formulaga asosan yashaydi.

Oila a'zolari (ayniqsa, er-xotin) o'rtasida kechadigan muomala odobi undagi shaxslararo munosabat barqarorligini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Oiladagi kundalik muloqot bu hayotiy ehtiyoj sifatida yuzaga keladi. Er-xotinning oiladagi tashkiliy, moddiy, ma'naviy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan kechadigan muomala munosabatlari sof va samimiy, erning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o'zaro hurmati, mehr-muhabbati va iffati asosida qurilsagina unda musaffo ma'naviy muhit yuzaga keladi, shaxslararo munosabatlar barqarorligi yanada mustahkamlanadi. Erning xotinga, xotinning erga betakallufliqi, bir-biriga qo'pol muomalasi, oilaviy turmush bilan bog'liq iqtisodiy, tashkiliy, tarbiyaviy va ma'naviy qiyinchiliklarni engishdagi turli fikrlilik, kelisha olmaslik holatlari asta-sekin undagi shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, ya'ni oilaning inqiroziga olib keladi.

Agar er-xotinning biri o'zining kamchilik tomonlarini bilsa, ulardan qutilish mumkin. Agar bu harakat bo'lmasa, oilaning buzilishiga olib keladi.

Agar er-xotin xarakterida quyidagi kamchiliklar bo'lsa, oilani saqlab qolish qiyin bo'ladi:

- mas'uliyatni o'z zimmasiga ololmaslik va moliyaviy tomondan qarzga botish;
- yoshligida boshidan kechirgan hafagarchiliklar, jarohatlar yoki tashlanganligi natijasida emostional turg'un emasligi;
- emostional sovuq, sevishni ham, sevishga javob berishni ham bilmaydi, har doim kimnidir ayblaydi, kimdandir norozi bo'ladi;
- qahri-qattiq, tez jahli chiqadi va kuch ishlatishi ham mumkin;
- seksual tomonidan muammolar (impotenstiya, frigidlik) hiyonatga moyillik, boshqalar bilan o'ynashishi;
- spirtli ichimliklarga, narkotik moddalarga, qimor hamda seksga ruju qo'yganligi;
- oldingi baxtsiz sevgisidan xali ham o'ziga kelmaganligi.

Nikoh - oila munosabatlari taraqqiyotida er va xotinning o'zaro munosabatlari, bu munosabatlarning ijobiyligi, er-xotinning bir-birini

tushunishi, bir-birlariga nisbatan hissiy intilishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari, ularning o'z nikohlaridan qoniqqanliklari va qator shu kabilar oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim psixologik omillar hisoblanadi.

7.3. Mansab masalalariga oid konsultastiya. Telefon orqali konsultastiya.

Mansabga doir savollarga shaxs, korxonatashkilot rahbari o'zining ishi doirasida yoki shaxsiy masalada murojat qilishi mumkin. Shaxsiy va kasbiy muammolar aloxida –aloxida echim topishi kerak. Asosan ikkala muammo xam bir shaxsda ko'proq uchrab turadi. Shaxsiy muammosi bor inson korxonani boshqarishda xam to'siqlarga muammolarga duch keladi. Shunday ekan boshqaruv muammolaridan oldin shaxsning o'zida muammosi bor yo'qligini aniqlash zarur. Shaxs mansabparastlik ko'proq xarakter xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Asosan temperament jixatdan xolerik va sangviniklarda jamoani boshqarish xususiyatlari ko'proq kuzatiladi. Mansab va jamiyat qo'ygan talablar shaxsda o'zi xoxlamasa xam turli xilto'siqlarni yuzaga keltiraveradi shaxsga katta masuliyat yuklaydi.

Odamlarning shaxsiy munosabatlariga rahbarlik qilish.

Psixologik maslahatlashuvdagi shaxsiy munosabatlarni boshqarish masalalari bo'yicha odamlar, xususan, yoki psixologik xususiyatning boshqa masalalarini hal qilish bilan bog'liq holda murojaat qilishlari mumkin. Maslahatchi har doim haqiqiy insoniy munosabatlarda shaxsiy va biznes muammolari bir-biriga hamroh bo'lishini, juda kamdan-kam hollarda paydo bo'lishini va bir-biridan alohida hal qilinishini yodda tutishi kerak. Ko'pincha bir xil odamda ular bir vaqtning o'zida paydo bo'ladi va ularning dinamikasida to'g'ridan-to'g'ri bir-biriga bog'liq. Shunday qilib, shaxsiy muammolar bo'lgan kishi, odatda, biznes munosabatlarida qiyinchiliklarga duch keladi. Aksincha: biznes muammolari bo'lgan kishi kamdan-kam hollarda shaxsiy muammolarga ega emas. Shuning uchun, odamlar biznes boshqaruvi, ularning biznes munosabatlarini boshqarish bo'yicha psixologik maslahat olib, birinchi ular normal ish munosabatlar o'rnatilishiga to'sqinlik shaxsiy tabiat muammolar bor yoki yo'qligini topish kerak. Birinchidan, bunday muammolar yuzaga keladigan odatiy vaziyatlarni ajratib ko'rsatish va tavsiflash kerak, keyin esa tegishli hollarda

psixologik maslahatning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqish kerak.

Vaziyat 1. Har qanday jamoaning rahbari odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida bexosdan namoyon bo'ladigan salbiy belgilarga ega.

Vaziyat 2. Rahbarning o'zi juda ko'p afzalliklarga ega bo'lgan juda moslashuvchan odam bo'lib, unga odamlar bilan juda oddiy munosabatlarni o'rnatishga imkon beradi. Biroq, uning subordinatori orasida bunday odamlar bor, ular bilan shug'ullanish qiyin va oddiy insoniy munosabatlarni, ham shaxsiy, ham biznes munosabatlarini o'rnatish mumkin emas.

Vaziyat 3. Bir sabab yoki boshqa sabablarga ko'ra, rahbar o'z subordinatlariga nisbatan aniq antipatiya ko'rsatadi. U o'zini tushunadi va his qiladi, lekin his-tuyg'ularini engishga qodir emas. Bu nima uchun sodir bo'lishini tushuntira olmaydi. O'z navbatida, uning odamlarga nisbatan shaxsiy yoqtirmaslik munosabati ularga nisbatan bir xil munosabatni keltirib chiqaradi.

Vaziyat 4. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat oldingi holatning nosimmetrik holatidir. Lekin bu safar tushunarsiz holat, yoqtirmaslik va yoqtirmaslik rahbarga nisbatan subordinatlar tomonidan namoyon bo'ladi. U nima uchun bu sodir bo'layotganini to'liq tushunmaydi va hech narsani o'zgartira olmaydi.

Vaziyat 5. Jamoa rahbari o'z qaramog'idagilarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni anglatmaydi. U, masalan, ular bilan juda yaqin shaxsiy munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash yoki faqat yaxshi biznes munosabatlariga chek qo'yish kerakligini hal qila olmaydi. Maslahatchi psixologning qanday holatlarda va ularning har birida mijozga qanday tavsiyalar berishi mumkinligini qanday aniqlash mumkinligini ko'rib chiqing. Birinchi turdagi vaziyat bilan maslahatchi psixolog ko'pincha tajribali, uzoq vaqt davomida menejer sifatida ishlaydigan mijoz bilan murojaat qilganda yuz beradi. Agar biz yosh rahbar haqida gapiradigan bo'lsak, u odatda uning xarakterining kamchiliklarini tushunmaydi. Agar u tajribali rahbarga tegishli bo'lsa, u ularni tushunadi, istaydi, lekin ulardan deyarli qutulolmaydi. Ushbu holatlarning birinchi qismida psixolog-konsultantning vazifasi mijozga o'z xarakteristik kamchiliklarini tushunishga yordam berishdir, ikkinchidan, ulardan qutulishga yordam berishdir. Har ikkala holatda ham, agar bu kamchiliklar mijozning hayotidan butunlay yo'q qilinmasa, unda o'z qaramog'idagilarga nisbatan o'z xatti-harakatlarida

minimal darajada namoyon bo'ladi. Menejer-mijozning xarakteridagi kamchiliklarni aniqlash, maslahatchi psixolog mijozni diqqat bilan tinglashi, uni haqiqatan ham va tez-tez odamlar bilan munosabatlarda muammolarga duch keladigan holatlar haqida batafsil ma'lumot berishlari va mijozning o'z xatti-harakatlariga alohida e'tibor berishlari kerak uning subordinatlariga nisbatan.

Mijozning hikoyasi natijasida maslahatchi psixolog o'z xarakteridagi kamchiliklar haqidagi gipotezani shakllantiradi, uning fikriga ko'ra, mijozga bo'ysunuvchi odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Ushbu gipoteza keyinchalik mijozning xarakterini ko'p tomonlama baholashga imkon beradigan usullar yordamida ishonchliligi uchun tekshiriladi. Tegishli ishonchli, ilmiy asoslangan axborot zarur dalillar bilan birga mijozning ongiga keltiriladi. Mijoz bilan ishlashning ushbu bosqichida maslahatchi psixolog mijozni bo'ysunuvchilar bilan shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq muammolarini hal qilish, xususan, uning kamchiliklarini tan oladimi yoki yo'qmi, ularga bog'liq ekanligiga ishontirishga harakat qiladi. Agar bu kamchiliklar allaqachon mijozga ma'lum bo'lsa va agar mijoz ulardan qutulishga qaratilgan zarur sa'y-harakatlarni amalga oshirishga tayyor bo'lsa, unga quyidagilarni qilish tavsiya etiladi. Birinchidan, qachon, kim bilan va qanday sharoitlarda bu kamchiliklar eng tez-tez va eng kuchli tarzda namoyon bo'lishini aniq belgilashga harakat qiling. Ikkinchidan, atrofdagi voqealarni va o'z xatti-harakatlarini kuzatib, tegishli ijtimoiy vaziyatlarni mustaqil ravishda aniqlashni o'rganish davom etmoqda. Uchinchidan, agar iloji bo'lsa, kelajakda bunday vaziyatlarning paydo bo'lishidan qochish uchun o'rganing, agar, albatta, mijoz buni qila olsa. To'rtinchidan, bunday holatlarda bunday hayotiy vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish bexosdan paydo bo'ladi. Bunday metodlarni amalda ishlab chiqishda mijozga maslahatchi psixolog yordam berishi kerak. Beshinchidan, shaxsiy va biznes aloqalariga, o'z tabiatidagi mavjud kamchiliklarga kirish kerak bo'lgan odamlarni oldindan ogohlantirish odatini rivojlantirish. Nihoyat, oltinchisi, darhol o'rganing va ular bilan muloqot qilishda beixtiyor ta'sir ko'rsatgan odamlarga zudlik bilan kechirim so'rang.

Agar mijoz va psixolog-maslahatchi birgalikda mijozni mavjud bo'lgan xarakteristik kamchiliklardan asta-sekin yo'q qilishga qaratilgan uzoq muddatli qo'shma harakatlar rejasini muhokama qilsa

va qabul qilsa, bu juda oqilona ko'rinadi. Ushbu rejani amalga oshirish vaqtida mijoz muntazam ravishda, haftada kamida bir marta yoki ikki hafta davomida psixolog-maslahatchi bilan maslahatlashib, undan qanday harakat qilish haqida qo'shimcha tavsiyalar olishlari kerak. Ikkinchi holatda-xarakterdagi kamchiliklar rahbarning o'zi emas, balki uning bo'ysunuvchilari tomonidan topilganda, rahbarga quyidagilarni qilish tavsiya etiladi.

Birinchi, vaqtinchalik subordinatlar bilan muloqotda psixolog-maslahatchi rolini bajarish (bu rolning amaliy bajarilishi uchun haqiqiy psixolog-maslahatchi mijozni oldindan tayyorlashi kerak). Ikkinchi, rahbar o'z subordinatlari bilan batafsil gaplashishi va ularni ochiq suhbatga chaqirishi kerak. Bunday suhbat davomida, subordinatlar nima uchun unga rahbar sifatida yomon munosabatda bo'lishlarini aniqlash kerak. Bu erda allaqachon psixolog-maslahatchi rolini o'ynagan holda, rahbar yo'qorida aytib o'tilgan narsalardan kelib chiqishi kerak. 1 holatiga nisbatan. Ikkinchi, agar subordinatlar o'zlarining xarakterining kamchiliklarini tan olmasalar yoki ulardan qutulishni istamasa, menejer quyidagi qadamlardan birini qabul qilishi mumkin:

- bir muncha vaqt o'tgach, subordinatlar bilan muzokaralarni to'xtatish va ularni ishontirishga urinish, subordinatlar o'z rahbarlari bilan gaplashayotgan narsalar haqida mustaqil fikr yuritishga imkon beradi. Ehtimol, bu biroz vaqt talab etadi va bo'ysunuvchilar o'z xatti-harakatlarini va qarorlarini to'g'ri yo'nalishda o'zgartiradilar;
- agar vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'z-o'zidan to'g'ri yo'nalishda o'zgarmasa, unda rahbar boshqa hech narsaga ega bo'lmaydi, chunki u subordinatlarning belgilarida kamchiliklarni sezmaslik va ularga javob bermaslikni o'rganadi.

Uchinchi, agar ushbu kamchiliklar keyinchalik mutlaqo chidamsiz bo'lsa, unda subordinatlar bilan muzokaralarni davom ettirishingiz kerak, agar ular o'z xatti-harakatlarini nazorat qilmasalar, ular bilan normal shaxsiy va biznes aloqalari deyarli imkonsiz bo'ladi va rahbar boshqa hech narsa qolmaydi, subordinatlar bilan qanday aloqada bo'lish kerak.

To'rtinchi, qiyin vaziyatlarda rahbar o'zini jamoada etarlicha vakolatli bo'lgan va rahbar bilan juda do'stona shaxsiy munosabatlarga ega bo'lgan boshqa subordinatlarning yordamiga chaqirishi kerak. Ularga rahbar yordam so'rashi mumkin, uning mohiyati boshqa

subordinatlarga birgalikda ta'sir o'tkazishga harakat qilishdir. Bu holatda menejer va subordinatlarning birgalikdagi harakatlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

– birinchidan, ularning barchasi o'zlarining belgilaridagi kamchiliklar bilan bog'liq boshqa subordinatlarning qo'zg'atuvchi harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik va salbiy munosabatda bo'lmaslik haqida kelishib olishadi,

– ikkinchidan, bunday harakatlarning muntazam ravishda takrorlanishi bilan, ularga jamoaning ko'plab a'zolari bu harakatlarni ma'qullamasligini va shu tarzda harakat qilayotganlar bilan muloqotni to'xtatishga tayyorligini aniq ko'rsatib bering,

- uchinchidan, mavjud xarakterli kamchiliklardan xalos bo'lish va o'zlarini himoya qilish uchun har tomonlama harakatlarni qo'llab-quvvatlash.

Muhokama qilingan vaziyatlarning uchdan birida-agar rahbar va uning subordinatlaridan biri o'rtasida tushunarsiz, qiyin bartaraf etiladigan antipatiya mavjud bo'lsa, rahbarning o'zi bilan keyingi psixoprofilaktik ishni bajarish tavsiya etiladi. Avvalo, kimga, qachon va qanday masalalarda menejerning antipatiasini ko'rsatganini batafsilroq bilib olishingiz kerak. Keyin menejerning shaxsiy munosabatlarning rivojlanish tarixini tegishli shaxs bilan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu savolga javob berish uchun amalga oshirilishi kerak, bu hikoyada ma'lum bir shaxsga nisbatan yoqtirmaslikning ob'ektiv sababi o'z vaqtida aniqlanmagan. Buni bilish uchun mijoz etarli darajada batafsil aytib berishi kerak psixolog-maslahatchi, u bilan shaxsiy tanishishning boshidan boshlab subordinator bilan bo'lgan munosabatlari qanday paydo bo'ldi. Ushbu suhbatning maqsadi-bu shaxsning kamchiliklari va bo'ysunuvchining xatti-harakati rahbarning unga qarshi antipatiya hissi paydo bo'lishining asosiy sababi ekanligini aniqlashdir. Agar shunday bo'lsa, unda bu haqiqat avval o'tmishga qaytib, bu sababni bartaraf etish kerakligini anglatadi. Subordinatorning bunday xatti-harakati nima uchun paydo bo'lganini diqqat bilan va chuqur tushunish kerak, shuningdek, menejerga bo'ysunuvchining harakatlariga qarshi antipatiya bilan javob berishni davom ettirish mantiqiy yoki yo'qligini aniqlash kerak. Ehtimol, bunday tahlil natijasida menejerning bo'ysunuvchiga nisbatan yoqtirmaslik tuyg'usini saqlab qolish uchun juda jiddiy ob'ektiv sabablar mavjud emas. Bunday holda, agar bu savolga o'xshash hech qanday sabab

yo'qligi aniqlansa, demak, rahbarning o'zi, ehtimol, uning bo'ysunuvchisidan kamroq darajada sodir bo'lgan narsalar uchun aybdor. Ehtimol, u o'z subordinatiga nisbatan dushmanlik qiladi, chunki u o'zining bo'ysunuvchisi bilan bir xil xarakterga ega emas. Bundan oldin rahbar va subordinatorlar bilan muloqot qilish kerak bo'lgan vaziyatlar ular o'rtasida normal munosabatlarni o'rnatish uchun har doim qulay bo'lishi mumkin. Ehtimol, uning tashqi qiyofasi, xatti-harakati yoki ikkalasi bilan birgalikda ishlaydigan kishi boshqa birovning boshlig'iga eslatgan bo'lishi mumkin, bu esa juda ob'ektiv sabablarga ko'ra aniq, yoqimsiz shaxsiy munosabatdir. Buni menejerdan vaziyatni tahlil qilishni so'rab, uning sobiq tanishlaridan boshqa hech kimga o'xshamasligini eslab qolish mumkin. Agar bu savolga ijobiy javob beradigan bo'lsak, siz u bilan suhbatni davom ettira olasiz va unga bo'ysunuvchiga o'xshagan shaxsning nima ekanligini va o'tmishda bu shaxs bilan qanday shaxsiy munosabatlar shakllanganini bilishga harakat qilishingiz mumkin. O'tkazish gipotezasi yoki proektsiyasi, boshqa shaxsga nisbatan salbiy munosabat, agar o'tmishda tegishli shaxsga nisbatan shaxsiy munosabat haqiqatan ham salbiy ekanligi aniqlansa, tasdiqlangan hisoblanadi.

Agar shunday bo'lsa, psixolog-maslahatchi menejerni mijozga ma'lum bir vaqtda bo'ysunuvchiga bo'lgan shaxsiy munosabati, albatta, noto'g'ri, noto'g'ri ekanligiga ishontirishga harakat qilishi kerak. Bunday munosabatlardan xalos bo'lish uchun rahbarga imkon qadar iloji boricha o'z xizmatchisini bilish tavsiya etiladi va iloji boricha, bu odamni asta-sekin tanib, unga nisbatan dushmanlik bilan munosabatda bo'lishni tavsiya qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, insonni inson sifatida yaxshiroq va chuqurroq o'rganishga urinishlar unga nisbatan munosabatni yaxshilaydi. Agar rahbar va subordinator o'rtasida istaksiz ravishda paydo bo'lgan antipatiya sababi, rahbar bu subordinator bilan muloqot qilish kerak bo'lgan vaziyat yoki vaziyat bo'lsa, unda bu holatda rahbar ushbu subordinatorning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatib borishi kerak. Keyin, ehtimol, menejerning ushbu subordinatorga nisbatan shaxsiy munosabati yaxshiroq o'zgaradi. To'rtinchi holat-rahbarga bo'ysunuvchilar tomonidan tushunarsiz va tushunarsiz dushmanlikning mavjudligi-psixologik maslahatning bir-biridan farqli strategiyasi va taktikasini oldingi holatga qaraganda belgilaydi, garchi birinchi qarashda bu holatlar bir xil bo'lsa-da. Bu erda maslahatchi psixolog o'z boshlig'iga nima uchun

unga bo'ysunuvchilari unga juda xayrixoh emasligini tushunishga yordam berishga harakat qilishi kerak. Rahbarga bo'ysunuvchilarning bunday munosabatining bir necha sabablari bo'lishi mumkin. Birinchidan, bu menejerning o'ziga bo'ysunuvchilarga nisbatan yomon munosabati. Ikkinchidan, bu juda aniq, lekin ayni paytda rahbarning o'zi tomonidan yaxshi nazorat qilinmaydigan o'z xatti-harakatlari va subordinatlar tomonidan javob, salbiy reaksiyaga sabab bo'lgan. Uchinchidan, bu biz oldingi, uchinchi tartibda, vaziyat bilan bog'liq ravishda muhokama qilingan bir xil sababdir, ya'ni rahbar o'z xohish – irodasini o'tmishda ularga juda ko'p muammolarni keltirib chiqargan shaxsga o'xshatishi mumkin. To'rtinchidan, bu rahbarning subordinatlar bilan muloqot qilish amaliyotida tez-tez uchraydigan holat bo'lib, unda rahbar o'z noto'g'ri xatti-harakatlari bilan tushunilmagan harakatlar bilan bevosita subordinatlar tomonidan salbiy reaksiyaga sabab bo'ladi.

Haqiqiy hayotdagi barcha sabablar alohida va birgalikda harakat qilishi mumkin va ularning har qanday kombinatsiyasida va maslahatchi psixolog vaziyatni tahlil qilishdan oldin muammoni hal qilish uchun amaliy tavsiyalarga o'tishdan oldin uning haqiqiy sabablarini aniqlash kerak bo'ladi. Agar yo'qorida aytib o'tilgan sabablarning birinchi va ikkinchi qismi haqiqatan ham amal qilsa, ularni faqat menejerning o'ziga bo'ysunuvchilarga munosabatini o'zgartirib, yo'q qilish mumkin. Bunday holda, rahbar o'z xatti-harakatlaridagi kamchiliklarni tushunishi va tan olishi va uni nazorat qilishni o'rganishi, uning xatti-harakatlari va unga bo'ysunuvchilarga bo'lgan munosabati, albatta, xayrixoh bo'lishi kerak.

Agar vaziyat yo'qorida aytib o'tilgan sabablarning uchdan biri yoki to'rttdan biri bilan bog'liq bo'lsa, unda rahbarning xatti-harakatlari uchinchi holatga nisbatan biz tomonimizdan muhokama qilinganlarga o'xshash bo'lishi kerak. Maslahatchi psixolog unga yordam berishi mumkin, u rahbar bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan subordinatlar bilan ishlaydi.

Beshinchi holatda-agar rahbar o'zini ikkilanib tursa va subordinatlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni bilmasa, masalan, ular bilan yaqin, ishonchli munosabatlarni o'rnatishga arziydi yoki bunga loyiq emas – maslahatchi psixolog birinchi navbatda mijoz bilan tushuntirish ishlarini olib borishi kerak. U mijozga, odatda, menejer va uning subordinatlari o'rtasidagi normal munosabatlar

qanday bo'lishi kerakligi, bunday munosabatlarning turli xil afzalliklari va kamchiliklari, qanday foyda keltirishi va rahbar va subordinatlar o'rtasida muayyan munosabatlarni o'rnatishda qanday qo'shimcha muammolar mavjudligi bilan izohlanishi kerak. Shundan so'ng, rahbar o'zi, masalan, ular bilan yaqinlashishga yoki psixologik masofani saqlab qolish yaxshiroq bo'lishiga qaramasdan, unga bo'ysunuvchilar bilan muayyan munosabatlarni o'rnatishga arziydimi yoki yo'qmi, qaror qabul qilishi kerak.

Shu munosabat bilan esda tuting, nima uchun foydali va nima uchun rahbar va subordinatlar o'rtasida juda yaqin, ishonchli munosabatlarni o'rnatish kontrendikedir. Bunday munosabatlarni o'rnatishning foydasi quyidagicha. Birinchidan, o'z xizmatchilari bilan yaxshi shaxsiy, norasmiy munosabatlarga ega bo'lgan rahbar har qanday vaqtda o'z navbatida ochiqlik va ishonchga tayanishi mumkin. Ikkinchidan, bunday rahbar har doim o'z subordinatlariga tayanishi va uni muvaffaqiyatsiz deb hisoblashlari mumkin. U buyruq va buyruqlardan foydalanishga hojat yo'q, so'rovga bo'ysunuvchilarga murojaat qilish kifoya va u albatta amalga oshiriladi. O'z bo'ysunuvchilari bilan yaxshi shaxsiy munosabatlarga ega bo'lgan rahbar, har qanday vaqtda uni qo'llab-quvvatlashiga, uni kutib olishga, hech qanday bosim yoki nazorat qilmasdan talab qilinadigan ishlarni bajarishga ishonishi mumkin. Bularning barchasi zamonaviy rahbarlarning amaliy ishlarida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, ular o'zlarining bo'ysunuvchilari vijdoniga va mas'uliyatiga tayanib, ularga ishonishlari kerak. Bundan tashqari, jamoa rahbari va subordinatlar o'rtasida yaxshi shaxsiy munosabatlar bilan birga, odamlarning muvaffaqiyatli jamoaviy ishiga hissa qo'shadigan do'stona psixologik muhit saqlanib qoladi.

Biroq, rahbar va uning bo'ysunuvchilari o'rtasidagi juda yaqin munosabatlarning salbiy oqibatlari ham mavjud. Bunday oqibatlarning asosiy qismi quyidagilar. Birinchidan, subordinatlar bilan yaqin aloqada, ularning qarorlarida rahbar psixologik jihatdan qaram bo'lib, butunlay ozod bo'lmagan shaxs emas. Misol uchun, u ob'ektiv, mustaqil qarorlar qabul qila olmaydi, ayniqsa, bu qarorlar uning bo'ysunuvchilari tomonidan tasdiqlanmasa. Ikkinchidan, subordinatlarga psixologik jihatdan qaram bo'lgan rahbar, qisman ularning ustidan va umuman olganda vaziyatni nazorat qilish va kuchini yo'qotadi. O'z navbatida, subordinatlar unga rahbar sifatida hurmatni yo'qotadilar va u bilan hisoblashni to'xtatadilar.

Odamlarning biznes munosabatlariga rahbarlik qilish

Odamlarning biznes munosabatlariga ko'ra, odatda, ularning birgalikdagi ishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, biznes munosabatlarini tushunishda biz faqat tor doiradagi masalalar yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar bilan cheklanib qolamiz, bu esa rahbar o'z jamoasida o'z subordinatorialari bilan birgalikda muhokama qilinishi va hal qilinishi kerak. Odamlarning turli xil biznes aloqalari to'plamidan biz biznes qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni metodik sabablarga ko'ra chiqarib tashladik. Ularning muhokamasiga alohida murojaat qilamiz. Shunday qilib, tor ma'noda biznes aloqalari rahbar va subordinatlarning birgalikdagi ishlarida yuzaga keladigan muammolar va savollar bilan ifodalanadi, chunki ular uchun rahbar psixologik maslahatlashuvdan yordam so'rashi mumkin. Bu, masalan, subordinatorialar o'rtasida mas'uliyatni oqilona taqsimlash, ularning birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish, subordinatlarga mustaqillik berish, bo'ysunuvchilarning faoliyatini nazorat qilish va baholash, bo'ysunuvchilarning muvaffaqiyat va qobiliyatsizligi uchun rag'batlantirish va jazolashdir. Keling, bu masalalarni batafsil ko'rib chiqaylik, shu jumladan, ushbu masalalarni hal qilishda rahbarning harakatlariga oid mumkin bo'lgan, psixologik asosli tavsiyalar.

Bo'ysunuvchilar o'rtasida mas'uliyatni oqilona taqsimlash qanday to'g'ri? Bu masalani hal qilishda, birinchi navbatda, ishning manfaatlaridan, bo'ysunuvchilarning xohish-istaklaridan, ularning malakasidan, shaxsiy xususiyatlaridan, ish tajribasidan va shaxsiy munosabatlaridan kelib chiqish kerak. Ishning manfaatlari jamoada barcha zarur vazifalar, albatta, taqsimlanishi va shaxsan belgilanishi va ularning taqsimlanishi jamoa a'zolarining har bir a'zosining birgalikdagi ishlarga haqiqiy hissasiga mos keladigan yagona va adolatli bo'lishi kerakligini talab qiladi.

Mas'uliyatni taqsimlashda adolat, har bir jamoa a'zosining o'z huquqlari va imtiyozlariga, masalan, lavozimlarga, ish haqiga mos keladigan majburiyatlarga ega bo'lishi kerakligini anglatadi. Shu bilan birga, majburiyatlarni taqsimlashni faqat uning rahbari emas, balki jamoa a'zolarining ko'pchiligi adolatli deb tan olishlari kerak. Bu erda quyidagi tamoyil amal qilishi kerak: insonga qanchalik ko'p berilsa, undan ko'proq so'rash kerak va aksincha. Jamoa a'zolari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlashning bir xilligi, yo'qorida ko'rsatilgan

majburiyatlarni taqsimlashda adolat tamoyilini amalga oshirishni hisobga olgan holda, har bir ishning haqiqiy ish yukini taxminan tenglashtiradi. Jamoada odamlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, ularning barchasi ortiqcha yuklamasdan, o'z ishlarini muvaffaqiyatli va o'z vaqtida bajarishi mumkin. Ular orasida mas'uliyatni taqsimlash masalasida bo'ysunuvchilarning shaxsiy istaklari hisobga olinadi. Lekin birinchi navbatda emas, chunki hamma odamlar etarlicha ongli va psixologik jihatdan adolat va bir xillik tamoyillarini hisobga olgan holda, ular va jamoaning boshqa a'zolari o'rtasida mas'uliyatni taqsimlash masalasiga ob'ektiv yondashishga tayyor. Bu masala bo'yicha, odatda, ideal bo'lgan va jamoaning barcha a'zolarini istisnosiz tartibga soladigan bunday yechimni darhol topish qiyin. Deyarli hech qachon bunday bo'lmaydi, shuning uchun darhol va har bir kishi taklif qilingan vazifalarni taqsimlashdan to'liq qoniqadi. Bu erda deyarli har doim jamoaning har bir a'zosining malakasi va tajribasini hisobga olgan holda, har bir kishining shaxsiy istaklari, ishning manfaatlari va adolat va bir xillik talablari o'rtasida oqilona kelishuvga erishish kerak.

Shaxsiy munosabatlarga kelsak va ularni jamoada odamlar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashda hisobga olish kerak bo'lsa, bu ham ish amaliyotida e'tiborga olinmaslik uchun juda muhim omil hisoblanadi. Deyarli birga, bir-biriga yaqin boshqa odamlar psixologik jihatdan mos kelmaydigan yoki doimiy shaxsiy antipatiyalar, nizolar bo'lgan kishilar ishlay oladi. Biroq, bu masalani hal qilishda muhim bir istisno mavjud: munosabatlarni tartibga solish va bir-biriga juda yoqimli bo'lmagan odamlar o'rtasida normal munosabatlarni o'rnatish zarur bo'lganda, ular bir-birlari bilan muloqot qilishlari kerak bo'lgan jamoaviy ishlarga jalb qilinishi mumkin. Keyin ular bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlari mumkin, bir-biriga nisbatan ularning xurofotlari butunlay kamayadi yoki yo'qoladi.

Jamoadagi odamlarning birgalikdagi harakatlarini uning amaliy echimi jihatidan muvofiqlashtirish muammosi odamlar o'rtasida mas'uliyatni maqbul taqsimlash muammosiga mos keladi. Bu odamlar o'rtasida mas'uliyatning oqilona taqsimlanishining teskari tomoni. Haqiqatan ham, vazifalarni taqsimlash odatda odamlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun amalga oshiriladi va harakatlarni muvofiqlashtirish ularning vazifalarini aniq taqsimlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, odamlarning birgalikdagi faoliyatdagi harakatlarini muvofiqlashtirish alohida masala bo'lib, ularning

vazifalari odamlar o'rtasida qanday taqsimlanmasin, deyarli hal qilinishi kerak. Odamlarning xatti-harakatlari optimal tarzda muvofiqlashtirilishi uchun birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining har biri kamida quyidagilarni bilishi kerak:

* Birgalikda ishlashda kim va nima qilish kerak?

* Bu kishi boshqa odamlar bilan nima qilish kerak va ayniqsa, men bilan shaxsan o'zaro munosabatlarda nima qilish kerak?

* Men boshqa odamlar bilan nima qilishim kerak, kim va nima aniq?

* O'zaro hamkorlikning barcha ishtirokchilari o'z ishlarining natijalarini qanday qilib almashadilar?

* Muvofiqlashtirilgan harakatlar uchun rejimli, vaqtinchalik va boshqa talablar qanday?

• Ushbu harakatlar qanday va kim tomonidan baholanishi kerak?

Proekstiya – intrekstiyaga qarama-qarshi, o'z fikrini boshqalarning fikrlari deb kabul qilish. Masalan, xammaga qarama-qarshi turadigan odam «Boshqalar xam menga qarshi» degan fikrda bo'lishi mumkin. Boshqalar bunday fikrda bulmasa-da, u o'z fikrlaridan kaytmaydi. Peres proekstiyasining oldini olish uchun «O'z fikriga javobgar kiling» degan g'oyani ilgari suradi. Javobgarlikni kabul qilish orqali, ya'ni muammo o'ziniki ekanligini kabul qilish natijasida mijoz etuklikka etishi mumkin. **Geshtalterapiya–shaxsning o'zligini anglashga, ana shu orqali o'z muammolarini «xozir va shu erda» xal qilishga yordam beruvchi metod.**

«Neyrolingvistik programmallashtirish» (qisqacha qilib aytganda NLP) eng zamonaviy va keng tarqalgan terapevtik yo'nalish bo'lib, u mijozning o'zini anglashga, xatti-xarakatlari va so'zlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni tushunib etishga va boshqa odam begona ekanligini tushunishga yordam beradi.

NLP yuqorida tahlil kilingan metodlarning eng samaralilarini tanlab qo'llash natijasidir. NLPda asosan lingvistikaga, ya'ni so'zlarning tuzilishi ruhiy olamning ko'rsatkichi sifatida qo'llanishiga asoslaniladi. NLPda odam o'z sezgi a'zolarining ishlashidan kelib chiqib, uch xil javob berishi tan olinadi. Rerezentiv sistemada tashqi olam 1) audial, 2) vizual, 3) kinestik, ya'ni asosiy masofali va ichki xarakat resteptorlari asosida qabul qilinib, shu asosda tashqi olamga nutq orqali javob qaytariladi, deb tushuntiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan terapevtik metodlar optimal ishlashi uchun hozirgi vaqtda ijtimoiy psixologik terapevtik guruhlar bilan ishlash yo'nalishi rivojlantirilgan. Quyida psixodrama haqida qisqacha tuxtalib, guruhliy terapiya yo'llarini ko'rib o'tamiz.

Psixodrama–20-yillarda Moreno tomonidan ishlab chiqilgan metod bo'lib, u guruhliy psixoterapiyaning shakllanishiga asosiy turtki bo'lib xizmat qilgan. Mijozning ruhiy olamini o'rganish uchun psixodramada guruhliy dramatik improvizastiya qo'llaniladi. Psixodramada mijoz o'z dolzarb muammosini guruh bilan uynab kurishi mumkin. Masalan, mijozning muammosi otasi bilan gaplashish bo'lishi mumkin. Terapevt rejissyor sifatida rollarni bo'ladi. Sharoitga karab odamlar, predmetlar rolida stol, stul, lampa va boshqalar ota rolida chiqishi mumkin. Ota rolini uynovchi mijozga otasining

xususiyatlari aytiladi va u vaziyatni uynab kuradi, keyin boshqa ko'zati turgan guruh a'zolari o'z variantlarini ko'rsatishadi yoki bo'lib utgan voqeaning mijozda kuchli xis uyg'otgan tomonini uynab ko'rsatishadi. Shunisi qiziqarliki, bu xodisa o'ynalayotganda mijozda o'sha xis boshdan kechirilishi, xatto u xushidan ketib kolishi mumkin.

Psixodramaning maqsadi xam, Moreno fikricha, mijozda kuchli tuyg'u va xislar kechishini uyg'otish orqali tajribani yana-da takomillashtirishdir. Psixodramada rolli o'yin uslubi qo'llaniladi. Bunda o'yin spontan va ijodiy kechadi. Bu narsalar o'z ichiga adekvat javob berishni va yangilikni oladi. «Tele psixodrama» proekstiya sifatida ko'rinuvchi tushunchadir, ya'ni rollar o'ynalishi davomida olamga boshqa odam ko'zi bilan qarash g'oyasi yotadi.

Katarsis – kuchli xisni boshdan kechirish bo'lib, uning natijasida insayt yuli bilan muammoni yangicha tushunish kelib chikadi. Ko'pincha «Monolog» va ikkinchi «Men» metodlari ishlatiladi. Rollar almashtirib boriladi va oxirida fikr almashish orqali yangi bilim olinadi.

Guruhiy psixoterapiya termini xam Yakob Moreno tomonidan psixologiya faniga olib kirilgan. Guruhiy yo'nalishda, yuqorida kurilgan terapevtik yo'nalishlarning aksariyatidan foydalaniladi. Guruhiy yo'nalish fakat ruhiy kasallar bilan emas, balki sog'lom, o'zini shaxsan rivojlantirishga va anglashga, muammosini echishga intiladigan odam bilan ishlashga xam qaratilgan. Guruhiy yo'nalishning ustun tomoni shuki, unda terapevt emas, balki guruh a'zolari muammoni echishga yordamlashadi, ya'ni boshqalar muammosini xal qilish orqali o'z ruhiy olamini boyitishadi. Bizda guruhiy yo'nalish sostial psixologik trening deb nomlanadi.

O'zbekistonda trening guruhlari bilan ishlash asta-sekinlik bilan rivojlanmoqda, biroq bu xali etarli emas. Yaxshisi, chet elda bu jarayon kay darajaga etganligiga qisqacha tuxtalib utaylik. **Guruhiy trening** odamning boshqalar haqidagi tasavvurini o'zgartirib, yangi – xarakat shakllarini, ya'ni jamiyatning kichik modelini guruhda o'rganish metodidir.

Asosiy narsa guruhda libilizastiya, ya'ni doimiy o'rganilgan xarakatlardan kuchli xislar natijasida voz kechish va yangi xatti-xarakat shakllarini kabul qilishi, boshqacha qilib aytganda, olamni tor kobikdan chikib o'rganishdir.

Guruhiy mashg'ulot utkazishda asosan doira shaklida utirish kabul kilingan. Doirada xamma odam bir-birini kurib turadi. Shuning

o'zi odatda yangilikni idrok qilish uchun o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Odam xar bir grappa a'zosi tengligini idrok qiladi va anglaydi. Uning asosiy prinstiplari «shu erda va hozir», «aktivlik» va «konfidenstiallik»dan iborat. O'z xatti-xarakatlari haqida salbiy gaplarni eshitishni xoxlamagan guruh a'zosi «texnika», «TOR» so'zini ishlatishi mumkin.

Bu narsalar bizda sostial psixologik trening utkazishda qo'llaniladi. Guruhiy me'yorlar kabul qilish chet ellarda bir muncha boshqacharoq. Masalan, ba'zi bir psixogimnastik mashqlarni O'zbekiston sharoitida tarbiyalangan odam bajarishni o'ziga nokulay deb bilishi mumkin. Rossiya sharoitida esa butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Xuddi shu sababli, bizningcha, chet elda ishlatilayotgan guruhiy treningni O'zbekiston sharoitiga moslashtirmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri qo'llash mumkin emas. Morenodan keyin guruh bilan ishlashga qiziqish Kurt Levin ishlarida kurinadi. Ungacha xam bir kancha odamlar bu yo'nalishda ish olib borishgan, lekin Kurt Levinni trening guruhlarining otasi deb atasak arziydi.

K.Levin o'z tadqiqotlarini 30-yillarda boshlagan. Birinchi **T-guruh** tasodifan vujudga kelgan. K.Levin biznesmenlar bilan ishlashda guruhiy muammoning tezda xal bo'lishini ko'zatgan va shu asosda bu yo'nalish T-guruhlari sifatida dunyoga kelgan. Trening guruhiy o'qitish laboratoriyasidir. Shu sifati bilan trening guruhlari xar xil maksadga ega bo'lishi mumkin. Masalan, senzitivlikni rivojlantirish guruhlarida trening guruhlari katnashchilari soni 12 ta odam chegarasida bo'lishi kerak. Shu asosda «milliy Xarenning laboratoriyasi» to'ziladi va bu laboratoriya yangi guruhiy yo'nalishlar rivojlanishiga negiz bo'lib xizmat qiladi. Tajribalar natijasida «uchrashuv guruhlari» nomini olgan guruhlar vujudga keladi. Bu Karl Rodjersning insonparvar mijozga yo'nalgan gruppalaridan iborat bo'lib, odamni boshqa odamlar bilan muammosi autentik bo'lishga yordam berishini o'z oldiga maksad qilib qo'yadi. Uning asosiy belgilari: uchrashuv katnashchilarining o'zligini ochish xislarini anglash, javobgarlik, o'z «Men»ini anglash, «shu erda va hozir» tamoyiliga asoslanganlikdir. Uchrashuv guruhlari bir kunlik va bir necha kunlik bo'lishi mumkin.

Geshtalt guruhlar yuqorida kurilgan geshtaltterapiya metodlari va tamoyillariga asoslanadi. Boshqa guruhlardan farqli ularoq, guruh mashg'ulotlarini trener xar bir a'zo bilan aloxida utkazishi mumkin. Boshqalar esa «bush issik stul» texnikasi bo'yicha ko'zatuvchi

xisoblanadi. O'z muammosini echishni xoxlagan odam bo'sh stulga kelib o'tirib, boshqalar ko'zatuvchiligida o'z muammosini optimal yo'l bilan anglashga xarakat qiladi. Bu geshtaltterapiyaning guruhiy kurinishidir. Odatda ikki stul texnikasi xam ishlatiladi. Bu Morening ikkinchi «Men» metodiga o'xshaydi. Odam o'z retrofleksiyasini anglash uchun yonidagi bosh stulga proektsiya qiladi va ikki odam sifatida: biri xujumchi, ikkinchisi ximoyachi sifatida o'ziga-o'zi savol-javob qila boshlaydi. Geshtalt nazariyasi bo'yicha odam o'zini anglash vaqtida samimiy kuringandagina yaxlitlik, geshtalt xosil bo'ladi, muammo echiladi.

Bundan farq kiluvchi yana bir yo'nalish – badan bilan ishlash guruhlaridir. Bu yo'nalishga bioenergetika, feldenkraysa metodi, strukturaviy integratsiya, boshlang'ich terapiya va xokazo badan bilan ishlash guruhlaridir. Badan terapiyasi asosida retroleksiya, muskul broniyasi xosil bo'lishi, «zajimlar» tananing yaxlitligi xis qilishga qaratilgan bo'lishi haqidagi Vilgelm Rayx nazariyasi yotadi.

Nafas olish xarakati mashqlari orqali «muskul broniyasi»sida kotgan energiya chiqariladi va shu orqali odam o'z «Men»ini, tanasini tulaligicha anglashga o'rganadi.

Shunga uxshash yo'nalishlardan biri «**raqs terapiyasi**» guruhlaridir. xarakat orqali, raqs orqali xislarni anglab, energiyani chiqarish – bu yo'nalishning maksadidir.

San'at terapiyasi guruhlaridir xam mavjud. Ular sublimatsiyaga asoslangan bo'lib, ichki ongsizlikdagi ortikcha energiyani obrazlar orqali yaratib, suvratini solib yoki xaykal ishlash orqali chiqarib tashlashni o'z oldiga maksad qilib oladi. Bulardan tashqari, bixevioristik nazariyaga asoslangan guruhlar xam mavjud.

Yuqorida biz xozirgi zamon psixologiyasida mavjud bo'lgan va inson shaxsini rivojlantirishga qaratilgan individual va guruhiy metodlarni qisqacha tahlilini qilib o'tdik. Xozirgi iqtisodiy qiyinchilik sharoitida o'ziga ishonchni yo'qotish va ijtimoiy muxitdan qochishga intilish kabi salbiy tuyg'ulardan qutulish uchun O'zbekistonda mazkur psixologik metodlarga tayanib ish ko'radigan guruhiy trening laboratoriyasiga uxshash biror markaz ochilsa, yangi xayot bo'sag'asiga qadam tashlay deb turgan insonlar uchun foydadan holi bulmaydi. Jamiyat odamlardan, odamlar esa ruhiyat va tana yaxlitligidan tashkil topadi. Odam kancha ruhan sog'lom bulsa, o'ziga ishonsa, shuncha ko'p mehnat qila oladi. Demak, chet ellardagi

psixologlar fan yutuqlariga asoslanib jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shayotgan ekan, bizda xam tez orada ana shunday siljish yuzaga keladi degan umiddamiz.

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksiya ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

- a) amaliy psixologning maxsus ishi, mashg'uloti ayrim bolalar, o'quvchilar va talabalar bilan aloxida o'tkazilishi rejalashtiriladi;
- b) psixologlarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, bolalar, o'quvchilar, talabalar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;
- v) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Korreksiya psixologiyaning asosiy maqsadi mijozning yosh va turli xususiyatlari shuningdek sub'ektiv vokeligidan kelib chiqib tushuntiriladigan shaxs resurslarini faollashtiruvchi va me'yorga mos keluvchi holatga olib kelishdir.

Korreksiya psixologiya ta'sirining asosiy quroli sifatida psixolog chiqadi va korreksiya jarayon psixolog - mijoz juftligida kechadi. Mijozlarning turli xil talablarini va shakllangan vaziyatga munosabatlarini to'rtta asosiy strategiyaga birlashtirish mumkin.

- 1) vaziyatni o'zgartirish;
- 2) vaziyatni o'zgartirish uchun o'zini o'zgartirish;
- 3) vaziyatdan chiqib ketish;
- 4) mazkur vaziyatda xayotni yangi xususiyatlarini tanish.

Korreksiya psixologiyaning so'ngi vazifalari uchta asosiy soxalarni istalgan o'zgarishlariga erishishidir:

- kognitiv;
- emostional; (his- tuyg'u).
- o'zini tuta bilish.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksiya ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksiya ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat

xususiyatlari o'z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilarni hisobga olgan xolda tuzish maqsadga muvofiq, o'rta maxsus ta'limi o'quvchilari bilan murabbiylar o'rtasidagi nomutanosiblikni yo'qotish maqsadida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish: ulardagi o'qishdan, ijtimoiy muxitdan, egallagan o'rnidan, mavqeidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, ishchanlik o'yinlari, psixodramadan foydalaniladi, emostional zo'riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus xonalar jixozlash (xona jaxon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, ekran vositalari, audiotrening, sostial trening, texnik vositalariga, ilmiy-amaliy metodikalarga ega bo'lishi lozim).

Korrekstion ishlar ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart. Bunda emostional zo'riqishga uchragan shaxs millati, yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak; to'zatisht ishleri mashg'ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi; unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yuqotish imkonini yaratadi.

Hal qilishning psixologik shartlari, ta'lim –tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olish omillari, yo'llari yuzasidan yordam ko'rsatish zarur. Bolalar, o'quvchilar, talabalarning shaxsiy muammolarini xal qilishda baholi kudrat kumak berishi darkor. Ota-onalarga tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda maslahatlar berish, nizoli vaziyat va psixologik xolatlarni birgalikda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar beriladi. Ota-onalarga farzandlarning tibbiy yordamga muxtojligi yoki boshqa muassasalarga murojaat qilish zaruriyat ekanligini aytsak- pedagogik odob bilan tushuntirish, berilayotgan ko'rsatmalarga ularni ishontirishi shart. Barcha qoidalarga va tasdiklangan hujjatlarga rioya kilingan xolda o'tkaziladigan ishlarni qayd qilish va belgilashi lozim.

O'z faoliyatining (yutuq, nuqson, nizo, hamkorlik) natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o'z muddatida axborot berib borishi, qabul kilingan hisobot shakllariga xech og'ishmasdan rioya qilishi kerak.

Nazorat savollari

1. Psixologiya fani nimani o'rganadi? Korrekstion psixologiyadachi?

2. Korrekstion psixologiyaning maqsad va vazifasi nimalardan iborat?

3. Psixologning korrekstion ishi haqida nimalar bilasiz?

4. Korrekstion psixologiya ta'sirining asosiy quroli nima?

5. Guruhiy psixoterapiyani tavsiflab bering?

6. Psixoanalitik konsultastiya. Klassik psixoanaliz va Psixodinamika.

haqida nimalar bilasiz?

7. Adlerian konsultastiyasi. Konsultastiyada shaxslilik-markazda yondashuvi

8. K.Rodjersning "shaxslilik – markazda" konsultastiyasi haqida fikringiz

9. Ekzistenstial konsultastiya. R.Mea yondashuvi. V.Frankl logoterapiyasi. D.Byudjental yondashuvi.

10. Geshtalt-teoriya va konsultastiya haqida fikrlaringiz?

IX BOB.KORREKSTION ISHLAR KO'RINISHLARI VA TUSHUNCHALARI

9.1Psixologik korrekstiya, psixoterapiya, psixologik trening tushunchalarining nisbati.

Psixokorreksion jarayonining maqsad va vazifalari.

9.2.Psixologik korrekstiyani tashkil etishning metodologik asoslari.

Psixologik korrekstiyani tashkil etish uchun psixologoik ma'lumotlarni olish xususiyatlari.

9.3.Guruhiy psixokorreksiyaning asosiy metodlari. (Guruhiy munozara. Psixogimnastika. Proektiv rasmlar. Musiqiy terapiya.)

Qo'shimcha psixokorreksion metodlar va usullar.

Yoshga oid psixokorreksion ishlarning o'ziga xosligi

9.1. Psixologik korrekstiya, psixoterapiya, psixologik trening tushunchalarining nisbati.

Psixokorreksion jarayonining maqsad va vazifalari
Psixogimnastika – bu guruh a'zolarining o'zini iamoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddir. Bu samarali vosita yordamida shaxsning ijtimoiy hodisalarni idrok qilishi uchun eng qulay sharoit yaratiladi, “tana tili”ga e'tibor beriladi, atrof-hayot munosabatlarini ifodalashga imkoniyat yaratiladi. “Psixogimnastika” termini keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Guruh a'zolarining asosiy kommunikasiya vositasi imo-ishorali harakatlar bilan ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Tor ma'nodagi psixogimnastika o'yinlar, etyudlar ko'rinishida bo'lib, guruh a'zolari aloqa vositasi sifatida nutqsiz harakatni qo'llaydilar. Psixogimnastikaning bu turi guruhiy korrekstiya vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan, ya'ni o'zaro aloqa o'rnatish, tarang vaziyatni ko'tarib tashlash, qarama-qarshi tomon aloqalarini ishlab-chiqish va xk.

Keng ma'nodagi psixogimnastika – bu maxsus mashg'ulotlar kursi bo'lib, uning yo'nalishi bilishga oid va shaxsiy emostional tomondan rivojlantirishga va korrekstiya qilishga qaratilgandir.

Guruh bilan ishlashning nutqsiz usuli sifatida psixogimnastika hissiy kechinmalarning paydo bo'lishi, emostional holatlarning kechishi,

harakatlarni bajarishdagi muammolar, yuz mushaklarining ma'noli harakatlari, imo-ishoralar bilan qilinadigan harakatlarni nazarda tutadi, mijozga o'zini namoyon qilishga va so'z yordamisiz muloqot o'rnatishga imkon yaratadi. Bu kayta tiklovchi psixokorreksiya metodi bo'lib, maqsadi – mijoz shaxsini o'rganish, tushunish va o'zgartirishdir.

Psixogimnastika 3 qismdan iborat bo'lib, xar bir qism o'zining mustaqil vazifalari va shaxsiy metodik vositalari bilan xarakterlanadi.

1. Tayyorgarlik qismi.
2. Pantomimika (imo-ishorali harakatlar) qismi
3. Yakuniy qism.

Psixogimnastika mashg'ulotining tayyorgarlik qismi.

Vazifalari: - guruh a'zolaridagi tarang, hayajonli holatni pasaytirish.

- qo'rquv va «mumkin emas» degan tushunchalarni olib tashlash.
- diqqatni rivojlantirish
- o'zi va boshqa odamlarning harakat faolligini seza olishni shakllantirish.
- guruh a'zolari o'rtasidagi emostional masofani qisqartirish
- o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini, hissiy holatini, muammolarini nutqsiz ifodalash va tushunishni shakllantirish.

Tayyorgarlik qismi qoidaga asosan diqqatni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan boshlanadi. Bu turdagi mashqlarga quyidagilar kiradi: **kechikish (orqada qolish) mashqi.** Guruh a'zolari oddiy gimnastika mashqini boshlovchidan bir harakatga ortda kolib ketma-ket ravishda kaytaradilar. Mashq tezligi sekin-asta ortib boradi.

-ritmni doira buylab uzatish. Guruh a'zolarining hammasi bir-birining ortidan doira buylab berilgan ritmni chapak chalib takrorlaydilar.

- harakatni doira buylab uzatish. Guruh a'zolaridan biri tasavvuridagi predmet bilan shunday harakat bajara boshlaydiki, bu harakatni keyingi ishtirokchi davom ettira olishi kerak. Keyingi ishtirokchi ham tasvirlangan predmet bilan bog'liq boshqa biron harakatni bajarishi va bu predmet doira buylab turli harakatlar bilan aylanib chiqishi lozim.

- oyna. Guruh a'zolari juft-juft bo'lib ajraladilar va navbatma-navbat o'z sheriklarining harakatini takrorlaydilar.

Mashqlarning yana bir turi asosan tarang holatni olib tashlashga muljallangan bo'lib, oddiy harakatlardan tashkil topgan. Masalan; «Men suvda yurib ketayaapman», «Ishdan kaytyapman», «Guruhdagi

mashg'ulotga ketyapman» vxk. Bu turkumga «Uchinchisi ortikcha» tipidagi mashqlar ham taalukli bo'lib, ulardan turli harakatli o'yinlar sifatida foydalanish mumkin.

Keyingi turdagi mashqlar **guruh a'zolari o'rtasidagi** emostional masofani qisqartirishga, **hamkorlikda ishlashga, va o'zaro yordamni rivojlantirishga** yo'naltirilgandir. Bunda bevosita aloqani nazarda tutuvchi fazoviy masofani kamaytiruvchi mashqlardan foydalaniladi; juft-juft bo'lib tor ko'prikda ajralish, stulga utirish, boshqa odam bilan mashg'ul bo'lish, xafa bo'lgan odamni tinchlantirish, davrv buylab sezgilari, his-tuyg'ularini uzatish. Oxirgi mashqda guruhning barcha a'zolari ko'zlarini yumib, doira bo'lib utiradilar. A'zoldan biri kulini sal teqizish orqali qandaydir sezgini yonidagi sherigiga o'tkazadi. Sherigi esa o'z navbatida yonidagi sherigiga xuddi shu hisni mazmunini o'zgartirmay faqat o'z usuli yordamida o'tkazishi lozim. Bir his (sezgi) turli harakatlar, kulning sal tegishi yordamida ifodalanadi, davrv buylab aylanadi, Bu turdagi mashqlar mijozdagi xavfsirash hissini yo'qotishga, o'zaro ishonchb bir-birini hissiy tushunish, kabul qilishga yordam beradi.

Yana qator mashqlardan ham foydalaniladiki, ular orqali kishi boshqalarning nutqsiz ifodalagan holatini, fe'l-atvorini tushunishi, o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini ham nutqsiz ifodalash malakasini shakllantirishga qaratiladi. Ya'ni kul harakatlari yordamida sherigi bilan biror narsaga kelishib olish (kalin oyna orqali so'zlashuv); qandaydir holat yoki his-tuyg'ularni tasvirlash Xursandchilik, xafachilik, achchiklanish, gijinish, achinish, hamdardlik bildirish va boshqalar. O'zi yoki boshqa birovning psixologik sifatlarini tasvirlash (men xozir qandayman, men qanday bo'lishni istardim, atrofimdagilarga qanday ko'rinaman); boshqa odamning nutqsiz muomalasi, fikrlari, his-tuyg'ularini tushunish, guruh e'tiborini o'ziga tortish va boshqalar.

Yuqorida sanab utilgan hamma mashqlar tayyorgarlik qismida o'tkaziladi, vaxolanki bu mashqlar korrekstiyalashning oxirgi bosqichlarida o'tkazish muhim sermazmun vazifani bajarishi mumkin. Ishning dastlabki tayyorgarlik davrida tayyorgarlik qismiga mashg'ulotning yarmidan ko'p vaqtini, ba'zan esa hamma vaqtni ajratish mumkin. Chunki bu qismda xavotirlanish, zo'riqish, mijozning o'zini erkin tutolmasligi, aloqa o'rnatishdagi qo'rquv kabilar o'rganilmagan sharoitda kuchayadi, va aynan shuning uchun bunday

ko'rinishlarni bartaraf etishga yordam beruvchi mashqlar o'tkazish zarur bo'ladi. Bunday xollarda guruh a'zolarida qanday kechinmalar bo'lganini muxokama qilishga kam vaqt ajratilib, eng umumiy kechinmalar bilangina cheklanib kolinadi. Mashqlarni tanlash va davomiyligi guruhning umumiy holatiga, rivojlanishiga, maqsad va vazifalariga kura aniqlanadi.

Ba'zi xollarda psixogimnastikaning birinchi mashg'ulotlari boshlang'ich qism mashqlaridan iborat bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu bosqichda xaddan ziyod murakkab pantomimik vazifalar bermaslik va mashqlarni izoxlashga berilib ketmaslik kerak. Bunday sharoitda guruhga diqqatni mashq kiluvchi, nutqsiz ta'sirotlarni tushunish kunikmasini rivojlantiruvchi, o'zaro emostional masofani kichraytiruvchi umumiy mashqlar tavsiya qilish samarali natija beradi. Keyingi bosqichlarda pantomimik vazifalarning salmogi ortadi.

Psixogimnastik mashg'ulotning pantomimik qismi.

Psixogimnastikada pantomimika qismiga korrekstiyalash guruhida asosiy vaqt ajratiladi. Mijoz taklif qilgan mavzular so'zsiz tanlanadi. Mavzular psixolog tomonidan ham tavsiya qilinishi mumkin. Pantomimika uchun mavzular mazmuni chegaralanmagan va aloxida bir mijozning muammolariga, butun guruh a'zolarining muammolariga, shaxslararo harakatlarga muljallangan bo'lishi mumkin. Pantomimika qismida quyidagi mavzular tez-tez qo'llaniladi:

1. Qiyinchiliklarni engib o'tish. Bu mavzu umuminsoniy muammolar va munozaralarni aks ettirib, timsol ko'rinishida tasavvur qilinishi mumkin. («Qiyinchiliklarni engib o'tish», «Ta'qiqlangan meva», «Chorraxa», «Kasallik», «Sog'lik», «Baxt», «Xavf» va boshqalar. Barcha mijozlar navbatma-navbat hayotiy qiyinchiliklarni qanday bartaraf etishni tasvirlvydilar, Qiyinchilik timsoli sifatida qandaydir predmetdan foydalanish, masalan. stul yoli skameyka to'siq bo'lib uni engib o'tish kerak

2. Ta'qiqlangan meva. Hamma mijozlar navbatma-navbat o'z xohish istaqlari tashqi va ichki me'yorlar bilan mos tushgan holatlarda o'zlarini qanday tutishlari haqida gapirib beradilar. Ta'qiqlangan meva sifatida qandaydir predmetdan foydalanish mumkin.

3. Mening oilam. Mijoz guruh a'zolaridan bir nechtasini tanlab oladi. Ularni davrvda shunday joylashtiradiki, ular o'rtasidagi masofa oila a'zolari o'rtasidagi emostional yaqinlik bilan mos kelsin.

4. Haykaltarosh. Guruh a'zolaridan biri xaykaltarosh rolini ijro etadi. Guruh a'zolarining o'ziga xos xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi holatlarni; ularning gavda to'zilishi, tashqi qiyofasini shunday holatga keltiradiki, uning fikricha bu ko'rinish shu odam shaxsiga xos xususiyatlari va nizolarini (janjalkashliklari) aks ettirsin.

5. Mening guruhim. Mavzu guruh a'zolariga o'z his-tuyg'ularini izhor qilish bilan bog'liq. Guruh a'zolari xonaning turli joylariga shunday joylashtiriladiki, ular o'rtasidagi masofa emostional yaqinlikni aks ettirsin.

6. Odatiy hayotiy holatlar. (iltimos, talab, ayblash, janjallashish, kechikish va xk.)

7. «Men» mavzusi. Aniq bir mijozning muammolariga taaluqli bo'lgan mavzular. «Men qandayman», «Men qanday bo'lishni istayman», «Atrofdagilarga qanday ko'rinaman», «Men odamlar orasidaman», «Mening oilam», «Mening hayotim», «Mening jarohatim».

8. Ertak. Ertak mavzusi va fantaziyalaridan foydalanib mavzuga bog'lanadi. Mijozlar sehrugarlar, sexrlangan qaxramonlar rolini tasvirleydilar.

Pantomima jarayonida «Egizaklar» va «Oyna» tipidagi yordamchi usullardan ham foydalaniladi. Ularning moxiyati shundaki mijozlarga nutqsiz o'zaro bog'lanish uchun sharoit yaratish, o'zini o'zgalar ko'zi bilan kurish (agar guruh a'zolari rol o'ynayotgan mijozning nutqsiz harakatlarini takrorlashsa) va joiz bo'lgan variantlar haqida ma'lumotga ega bo'lishdir (kachonki boshqa mijozlar xozirgina tasavvur qilingan holat bo'yicha o'zining nutqsiz muomala vositalarini taklif qilishsa). Xar bir bajarilgan pantomimik vazifadan so'ng guruh a'zolari kurgan narsalarini muxokama qiladilar. Ya'ni, vazifalarni bajarish vaqtida yoki boshqalarning nutqsiz muloqoti vaqtida, o'z tasavvurlari, his-tuyg'ulari, fikrlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar, xotiralar, tajriba almashishlar vaqtida paydo bo'lgan hissiy kechinmalar bilan urtoklashadilar. Holatni o'zi istagancha tushunish, guruh a'zolarining o'zaro muloqoti va o'zaro harakatlarini tahlil qilish taklif qilinadi. Pantomima vazifalarini bajarish vaqtida olingan ma'lumotlar keyingi guruhiy munozralarda qo'llanilishi mumkin.

Psixogimnastika mashg'ulotining yakuniy qismi.

Psixogimnastikaning yakuniy qismi guruh a'zolarida pantomima qismi davomida paydo bo'lgan, muhim ahamiyatga ega bo'lgan, kuchli

emostiyalar, guruh jipslashuvining ortishi, ishonch va katiylikning ortishi natijasida hosil bo'lgan tarang holatni kutarib tashlashni nazarda tutadi.

Bu erda mijozlarga boshlang'ich qismdagi jipslashish hissini boshdan o'tkazishga yordam bergan mashqlardan foydalaniladi.

Psixologik trening haqida tushuncha. Trening mashg'ulotining maqsad va vazifalari

Hozirgi kunda kelib insoniyat tarixida psixologik bilimlarning rivojlanishi fanning yangi sohalarini ochib berishga zamin yaratadi. Psixologiya fani sohalarida psixologik trening asoslari fani shaxsga har tomonlama xizmat ko'rsatish usullari va o'quvchi yoshlarga psixologik yordam berish kabi keng ma'noli tushunchalarni targ'ib etishda mo'ljallangan.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagog va psixologlarning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni psixologik treningning shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish hamda ularda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalar psixologik trening asoslari fanining kerakligini biladi va amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llaridan xabaror bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'qitish jarayonida talabalarlar faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. XXI asrda psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar. Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo, har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning nechog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z

fuqarolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tabiiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. Ushbu soha alohida yo'nalish sifatida vujudga kelsa-da, lekin aslida u amaliy psixologiyaning ko'lami kengaytirilgan bir ko'rinishini aks ettirish xususiyati bilan boshqalardan muayyan tarzda tafovvutlanib turadi, xolos.

Bugungi kundagi Oliy o'quv yurtining talabalari ertangi kunning yetuk mutaxassisleri va ziyolilari sifatida o'sib kelayotgan avlod ongi va ruhiyatiga adolatli Vatan bilan faxrlanish, ertangi kunning yetuk insonlari, ertangi kunga ishonch, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini singdirishda shaxsiy o'rnak namunasi bilan o'z hissalarini qo'shmoqlari shart. Chunki ziyolilikning muhim belgisi umuminsoniy qadriyatlarni bilish, ularni qadrlash, o'z kasbi sir-asrorlarining chuqur bilimdoni va mohir ustasi bo'lish kasb etikasi va psixologiyasi asoslarini to'liq anglash va ularni o'z faoliyatida qo'llashdir. Demak, yangi zamon kishisi o'z-o'zini va o'zgarar psixologiyasini mohir bilag'oni, kerak bo'lsa, psixologidir.

Odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xil xulq-atvor shakllarini psixologiyaning asosiy sohasi bo'lgan sotsial psixologiya o'rganadi va tushuntirib beradi. Har bir shaxsning jamiyatda yashashi uning sotsial normalarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash odamlar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish – sotsial psixologiyaning asosiy vazifasidir. **Psixologik trening** ana shunday murakkab psixik voqealarni o'rganuvchi sotsial psixologiyaning amaliy tatbiqiy sohasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda sotsial psixologiyaning dolzarbligi va uning jamiyatdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga aloqadorligi uning tatbiqiy sohalari doirasini ham kengaytirdi. Psixologik trening avvalo

shaxs yoki guruhni samarali muloqot malakalariga o'rgatish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullarini va ularni amaliyotga tadbiq etish chora tadbirlarini ishlab chiqadi.

Inson o'z hayotida shaxsiy tajriba, sotsial malaka va ko'nikmalarni orttirib borishi jarayonida hosil bo'ladigan, bevosita shakllanadigan sotsial bilimdonlik yoki kommunikativ savodxonlikdan farqli psixologiya fanida ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish, shaxs va yaxlit guruh faoliyatiga taalluqli sotsial fazilatlarini zudlik bilan shakllantirish uchun qo'llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ularni qisqacha qilib, sotsial psixologik trening (IPT) yoki sotsial trening deb ataladi.

«**Trening**» inglizcha «**o'rgatish**» «**mashq**» degan ma'noni anglatib – bu turli sotsial faoliyat sohaslariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lib, bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonlik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi. Ya'ni u shaxsni sotsial muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlaydi. Masalan: bo'lajak mutaxassislarini kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usullariga o'rgatish va hokazolar.

1. Trening termini (ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, train, training) ko'plab ma'nolarga ya'ni: o'qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma'nolarga ega. Xuddi shunday ko'p ma'nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi.

2. Trening insonlarda mavjud bo'lgan shaxs xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir.

3. Trening shuningdek tashkilotni rejalashtirilgan faolligini oshirish uchun, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko'nikmalarini yaxshilashga yo'naltirilgan, yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi attityudlar modifikatsiyasi va jamoatning sotsial xulq-atvorini tuzatish uchun zarurdir.

Psixologiya tarixida trening o'qitishning eng keng tarqalgan shakli faol sotsial-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya sotsial psixologik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, sotsial ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir».

Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi.

1. Guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi.
2. Boshlang'ich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.
4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil qilish bosqichi bo'lib, bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- Har qanday treningda (faqat nogironlar bilan o'tkaziladigan maxsus treninglarni hisobga olmaganda) tashqi jismoniy defektga ega bo'lgan va psixik holatida buzilishlar bo'lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan ana shunday kamchilikka ega bo'lganlarda aks ta'sir bo'lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo'lsa kerak.

- guruh a'zolarining soni **8 tadan 12 tagacha** (*ba'zi hollardagina 20 tagacha bo'lishi mumkin*) bo'lgani ma'qul.

- ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo'lishi, ya'ni ular orasidagi farq 2-3 yoshni tashkil etishi mumkin (Alohida qayd etish lozim, **45-50 yoshdan** kattalar uchun trening juda katta va ahamiyatli ta'sirga ega bo'lmasligi va ular kutganchalik natija bermasligi ham mumkin).

- ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo'lishi kerak.

Bundan tashqari yana quyidagilarga ham e'tibor berish lozim bo'ladi: Treningda muammosi bir xil bo'lgan odamlarni to'plash kerak.

➤ Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish bo'lishlari lozim.

➤ Trening o'tkaziladigan xona albatta izolyatsiyalangan bo'lishi shart, ya'ni hech kim ularni bezovta qilishi mumkin emas va ular ham boshqalarga xalaqit bermasligi kerak.

➤ Rasmiylashgan guruh bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

➤ Trenerdan auditoriya erkin bo'lishini ta'minlash va auditoriyani yaxshi bilish talab etiladi.

Treningning asosiy maqsadi: shaxsni psixologik (ruhiy) ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'rnatishdan iborat.

Demak-ki, **trening** — shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisidir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi.

Psixologik treningga murojaat etuvchilar guruhi: bolalar va kattalar guruhi haqida

Inson va uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovon shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, Respublikada amalga oshiralayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy, madaniy, iqtisodiy, Fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribalarning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Hozirgi davrda odamlar orasida ruhiy zo'riqish hollari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko'p uchrayotganligi va buning natijasida ko'pgina hayotiy muammolar vujudga kelayotganligi ko'pchilikni, ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassislarni ham tashvishga solayotganligi bejiz emas. Aytish mumkinki, bunday holatlar turli darajadagi zo'riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

Ayni kunlarda asabiylashish holatlari kuzatilayotgan quyidagi kishilar guruhini alohida ta'kidlab o'tish joiz:

I. Bolalar orasida:

1. Bog'cha bolalari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;
2. Maktab o'quvchilari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;
3. O'smirlar orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

II. Kattalar orasida:

1. Ish joylarida (rahbar yoki xodimlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;

2. Oilada (er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzandlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;

3. Keksalar orasida (psixologik o'zgarishlar natijasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari.

Yo'qorida sanab o'tilgan asabiylashishlardan kelib chiqadigan muammolar mavjud bo'lib, bu muammolarni yechish imkonini topa olmaslik natijasida psixologik maslahat va psixologik korreksiyaga muhtoj bo'lib qoladigan bir necha xil guruhlar vujudga keladiki, bular:

1. Muloqotchanlikning yetishmasligi muammosidan siqilgan kishilar guruhi.

2. Iqtisodiy yetishmovchilikdan siqilgan kishilar guruhi.

3. O'z yaqinlarini yo'qotib siqilgan kishilar guruhi.

4. Turli baxtsiz hodisalardan keyin qandaydir kasallik orttirib olgan kishilar guruhi.

5. Begona joyga ko'chib kelib, tub aholining bosimidan siqilgan kishilar guruhi.

6. Rahbarlar tomonidan yoki o'zidan kattalar tomonidan shaxsiyatiga tegilgan hollarda siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

7. Yangi o'qish yoki ish joyiga moslasha olmasdan siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

8. Chekish, ichish, narkotik moddalar iste'mol qilishdan qutula olmasdan siqilayotgan kishilar guruhi.

Yo'qorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilishda psixologik trening deb ataluvchi o'yin va mashqlar seriyasidan iborat mashg'ulotlar yordam beradi. Yo'qoridagi guruhlar o'zi istab, o'z xohishi bilan treningga keladi va trenerning ko'rsatmalariga amal qiladi. Lekin ba'zi guruhlar bo'ladiki, bu guruh a'zolari treningga istamasdan, xohlamasdan keladi: masalan, jinoyatchilar, bezorilar, o'g'rilar, narkotik bilan shug'ullanuvchilar. Lekin guruh a'zolarining istagidan qat'iy nazar treningning vazifasi ularning muammolarini hal etishga qaratilgan bo'ladi.

Psixologik trening tamoyillari

Psixologik treninglar quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Faollik tamoyili.

Bu tamoyil ko'proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g'oyaga bo'ysunadi: Inson eshitganlarining 10% ni, ko'rganlarining

50% ni, aytib berganlarining 70% ni va nihoyat o'zi qilganlarining 90% ni o'zlashtiradi.

Ijodiylik tamoyili.

Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo'lgan, kashf etib ulgurilgan g'oyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o'zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar.

Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.

Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan ob'ektivlik darajasiga o'tadi va trening davomida o'zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor ob'ektivligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta'minlash trenerning mas'uliyatidir.

Sheriklik (Sub'ekt-sub'ekt) muloqoti tamoyili.

Sheriklik, yoki sub'ekt-sub'ekt muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg'ulari, qayg'ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr-qimmatini deb tan olinadi. Ushbuning qo'llanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Yo'qoridagi tamoyillardan tashqari, **treningning samarali bo'lishi ma'lum bir jihatdan trenerning spetsifik prinsiplariga ham bog'liqdir.**

Trener har doim trening o'tkazishga kirishishdan avval o'ziga:

Men qanday maqsadga erishmoqchiman?

Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?

Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman? kabi savollarini berishi lozim.

Bu savollarga javobni trenerga guruh bilan ishlash davomida diagnostik tadqiqotlar ochib beradi.

Trener ish rejasining mundarijasi, guruhning rivojlanish va inoqlik darajasi, munosabatlar xarakteri, guruhdagi har bir ishtirokchining holati, uning o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabati, treningga nisbatan munosabati, trenerning o'zining munosabati kabilar diagnostika ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Topshiriqning amalga oshirilishida birinchi qadam metodik (qadam) qo'llanmaning to'g'ri tanlanishidir. Eng ko'p qo'llaniladigani, guruhiy diskussiyalar, rolli o'yinlar, psixodramma va uning modifikatsiyasi hisoblanadi.

Shunday qilib, psixologik trening uslublarining paydo bo'lishi va amalda qo'llanilishi o'ziga xos an'anaga ega bo'lib, ular ayniqsa, bizning asrimizda, sanoat rivojlangan, migratsiya jarayonlari tezlashgan va inson omili rolining naqadar ahamiyatliligiga e'tibor qaratilgan bir paytda yana ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Xullas, psixologiya tarixida trening o'qitishning eng keng tarqalgan shakli faol sotsial-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya sotsial psixologik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, sotsial ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir».

9.2. Psixologik korrekstiyani tashkil etishning metodologik asoslari. Psixologik korrekstiyani tashkil etish uchun psixologik ma'lumotlarni olish xususiyatlari.

Korrekstiya ishining mustaqil metodi sifatida psixogimnastikani qo'llash 1979 yili G. Yunova tomonidan taklif qilindi. G.Yunovanning psixogimnastikasi D.Morening o'smirlar uchun psixodramasining o'zgargan shaklidir. G.Yunova metodikasidagi xar bir mashg'ulot, ritmika, pantomima, guruhiy o'yin va raqslarni o'z ichiga olib 3 davrdan iborat;

1. Tarang holatni chiqarib tashlash, Sostiometriya ahamiyatiga ega bo'lgan yugurish va yurishning turli variantlari orqali erishiladi; kimni sheriklikka tanlash, kim bilan bir komandada birga bo'lish vxk.

2. Pantomimika davri. Bu davrda guruh a'zolari turli holatlarda, masalan, derazadan ugri tushgandagi, kulmakka (botkokka) kadam quyishga kurkkandagi holatni nutqsiz tasvirlab berishlari lozim.

3. Yakuniy davr. Guruh a'zolari bilan bir tan bir jon ekanlik hissini mustaxkamlash. Unda turli ko'rinishdagi jamoaviy o'yin va raqslardan foydalaniladi.

M.I.Chistyakova kichik yoshdagi bolalarga muljallangan psixogimnastika metodini taklif kildi. Shu nomli kitobida bolalarda turli psixik funkstiyalarni rivojlantiruvchi, o'zini-o'zi tinchlantirishga va turli hissiy holatlarini aytib bera olishga o'rgatuvchi, sistemaga solingan etyud va o'yinlar tuplamini taklif qiladi. Masalan, bir xaftada ikkita mashg'ulot o'tkaziladigan, 3 oy davom etadigan, jami 20 ta mashg'ulotdan iborat. Mashg'ulotlar 25 minutdan 1 soat 30 minutgacha

davom etadi. Mashg'ulotning davomiyligi bolalarning yoshi va xulq atvori bilan bog'liqdir. Mashg'ulotlar aniq sxema asosida 4ta bo'g'in yoki davrdan iborat.

1. **Mimikali va pantomimikali etyudlar.** Maqsad – jismoniy va psixik mamnunlik va norozilik hissi bilan bog'liq aloxida emostional holatlarni ifodali tasvirlash. Asosiy emostiyalar va ba'zi ijtimoiy buyokdor hislarni ifodalash modeli. Bolalar ifodali harakat elementlari bilan tanishadilar; mimika, ma'noli harakatlar, yurish, gavdani tutish holati vxk.

2. **Shaxsning aloxida xususiyatlari va emostiyalarini ifodalashga yo'naltirilgan etyud va o'yinlar.** Maqsad – badiiy kaxramonlar xulqi u yoki bu xarakter xislatlari modelini tayyorlash, o'zlashtirilgan ijtimoiy bilimdonlikni o'zlashtirish, mustaxkamlash va kengaytirish, bir vaqtning o'zida barcha ifodali harakatlarning tarkibiy qismlariga bolalar diqqatini jalb qilish.

3. **Guruh a'zolari yoki aynan bir bolaga qaratilgan aniq bir yo'nalishdagi etyud va o'yinlar.** Maqsad – bolaning aloxida xarakter xislatlari, kayfiyatini korrekstiyalash, modellashtirishga qaratilgan (ishlab chiqilgan) standart holatlar treningi.

4. **Mushaklarni psixologik mashq qildirish davri.** Maqsad – emostional tanglikni olib tashlash, istalغان kayfiyat va fe'l-atvorga erishish.

9.3.Guruhiy psixokorreksiyaning asosiy metodlari. (Guruhiy munozara. Psixogimnastika. Proektiv rasmlar. Musiqiy terapiya.)
Qo'shimcha psixokorreksion metodlar va usullar. Yoshga oid psixokorreksion ishlarning o'ziga xosligi .

RAQS TERAPIYASI

Raqs terapiyasi, emostional nomutanosibliги mavjud bo'lgan, muomala qilmaslik, o'zaro muomala muammosi bo'lgan odamlar uchun qo'llaniladi. Bu uslubni qo'llash psixologdan chuqur tayyorgarlikni talab qiladi, chunki bunday ta'sirda kuchli emostiyalar uyg'onishi mumkin, bu esa hal eti-lishni talab etadi. Raqs harakatlari jismoniy kontakt va shiddatli o'zaro muomala bilan kuchli hissiyot uyg'onishi mumkin.

Raqs terapiyasining maqsadi o'z tanasini sezishni rivojlantirish, tana pozitiv obrazini yaratish, muomala odatlarini rivojlantirish,

sezgilarni tadqiq etish va guruh tajribasini ortirish. Raqs terapiyasi rivojlanishi tarixida **K.Rudestam** qator hal qiluvchi faktlarni alohida ko'rsatib o'tadi. Birinchisi ikkinchi jahon urushi maydonlaridan qaytgan veteranlarning jismoniy va ruhiy reabilitastiyasi bilan bog'liq. Raqs terapiyasi nog'ironlarni hayotga qaytarishning yordamchi uslubi bo'lib qoldi. Ularning ko'pchiligi gapira olmas edi, yoki ularga qattiq ta'sir etishga istaqlari yo'q edi. Raqs xonalaridagi mashg'ulotlardan so'ng, ular engillik va ruhiy garmoniya his qilganini aytishgan.

Raqs terapiyasining ommaviylashuvi kuchayishinig yana bir sababi 60- yillarda paydo bo'lgan odamlar munosabati trening harakati bo'lib, u yangi ekperimental tadqiqotlarni amalga oshirishga zamin bo'ldi. Bunda guruh-lar bilan ishlash, shaxsni rivojlanirish, qatnovchilarga ijobiy samarasini berdi. Nihoyat yangi raqs terapiyasi dasturlariga qiziqish noverbal kommunikastiyalar tadqiqotlari tomonidan kuchaytirildi, ayniqsa inson tana-sining kommunikativ funkstiyalari tahlili katta hissa qo'shdi. Raqs terapiyasi asosan guruh bilan ishlanganda qo'llaniladi. Raqs terapiyasining asosiy vazifasi tartibsiz harakatlarni amalga oshirishdir. Raqs terapiyasi harakatning ma'no aks ettirishi, erkinlikka chorlaydi, Harakatchanlikni rivojlantiradi, jismoniy va ruhiy darajada kuchni mustahkamlaydi. Tana va ong yagona butunlikni tashkil etadi. Asosiy yo'nalish quyidagicha talqin etiladi: harakat shaxs hususiyatini aks ettiradi. Har qanday emostional siljishda odam o'zini his etishi o'zgaradi, xoh u ruhiy, xoh u jismoniy bulsin, shunga binoan bizning harakatlarimiz ziynati (xarakteri) o'zgaradi.

Raqs terapiyasi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

1. Guruh a'zolarining o'z tanalarini sezish va uni ishlatish imkoniyatini chuqurlashtirish. Bu qatnashchilarning jismoniy va emostional ahvolini faqat yaxshilamasdan ko'pchilik uchun yaxshigina ko'ngil ochish ham.

Birinchi mashg'ulot boshidan psixolog qatnashchilarni nazorat qilib, har birining harakat repertuarini kuchli va sayoz tomonlarini o'rganadi, so'ng qanday harakat qaysi mijozga to'g'ri kelishini aniqlaydi.

2. O'z qadrini kuchaytirish hissiyotiguruh a'zolarida o'z tanasining pozitiv obrazini yaratish bilan hosil qilinadi. Jiddiy o'zgarishlari mavjud bo'lgan mijozlar o'z tanasi bilan atrof muhit orasida chegara tortilganda, qiyinchilik, noqulaylik sezishlari mumkin. Bunday guruhlarda raqs terapiyasiining maqsadi qatnashchilarning mutanosib

tana obrazini yaratishdir. Raqs o'z tanasini ko'rkam, yoqimli qilish imkonini beradi, bu esa "MEN" obrazini yanada pozitivlashtiradi.

1. Sosial ko'nikmalarni rivojlantirish- bu qatnashchilarning tegishli yoqimli tajribalarini hosil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Raqs harakatlari atrofdagilar bilan sosial normal axloq munosabatlarini o'rnatishda nisbatan havfsiz vosita hisoblanadi. Raqs terapiyasi ijodiy hamkorlik uchun sharoit yaratib beradi, so'zlashuvda hosil bo'ladigan to'siqlarni engishga sharoit yaratadi.

2. O'z hissiyotlari bilan muloqot qilish uchun guruh a'zolariga yordam. Bu his bilan harakat o'rtasida bog'lanish hosil qilish bilan amalga oshiriladi. Mijoz sadolar ostidagi raqs harakatlariga ijodiy yondoshsa, raqs ekspressivlik hosil qilib, yashiringan hissiyotni yuzaga chiqaradi va ruhiy siqilish manbai bo'lgan yashirin konfliktlarni tatqiq etish imkonini beradi. Bunda "katarsis" psixodinamik tushunchasi raqsqa taalluqli bo'ladi, chunki uning harakatlari yashirin hislarni ozodlikka chiqaradi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri korreksion ma'noga ega. Raqs harakatlari tebranish va cho'zilishni o'z ichiga olsa, faqat ekspressiv bulmay, jismoniy siqilishning oldini oladi.

3. "Sehrli halqa" yaratish. Guruhlarda shug'ullanish qatnashchilarning hamkorlikda ishlashi nazarda tutiladi. Bu o'yinlar, imo-ishoralar bilan eksperiment, hatti- harakat va boshqa noverbal muloqat shakllaridir. Bu-ning barchasi butunligicha qatnashchilarning guruh tajribasini orttirish imkonini beradi, barcha komplekslar ongsiz ravishda berk, barqaror majmua-"sehrli halqa" paydo qiladi. Yuqorida aytilganlardan tashqari quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

- harakat faolligini oshirish; kommunikativ trenning va sosial terapevtik muomalani oshirish;
- mijoz ahloqiy stereotipini tahlil qilish, uni o'z-o'zini tushunish diagnostik materialini olish;
- mijozning erkinlik hissini oshirish, rivojning autengik yo'llarini qidirish.

Raqs terapiyasining maxsus mashqlari o'z ichida erkin tebranish, doimiy tetiklik va tanani nazorat qiluvchi harakatlar, erkin va nazoratli nafas olish olish davri bilan bog'liq almashuvchi harakatlar, xona ichida aniq belgilangan yo'nalishda harakatni nazarda tutadi.

Birinchi bosqichda, bir necha daqiqani band qiladi, raqs terapiyasi mashg'ulotlari dastavval badanni qizdirib, barcha qatnashchi o'z tanasini, musiqachi sozini sozlagani kabi ishlashiga hozirlaydi.

Boshlang'ich mashqlar jismoniy(qizib olish), ruhiy (hissiyotlarni solishtirish) va sostiial tasnifga ega. Ulardan bir turi turli kuylar (purpuri) aralashmasi ostida betartib erkin holdagi harakatlar. Bunday mashqlar silkinish, tortishish, tebranish, chapak chalish, mayda to'liqlik tebranishlar bo'lib, kaft va bilaqlar-dan boshlanib, tirsak, elka, ko'krak qafasiga qadar boradi. Mashqlar butun guruh yaxshigina qizib olguniga qadar davom etadi.

Ikkinchi bosqichda umum guruh mavzui ishlab chiqiladi. Masalan, uchra-shuv va hayrlashuv mavzusi ishlab chiqiladi. Harakat darajasida alohida tana a'zolari "uchrshuvi" va hayrlashishi mumkin. Qo'l kafti va tirsaklar "uchrashishi va shu on "Hayrlashishi" yoki, "uchrashishi" va "urishishga kiri-shishi" yoki "quchoqlashishi" mumkin. Guruhning a'zolari orasi-dagi o'zaro harakatlarida kift yoki tirsak bilan uchrashishi va x.k. bo'lishi mumkin.

So'nggi bosqichda butun guruhga ajratilgan maydondan foydalanib ishlab chiqiladi, bunda harakat tezligi va ketma-ketligi o'zgartirib turilishi mumkin. Rahbar qatnashchilar harakati xarakterini tushuntirib beradi yoki ko'rsatib beradi. Harakat ro'yxatini kengaytirishda guruh a'zolariga yordam va harakat tahlilini tashhislash uchun R.Lobanov tomonidan ishlab chiqilgan "Harakat shakli tahlili tizimi"dan foydalaniladi. R.Loban(1960) harakat tashhisi va tahlili ta'rif tizimini ishlab chiqdi, u "harakat tizimi " yoki "harakat shakli" nomi bilan taniqli bo'lib, dinamik va fazoviy harakatlar yo'nalishini maxsus belgilariga asoslangan. Lobanov bo'yicha harakat dinamikasi to'rt o'lcham bilan belgilanadi:

1. fazo.
2. kuch.
3. vaqt.
4. oqim.

Har bir o'lcham ikki qutbga ega: fazo, u to'g'ri yoki ko'p nuqtal kuch-bo'quvvat va engil, vaqt- tez va sokin; oqim- erkin yoki cheklangan.

ARTTERAPIYA

Artterapiya asrimizning 30-yillariga kelib chiqqan. Artterapiyaning 1-darslari 2-jaxon urushi davrida Germaniyadan AQSh ga emigrastiya qilingan bolalarning shaxsiy emostional muomolarini hal qilishdek urunishlarga bag'ishlangan.

Artterapiyaning qo'llanishidagi 1-urinishlar asrimizning 30-yillardagi shaxsning shakillanishidagi qiyinchiliklarga tug'ri kelgan. Artterapiya uslublari fashist lagerlardagi bolalarning ruhiy siqilishdan kelib chiqqan muommalarni hal qilishdek ishlarda foyda bergan. Shundan buyon Artterapiya mustaqil, boshqa uslublarni to'ldiruvchi uslub sifatida keng quloqch yoydi, **Artterapiya (san'at bilan davolash) atamasi (1938) Adrian Xill tamonidan** davolash maskanlarida sil kassallarini davolash deb nomlangan ishlarida yoritilgan va muomalaga kiritilgan. Bu So'z birikmasidan ruhiy sog'lomlashtirish markazlarida o'tkazilgan barcha san'at mashg'ulotlarida foydalanilgan.

Bu psixoterapiyaning ixtisoslashtirilgan ko'rinishi bo'lib, san'atning tasviriy va ijodiy faoliyatiga asoslangan

Artterapiyaning birlamchi ko'rinishi Z.Freyd va K.G.Yungning nazariy qarashlarida, keyinchalik esa K.Rodjers(1951) va A Maslou (1956) larning gumanitar qarashlarida namoyon bo'lgan.

Artterapiyaning asosiy maqsadi ongli va ongsiz "men"ning orasida tenglikni keltirib chiqarishidir. Artterapiyaning ta'sir texnikasi bu xayolat faolligi, onglilik va ongsizlikning yuzma-yuz kelishi demakdir. Artterapiyada shaxs o'zining rivojlangan, boshida psixoanalitik qarashlarni aks ettiradi, bular mijoz ijodiy faoliyatining maxsulidir, (bu rasm, surat va xaykal bo'lishi mumkin).

Artterapiya etarlicha keng tarqalgan. 1960 yilda Amerikada- Amerika Artterapiya assostiasiyasi, so'ngra Angliya, Yaponiya, Gollandiyada ham tashkil etilgan. Necha-necha yuzlab professional Artterapeftlar ruhiy va oddiy kasalxonalar, Klinikalar, maktab, turma, universitetlarda ishlashadi. Artterapiyadan asosiy va yordamchi uslublari sirasida ham foydalanish mumkin. Psixologik-karektsion ta'sirchanlikning 2ta asosiy mexanizmi bor, bu Artterapiyaning bo'limlaridir. **1-mexanizm.** San'at-ramziy manoda muommali, shikastlantiruvchi holatni qayta tiklay oladigan soxadir. Bunda sub'ektning qobiliyati etakchi o'rin tutadi. **2-mexanizm,** esa estetik reaktsiyaning tabiatiga bog'liq, bu harakat va jarayonlarni qiynoqqa soluvchi holatidan baxra olishdek holatga o'zgartiradi. (L.S. Vygotskiy 1987).

Artterapiyaning maqsadi.

1. Jahl va yoqimsiz hislarni chiqarib yuborish (rasm chizish, xaykal yasash, surat ishlashdek xavfsiz usullar bilan).

2. Davolanish jarayonini engillashtirish. Tushunib bo'lmas, ichki to'qnashuvlar va toqatsizlanishlarni tasviriy ishlar yordamida etkazib berish, ularni so'zlab berishdan ko'ra osonroq va foydaliroqdir.

3. Tashhisni, xulosani tug'ri qo'yish uchun etarli ma'lumotlar to'plash. Ijodiy faoliyat maxsuli abadiydir va mijoz buni inkor eta olmaydi. Ijodiy ishlarning mazmuni va uslubi mijoz haqida malumot to'plashga yordam beradi.

4. Mijoz doim ichida saqlab kelgan tuyg'ular va fikrlarni ishlab chiqishi lozim.

5. Mijoz va ruhshunos orasidagi munosabatni silliqlash. Ijodiy ish bilan ularning orasini yaqinlashtirish.

6. Ichki boshqaruv tuyg'ularini nazorat qilish. Rasm va suratlarni tartibga solish yoki ganj bilan ishlash hamda rang va shakllarni tartibga soladi.

7. Sezgi va tuyg'ularda diqqatni jamlash: Ta'sviriy sa'nat mashg'ulotlarida ko'rish hislarini anglash va idrok etish hislari bilan uygunlashtirishga yordam beradi.

8. Ijodiy qobilyatlarni shakllantirish va o'z-o'zini baholashni kuchaytirish.

Artterapiyaning maxsuli bu yashirin talantlarini yuzaga chiqarish va shakllantirish natijasidagi lazzatlanish hislaridir.

Ilgari Artterapiya kasalxona va ruhiy shifoxonalarda jiddiy ruhiy nomutonositlik mavjud kasallar bilangina olib borilgan. Xozir esa Artterapiyadan foydalanish etarlicha kengaygan. Artterapiya usullari ichki oilaviy muommalardagi echishda ham qo'llaniladi. Qarindoshlarga oilaviy loyixa va qarashlarga birgalikda ijodiy yondoshishlarni maslahat beriladi.

Artterapiya mashg'ulotlarida asosiy maxsulotlar bu: buyoq, loy, elim va bo'rdir. Artterapiyani ham yakka, ham guruhda qo'llash mumkin. Ijodda o'zini ochish jaryonida ayrim mijozlar kechinmalarida portlashlar bo'ladi, agar bu vaqtda qattiqqul boshqaruvchi bo'lmasa, yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu usuldan foydalanganda ruhshunosga aloxida talablar quyiladi.

Ayrim mijozlarda bu usul ularni qoniqtirib, yaxshi tomonga olib borsa, ayrimlarda esa bunga nisbatdan kuchli qarshilik ko'rsatiladi. **Artterapiyaning 2 ta formasi; sust va faol formalari mavjud. Sust formada-**mijoz, boshqalarning ijod maxsulidan foydalanadi. Kuy eshitadi, rasmlarni tamosha qiladi, kitob ukiydi. **Faol**

formada-esa mijoz o'zi maxsulot yaratadi: rasm chizadi, loydan yasaydi, va xakoza.

Artterapiya mashg'ulotlari tizimli va tizimsiz bo'ladi. Tizimli mashg'ulotlarda mijoz mavzu psixolog tamonidan beriladi va oxirida muxokama qilinadi. Tizimsiz mashg'ulotlarda mijoz mavzuni o'zi tanlaydi, o'zi maxsulot va asboblarni tanlaydi.

Artterapiya usulini qo'llashda turli variantlar bor.

- tayyor sanat asarlaridan foydalanish.
- mijozlarni mustaqil ijodga yo'naltirish.
- tayyor sanat asaridan foydalanib, mijozlarni mustaqil ijodga yo'naltirish.
- ruhshunosning ijodi (lepka chizish) mijozning istagiga binoan.

AQShda sanat bilan davolash maqsadida foydalanishni 1-lardan bo'lib aytib bera olgan tadqiqotchi M. Hamburg (1986) (ayol kishi) edi. Uning ishlari Z. Freyd qarashlariga asoslangan edi, uning fikricha birlamchi fikrlar va kechinmalar (ongsiz holatda paydo bo'lganlari) obraz va simvollar orqali tasvirlangan. Adabiy ijoddagi ichki kechinmadagi o'zgarishlar, qo'rquv, ichki muommalar, bolalik xotiralari, tushlarni qo'shgan xolda psixoanalitik ruhshunoslar tamonidan tahlil qilinadi.

Dinamik mo'ljalidagi artterapiya doirasida ijodiy, integral, faol, artterapiyalar ajratib ko'rsatiladi. Artterapiya vositalariga o'ymakorlik, chikanka, mazayka, ganj, rasm, mato va jundan narsalar yasash, to'qish, tikish, kuydirib yasash kabi kiradi.

Artterapiyaning geshtalt mo'ljaldan yondoshish yo'llari bu: rasm chizish, to'qish qog'oz, buyoq, yog'och va toshlardan foydalanib yasash, suxbatlar, xikoyalar yozish, kuylash, kuy oxanga mos tanani tebratish.

Artterapiya mashg'ulotlari 2 xil yo'l bilan o'tkaziladi:

1-holatda mijozga tayyor materialdan o'z rasmlaridan aniq mavzuga buyum yasash imkoniyati beriladi. Bunda ajoyib, g'ayrioddiy ranglar uyg'unligi, o'ziga xos shakillar va syujetning o'ziga xos tamonlarini ko'rish mumkin. Bularning barchasi mijozning olamni sezish xususiyatlari, uning hislari, kechinmalari bilan bog'liqdir. Artterapiya bu holatlarda qo'shimcha diagnostika materiallarini olishga yordam beradi, bular mijoz muammolari haqida malumotlar beradi.

2-variant-noanaviy mashg'ulot, mijoz mavzu, materialni o'zi tanlaydi. Mashg'ulot oxirida mavzu bajarish usullari muxokama

qilinadi va xakozo. Ko'pgina mualliflar tamonidan mijozlarning kundalik hayotga moslashishida artterapiyadan rasm chizish ma'qulligini ta'kidlashadi.

Artterapiyada assosiy o'rin psixologning o'ziga beriladi.

Mashg'ulotni olib boruvchining asosiy vazifasi birinchi bosqichda mijozning xali ko'nikmagan mashg'ulotlari oldidagi tortinish va ikkilanishni engishdir. Bu narsalarga ko'pincha sekin-asta boriladi.

Ayrim mualliflar artterapeft sanab o'tilgan barcha ijodiy ishlarni o'ziga ham mukammal bilishi kerak deb hisoblasa, ayrimlari u bir yoki bir necha faoliyatni mukammal bilib, u yordamida mijozning ichki qobiliyatini ochib bera olsa bas deb hisoblaydi. Faol ijod mijozning tinchib, zo'riqishini pasytiradi. O'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda gurixning boshqa azolari va ruhshunosning ijobiy, kutarinki muomilasi muhim o'rin tutadi. Ijobiy hissiyotlar, o'z-o'ziga ishonchni kuchaytiradi va g'azabnoklikni pasaytiradi, «men boshqalardan kam emasman» degan baholashni ko'taradi. Hissiyotlarga berilish goxo, mijozning yanada faol, to'g'ri harakatlariga yo'l ochadi.

Artterapiyaning yana bir asosiy maqsadlaridan biri, mijozning san'at va qobiliyatlarining ochilishi orqali o'z-o'zini idrok eta olish, va atrof-muxitdagi haqiqiy harakatlarga to'g'ri ta'rif berishdir.

Artterapiya- bolalarga 6 yoshdan tavsiya etiladi, chunki bu yoshda bolalarning ko'pgina qobiliyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Ular o'yinlar orqali tezroq kirishadilar. O'smirlarda esa ko'proq bu tasviriy sanat yordamida amalga oshiriladi.

Rasmlar ishlash yo'li bilan davolovchi mashg'ulotlar siqilish, hissiyotlarning susayishi, toqatsizlanish, yolg'izlik hissi, oilaviy ko'ngil to'lmaslik, rashk, asabiylik, qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik kabi etishmovchiliklarni bartaraf etadi. Artterapiyaviy usullardan foyda-lanish psixologga mijoz bilan aloxida shug'ullanishni, asta-sekin guruh bilan shug'ullanishiga o'tkazishga yordamberadi.

MUSIQATERAPIYA.

Musiqaterapiyada davolovchi metod musiqa orqali bo'ladi. Musiqa bilan davolash hissiyotlarni pasayishida, qo'rquvda, til bilan bo'lgan muommalarda, tarbiyaning bo'zilishi kabi nuqsonlarda yordam beradi. Ikkinchi jaxon urushidan so'ng 2 ta mustaqil oqim ajralib chikdi: **Amerika va shved maktablari.**

Amerika musiqaterapiyasi 2 tomonlama davolovchi ta'sirlari bo'lgan uslubdir. Bu: moslashtiruvchi va muvozanatga keltiruvchidir. Musiqa nafaqat hissiyotlarning zo'riqishini normallashtiradi, balki xissiy muvozanat uchun ham asosiy joy egallaydi.

Shved maktabi-ruhshunoslikning eng chuqur qatlamida joylashgan bo'lib, musiqaterapiyani davolash jarayonining eng asosiysi, ya'ni uni 1- o'ringa qo'yadi. Altshuler davolashda shunday terapevtik yondoshishga asos soldi, bu erda mo'zika bemorlarning jismoniy holatiga ham katta o'zgartirish kirita olarkan. U bu prinsipni musiqaterapiyaning o'z prinsipi deb atadi. Bemorning axvoliga qarab turli tonusdagi musiqalar tanlangan. Depressiya (tushkunlik)dagi bemorlar uchun osuda musiqa tanlansa, ularni xayajonlantirish uchun baland, tez tempdagi musiqa tanlangan.

Musiqaterapiyada –etakchi rolni musiqani to'g'ri tanlashni bilishdir. 1916-yil V. M Bexterev shunday deb yozgan edi: Musiqiy asar, insonlarning holatiga karab, ularda turlicha taassurot qoldiradi, ayrimlar tiniqib, dam olishga sabab bo'lsa, ayrimlarga nafaqat yoqmaydi balki asabiga tegadi. Bu inson ruhiyatiga bog'liqdir. Yurak urishi va nafas olish tempi musiqa oxangiga qarab o'zgaradi. Jangu-jadallar, marshlar vaqtida tez, jarangdor, qat'iy musiqalar insonlarni shijoat bilan ishga kirishishlariga sabab bo'lgan marsh ritmlari insonlarni tetiklantiradi. Vals-esa sokinlantiruvchi holatga olib keladi.

Musiqa asboblari ichida etakchi o'rinni-**organ** tutadi. Uning anik, jarangdor va davomli oxanglari ko'pchilikka yaxshi ta'sir o'tkazadi. Yurak-qon tomirlari sistemasi musiqaga juda tez moslashadi. Bu paytda puls pasayadi, yurak qisqarishi tezlashadi, kon bosimi pasayib, qon tomirlari kengayar ekan. Inson yoqimli musiqa ta'sirida nafaqat tebrana boshlaydi, qayta uni birgalikda takrorlash boshlaydi,

Musiqaterapiyaning turli aspektlariga bag'ishlangan adabiy tahlillar L.S.Brislovskiy (1971) V.Yu.Zavyalov (1995) va boshqalarning asarlarida yoritilgan.

Musiqaterapiyaning 4 ta asosiy yo'nalishi bor:

1. Psixoterapiyaning emastional faollashuvi.
2. Shaxslararo muloqot malakalarini rivojlantirish.
3. Psixovegetativ jarayonlarga to'g'ri yondashish ta'siri.
4. Estetik talablarning kuchayishi.

Katarsis-emostional holatini tartibga soluvchi sharoit, shaxsiy kechinmalarni tushunishini engillashtirish; hayotiy muommalarni konfrontastiya qilish; jamiyatdagi faollikning oshishi.

Mijozlarning faoliligiga qarab, musiqaterapiya jarayonidagi darajalar faol va sust bo'ladi.

Faol darajada-mijoz nafaqat eshitadi, xatto o'zi ham bunda ishtirok etadi; **Sust darajada**- mijoz faqat eshitadi. Faol Musiqaterapiyada musiqa asboblarini chalish yakka va guruh tartibida bo'lishi mumkin. Musiqani yaxshi eslab qolish yoki tushinishi uchun, undagi kayfiyatlar, obrazlar, jarayon haqida malumot berish etarlidir.

Aloqa bog'lovchi psixoterapiya mijoz va ruhshunos orasini yaqinlashtiradi, bunda musiqa birgalikda tinglanadi va ishonch paydo bo'ladi.

Reaktiv psixoterapiya-katarsisni zabt etishga yo'naltirilgan.

Bu davolash usullarida guruhda musiqa tinglanadi, keyin shaxsiy holatlar, taasurolar, fikrlar, fantaziyalar muxokama kilinadi. Bitta mashg'ulot 5-10 minutlik musiqa eshitishdan iborat. 2-asar-asosiy og'irlikni bildiruvchi zo'riqishli musiqadir. Bu asar mijozni o'ylantirishga, fikrlashga majbur qilishi shart. Bu asar ko'proq analizga sabab bo'lishi kerak. 3-asar-zo'riqishni echib, osoyishtalikni kaytarishga xizmat qilishi kerak, yoki bulmasa ayrimlardagi tushkunlikni kutaruvchi vosita bo'lishi kerak. Gurixda ishlash jarayonlari ko'pgina kushimcha vazifalardan iboratdir:

1. Ruhshunos mijozlarga qarab kimga bu asar qanday ta'sir qilayotganligini anglay olishi kerak.
2. Eshitirilgan asarlardan qaysilari gruppaning qaysi a'zosiga mos keladi.

Musiqiy asarlarning ijro etilishi, ishonchga asoslangan muxitni keltirib chiqaradi. Musiqaterapiyaning faol varianti uchun qo'ng'iroqchalar, baraban tanlanadi. Mijoz o'zi va sherigi uchun asbob tanlaydi va o'rtada musiqiy dialog boshlanadi.

Guruhlardagi sust musiqaterapiya muntazam xolda xaftada 2 marta (6-8 kishi orasida) o'tkaziladi, bunda klassik musiqa tinglanadi. Bundan maqsad - mijoz kayfiyatini o'zgartirish, kechinmalardan chalg'itish, diqqatni chalg'itishdan iborat.

Jamiyat odamlardan, odamlar esa ruxiyat va tana yaxlitligidan tashkil topadi. Odam qancha ruxan sog'lom bo'lsa, o'ziga ishonsa, shuncha ko'p mehnat qila oladi. Demak, chet ellardagi psixologlar fan

yutuqlariga asoslanib jamiyat rivojiga o'z xissasini qo'shayotgan ekan, bizda xam tez orada ana shunday siljish yuzaga keladi degan umiddamiz.

Takrorlash uchun savollar,

1. Psixologik korrektsiya, psixoterapiya, psixologik trening tushunchalarining nisbati haqida nima bilasiz?
2. Psixokorrekstion jarayonining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Psixologik korrektsiyani tashkil etishning metodologik asoslari haqida so'z yuriting?
4. Psixologik korrektsiyani tashkil etish uchun psixologik ma'lumotlarni olish xususiyatlari haqida fikringiz?
5. Musiqaterapiyaning asosiy yo'nalishi haqida fikringiz?
6. Artterapiya- bolalarga necha yoshdan tavsiya etiladi?
7. Raqs terapiyasi qaysi vazifalarni bajarishga qaratilgan?
8. Artterapiyada asosiy o'rini haqida fikringiz?
9. Psixogimnastika mashg'ulotining vazifalari nimadan iborat?
10. Psixogimnastika mashg'ulotining tayyorgarlik qismi vazifalari nimalardan iborat?



AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMASI

Hozirgi vaqtda pedagoglar, psixologlar va tibbiyot xodimlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida an'anaviy psixiatriya doirasida echish va klinik atamalar bilan tasniflash qiyin bo'lgan ko'plab **psixologik muammolarga** duch kelmoqdalar. Ushbu muammolar kundalik hayotimizdagi shaxsning turmush tarzi va sharoitlariga moslasha olmaslik, yoshga oid inqirozlar, ijtimoiy deviastiya, shaxslararo munosabatlar disgarmoniyasi kabilar bilan bog'liqdir. Keng doiradagi mazkur muammolar klinik psixologiya va psixoterapiya sohasidan ajralib chiqqan nisbatan yangi fan tarmog'i "Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya" ning o'rganish predmetidir.

Shunday qilib, "**Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya**" mutaxassislar tayyorlash tizimining bir bo'limi sifatida turli kategoriyali bolalar va yoshlar muammolarini hal qilishdan iboratdir.

O'quv fanining maqsadi: psixologik xizmat (konsultasiya) va psixokorreksiyaning sistemali tarzda amalga oshirish zarurligi, talabalarni asosiy nazariy yondashuvlar va tushunchalar bilan, shuningdek, ularni psixologik konsultasiya va psixologik korrektsiyaning universal (umumiy) tamoyillari, uni o'tkazish texnikasi va mulojalari bilan tanishtirish.

O'quv fanining vazifalari: professional aloqa o'rnatish va yordam berish sharoitlari, asosiy insoniy muammolarni psixologik tushunish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berish; konsultativ psixologik yondashuvning ko'pqirraliligi, uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatish; psixologik amaliyotda hal qilinayotgan vazifaning o'ziga xosligi, muayyan individuallikka mos kelishining u yoki bu konstepstiyani tanlashdagi ahamiyatini ta'kidlash; insonning real psixik xususiyatlarini, psixolog kasbiy tafakkurini shakllantirish orqali faollashtirish zarurati; individual psixologik konsultasiya (konsultant, pastient, ko'zatuvtchi-supervizor)ga triadik yondashishga oid tasavvur va tushunchalar tizimini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli xal qilinishi kup jixatdan o'qituvchining o'z fani buyicha chuqur va mustaxkam bilimga ega bo'lishiga xamda o'qituvchining pedagogik maxoratiga bog'liq.

Psixologlarning ijtimoiy xayotdagi roli va obro'sini ko'tarish ularning kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash umumiy ta'lim maktablari hamda kasb hunar kollejlarini islox qilishning bosh yunalishlaridan biridir. Shunday ekan psixologiyadan tashkil etiladigan seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'lg'usi mutaxassislar tayyorlashda asosiy urinlardan birini egallaydi.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarida talabalarning shaxs ijtimoiy-psixologik xodisalar haqidagi xususiy qarashlari shakllanadi Talabalar shaxs psixologiyasiga oid qonuniyatlarni mustaqil o'rganadilar. Psixologik adabiyotlar materiallari asosida ilmiy psixologiyaga doir nazariy masalalarni birgalikda frontal tarzda muxokama qiladilar. Talabalarning o'tilgan mavzularga oid bilimlari yozgan referatlari ma'ro'zalari muxokama qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir utkazilgan amaliy eksperimentlar orqali ularning psixik xodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jixatdan taxlil qilinadi. Natijada konsultativ psixologiya psixokorreksiyaning birligi ta'minlanadi

Seminar mashg'ulotlarida konsultativ psixologiya va psixokorreksiyaning umumiy qonuniyatlari psixologik adabiyotlardan yig'ilgan ma'lumotlarni taxlil qilish orqali talabalar tomonidan o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan tushunchalar konkretlashtiriladi. Amaliy mashg'ulotlarda esa fan haqidagi nazariy bilimlarni qanday kilib amalda qo'llab borish kerakligi talabalarning faol ishtirokida bajariladigan eksperimentlar orqali ko'rsatib beriladi.

Talabalarning konsultativ psixologiya va psixokorreksiya predmetiga oid bilimlarini o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash metodikasi tufayli talabalar psixologiyadan mukammal bilim oladilar o'z kasbini egallash uchun jiddiy psixologik tayyorgarlikdan utadilar.

Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning o'z-o'zini tarbiyalab borishi va mustaqil bilim olishini ta'minlashda muxim urin tutadi. Ushbu ishlanma turli xildagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordamlashish, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish borasidagi ishlarni metodik jixatdan tug'ri tashkil etishga yordam berish maqsadida tayyorlangandir.

Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o'rganib chiqishi, fan muammolariga doir bittadan ma'ro'za yoki referat tayyorlashi; amaliy-psixologik topshiriqlari bajarishi, kuzatish, eksperiment va boshqa metodlardan foydalangan xolda psixologik tajribalar o'tkazib amaliy ishlarni bajarishi, shuningdek qilingan ish natijalarini jamoa bo'lib muxokama qilishda aktiv qatnashishi lozim.

Ushbu seminar ishlanma har bir mashg'ulotda muxokama qilishga doir konkret savollar belgilab chiqildi. Talabalarning seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish va savollarga qiynalmasdan konkret izchil va muayyan sistemada javob berishlarini ta'minlashga yordam berar degan umid bilan savollarga javob berish dasturi xam kiritildi.

Amaliy va seminar ya mashg'ulotlari asosan quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- 1 Talabalarning ma'ro'zalarda egallab olgan psixologik bilimlarini mustaxkamlash chuqurlashtirish va keigaytirish;
- 2 Talabalarda fanga doir adabiyotlar ustida mustaqil ishlay olish malakalarini shakllantirish;
- 3 Talabalarni konsultativ psixologiya va psixokorreksiya doir amaliy tadqiqotchilik malakalari bilan qurollantirish;
- 4 Talabalarni konsultativ psixologiya va psixokorreksiya dan egallagan nazariy bilim va amaliy malakalarini pedagogik jarayonga tadbiq qila olishga o'rgatish;
- 5 Talabalarda konsultativ psixologiya va psixokorreksiya dan egallagan bilimlarini asosli, ishonchli va erkin bayon qilib bera olish malakasini tarbiyalash.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tavsiya qilingan psixokonsultasiya va korreksiya usullarni qo'llash asosida amalga oshiriladi. Talaba mavzular bo'yicha tayyorgarlik ko'rib, konsultativ psixologiya va korreksiya usullarni qo'llash bo'yicha shakllantirgan bilim, ko'nikma va malakalarini dars vaqtida himoya qiladi.

1. Kuvchanlikka ko'proq e'tibor bering. Aniq bir davr ichida, qaysi hollarda sizning so'zingiz, iltimosingiz, talabingiz, tilaklaringizni o'quvchilar rad etmasdan, e'tirozsiz qabul qiladilar.

Buning sabablarni aniqlashga harakat qiling. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) axborotingiz aniq mantiqqa ega bo'lishi, qiziqarli, tushunarli va talab darajasigi mos bo'lishi; b) ta'sir etish shakli-ta'sir etish texnikasiga mos bo'lishi, hissiyotlarga boy, muhim fikrlarga o'ta ishonch qozonishni ta'minlash;

v) sizning obro'ga ega ekanligingiz o'quvchilarning yosh davrlari va ruhiy xususiyatlar va hokazolar bo'lishi mumkin. Ishontirish va singdira olishning bu qismlarini alohida ajrating va bush paytlaringizda ularni (gavda holati, mantiq, yuz muskullari ifodasi, so'zning ifodaliligi) bir necha marta takrorlab, yanada mustahkamlang.

2. Ko'zgu ro'parasida va magnit (video) tasmalaridagi yozuvlar yordamida o'z hatti-harakatlaringizni ko'rish va eshitish orqali nazorat qilish imkoniyatlariga ega bulasiz. O'z ustingizda ishlar ekansiz o'z faoliyatingizni tajribali psixologlarning ta'sir etish texnikasi va mantig'i bilan taqqoslab ko'ring. O'zingiz uchun mos keladigan, eng samaralisini ajratib olishga harakat qiling.

3. Aynan ana shunday vaziyatlarda siz muvaffaqiyatga erisha olmagan holatlarni ham tahlil qiling. Uning sabablarini aniqlang. O'zingiz yoki hamkasbingiz yordamida ijobiy natijaga erisha olmagan o'zaro ta'sir etish hollardagi kamchiliklarini bartaraf qilishga intiling.

4. Ish kuni oxirida charchoqni yozishning o'zingizga xos usullarini (kitob o'qish, gullarga ishlov berish, musiqa tinglash h.k.) o'ylab toping va ularni mashq qiling. Kechqurun ish kuningiz davomida yig'ilib qolgan salbiy hissiyotlarni tahlil qilish uchun albatta vaqt ajrating. Salbiy holatlarga zo'r e'tibor bermang, o'zingizni singdira olish kuchi bilan har kungi ishonchsizlik to'siqlarini, ehtiyotsizlikni, bartaraf qiling, chunki ular ertaga u yoki bu o'quvchini to'g'ri tushunishingizga halaqit beradi.

5. Agar talaba fikringizni tushunmasa yoki qabul qilmasa uning sababini chetdan qidirishga shoshilmang. Sizning hikoyangiz o'zviy, mantiqli va ishonchli xarakterga ega bo'lganligi haqida o'ylab ko'ring. Talabalarni qiziqtiradigan muammolarni qamrab oldingizmi?

Ana shunday sodda qoidalar yordamida o'zaro ta'sir etish samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bu qoidalarni Siz o'z amaliy tajribangiz asosida yanada davom ettirishingiz mumkin.

Psixologning har qanday ta'sir ko'rsatishi, o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, hatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi.

- birinchi mashg'ulotda mazkur fanga ajratilgan ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari hamda talaba mustaqil ishi soatlarini aniq yozib oling;

- adabiyotlar ro'yxatini oling.

- fanni yaxshi o'zlashtirish va o'rganish uchun imkoniyat darajasida dars qoldirmaslikka harakat qiling;

- agar dars davomida sizda biror savol tug'ilib qolsa, uni daftaringizga aniq qilib yozing va o'qituvchining ma'ro'zasi tugashi bilan savolingizni shoshilmasdan so'rang;

- psixologiya fanini o'rganish uchun falsafa va boshqa zarur fanlarni birgalikda o'rganishga harakat qiling;

- darsda faol qatnashishga va bu faolligingiz faqat fanni o'rganishga qaratilgan bo'lishiga harakat qiling;

- fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarni dekanat tomonidan belgilangan jadval asosida, o'z vaqtida topshirishni unutmang;

- joriy va oraliq nazoratlarga qo'yilgan savollar tushunarsiz bo'lsa yoki unga javob bera olmasangiz nazoratdan so'ng albatta vaqt topib, uni javobini topishga harakat qiling;

- kutubxonaga a'zo bo'lgan bo'lsangiz fanga oid zamonaviy adabiyotlarni olib mutola qilishga harakat qiling;

- internet sahifalaridagi ma'lumotlardan foydalanmoqchi bo'lsangiz albatta uning ilmiy jihatdan asoslanganligiga e'tibor qiling;

- qaysi ilmiy adabiyotdan, maqoladan yoki boshqa manbadan qanday ma'lumot olishingizdan qat'iy nazar uning muallifi, nashr etilgan yili va shahrini aniq yozib olishni unutmang;

- siz o'qiydigan qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar, hech qachon, uni yaxshi bilaman, takrorlash shart emas degan xayollarga bormang, iloji boricha fanlarni takrorlab borishga o'rganing.

Muloqotga o'rgatishga oid o'yin mashqlari tizimi

Tayanch so'z va ibora: Muomala, muloqotmandlik, muloqotmandlik mashg'ulotlari, psixologik kontakt, psixodramma, samimiylik, xayrixohlik, o'zaro ishonch, muloqot usullari, trening qoidalari.

Insonni muloqotga o'rgatish uchun bajariladigan treninglar bu o'yin mashqlari va hatti-harakatlar tizimidir. Trening jarayoni-bu har

bir o'yin mashqida uning rahbari qanday ustanovka berishidan iboratdir. **Treningning asosiy maqsadi** - shaxsni psixologik (ruhiy) jihatdan ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni his etishi hamda o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'rnatishni shakllantirish.

Trening maqsadini aniq va nihoyatda tushunarli darajada tushuntirish maqsadga muvofiq. Masalan, boshqa kishilarni yoki o'zini o'zi tushunishga o'rgatish. O'zgalarni va o'zini o'zi o'rganish, o'ziga-o'zi baho berishni ta'minlash, boshqalar fikrini o'qiy olish va ularni idrok qila olish ahamiyatini tushuntiradi.

Muloqotda o'zini o'zi boshqarishga zikran e'tiborni to'plashni amalga oshirish maqsadida tavsiya qilinayotgan sxemaga rolli o'yin va munozaralar tashkil etish orqali trening vazifasini murakkablashtirish mumkin

Treningning asosiy ustanovkasi: rolli o'yin shaklida rolli vaziyatni tashkil qilish mutlaqo zarur, chunki trening uning qatnashchilaridan trenerning yordamida o'yinda yaratilgan vaziyatlarga nisbatan individual munosabatini uyg'otish zarur.

Treningni o'tkazish davomida qatnashchilarning shaxsiy muloqot usullari o'zining boshqalarga nisbatan pozitsiyasini yaqqol anglashtirishini anglatadi va bu vaziyatni rag'batlantirish joiz.

Treningning faoliyati 8-10 mashg'ulotni o'z ichiga qamrab oladi xolos.

Treningning hamma mashg'ulotlari uning ishtirokchilari bilan faqat do'stona, samimiy his-tuyg'ular asosida va ixtiyoriy tarzda o'tkaziladi.

Trening ishtirokchilarining soni 7-15 nafar bo'lishi mumkin, lekin bunday ortmasligi lozim. Guruh bilan mashqlarni o'tkazishdagi majburiy shartlar bo'yicha qoidalarga rioya qilinmasa, u holda o'yinli trening ijobiy natija bermasligi to'g'risida oldindan kelishib olish kerak. Jumladan.

1. bir-biriga samimiylik xayrixohlik;
2. bir-biriga ishonish (o'zaro ishonch);
3. mashqlarni bajarish davomida shaxsga baho bermaslik, balki uning faoliyatiga va muloqot usullariga baho berishlik;
4. ishtirokchilar o'yindan qay darajada qanoatlanganligi haqidagi taassurotlarini shu zahotiy oq trenerga ma'lum qilishlik;
5. topshiriqlarni bajarish faqat ijobiy gipotezaga mo'ljallanganlik;

6. jismoniy nuqsonlarga nisbatan e'tiborni qaratmaslik;
7. treningning borishi jarayonida hech kimga hech qanday maslahat bermaslik;

8. "Bu erda va hozir"-degan shartni bajarish ya'ni trening paytida ruy bergan hamma narsa tashqariga olib chiqilmaslikka va hozirgi muloqotda nimalarni his etayotganligini ma'lum qilmaslik;

9. tomoshabinlar trenerning ruxsati bilan emas, balki guruhning barcha a'zolarining roziligiga binoan qatnashishlik kabilar.

Treningni muvaffaqiyatli o'tkazishning va uning sermahsulligi muvaffaqiyati ko'p jihatdan trener bilan ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish darajasiga bog'liqdir.

Treningni uyushtirishda quyidagi eng qiyin holatlarni inobatga olish va ularni izchil ravishda nazarda tutish maqsadga muvofiq:

1. O'zining shaxsiy ichki siqqligini engish, barcha ishtirokchilarining ko'zlariga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chehra bilan, dadil qaray olish:

2. O'yin faoliyatining boshida yaratilgan vaziyat-eng omilkor va qulay bo'lishi kerak:

3. Treningni muvaffaqiyatli o'tkazish trenerdan katta (psixik) ruhiy, intellektual, tashkiliy jihatidan katta kuch sarflashni, bioquvvat talab qiladi:

4. Trening o'zaro ishtirokchilarni bir-biriga ishongan holda o'zaro samarali ta'sir etish muhitida o'tkaziladi:

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan talabalarga rioya qilmasdan turib, aslo o'ynovchi guruh hosil qilib bo'lmaydi. Va bunga trening ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Mashg'ulotni katta, keng yaxshi shamollatish imkoniyatiga ega bo'lgan shinam xonada o'tkazish lozim. Xonada ishtirokchilar soniga teng miqdorda stullar bo'lishi kerak. Mashg'ulotda qulay, rohatbaxsh etadigan, ko'ngil (dil) ochadigan osoyishta, sokin sharoit yaratilgan yaxshi (yaxshi lirik va minor ovozli) musiqa, derazalarga nozik, nafis darpardalar tutilgani ma'qul va hokazo.

Har bir ishtirokchi o'zini o'yinga va o'yin yuzasidan improvizastiya qilishga (tayyorgarlik bajarishga) tayyorlashi, ruhiy jihatdan tayyorlanmog'i darkor.

Barcha guruh talabalari psixologik-pedagogik konsilium haqidagi nazariy bilimlarni, uning ahamiyati va maqsadini chuqur o'rgangandan keyin ular bilan rolli o'yin o'tkazish taklif qilinadi.

Stressni bartaraf etuvchi treninglar

1 mashg'ulot. Mening hayotiy munosabatim (pozistiya)

Maqsad. Guruh ishtirokchilarini ish tartibi bilan tanishtirish, trening mashg'ulotlarida ishtirok etish tajribasini faollashtirish (trening guruhida ishtirok etishning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish), trening mavzusini muhokama qilish va uning ishtirokchilar uchun ahamiyatli tomonlarini ko'rsatib berish, ishtirokchilarning treningdan nimani kutayotganliklarini aniqlash.

Jihoz. Vizitkalar, flomaster, qog'oz varaqlari, stullar, magnitofon, yumshoq kaptok.

Mashg'ulotning borishi

Kirish qismi. Ishtirokchilarning salomlashuvi va o'zini prezentastiyasi, qaerda ular o'z ish tajribalari va ijtimoiy buyurtma (rahbariyat topshirig'i bo'yicha) asosida bajariyotganliklarni aytib o'tadilar.

“Ism-sifat” mashqi. Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar (bundan keyingi treninglar doira shaklida o'tkazilishi maqsadga muvofiq) va bir-birlariga kaptokni yoki yumshoq o'yinchoqni berish berishadi va o'z ismlarini hamda ismi, ism-sharfi, familiyasida bor bo'lgan birorta bir harfga o'zning bir hislatini aytadi. Mashqni “Qor uyumi” texnikasidan foydalangan hola ham o'tkazish mumkin. Yakun yasashda olib boruvchi ishtirokchilarning diqqatini bir-birining turli sifatlariga qaratadi, ularning turli bo'lishiga qaramay birgalikda ishlashlari kerakligini ta'kidlaydi.

Vizitkalarini to'lidish. Har bir ishtirokchi vizitiniy kartochkani oladi va unga o'z ismini (ism-sharfi, qiqartirilgan ismi, bolalardagi laqabi – trening davomida unga qanday murojat qilishlarini istasa, shu ismni yozadi). So'ng vizitkani kiyimiga uni oson o'qish mumkin holda joylashtiradi.

“Oyna olidada salomlashish” mashqi. Ishtirokchilar guruhni so'z va jestlar bilan salomilashadilar. Qolganlar esa o'zlarini oyna deb tasavvur qilish orqali ko'rganlarini aks ettiradilar.

Ishchi ma'lumot. Olib boruvchi ishtirokchilarni mashg'ulotlarning taxminiy mazmuni bilan tanishtiradilar, treninglarni seminar, ma'ro'zalardan farqlarini eslatib o'tadilar, trening mashg'ulotlari qoidalari bilan tanishtiradilar:

— **“konfidenstiallik”** – treningda yuz bergan narsalar tashqariga olib chiqilmaydi;

— **“Men”**-deb gapirish –faqatgina o'zimizning tuyg'ularimiz to'g'risida gapiramiz;

— **baholovchi mulohazalarning bo'lmasligi** – boshqa ishtirokchilarning shaxsiga baho bermaslik;

— **xato qilish huquqi** – treningda “to'g'ri” yoki “noto'g'i” degan narsa bo'lmaydi;

— **bir odam gapiradi, boshqalar tinglaydi** – bir-birimizning gapimizni bo'lmaymiz;

— **ihdiyoriylik** – ayrim mashqlarda ishtirok etmaslik mumkin;

— **javobgarlik** — iloji boricha mashg'ulotlarni qoldirmaslik.

So'ng olib boruvchi trening ishtirokchilarining dastur mavzusi va ish tartibi yuzasidan savollarga javob beradi.

Asosiy qism

«Daraxt» mashqi

Maqsad: o'z hayotiy tamoyillarini (pozistiya) anglash .

Ishtirokchilar tez tempda (mumkin variantlar: guruhlariga bo'linib, “auktion” rejimida) ularga ma'lum daraxt navlarini aytadilar. Daraxtlar turli hil bo'lishiga qaramay ular uchun umumiy bo'lgan tomonlar (ildiz, tana, yaproqlar) muhokama qilinadi. Har bir ishtirokchi jumlaning davom ettiradi: **“Agar men daraxt bo'lsam, men unda uning (ildiz, tana, yaproq)i bo'lishni hohlar edim”**. So'ng ishtirokchilar o'z tanlaganlari asosida uch guruhga bo'linadilar, qog'ozga daraxt rasmini chizadilar va o'z tanlaganliklarini sababini asoslab beradilar (guruh umumiy bir javob berishi, agar xususiy fikrlar bo'lsa ularni alohida aytishi mumkin). Rasmlar doiraning o'rtasiga joylashtiriladi. Ishtirokchilarga bu mashqning metoformik mazmunini topishni, ular qiynalsalar olib boruvchi ishtirokchilarga yordam berishi mumkin: “daraxt”ga insonning hayotiy pozistiyasi sifatida qarash mumkin: **bu hayotda men kimman** (ildizdan butun daraxt ozuq oladi, tana butun og'irlikni ozida ko'tarib turadi, yaproq daraxtga nafas olish imkoniyatini beradi va h.zo).

«Avtobus» mashqi

Maqsad: hayotiy maqsadlarga erishishi yo'llarini anglash.

Devor atrofiga qo'yilgan stullar yordamida katta bo'lmagan joy ajratilib, avtobus saloniga immitastiya qilinadi. Ishtirokchilar tiqilinch avtobus yo'lovchilarini rolini bajaradilar, avtobus o'rtasidagi yo'lovchiga avtobus bekatida to'xtagani va uning tez tushishi kerakligi ma'lum qilinadi. Ishtirokchilarning soni kamaygan sari stullar surish orqali masofa kamaytirib boriladi. Avtobusda 3-4ta yo'lovchi qolishi bilan avtobus yana yo'lovchilar bilan to'ldiriladi.

Ikkinchi bosqich. Qiziqishni kuchaytirish uchun bekatlarga yoqimli nomlar beriladi. Unin ishtirokchilar bilan blist-so'rov: hayotda nimaga erishishni istar edingiz? o'tkazish orqali aniqlash, yoki taklif qilingan ro'yxatdan tanlab olish taklif qilinadi: **muhabbat, boylik, karera, sog'lik, go'zallik, muvoffaqiyat, donolik** va h.zo, galochka orqali eng mashxurlarini belgilab borish mumkin. Javoblar umumlashtiriladi va ularga epitetlar qo'shib qog'ozga yozib boriladi. Masalan, «Chin Muxabbat», «Tugamas Boylik», «Yuqori martaba», «Bohodirlarcha sog'lik», «Nihoyatda Go'zal», «Bosh aylantiradigan muvoffaqiyat», «Hayotiy Daholik». Ishtirokchilarni har bir bekatda faqatgina bir yo'lovchi chiqishi mumkinligi, oldindan qaysi eshik: orqa yoki old eshigi ochilishi to'g'risida ogohlantirilmasligi, har bir bekatda chiqish vaqti chegaralanganligi to'g'risida ogohlantiriladilar. Avtobus harakati mo'zika bilan davom etadi, olib boruvchi xaydovchi rolini bajaradi, yo'lovchilarga eshik oldida tiqilmasdan salon o'rtasiga o'tishni, yo'l haqqini o'z vaqtida to'lash, bolali yo'lovchilarga joy berish va shu orqali ishtirokchilarga qiyinchiliklar uyg'otishi kerak.

Refleksiya. Avtobusdan tushish qanday bo'ldi? Bunday vaziyatlarga tushganmisiz va bunday vaziyatda odatda o'zingizni qanday tutasiz? Odatda atrofdagilar o'zlarini qanday tutadilar?

So'ng ishtirokchilar mazkur vazifaning mazmunini topishga harakat qiladilar: «Avtobus – bu bizning kundalik hayotimiz. Insonning chiqishga intilishi, odatda u shu tariqa ko'zlagan maqsadiga erishadi».

Yakuniy qism

«Jumlani davom ettir» mashqi

Maqsad: guruhij jipislanganlikni rivojlantirish.

Olib boruvchi ishtirokchilarga: «Men, hamma singari...» jumlasini davom ettirishni taklif qiladi

Mashq refleksiyasi. bizni nima birlashtiradi?

«Kompliment» mashqi

Maqsad: ijobiy qayta aloqa.

Olib boruvchi kompliment eshitish har bir inson uchun juda yoqishini eslatib, bir ishtirokchidan olib boruvchiga kompliment etishni so'raydi. So'ng ishtirokchi boshqa ishtirokchini tanlaydi va unga qarata kompliment aytadi. Barcha ishtirokchilarning kompliment eshitishi maqsadga muvofiq.

«Kayfiyatim rangi» mashqi

Maqsad: emostional holati mazmuni to'g'risida.

Ishtirokchilar bir-biriga ko'ptok otish yoki yumshoq o'yinchoq berish orqali hozirgi paytdagi kayfiyatlarini qaysi rang bilan assostiastiya qilayotganliklarini ifodalab beradilar. Aytilganlarni umumlashtirgan holda, yorqin va ochiq ranglarning ko'pligi ishtirokchilarning emostional holati ijodiylikidan darak berishini aytib o'tadi.

Mashg'ulot refleksiyasi. Mashg'ulot qanday o'tdi, eng qiyin (yoqmagan) narsa nima bo'ldi, hammadan ko'proq nima yodda qoldi? Guruh ishtirokchilariga, o'zingizga va olib boruvchiga tilaklaringiz.

Asosiy qism

“O'zini anglash” tushunchasini muhokamasi

Ishtirokchilarga: “Ikki inson uchrashganda, uchrashuvda 6 nafar odam bo'ladi – ulardan ikkitasi o'zini qanday ko'radi, ulardan ikkitasi, ularni do'stlari qanday ko'rishadi, yana ikkitasi ularning haqqoniysidir” (U. Djeym) jumlasini muhokama qilish taklif qilinadi.

“Uchastnikam predlagayetsya obsudit frazu: «Kogda vstrechayutsya dva cheloveka, na vstreche prisutstvuyut shestero – kajdy iz dvoix, kakim on vidit sebya; kajdy iz dvoix, kakim ego vidit drugoy; kajdy iz dvoix, kakim on yavlyayetsya na samom dele».

Muhokama uchun savollar

- Siz bu jumlaning qanday tushunasiz?
- Bizning o'zligimizni anglashimiz boshqa insonlar bilan muloqotga qanday bog'liq?
- O'zligini anglash o'zi nima?

So'ng olib boruvchi samarali pedagogik faoliyatning muhim shartlaridan biri yaxshi emostional holatligini ma'lum qiladi va quyidagi savollarni muhokama qilishni taklif qiladi: **qaysi kasblar uchun bu shart emas (muloqot va ijod bilan bog'liq bo'lmagan**

kasblar)? hamda O'qituvchi kasbining nufo'zi va o'ziga xosligi nimada?

Muhokamaning yakunida olib boruvchi insonning yaxshi (blagopriyatnogo) emostional holati asosida uning o'zi haqida, shu bilan bir qatorda o'zining kasbiy "Men" tasavvurlar tizimi, ya'ni kasbiy Men-konstepstiya yotadi. Ijobiy kasbiy MEN-konstepstiya Ya-konstepstiya samarali pedagogik faoliyatni ta'minlaydi. Bunday konstepstiyaga ega pedagog, o'zi to'g'risida haqqoniy tasavvurga ega bo'lib, o'zining kuchli va zaif tomonlarini yaxshi biladi, imkon boricha o'z yaxshi tomonlaridan foydalanadi va kamchiliklarini bartaraf qiladi. Eng muhimi – u o'zini hurmat qiladi va o'ziga ishonadi.

Ijobiy Men –konstepstiyaga ega insonlar hayotning turli ko'rinishlaridan zavq ola biladilar, ular optimist, qobiliyatli, tushukunlikka tushmaydi, og'ir vaziyatlardan chiqish yo'llarini topa oladilar; faol va tashabbuskor. Odatda ijobiy Men-konstepstiyali insonlar ijodkor, har qanday ishda yaqqol ko'zga tashlanadilar. Ular atrofdagi insonlarning muxabbatini qozonadi, xatto notanish insonlar yoqtirib qoladilar.

Olib boruvchi ijobiy Men-konstepstiyali insonga ta'rif berish, shunday insonlarni uchratishganmilar va ularni eslashni taklif qiladi.

Mustaqil ish

Olib boruvchi pedagoglar ichida o'z ish uslubini tavsiflab berish uchun quyidagi jummalarni tanlagan:

- a) sizga yomon munosabatda bo'layotgan o'quvchilarga salbiy javob (reagirot) berish;
- b) bolarni bo'sh qo'ymaslik kerak, shuning uchun ularga qiyinchiliklar tug'dirish, chiniqtirish kerak;
- v) bolalarda yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun aybdorlik hissini uyg'otish orqali ularni o'z burchlarini bajarishga majbur qilish;
- g) imkon boricha bolalar o'rasidagi munosabatni raqobat asosida qurish;
- d) mening ishonchimni suiiste'mol qilishadi degandan kelib chiqish;
- e) bolalarni kattalar hayotidagi haqqoniy qiyinchiliklar bilan duch kelitirish;
- j) nima bo'lganda ham qattiq intizom o'rnatishga harakat qilish;
- z) bolaning jazosini uning qilgan gunohiga qarab darajasini kuchaytirish.

Ishtirokchilarga taklif qilinadi:

- bunday insonlarni uchratganmisiz, eslash;
- shunday pedagogga ta’riflab berish;
- bunday pedagogning “Men”-konstepstiyasini (ijobiy yoki salbiy) muhokama qilish;
- mazkur jumalarni ijobiy “Kasbiy “Men”- konstepstiya yangrashi uchun uni qayta ishlab chiqish

Istovchilar ovozini chiqarib o’qiydilar, guruh muhokama qiladi, umumiy variant yoziladi, istakka ko’ra to’ldiriladi va stol o’rtasiga joylashtiriladi.

Olib boruvchi tinglovchilarga o’zlariga qanchalik ijobiy “Men”-konstepstiyali pedagogning xulq-atvoriga xos tomonlarini o’ylab ko’rish taklif qilinadi.

Yakuniy qism

“Jumlani davom et” mashqi

Maqsad: shaxsiy va kasbiy manbaani anglash.

Har bir ishtirokchi “Men o’z kasbim bilan faxrlanaman, qachonki men” va “Maqtanmoqchi emasman, lekin men o’z ishimda”

“Kamalak bo’yicha yuqoriga” mashqi

Maqsad: emostional holatni turg’unlashtirish.

Hamma turadi, ko’zlar yumiladi, chuqur nafas olinadi va har bir nafas bilan kamalak tepasiga chiqayotganliklarini va nafas chiqarish bilan undan sirg’anib tushayotganliklarini tasavvur qiladilar. Mashq uch marotaba takrorlanadi, so’ng hohlovchilar o’z tassurotlari bilan bo’lishadilar. Mashqni ochiq ko’zlar bilan yana 3-4 marta qaytarish mumkin.

Mashg’ulot refleksiyasi va xayrlashuv.

Yakuniy qism

Aylana jumlaning davom ettiradi: «Bugun men uchun kutilmagan narsa ..», « Men oldin ham bugun eshitganlarimdan bilar edim».

Mashg’ulot refleksiyasi, xayrlashuv.

Psixotrening- 1 (qisqartirilgan matn)

Mashg’ulot maqsadi: Ruhiiy dam olish, oliy asab tizimini mustahkamlash, hissiy toliqishni bartaraf etish, kayfiyatni ko’tarish... (mashg’ulot psixologik xizmat xonasida olib boriladi)

Ko’krak qafasi bo’ylab

Xotirjam bo’ling, bo’shating. Maslahatim, faqat mening ishoram bilan harakat qiling. Nihoyatda, chuqur - chuqur nafas oling. Yana bir

marotaba. Chuqur, chuqurroq, yanada chuqurroq nafas oling. Nafas oling va uni bir oz chiqarmasdan turing...

Marhamat, endi nafasingizni bemalol chiqarsangiz bo'ladi, bo'shating. Engil-engil nafas oling, o'z normal holatingizga qayting...

O'ylab ko'ringchi, chuqur nafas olganda ko'krak qafasingizda bir oz og'riq sezdingizmi? Shuningdek, chuqur nafas olganda o'zingizni bir oz engilroq his etdingizmi? Yana bir marotaba shularni eslang... Mashqni takrorlaymiz: chuqur nafas oling, chuqurroq, yanada chuqurroq, butunlay chuqurroq...

Zudlik bilan oldingi normal nafas olish va nafas chiqarish holatiga qayting. Bu safar e'tibor bergan bo'lsangiz ko'krak qafasingizdagi barcha og'riqlar yo'qoldi, o'zingizni bir muncha engilroq his eta boshlayapsiz. Ko'ngilda tugib qo'ygan yaxshi orzularingizni eslang. Yana, batafsilroq eslang...

Endi oldingidek chuqurroq nafas oling, bo'shating, o'zingizni normal holatda saqlab nafas oling...

Oyoq kaftlari.

Kelinglar, oyoq osti kaftlariga bir e'tibor beraylik. Bilasizlar, butun asab faoliyati hujayralari oyoq osti kaftida joylashgan va u juda katta ijobiy imkoniyatlarga ega.

Ruhiy mashqni boshlashdan oldin ikki oyog'ingiz kaftini ham pol ustiga mahkam bosib qo'ying. Asta sekinlik bilan oyoq barmoqlaringiz ustida turib oyoq poshnasini baland ko'taring!, balandroq, yanada balandroq, mumkin qadar balandroq...!

Asta-sekin, yumshoqlik bilan poshnangizni tushiring - normal - holatga qayting, bo'shating... Eslang: oyoq barmoqlari uchida turganda miyangizda bir oz engillik paydo bo'ldi. Sizni qiynab qo'ygan ba'zi og'riqlar butun vujudingizni bir soniya bo'lsa-da tark etgandek bo'ldi... Bo'shating: ... hech narsani o'ylamang, hech narsani eslamang.

Endigi mashq- ikkala oyog'ingizni polga qo'ying. Oyoq panjalarini baland ko'tarib poshna uchida turing. Poshnada turib oyoq panjalarini balandroq ko'taring, balandroq..., yanada balandroq...

Bo'shating: normal holatga qayting. Eslang- o'zingizni bir oz yaxshi his etmoqdasiz, qolaversa poshna ustida turganda og'riqlar har tomonga tarqab ketdi. Miyangizdagi ba'zi shovqinlar sizni tark etmoqda. Yurak tomirlaringizni tez-tez urishi esa buni tasdiqlamoqda...

Oyoqlarni tez-tez harakatga keltiring, ya'ni dam poshna uchida, dam oyoq panjasi uchida turishni bir necha marotaba takrorlang: 1, 2, 3, va hokazo...

Endi, bo'shaching: o'zingizni erkin tuting, normal holatga qayting, hech narsani o'ylamang, hech narsani eslamang ...

Qo'l barmoqlari

Endi, mashqni qo'l barmoqlari orqali bajaramiz. Dastavval, sizdan bir vaqtning o'zida ikkala qo'l barmoqlaringizni mumkin qadar mahkam qisishingizni so'rayman...

Tayyormisizlar?! (ha, jvabidan so'ng) Boshladik: mushtingizni qattiq qising, qattiq, yanada qattiqroq, yana ham mustahkamroq... xuddi shunday ushlab turing. Sanayman: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti...

Endi, bir oz bo'shaching, ilgarigi normal holatga qayting... Sezyapsiz: yozishdan nihoyatda charchagan barmoqlaringiz bir oz dam olgandek bo'ldi. Ushbu holatni yana bir bor takrorlaymiz: Tayyormisizlar?! (ha, javobidan so'ng) boshladik: ilgarigidek mushtingizni qattiq qisishga harakat qiling, qattiqroq, yanada qattiqroq... Endi bo'shaching... normal holatga qayting. qo'l muskullaringiz dam olishi uchun qarama-qarshi harakat qilishga shaylaning. Ya'ni, barmoqlarni ochib bir qo'lingizni boshqasining ustiga qo'yishingiz lozim. Boshladik.(namuna sifatida ko'rsatilib boriladi). Qo'l panjalariningizni mumkin qadar kengroq yozing. Kengroq, yana ham kengroq, mumkin qadar kengroq... bir holatda tuting. Bo'shaching: normal holatga qayting. E'tibor bergan bo'lsangiz barmoqlaringizda issiqlik, taft, hayajonlanish va muskullarning o'zgacha bir holati, harakati namoyon bo'ldi... Bo'shaching: ilgarigi normal holatga qayting. hech narsani eslamang, hech narsani o'ylamang- o'zingizni nihoyatda erkin his etishga harakat qiling.

Kiftlarimiz

Endi, kelinglar, kiftlarimiz bo'yicha ham ishlab ko'raylik. Xammangizga ma'lumki, hayotdagi barcha og'irliklarni va qattiq hayajonlarni inson ramziy ma'noda kiftida, qaddi - qomatida saqlab yuradi. hozirgi mashq kiftlarni quloqqa tomon vertikal holatida harakatga keltirishni talab qiladi. Kift muskullari bilan birga ijobiy his-tuyg'ular ham harakat qiladi. Shunga mu-

vofiq, ayrim muolajalarni olib boramiz. (savollar tug'ilmasligi uchun qo'shimcha tushuntirishlar ham olib boriladi).

Agarda tayyor bo'lsangizlar boshlaymiz: Kiflarni ko'taring. Yanada yuqoriroq ko'taring, yana ham yuqoriroq, eng yuqori ko'tarishga harakat qiling. Xuddi shunday holatda etti soniya ushlab turing: bir,ikki, uch,to'rt,besh,olti, etti. Bo'shating: normal holatga qayting. Shu holatni yana bir bor takrorlaymiz. (takrorlanadi). Juda yaxshi, kiftlaringizni o'z holiga qo'ying- mayli ilgaridagidek erkin holatda tursin... Lekin, sizning ruhiy holatingiz nazaringizda ilgaridagidek emas: kiftlardagi charchoq, toliqish, horg'inlik, kuchli bezovtaliklar batamom bartaraf etilgan ko'rinadi - siz buni juda yaxshi his etib turibsiz.

Relaksastiya (qisqartirilgan variant)

Ko'zingizni mahkam yuming... Endi, sizni o'rab turgan olamni siz qanday idrok qilayotganingizni va his etayotganingizni bilmoqchiman: Men birdan o'ngacha sanayman. har bir raqamni aytganimda ongingizdagi o'ylar yanada oydinlashib boradi, jismingiz va ruhiyatingiz esa yanada ijobiy kuchlarga to'lib boradi. O'ngacha sanaganimdan so'nggina ko'zingizni ochasiz.Shunda Siz har kungiga nisbatan bugun o'zingizni nihoyatda yaxshi, engil va tetik his etasiz. hayotga, odamlarga ishonch, go'zallikni his etish, hayotda, ishda va oilada alohida yutuqlarga erishish uchun o'zgacha bir kuch va xohishni sezib turasiz. Tayyorlaning, sanashni boshlayapman:

"1-2" - siz uyg'ona boshladingiz...;

"3-4-5"- sizda ma'lum jarayonlar bilan bog'lik tetiklik,bardamlik, yaxshi kayfiyat va yaxshi dam olish bilan bog'liq holatlar qaror topmoqda;

"6-7"- o'zingizni nihoyatda engil his etmoqdasiz;

"8"- o'z charchoqlaringizni unitgan holda va o'zingizda eng yaxshi kayfiyatlarni uyg'otgan holda hayotga intilmoqdasiz;

"9-10"- endi, ko'zingizni birdan yoki asta-sekin ochishga harakat qiling. Siz yaxshi harakatlar qilish uchun tayyor holda uyg'oningiz. Sizning miyangiz bir oz bo'lsada engil tortdi - butun vujudingiz miriqib dam oldi.

(mashg'ulot tugadi)

Psixotrening-2 (autotrening) (qisqartirilgan matn)

Ushbu psixoterapevtik usul o'z-o'ziga ta'sir etish va o'z-o'zini idora qilish jarayonini tashkil etish bilan bevosita bog'langan.

Bu SIZ ga o'z his-tuyg'ularingizni boshqarishga, vujudingizdagi kuch va ishlash qobiliyatini yanada yaxshilashga ruhiy jihatdan yordam beradi- ish faoliyatingizda sodir etilishi mumkin bo'lgan ayrim stress holatlaridan sizni muhofaza qiladi. Binobarin, o'z fikringizni ma'lum yo'nalishga qarata olishni o'rganish, sizga o'z yashirin imkoniyatlaringiz ko'lamidan unumli foydalanishda ko'maklashadi.

Autotrening paytida tinch, xotirjam va osoyishta holat yaratilishi lozim. Kiyimlaringiz shinam, iliq, oddiy va qulay bo'lishi, hamisha erkin chuqur nafas olinishi lozim.

Psixologik xizmat xonasidagi belgilangan o'rindiqlarga qulay tarzda o'tirib oling, qo'lingizni belga tuting. Ko'zingizni yuming (xohlamasangiz yumming). Barcha mushaklaringizni bo'shashtiring. har bir mening aytgan so'zimdagi fikrlarni ichingizda bir necha bor takrorlaysiz va aynan shu fikrlarga mos ravishda ish tutasiz. Tayyorlaning... Boshladik.: Asta-sekinlik bilan o'zingizni nisbatan qulay, shinam, iliq va eng yaxshi sharoitda, deb his qilishga to'liq ishontiring. Juda ham diqqat qilish shart emas, hammasi o'z-o'zidan asta-sekinlik bilan sizning vujudingizda namoyon bo'ladi. Eng muhimi, sizning ichki nigohingiz oldida - faqat mening fikrlarim o'rnashib olganligini yana bir bor eslang va xotirangizda saqlashga harakat qiling...

Diqqatingiz vujudingizdagi bir joydan ikkinchi bir joyga asta-sekinlik bilan ko'chmoqda...

Ikki-uch daqiqa davomida sekin nafas olishga harakat qiling. Alohida qoniqish bilan nafas olib nafas chiqaring, shu holatni yana bir bor takrorlang, endi o'zingizni engil, xotirjam va ohista his eta boshlang...

Muskullarni bo'shashtirganda butun vujudingiz bo'ylab ularning o'z qiyofasini yo'qotganligini tasavvur qiling.

Yuz to'zilishingizni erkin, xotirjam tutishga harakat qiling, bir oz bo'shashtiring. Qosh, kiprik, lablaringizni asta-sekin bo'shashtiring...

Diqqat! asta sekin pastga qarab boshdan barmoqlargacha harakat qiling, so'ngra pastdan yuqoriga qarab muskul harakatlarini bajaring. Xuddi shu holatni bir necha bor takrorlang...

Endi, issiqlik, iliqlik bosqichiga o'tamiz: O'zingizni asta sekinlik bilan o'ziga xos iliqlik berayotgan vannada yoki quyosh taftida, deb tasavvur qiling. Tomirlaringiz bo'shashtirgani va kengayapti. O'ng

qo'lingizda issiqlik taftini his etayapsiz, aniqrog'i issiqlik butun qo'l muskullaringizni qizitayapti... Obrazli qilib aytganda, qo'lingiz - bir idish, unda butun issiqliklar to'planib yotibdi. Issiq vannada dam Olimpsiz, sizni bezovta qilgan hislarni shu issiqlik siqib chiqaryapti. har bir og'riq bor joydagi muskullaringiz kengaymoqda. Ushbu holatga qaratilgan diqqatingiz kuchaymoqda. Diqqat kuchaygan sari u issiqlik bilan og'riq va charchoqni siqib chiqarayotgani aniq. Siz esa buni sezishingiz yoki sezmasligingiz mumkin...

... Asta sekin oldingi holatga qayting. (1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 va shu sonlarning teskarisi sanab turiladi).

O'z-o'zingizga qayta-qayta ta'kidlang: Men yaxshi dam oldim, bir oz hordiq chiqardim, bir oz bo'lsada charchoqlarim yozildi...

O'zingizni xotirjam, bardam, tetik his eta boshlang va bunga erishgach ohistalik bilan ko'zingizni oching...

...Keyingi bosqichga o'tamiz: (ayrim holatlar to'liq izohlanadi).

Tayyorgarlik ko'ring: Boshladik.

1. Qulay o'rnashib oling;

2. Mumkin qadar qulayroq o'rnashing;

3. Hech qaerga shoshilmang - o'zingizni nihoyatda erkin tuting;

4. Meni yaxshi kayfiyat kutayapti, deb o'z-o'zingizni ishontiring;

O'z-o'zingizga quyidagicha buyruq bering:

1. Men ancha tinchlandim;

2. Men juda xotirjamman, menga xozirgi holat juda ma'qul;

3. Yuz to'zilishim juda yaxshi holatda;

4. Mening butun jismimda xotirjamlik hukmron;

5. Nigohlarimda bir qadar osoyishtalik mavjud;

6. Qo'l muskullarim bir oz bo'shashmoqda;

7. Barmoqlar bo'shashmoqda;

8. Vujudimni nihoyatda issiqlik tafti qoplamoqda;

9. Kift va ko'kraklarim bo'shashib isib bormoqda;

10. Kaftlarim bo'shashib isib bormoqda;

11. Sezayapman, qo'llarim butunlay bo'shashgan va o'ziga xos issiqlik tafti bilan qoplangan;

12. Butun vujudim tinch- xotirjam;

13. Oyoqlarim negadir bo'shashayapti va isib borayapti;

14. Oyoq panjalari bo'shashmoqda va isib bormoqda;

15. Oyoqlarim o'zini juda yaxshi his etayapti;

16. Butun vujudim tinch-xotirjam;

17. Yuz to'zilishimda tinch-xotirjamlik hukmron;
18. Oyoqlarim bo'shashmoqda;
19. Belim bo'shashmoqda va isib bormoqda;
20. Butun vujudim to'la-to'kis xotirjam bo'ldi va hordiq chiqardi;
21. Jismimda o'ziga xos yoqimli hislar va qulayliklar paydo bo'ldi va u dam Olimpti.

Holatdan chiqish:(vaziyatga qarab boshlanadi)

1. Men nihoyatda 1 yaxshi 0 dam oldim;
 2. Xis etilgan charchoq, toliqish, ayrim og'riqlar allaqachon qo'llarimdan, belimdan va oyoqlarimdan chiqib ketdi;
 3. Boshim dam olgan, hordiq chiqargan va ancha engli tortgan holatga qaytdi;
 4. O'zimni nihoyatda yaxshi va baxtiyor his etayapman;
 5. Kayfiyatim juda yaxshi; 6. Men xotirjamman, o'zimga o'zim ishonaman;
 7. Asta-sekin va bermalol ko'zimni ocha olaman;
- ... (vaziyatga qarab davom ettiriladi va yakunlanadi)

Hissiy zo'riqishni keltirib chiquvchi omillar

No	Hissiy zo'riqish omili	Shaxsda namoyon etilish belgilari	Korreksiya uchun tavsiyalar
1	Frustratsiya	Muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo'lida uchraydigan ob'ektiv ravishda engib bo'lmaydigan yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyiladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Psixologik treninglar o'tkazish. 2. Individual suhbatlar olib borish. 3. Tafakkur va irodasini mustahkamlash. 4. Ishontirish, tasdiqlab berish, rag'batlantirish. 5. Shaxs menligini me'yorini tafsiflab berish.
2	Apatiya	Hissiy befarqlik holatlari bo'lib, barcha narsa hodisalarga bemor o'ta e'tiborsizlik bilan qaraydi ba'zan ularda o'ta harakatsizlik uchraydi. Yashashim kelmaydi hech	<ol style="list-style-type: none"> 1. Diqqat mashqlari 2. Qisqa hikoyalar 3. Hikmatli so'zlar 4. Ishontirish va ustanovkalar berish 5. O'ziga ishonchini uyg'otib berish.

		kimni ko'rishim kelmaydi hech nima kerak emas uyqu holatiga, beholikka ishtahasi yo'qligidan noliydi. Qo'limdan kelmaydi qila olmayman.	
3	Disfariya	Ortiqcha jizzakilik o'z o'zidan va atrofdagilardan xafa bo'lish, arzimagan narsaga asabiylashaverish bilan ifodalanadi. Ko'pincha batqovoqlik yoqtirmaslik, badjaxillik bilan qo'shiladi.	<ol style="list-style-type: none"> 1.Emotstional holat bilan ishlash 2.Hissiyot adabtadsiyasini kuchaytirish 3.Hayvonot olamiga yo'naltirish (baliq, qushlar, qo'y, quyon) 4. Sayr, hajviy kino filmlar.
4	Depressiya	Tushkunlik holati hozirgi kunda va kelajakka ishonchsizlik bilan qarash, doimo past kayfiyatga bo'lish, xorg'inlik biror faoliyatga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir.	<ol style="list-style-type: none"> 1.Umid orzu istak motivlarini uyg'otish. 2. Passiv xayollarni aktiv xolatga o'tkazish 3.Boshqa yomon holatlarni ko'rsatib uning xolati yaxshilashni tasdiqlab berish. 4. Tadbirlarda qatnashishini tashkillashtirish.
5	Fobiya	Qo'rquv . Hayotga o'ziga ishonmaslik . Fobiya qo'rquvga nisbatan kuchli bo'ladi. Ko'rmasa ham xayoliga kelsa qo'rqaveradi. Masalan: Atrofobiya Agrofobiya Kaustrofobiya Nazofobiya Monofobiya	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'ziga o'zgalarga nisbatan ishonchni kuchaytirish 2. Irodasini mustahkamlash mashqlari bilan shug'ullantirish 3. Obrazli xotira bilan ishlash 4. Emostional xotirani pasaytirish. 5. Edetik va edetizm xotiralarini takomillashtirish. 6. Idrok fenomenlarini tuzatish.
6	Affekt	To'saddan paydo bo'ladigan va qisvqa muddat davom etuvchi hissiy portlash. Affekt o'zini boshqara olmaydi va bemalol birovni	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ruhiiy zo'rlikni oldini olish . 2. Psixik holatiga etmaslik

		o'zining xam joniga qasd qilishi mumkin. Affekt paytida odam nima qilishini eslay olmaydi.	<ol style="list-style-type: none"> 3. Shaxsni e'tirof etish va uning shaxsiyatiga tegmaslik, kamsitmaslik. 4. Har xil qo'rqinchli kino filmlar va voqea hodisalardan saqlash.
7	Isteriya (isterika)	Ortiqcha ta'sirchanlik har narsaga haddan ziyod e'tibor berish, mustaqil fikrlay olmaslik, ortiqcha ishlanuvchanlik his tuyg'ularga berilish. Atrofdagilar diqqatini o'ziga jalb qilish. Ruhij jarohatda tez paydo bo'ladi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jahl va xafagarchilikdan keyin darrov paydo bo'ladi. Oldini olish chora tadbirlarni ishlab chiqish. 2. Ruhani va jismonon tetiklashtirish. 3. Sportga yo'naltirish
8	Obsessiya (yoki miyadan ketmaydigan fikrlar)	Kuchli qurquv va turli holatlarda paydo bo'luvchi ruhiy zo'riqishdir. Miyadan ketmaydigan xayollar fikr muloxazalar, xotiralar va shubxalantirishlardir.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bemorni umumiy holatini yaxshilash. 2. O'ylashga majbur qiladigan holatlardan uzoqlashtirish. 3. Hayotga qiziqishni ortirish. 4. Oddiyroq va jismoniy zo'riqishga olib kelmaydigan ish faoliyatiga yo'naltirish.
9	Nevroasteniya (tom ma'noda nevroz)	Jahldorlik tez asabiylashish uyqu buzulishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, umumiy holsizlik aqliy va jismoniy mehnatning pasayishi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qiziqqan faoliyat turi bilan ko'proq shug'ullanishi 2. Ish soatlarini qisqartirish. 3. Yaxshi dam olish ovqatlanish tartibiga roiya qilish. 4. Oilaviy ahvoli va ishlash sharoiti bilan tanishib iloji bo'lsa boshqa kasbga yo'naltirish.
10	Agressiya	O'ta jahldorlik har narsadan jahli chiqaverish. Norozilik kayfiyatining yuqori ko'rinishi (Nafrat, zo'ravonlik, qasd olish)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Individual korrestiya. 2. Rag'batlashtirish yoki yo'naltirish. 3. Kechirim so'rash kulgi va hazl.

11	Abuliya	Kuchli ruhiy zo'riqishdan tormozlanish. Jamoadan chetga chiqish, xulosa chiqara olmaslik. Idrokning pasayishi. Harakatning susayishi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Idrok mashqlari bilan. 2. Faoliyatga undovchi motivlarni uyg'otish. 3. Yalqovlikdan chiqarish .
12	Aprakstiya	Maqsadga yo'naltirilgan ixtiyoriy harakatlarni bajara olmaslik. Bosh miyaning jarohat olishi yoki shikastlanishi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qisqa metrajli kino filimlar. 2. Hikoya terapiya 3. Artterapiya

DIQQAT VA KUZATUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH MASHQLARI

Diqqat va kuzatuvchanlikni rivojlantirishning o'n ikkita oddiy va samarali usullari mavjud. Bu mashqlarni ish o'rtasida, tanaffus yoki dam olish vaqtlarida bajaring. Bu diqqatingizni barqarorligi va hajmini o'stirishga xizmat qiladi.

Diqqat insonni biron bir narsa yoki hodisaga faoliyatini jamlashi hisoblanadi. Ko'pgina insonlarning diqqat ko'lami 7 ± 2 birlikka teng deyiladi.

Diqqatning o'ziga xosligini belgilovchi jihatlar bor:

1. Birinchidan: ko'lami, jadalligi, barqarorligi;
2. Ikkinchidan: tebranishi, ko'chuvchanligi.

Diqqat insonlarda qo'yidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Ixtiyorsiz (faol bo'lmagan, hissiy);
2. Ixtiyoriy (faol, irodaviy).

Ixtiyoriy diqqatni samarali rivojlantirish shart-sharoitlari:

1. Me'yordagi jismoniy va ruhiy holat.
2. Ishni rejali tashkil etish (qulay ichki va tashqi shart-sharoitlarni yaratish).
3. Aniq maqsad qo'yish.
4. Aqliy va jismoniy harakatlarni uyg'unlashtirish (masalan, o'qigan narsalarni qisqacha yozib borish).
5. Faoliyat turlarini almashtirib borish (masalan, o'quv darsliklari bilan romanlar o'qishni).

1-mashq

Notanish suratga 3-4 soniya davomida qarab turing. So'ngra uni olib qo'yib, esga olib qolgan detallaringizni (predmetlarni) sanang..

Kalit:

- 5 tadan kam detallarni esga olib qolsa — yomon;
- 5 tadan 9 detalgacha esga olib qolsa — yaxshi;
- 9 detal esga olib qolinsa— a'lo.

2 -mashq

Yig'indisi 15 ga teng bo'lgan uchta ketma-ket sonlar guruhi nechtaligini ayting:

489561348526419569724

3-mashq

Quyidagi sonlardan nechtasi bir vaqtni o'zida 2 va 3 ga bo'linadi:
33; 74; 56; 66; 18

4-mashq

1. Qiziqarli dasturni tomosha qilayotgan vaqtingizda budilnik soatni televizorning oldiga qo'ying.
2. 2 daqiqa davomida teledasturdan chalg'imagan holda diqqatingizni soatning sekundli strelkasiga to'plang.

5-mashq

1. Ikkita flomaster oling.
2. Bir vaqtni o'zida ikkala qo'lingiz yordamida rasm chizishga harakat qiling. Chizishni bir vaqtda boshlang va tamomlang. Bir qo'lda – aylana, ikkinchisida uchburchak. Aylana tekis sirtli, uchburchak esa o'tkir burchakli bo'lishi lozim.
3. Endi 1 daqiqa davomida maksimal darajada aylana va uchburchaklar chizing.
4. Baholash tizim:
 - 5 tadan kam bo'lsa — yomon;
 - 5-7 —o'rtacha;
 - 8-10 — yaxshi;
 - 10 — a'lo.

6-mashq

1. Bir vaqtni o'zida bitta qo'lingizni boshqa boshqa barmoqlar yordamida aylana va uchburchak chizing.
2. Flomasterlarni barmoqlarda tutib turish yo'llarini o'ylab ko'ring va mashqlantiring.

3. Aynan 5 daqiqa davomida nechta aylana va uchburchak chiza olasiz?

4. O'zingizni baholang:

- Bitta ham chiza olmasa — yomon;
- 1-3 — yomon emas;
- 4-5 — yaxshi;
- 5 dan ortiq — a'lo.

7-mashq

Endi yo'qoridagi mashqdagi singari 1 va 2, 2 va 3, 3 va 4 raqamlarini chizing.

8 -mashq

Jumladagi so'zlar orasidan yashirigan ismni ajratib oling: masalan: «O'quvchi kecha rost so'zlaganidan xursand bo'ldi -Charos).

1. Ota o'g'liga: “Bilasan jargacha bo'lgan masofa uzoqlik qiladi”- dedi.
2. Psixologning bolaga qo'ygan tashxis ravshan va aniq edi.
3. Bahorda qo'zigul yuzidagi shabnamni ko'rganmisiz?
4. Hali ma'naviyat haqida ko'p gapirishimizga to'g'ri keladi.

9-mashq

1. Oldingizga qandaydir predmetni qo'ying.
2. Unga bir necha daqiqa davomida xotirjam va diqqat bilan qarang.
3. Ko'zingizni yuming va narsaning barcha detallarini esga oling.
4. Ko'zingizni oching va tushib qoldirilgan detallarni toping.
5. Ko'zingizni yuming.
6. Bu harakatni narsani xotirangizda yaqqol gavdalantirmaguncha davom ettiring.

10 –mashq

1. Oldingi mashqda foydalanilgan narsani yashirib qo'ying.
2. Uning barcha detallarini chizing.
3. Uning asl nusxasi bilan taqqoslang.

11-mashq

1. Uyquga yotishdan oldin kun davomida duch kelgan insonlar va predmetlarni qayta esingizga tushiring.
2. O'tgan kuni sizga murojaat qilganda ishlatilgan so'zni eslang. Nima deyilganligini so'zma-so'z takrorlang.
3. Xotirangizda oxirgi yig'ilish, ma'ruza va boshqalarni qayta tiklang. Notiqning nutqi, xatti-harakat va imo-ishoralarni esga oling, ularni tahlil qiling.

4. Xotirangiz va kuzatuvchanligingizga baho bering.

12-mashq

1. Stol ustiga ettita har xil jismlarni qo'ying va ularni biror narsa bilan berkitib qo'ying.
2. YO'pqi'chni olib, o'ngacha sanang, narsalar ustini yana berkiting va predmetlarni to'liq yozishga harakat qiling.
3. Narsalar sonini ko'paytirgan holda mashqni davom ettiring.

13-mashq

1. Notanish xonaga kiring.
2. Xonaga qisqa vaqt ichida nazar soling va undagi o'ziga xos predmet va anjomlarni miyangizda tasvirini olib qoling.
3. Xonadan tashqariga chiqing va nima ko'rganlaringizni yozing. YOzilganlarni asl holati bilan solishtiring.

14-mashq

1. Masalan, harakatlanayotgan mashinadan nimani o'rganish mumkinligini tasavvur qiling.
2. Buning uchun tovushlarni eshitish sezgisini namoyon qilishga harakat qiling.
3. Buni doimo, zarur bo'lgan vaziyatlarda asosli tarzda esga oling.

15- mashq

1. Biron-bir she'rni oling.
2. Undan jummalarni ajratib oling.
3. Har bir jumlagaga bir necha savol tuzing. Yaxshi esga olib qolish uchun undan zarur bo'lganda foydalaning.

16-mashq

1. A punktdan B punktgacha bo'lgan harakat marshrutini belgilang.
2. Bu yo'lni yayov o'ting. Undagi yorqin belgilarni qayd eting.
3. Noodatiy belgilar xaritasini tuzing.

17-mashq

Bir vaqtni o'zida bir nechta ob'ektlarni birdaniga kuzating. Biroq ularning har birini bir xilda yaxshi idrok eting, shuningdek, o'zingiz ahamiyatli deb belgilagan predmetga diqqatni to'plang.

DIQQAT

Diqqatning ko'chishi

Tadqiqotning maqsadi: qora-qizil rangli raqamlardan to'zilgan jadval yordamida diqqatning ko'chish xususiyatini tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jixozlar, asboblari: Sekundomer va rang jixatdan bir-biriga uyg'un bo'lmagan betartib holda, mantiqiy esda saqlab qolishning oldini olish maqsadiga muvofiqlashtirilgan tartib (kambinastiya) va to'zilgan 1 dan 25 gacha va 1 dan 24 gacha qizil rangli raqamlar (tekshiriluchi oldindan tayyorlangan jadval).

8	9	24	20	15	6	19
4	5	12	1	24	13	23
14	18	17	22	2	11	6
22	11	7	21	8	3	9
2	7	16	23	19	16	3
13	1	21	5	10	25	17
15	10	18	20	4	14	12

Tadqiqotning borishi: tadqiqot 3-seriyada o'tkaziladi.

Birinchi seriya: bundan tadqiqotchi tekshiriluvchiga jadvaldagi qora rang bilan yozilgan 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamni o'sib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. qaror yozib boruvchi esa tekshiriluvchi bu topshiriqni qancha vaqt ichida idrok etishini sekundomer vositasida aniqlab, yozib boradi.

Ikkinchi seriya: Tadqiqotchi tekshiriluvchidan jadvaldagi qizil raqamlarni 24 dan 1 gacha kamayuvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi.

Qaror yozib boruvchi esa xudi oldingi seriyadagi kabi tekshiriluvchining topshiriqni bajarish uchun sarflagan vaqtini aniqlab yozib boradi.


Uchinchi seriya: Bunda tekshiruvchi, tekshiriluvchiga bir vaqtning o'zida galma gal qora qora raqamlarni kupayib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. qaror yozib boruvchi topshiriqning xarakteri uning bajarilishi uchun ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab qarorda qayd etadi.

Tadqiqot natijalarini taxlil qilish: qaror yurituvchining yozuvlari asosida uchala seriyadagi topshiriqni bajarish uchun tekshiriluvchi qilgan vaqt va yo'l quyilgan xatolarni quyidagi qaror jadvalida qayd etilib qo'yiladi.

Topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Protokol yozib boruvchining yozuvi asosida uchala seriya topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolar quyidagi jadvalga yoziladi:

Ko'rsatkichlar	1-seriya	2-seriya	1-2- seriya	3-seriya
Vaqt				
Xatolar				

3-seriyada, garchi 1 va 2 seriyadagi faoliyat turlari aynan bajarilgan bo'lsada, bunda sarflangan vaqt dastlabki ikki topshiriqni bajarishga ketgan vaqt miqdoriga teng emas. Har ikki vaqt miqdori orasidagi farq sinaluvchi diqqatining bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi uchun ketgan vaqtni ko'rsatadi. **Yo'qoridagi metodikaning murakkablashtirilgan varianti.**



DIQQATNING KO'CHISHINI TEKSHIRISH.

Tekshiruvchi:

Sana:

Ko'rsatkich	1seriya	2-seriya	1-2seriya	3seriya
Vaqt				
Xatosi				

Uchinchi seriyada bajarilgan topshiriq uchun sarflangan vaqt, garchi qolgan ikkala seriyada ham huddi shu xil shu topshiriq bajarilganidek ko'rinsada oldingi 2-seriyadagi topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt bilan 3 chi seriyada bajarilgan topshiriq uchun sarflangan vaqt teng emas. Ana shu ikkala vaqt ko'rsatkichi orasidagi farq mazkur tekshiriluvchi diqqatining ko'chirilish vaqti ya'ni bir faoliyatdan ikkinchi bir boshqa faoliyatga o'tishi vaqti bo'lib hisoblanadi.

Diqqat deb—ongimizning muayyan ob'ektga yunaltirilishi va ana shu ob'ekt ustida to'rejaishiga aytiladi. Ongimizga yunaltirilgan narsa va hodisalar diqqatning ob'ekti deyiladi.

Diqqatni bir necha turga bo'lamiz:

Aktivligiga qarab:

1.Ixtiyoriy

2.Ixtiyorsiz

3.Ixtiyoriydan so'nggi

Ob'ektiga qarab:

1.Tashqi

2.Ichki

Faoliyat shakliga qarab: individual, guruh, jamoa.

Ijtimoiy diqqat: Ongning oldindan belgilangan maqsadga muvofiq irodaviy va asabiy aktivlik ko'rsatgan holda muayyan ob'ektga yunaltirilishi va ana shu ob'ektga to'g'rilashga aytiladi.

Ixtiyorsiz diqqat: ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan ob'ektga yunaltirilishi va unda to'g'rilashiga aytiladi.

Ixtiyoriydan so'nggi diqqat: Ongimizning muayyan ob'ektga avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan diqqatga aytiladi.

Tashqi diqqat: Ongimizning o'z sub'ektiv voqeylikdagi va narsa-hodisalarga ularning belgi yoki xususiyatlariga yunaltirilishi va unda aktiv to'rejaishiga aytiladi. M: xushmuomalalik.

Ichki diqqat: Ongimizning o'z sub'ktiv tassurotlarimiz, his-tuygularimiz, intilishlarimizga qaratilishi hamda to'rejaishiga aytiladi.

Diqqatning bir qator xususiyatlari bor:

1.**Diqqatning kuchi barqarorligi-**odam o'z diqqatini birorta narsa yoki hodisa ustida o'zoq muddat davomida muttasil qaratib olishi diqqatning kuchi yoki barqarorligi deyiladi.

2.**Diqqatning xajmi (ko'lami):** Bir vaqtning o'zida qamrab olinishi. 3.**Diqqatning bo'linishi:** Ayni bir vaqtda diqqatimizning ixtiyorsiz ravishda 2 yoki undan ortiq ob'ektga qaratilishi tushiniladi.

4.**Diqqatning ko'chirilishi:** diqqatni ongli ravishta o'ylab, bir narsadan boshqa narsaga o'tkazishi.

5.**Parishonxotirlik-**Diqqatning haddan tashqari harakatchanligi yoki aksincha qotib qolganligi tushiniladi.

Diqqat shaxsning aktivligi va uning ob'ektiv voqelikdagi predmet va hodisalarga bo'lgan saylanma munosabati o'z aksini topadi. Unda inson psixikasining boshqaruvchanlik roli namoyon bo'ladi: diqqatsiz maqsadga muvofiq ish yuritish mumkin emas.

Ishning to'g'ri yuritilishini va bu ishning maxsuldorligini ta'minlovchi fakt-kishining turli shart-sharoit hamda vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishida uning diqqati o'ynaydigan rolni aniqlash anchayin mushqo'l. Har qanday masalani yoki qanday hayotiy muammoni echish kishidan mazkur masalaning mohiyatiga, harakat uslubiga diqqatni to'plash va aktiv qaratishni talab qiladi.

O'quvchi, qanday yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, diqqatini dars vaqtida o'qituvchi tushuntirayotgan mavzuga qaratmasa, o'qituvchi so'zlarini tushunmaydi, darsni idrok qilolmaydi. O'quv materialini dastlabki idrok qilish, uni anglash va mustaqil esda saqlab qolish maqsadida qilinadigan keyingi ishlar o'quvchilardan barqaror diqqatni talab qiladi.

Diqqat va diqqatlilikni tarbiyalashda o'quv prostessini to'g'ri tashkil qilishning o'zigina etarli emas. Bunda o'quvchilarning uyushqoqliligi va intizomliligini ta'minlovchi kundalik rejimning yo'lga qo'yilishi ham katta rol o'ynaydi.

Topshiriq.

Instruksiya. Talabalarga quyidagicha topshiriq beriladi.

- Hozir men sizlarga bir sekund ichida bir qancha sonlar yozilgan rasmni ko'rsataman. Men rasmni ko'rsatib bo'lgach, mazkur sonlarni bir-biriga qo'shing va natijasini yozing.

Keyin ichda «bir, ikki...» deb sanab, bir sekund ichida talabalarga ichiga raqamlar yozilgan uchta turli geometrik figuralarning rasmi ko'rsatiladi. Ular qo'yidagicha bo'lishi mumkin: kvadrat – sakkiz, uchburchak – uch, aylana – to'qqiz.

Talabalar natijani chiqarib bo'lishgach, ulardan qaysi figura ichiga qanday son yozilganligi so'raladi.

qo'lga kiritilgan materiallardan diqqat xususiyatlarining (xajmi va bo'linishi) namoyon bo'lishi to'g'risida va diqqatda ustavnovkaning roli xakida tegishli xulosa chiqariladi.

Topshiriq.

1. Sinaluvchi harflarni alfavit tartibida aytadi va har bir harfdan so'ng ma'lum bir sonni ham qo'shib aytadi. Bunda A harfiga birni, undan keyingi harflarga uch sonini qo'shib, ya'ni a – bir, b – turt, v – etti, g – un, d – un uch va shu va shu tarzda «f» harfigacha aytiladi. Sarflangan vaqt doskaga yozib qo'yiladi. Mazkur tajribani yana ikki-uchta talaba takrorlaydi.

2. a) sinaluvchi doskaga 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni yoza boshlaydi va bir vaqtning o'zida bu sonlarni ovoz chiqarib teskarisiga -20 dan 1 ga qarab o'qiydi va hokazo.

b) sinaluvchi kitobda biror narsani ovozni chiqirib o'qiydi va ayni paytda doskaga boshqa bir narsani (masalan:Q-Q-Q-Q-Q va x.k.) yozadi.

Qolgan talabalar bu har ikala ishning qay darajada oson va babbaravar bajarilishini ko'zatib boradilar. Mazkur tajribani yana talaba takrorlaydi.

Ekisperimentator diqqatining bo'linishiga doir bu tajribalar yakunini talabalar hamkorligida umumlashtiradi.

Topshiriq.

Diqqatning barqarorligini Burdonning korrekstion jadvali yordamida aniqlash.

Instruksiya. Tajribaning nomi elon qilingach, har bir talabaga ilgari tayyorlab qo'yilgan Burdon jadvalidan ikkitadan tarqatiladi. Jadvallardan birining yo'qori kismi o'ng burchagiga «Sinov

tajriba», ikkinchisining shu joyiga esa «Asosiy tajriba» deb yozilgan bo'ladi.

**Sinov tajriba uchun
BURDON JADVALI**

**A M K Z G X B K S H Z P Y U V R B X P A E T D J S G R
V X S Y U G I K V P D R G M A I T K O B E M F O I Y U S H
L Z J V P E P C H N V S J U L X Y U R X B Y A Z S H I O S V
C H E T E S P M N O R J X S H N A E C H Y U P J V L Y U F
O P V A K C H M K C H Z S H A J K Y A D X I S V P B Y U J R
S P V U Y U S H A T X G M K R A T Y U D D R G R L V R G
A M K E T N Z O U B X F P L J S H Y A I S Y U D Y U X V T U
C H P Y A I X N L U T S H I G V B K O G Z M X Y A R D A C H
E Y U J S F N P D S R K G.**

Talabalarga sinov tajriba uchun tayyorlangan jadval va qalamni qo'lga olish aytilgach, bajarilishi lozim bo'lgan ish tartibi tushuntiriladi:

Oldilaringizda harflar yozilgan qog'oz turibdi. Sizlar bu harflarni diqqat bilan ko'zdan kechirib, ularning ichidan A M K Z harflarni topib, vertikal chiziqlar bilan so'ng ishga kirishasizlar va «Boshlanganlar» deyilgandan so'ng ishga kirishasizlar va "to'xtanglar" deganimda ishni bas qilasizlar.

Talabalar tomonidan berilgan ayrim savollarga javob qaytarilgach, sinov tajriba boshlanadi. U bir minutcha davom etadi. Keyin asosiy tajribaga o'tiladi.

1. Instruksiya takrorlanadi. Bunda ham yo'qoridagiga uxshab A M K Z harflari vertikal chiziqlar bilan o'chirilishi lozimligi ta'kidlanadi.

2. Talabalarni tajribaning har bir minuti utgach «CHiziqcha qo'ying» degan buyruq beriladi deb ogohlantiriladi. Buyruq berilgan paytda qaysi harfga kelgan bo'lsangiz shu harf ustiga chiziqcha qo'yishingiz lozim deb uqtiriladi.

3. Asosiy tajriba sinov tajribadan farqli ularok 8-10 minut davom etadi. Ikkinchi, turtinchi va oltinchi minutlarda qo'shimcha qo'zg'ovchi ham (masalan, qalam bilan stolga bir maromda urish orqali) ishga solinadi.

Asosiy tajriba tugagach, natija quyidagi tartibda ishlab chiqiladi:

1. Asosiy tajribaning har bir minuti buyicha quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

a) o'chirilishi lozim bo'lgan harflarning umumiy soni;

b) ulardan o'chirilmay qolgan yoki noto'g'ri o'chirilgan harflarning miqdori.

2. Mazkur ko'rsatkichlarning 1, 3, 5, 7 va 2, 4, 6, 8 minutlar buyicha jami.

3. Diqqatning birinchi, uchinchi, beshinchi, ettinchi va ikkinchi, turtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlar buyicha barqarorlik darajasi hisoblab chiqiladi. Buning uchun dastlab to'g'ri o'chirilgan belgilar umumiy sonidan o'chirilmay qolgan yoki noto'g'ri o'chirilgan harflar soni ayirib tashlanadi va har bir minutda ko'zdan kechirilgan tekstdagi o'chirilishi lozim bo'lgan harflarga nisbatan to'g'ri o'chirilgan belgilar prostenti hisoblab chiqiladi. Natija (prostent hisobida) diqqatning quyidagi barqarorlik normasiga asoslanib ko'rsatilishi mumkin.

Eng yaxshi ko'rsatkich – 81 – 100

Yaxshi ko'rsatkich – 61 – 81

Urtacha ko'rsatkich – 41 – 61

Past ko'rsatkich – 21 – 40

Diqqatning barqarorligini aniqlashda sinaluvchiga qo'shimcha qo'zg'ovchi orqali ta'sir ko'rsatilgan ikkinchi, turtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlardagi ko'rsatkich, ayniqsa harakaterli hisoblanadi. (Tajriba «Praktikum po psixologii» Leningrad, 1970, kitobidan olindi).

Topshiriq.

Korrektur sinov metodi bilan diqqatning ko'chish xususiyatini tekshirish.

Korrektur sinov qog'ozi (blankasi).

JFSYAGX BKSHZPYUVRB XPAETDJSGRVXSYUGIKVPDRG
MAITKOBEMFOIYUSHLZJVPEPCHNV SJULXYURXBYAZS
HIO SVCHSPMNORJXSHNAECHYUPLYUFOVAKCHMKCH
ZSHAJKYADXPYUJRSPVUYUSHATXGMKRATYUDDRG
RLVRGAMKETNZOUBXFPLJSHYAIDYUXVTUCHPYAIXN
LUTSHIGVBKOGZMXYARDACHYUJSFNPDSRKG NAB

Topshiriqning bajarilishi. Sinaluvchi birinchi ikki satrdan masalan, s va b harflarini, uchinchi satrdan esa o va sh harflarini o'chiradi. Keyingi yana ikki satrdan s va b undan keyingiidan o va sh harflarini o'chiradi. O'chirilgan qatorlar ustini qog'oz bilan yopa borib, yo'qoridagi tartibda 9 minut mobaynida ishlaydi.

Topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Sinaluvchining eksperiment davrida necha marta xatoga yo'l qo'yilgani aniqlanadi. Bunday xatolar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: A) satrlarni qaydlashdagi xato (sinaluvchi s va b harflarni ikki emas, balki uchta satrdan yoki o va sh harflarni bitta satrdagina o'chirish xolatlari uchrashi mumkin);

b) satrlarni tashlab ketish (s va b harflarni ikki satrdan o'chirish urniga ularni bir satrdagina o'chirish, o vash harflarni tashlab ketish, satrdan xech narsani o'chirmaslik xollari). Yo'l qo'yilgan barcha xollar jamlanadi. Diqqatning ko'chishidagi xolatlar quyidagi formula buyicha hisoblanadi.

$$S = 100\% \cdot \frac{A}{B}$$

Bunda S – diqqatning ko'chishida yo'l qo'yilgan xato foiz hisobida, A- noto'g'ri ishlatilgan satrlar soni, B- jami qatorning miqdori.

Topshiriq.

Diqqatning bo'linishini yaxshilashda mashq qilishning roli:

a) sinaluvchi bir vaqtning o'zida ikki xil ishni bajarish, masalan, yozma hisob chiqarish va yodlangan sherni og'zaki aytish taklif qilinadi. Yo'l qo'yilgan xatosi va ishning bajarilish tezligiga qarab diqqatning bo'linishi bajarilish tezligiga qarab diqqatni bo'lishi va bunda mashq qilishning ahamiyati to'g'risida xulosa chiqariladi;

b) kartochkaga oralig'i 1-3 mm masofada tartibsiz joylashgan nuqtalarni xech qanday vositasiz, iloji boricha tez va ovoz chiqarib sanash topshiriladi. Tajriba har safar nuqtalar joylashuvi va ular orasidagi masofani o'zgartirish orqali bir necha takrorlanadi. Ishning natijasi, ayniqsa, hisobning tez va to'g'riligi diqqatning bo'linish tezligini oshiradi mashq qilishning ahamiyati katta ekanligi yaqqol ko'rsatadi; v) sinaluvchilar o'z faoliyatini yozadilar va bir vaqtning o'zida mazkur tarkibidagi harflarni ovoz chiqarib,

teskarisiga ayta boshlaydilar. Dastlab buning uddasidan chiqish qiyin. Nega? Bu ishning uddasidan chiqish uchun diqqatning qanday xususiyati talab qilinadi? Bu xususiyatni taraqqiy qildirishda mashq qilishning ahamiyati ko'zatiladi.

Darsda o'quvchilar diqqatini kuzatish dasturi.

1. Dars boshlanishida o'quvchi diqqatining ahvoli.

Kuzatish natijasida «Dastlab o'quvchi diqqati darsga qay yo'sinda safarbar qilinadi va materiyani idrok qilishga hamda o'quvchilarga nisbatan muomala uslublariga (pedagogik nazorat);

b) darsning reja asosida o'tkazilish, davomatning tekshirilishi, dars mavzusining elon qilishi, uning mazmuni va ahamiyatining ochib berilishi, dars reja va o'quvchilarning ish metodlari xakida malumot berilishiga (o'quvchilar ongiga zarur ixtiyoriy diqqat ustanovkasini yaratish); v) sinovning jixozlashi va uning sanitariya gigiena sharoit (o'quvchi dikktini darsga to'la yunaltirishga sinfdagi tashqi sharoitning mosligi) ga etibor berilishi kerak.

2. dars prostessida o'quvchi diqqatini bo'lib yubormaligining yo'li va usullari. Buni aniqlash uchun talabalar diqqati darsning quyidagi elementlariga qaratiladi:

a) o'qituvchi tomonidan materialning tushuntirishdagi izchillik, sermazmunlik, sermavzulik va mantiqiylik. Fikrini ifodalashdagi emostionallik va yorqinlik. Fikrni ifodalashdagi emostionallik va erkinlik. Avvalgi bilim, shuningdek kuzatish, ekursiya malumolaridan foydalanish.

b) YAngi materiallarini bayon etishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini aktivlashtirishga qaratilgano'qituvchi savollarning xilma-xiligi va almashinib turishi (suxbat, o'qituvchi xikoyasi mustaqil ish va boshqalar);

v) darsning texnikaviy jixozlanishi (darsda kinoda, turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish. O'qituvchi ko'rgazmali qurollarni namoyish qilishi va texnikaviy vositalardan foydalanishda, o'quvchilar idroki va diqqatini boshqarib boradi (bilimga qiziqish va ko'zatuvtuvchanlikning o'sishi);

g) darsning zichligi (dars paytida tushuntiriladigan material va qilinadigan ishlarning mundarijasi)

d) darsda o'quvchi diqqatining namoyon bo'lishi xususiyatlari; diqqatining barqarorligi, taqsimlanishi, ko'chishi. Darsning turli

bosqichlarida diqqatning etakchi diqqat turiga o'tishi, buning sababi; o'quvchilar diqqatining chalg'ishi va uning sababi;

e) sinf jamoasi tomonidan har bir o'quvchi diqqatiga hamda o'quvchilarning o'z shaxsiy diqqatlariga ongli javobgarlikni sezishining ko'rinishlari;

yo) darsda o'quvchilar diqqati individual hususiyatlarining ko'rinishi parishonxotirlik, diqqatining konstetrastiyasi, engil ko'chishi, taqsimlanishi va xakozalar.

Har bir talaba mazkur programma asosida sinfdagi barcha o'quvchilarni kuzatish bilan birga ulardan birini har tomonlama va chuqur o'rganish ob'ekti qilib tanlab oladi. Bu o'quvchi diqqatining xususiyatlari, undagi parishonxotirlik va beqarorlikni o'rganadi. Diqqatning barqarorligi o'quvchi shaxsida shakllanib borayotgan xususiyat sifatida aniqlanadi.

Talabalarga kuzatish natijalarini qayd qilish yuzasidan yo'l-yurik beriladi. YOzuv va turejaadigan ma'lumotlar o'quvchilar diqqatiga harakteristika beradigan darajada etarli bo'lishi lozimligi tushuntiriladi. Har birlari o'z kuzatishlari asosida va tegishli adabiyotlardan foydalanib «Darsda o'quvchi diqqat» degan mavzuda ish tayyorlashlari ogohlantiriladi.

Aytib utilganlarni tashkil qilishda talabalar e'tibori turli yosh gruppaldagi o'quvchilar diqqatini o'rganish zarurrligiga qaratiladi.

Instruktiv suxbat so'ngida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni ishlashda asosan qaysi masalalarga kuprok diqqat qilish lozimligi aytib o'tiladi, ya'ni:

1. O'quvchilar diqqatini utilayotgan darsga tulik safarbar qilish qanday amalga oshirildi? O'quv materiallarini aktiv idrok qilish hamda o'quv topshiriqlarini tulik bajarish ustanovkasi yaratildimi? Bu maqsadda o'qituvchi nima ishlar kildi?

2. o'quvchilar diqqatini tegishli darajada bo'lmaslikka erishildimi? Darsning qaysi momentlarida o'quvchilar diqqati kuchaydi yoki pasaydi? O'quvchilar diqqatini tarbiyalash borasida o'qituvchi qanday ishlarni amalga oshirdi?

Ayrim talabalarga yakuniy darslarda asosiy masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildirish uchun imkon yaratish lozim.

Darsda o'quvchilarning diqqatini kuzatishni quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin:

O'qituvchining dars paytidagi faoliyati	O'quvchi nima qilayapti (dars bosqichi buyicha)	Talabanning xulosasi

«KUBIKLAR» «LINK KUBI» METODIKASI.

Ushbu metodikadagi qo'llanma 3x3 sm o'lchamdagi 27 ta kubiklardan iborat.

27 kubiklar yig'ilib, (3x3 sm) bitta katta kubni hosil qiladi. Katta kubning (yig'ilgan) ustki qismi qizil yoki havo rang, ichki qismi oq yoki sariq rangda bo'lishi kerak. Ushbu katta kubni kichkina kubikchalarini faqat to'g'ri joylashtirgandagina yig'ish mumkin.

Tekshiriluvchiga beriladigan ko'rsatma (qo'llanma).

Sizning oldingizga ustki qismi bir hil rangda va ichki qismi boshqa hil rangda bo'yalgan kubiklar turibdi. (Eksperimentator bir nechtasini olib ko'rsatishi mumkin).

Siz xohlagan kubigingizni olib ko'rishingiz mumkin.

So'ngra «men bu kubikni buzib kubikchalarni aralastiraman, siz esa xuddi shunday kubikni qurib berishingiz kerak». (agar tekshiriluvchi bir nechta savol bersa, eksperimentator kubikni buzmasdan savollarga javob berishi kerak).

Agar tekshiriluvchi 15-20 minut davomida kubikni yig'a olmasa yoki juda ham qiyinchilik bilan shuncha vaqtda yig'sa, unga bu topshiriqni boshqatdan berish mumkin.

Tekshiriluvchining qurish taktikasi

(analiz-tahlil)

1-uslub. Joyiga qarab terish uslubi: Bunda tekshiriluvchi bita joyga kubikchani joylashtirish uchun hamma kubikchalarni birma-bir ko'rib chiqa boshlaydi. Bu noto'g'ri taktika. Chunki birma-bir ko'rib chiqishda juda ko'p hatoliklarga yo'l qo'yadi ko'p vaqt sarflaydi.

2-uslub. Optimal terish uslubi: Bunda tekshiriluvchi qo'lga olgan kubikchani o'z joyiga qarab bir yo'la qo'yib keta boshlaydi. Tekshiriluvchilar kubikni mana shu ikki usulda quradilar.

Natijalar tahlili.

Tekshiriluvchi kubikni qurish paytida tanlagan ish uslubi va yo'l qo'ygan xatolariga qarab, diqqatini yaxshi jamlay olish yoki olmasligini, xotirasining konkret esda olib qolish yoki qolmasligini, temperamentida nomoyon bo'ladigan ba'zi hususiyatlar (Neyrotizmning yo'qori yoki pastligi) qay darajada shaxsga xalaqit berishi va shu kabi hususiyatlar aniqlanadi.

Kubni qurishda yaxshi ko'rsatgichlarga asosan, texnik tafakkuri, amaliy tez qaror qabul qilishi, ba'zi konstruktiv qobiliyatlar va fazoviy tasavvuri yaxshi shakllangan tekshiriluvchilar erishadi.

Bundan tashqari kubikni yig'ish jarayonida tekshirilayotgan kishining frustrastiyasini, agressiyasini, iroda va diqqatining qay darajada nomoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari psixomotorik xususiyatlar ham kuzatiladi; qo'l, barmoqlar kordinastiyasi.

Diqqatni bilish «shult» jadvali.

Topshiriq: Bu jadvaldan 1 minut ichida raqamlarning o'sib borish tartibi bilan joylashishini ko'rsating.

1	23	17	2	6
18	7	25	16	19
5	3	22	4	20
14	10	24	12	9
11	15	8	21	13

Sonlarni joylashtirish metodikasi.

Bu metodika ixtiyoriy diqqatni baholash uchun mo'ljallangan.

TOPSHIRIQ: 2-minut davomida siz blankadagi kvadratlarga o'sib borishi bo'yicha tasodifiy tartibda berilgan sonlarni joylashtirib chiqing.

16	37	98	29	54
80	92	46	59	35
43	21	8	40	2
65	84	99	7	77
13	67	60	34	18

PSIXOGEOMETRIK TEST ORQALI SHAXS TIPOLOGIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

Test natijalari asosida sinaluvchining individual tipini aniqlash orqali ular shaxsining o'ziga xosligi qobiliyatlarining qaysi yo'nalishga mos kelishini aniqlash mumkin. Bunda sinaluvchi 3 ta geometrik shakl (kvadrat, uchburchak, aylana)dan foydalanib odam qiyofasini yaratadi, shu tufayli chizilgan rasm asosida sinaluvchining yaratuvchanlik qobiliyati, didi va farosati ham namoyon bo'ladi.

AQShning San-Fransisko shahrida yashab faoliyat ko'rsatgan grafalog olim (yozuvchilarni o'rganuvchi) Eni Maxoni tomonidan shaxsning tipologik xususiyatlarini aniqlashda yangicha metodika, ya'ni "inson qiyofasini geometrik shakllardan yig'ish" testi yaratildi. Ko'p sonli tadqiqotlar asosida metodika ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi. Hozirgi kunda mutaxassislar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Eni Maxoni bo'yicha geometrik shakllar quytdagicha xarakterlanadi:

Aylana-hissiyotga beriluvchi, aqlli, muloqatga kirishuvchan, ko'ngli ochiq, samimiylik belgisi, ya'ni bu shakl ko'proq foydalangan kishilar bo'lib, ko'pincha yo'qoridagi hislatlarga ega bo'lishadi.

Kvadrat-har qanday ishga mas'uliyat bilan qarovchi, aqlli, ba'zan dono, ayniqsa texnika sohasida ijodkor, har bir faoliyatda doimiy manbaga ega bo'lishini yoktiradigan, o'zini yo'qori darajada nazorat qilishga va o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan kishilardirlar.

Uchburchak-qat'iyatli, talabchan, o'jar, ko'proq o'z manfaatlarini o'ylaydilar. Rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lib, asosan hukmron, gegemon bo'lishga intiladilar, ba'zan bu yo'lda hech narsadan tap tortmaydilar.

Tajriba sinaluvchiga beriladigan ko'rsatma asosida olib boriladi. Olingan natijalar (rasm)ni qayta ishlash quyidagicha amalga oshiriladi: Siz tarkibida uchburchak, aylana, to'rtburchak shakllari qatnashgan jami 10 elementdan tashkil topgan odam rasmini chizing! Siz bu elementlarning hajmini (razmeri) kichraytirish yoki kattalashtirishingiz zarur bo'lganda birini ikkinchisining ustiga joylashingiz mumkin. Har uchala shakl tasvirda ishtirok etishi shart! Foydalanilgan shakllarning umumiy soni 10 tadan oshmasligi lozim. Agar rasm chizish jarayonida shakllar soni ortib ketgan bo'lsa o'chiring, kam bo'lsa to'ldiring. Rasmni ko'rsatma asosida bajaring!»

1). Har bir raqamlangan varaqdagi rasmlarda ishlatilgan geometrik shakllar soni alohida-alohida sanab chiqiladi. Masalan:

aylana-3 ta, kvadrat-4 ta, usburchak-3 ta va hokazo. Shu asosda natija sifatida 3 xil mazmundagi sonlar yuzaga keladi. Ya'ni sinaluvchi ishlatgan uchburchaklar soni yuzlik, aylana o'nlik, kvadrat birlik sonni tashkil etadi. Yo'qorida keltirilgan misolni quyidagicha ifodalash mumkin: «3-34». Paydo bo'lgan 100 (yuz)lik raqam sinaluvchi chizgan rasmning formulasi hisoblanadi. Rasm formulalari jadvalda keltrilgan (1-jadval).

Tadqiqotchi Eni Maxoni 2000 dan ortiq rasmlar ustida olib borgan tajriba natijalari tahliliga asoslanib, 8 (sakkiz) ta individual tipga asos soldi. Eni Maxoni metodikasi Lyusher rangli testi, Ayzenk metodikasi, Rusalov testlariga teng ravishda baholash mumkin bo'lgan qiziqarli va mahsuldor testlardan biri hisoblanadi.

I-toifa (tip) odamlar "rahbar" tip bo'lib bunday odamlar tashkiliy faoliyatga, rahbarlikka oid ishlarga ko'prok moyil bo'lishadi. Jamiyatda kishilarga yoqadigan hulq atvoriga ega bo'lish bilan birga yaxshigina notiq, ajoyib suhbatdosh, boshqalarni o'ziga rom eta oladi, jamiyatda o'z adaptisiyasiga ega kishilardir. Bu tipning formulasi; 901, 910, 802, 811, 703, 712, 730, 604, 622, 631, 640.

Boshqalarga nisbatan hukmronlik qilishga intiluvchan qattiq qo'l toifadagi podtiplar: 901, 910, 802, 811, 820. Vaziyatga qaraydigan (situativ) toifadagilar: 703, 712, 721, 730 kishilarga nutq orqali ta'sir eta oluvchilar yoki verbal rahbar, ta'lim beruvchi podtiplar: 604, 613, 622, 631, 640.

II- toifa (tip) kishilar mas'uliyatli, javobgar boshliq toifasidan bo'lib, o'zida "rahbar" toifaning ko'pgina hislatlarini namoyon etadi. Bu toifa odamlar ishni aql bilan bajaruvchi professional, lekin ba'zida mas'uliyatli qarorlar chiqarishda ikkilanib qoladigan kishilar, shunda ularga ozgina dalda berilishiga extiyoj sezadilar. O'z-o'zlariga talabchan rostgo'ylikni yo'qori baholaydiganlar, ko'pincha asab kasalliklarga moyil bo'lishadi ya'ni ko'p asabiylashishlari bunga sabab bo'ladi. Bu tip formulasi: 505, 514, 523, 532, 541, 550.

III-toifa (tip) kishilari-hissiyotga beriluvchan, emosional toifadagilar, turli qobiliyatlarga ega bo'lishadi: kichik qo'l mehnatidan tortib toki badiiy ijodgacha bo'lgan bosqichlarda o'z bilimlarini namoyon etishadi. Bu toifa kishilar ko'pincha birgina soha doirasida qolib ketmasdan kutilmaganda butunlay avvalgisiga teskari faoliyat yoki mutaxassislikka o'tib ketishlari mumkin, hatto 2 ta mutaxassislikda ham ish yurita olishadi. Jismonan iflogarchilikni va tartibsizlikni

yoqtirmaydi va shu sababli ko'pincha boshqalar bilan qarama qarshiliklarga borishadi. Tez-tez hafa bo'lib turadi, o'zlariga uncha ishonmaydilar. Yengil daldaga muhtoj bo'lishadi. Rasmlar formulasi: 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460. Bundan tashqari 415-shoir tabiat kishilardir. Bunday kishilarda badiylikka, shoirlikka moyillik bo'ladi. 424-esa quyidagicha ma'noda bo'lishadi ya'ni biron ish faoliyat doirasida "Buni qanday yomon bajarishni tasavvur ham qilolmayman".

Bu toifa odamlar o'z ish faoliyatlarida bir zayldaliklari, muhimligi bilan ajralib turadilar. Yana shuni ham qo'shimcha qilish zarurki, tashxis qo'yilishning ishonchsizligiga qaramay, ushbu metodika muloqot jarayoni psixolog maslahatchi uchun juda ko'p ajoyib yordam berish mumkin.

IV-toifa (tip) «Olim» muammoli vaziyatlarda yengil mushohada yurita oladi. Nazariy tafakkurga ega. Aniq shaxsiy va ilmiy yo'nalishga egaligi bilan ajralib turadi. Ruhan barqaror. O'z harakatlarini aql bilan bajaradi. Rasm formulalari: 307,316,325,334,343,352,361,370. 316-podtip. Olamshumul nazariyalar yaratish yoki katta va og'ir koordinasion ishlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega.

V-toifa (tip)-«intutiv»-«fahm farosatli». Bu toifadagi kishilar asab tizimi kuchli, sezgir va yo'qori darajada charchash xususiyatiga ega. Bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga oson ko'cha oladi. Yangi imkoniyatlar asosida harakat qiladi. Yangilikka nisbatan yo'qori darajadagi sezgirlik hissiyotga beriluvchan, ko'pincha boshqalar haqida qayg'uradi. Xulq normalarini o'zlari ishlab chiqadilar, ichki o'z-o'zini nazorat qilish xususiyatiga ega, o'zini nazorat qilishni afzal ko'radi. Erkinliklari va faoliyatlaridagi to'siqlarga salbiy munosabat bildiradi.

Formula: 208,217,226,235,244,253,262,271,280.

VI-toifa (tip)-«yaratuvchi, konstruktor xudojnik». Bunday kishilar boy fantaziyaga, fazoviy oriyentir olishga ega. Ko'pincha turli texnik, badiiy va intellektual ijod bilan shug'ullanadi. Ko'pincha og'ir-bosiq, ammo ichki olami boy. Intutiv tip kabi o'zining ahloq normasiga ega, o'zini nazorat qilishdan boshqa hech qanday ta'sirlarni qabul qilmaydi. Emosional, shaxsiy original g'oyalar egasi.

Formulasi: 109,118,127,136,145,019,028,037,046.

VII-toifa (tip)-«emotiv» tip. Boshqa kishilarga nisbatan yo'qori darajadagi qayg'urish. Filmlardagi «shafqatsiz kadrlar» va shafqatsiz voqealardan qattiq ta'sirlanadi. Boshqalardagi tashvish va og'riqlar unga bevosita ta'sir qilib, ular dardiga sherik bo'lish, hamdardlik uchun

juda ko'p energiya (quvvat) sarflaydi. Shu tufayli shaxsiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari qiyin.

Formulasi: 550, 541, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.

VIII-toifa (tip)-«emotiv aksi». Boshqa kishilar tashvishini ko'pincha his qilmaydi, yoki e'tibor bermaydi, hatto kishilarga o'zining davleniyasini o'tkazishga harakat qiladi. Agar u yaxshi mutaxassis bo'lsa o'zi kerak deb hisoblagan ishni boshqalarni ham bajarishga majburlaydi. Ko'pincha ularga toshbag'irlik, rahmsizlik xos bo'lib, ko'pincha bu holat shaxsning o'z muammolariga ko'milgan vaziyatlara sodir bo'ladi.

Formulasi: 901, 802, 703, 604, 505, 406, 307, 208, 109.

Individual-toifaviy xarakterni e'lon etishdan avval tasvir shaklning tuzilish jihatlari quyidagi asosda savol-javob tariqasida aniqlanish mumkin.

-bo'yin qismini ko'rinarli qilib chizish-"siz g'amxo'r" ta'sirlanuvchanmizsi? Sizni tez-tez xafa qilib turishadimi?

-quloqlar chizilishi-sizni tinglashni biladigan odam deyish mumkinmi?

-odamga tanasining biron qismida cho'ntakcha tasvirlanishi "Bolalaringiz bormi?"

-rasmda odamning boshida kvadrat yoki uchburchak shaklidagi "shlyapa"ning tasvirlanishi, ko'rinishdan kerakli ishni qilib qo'ygan ko'rinasiz?

-yuz qismlarning (og'iz, burun, ko'z, hammasi) to'liq chizilishi, «siz o'zingizni muloqatga kirishuvchan) deb o'ylaysizmi?

-faqat og'izning tasvirlanishi "siz suhbatlashishni yoqtirasizmi?"

No	Sinaluvchining ismi familiyasi	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									

9									
10									
11									
12									
13									
14									
15									
16									
17									
18									
19									
20									
21									
22									
23									
24									
25									
26									
27									
28									
29									
30									
Jami:									

-faqat burun tasvirlanishisiz (suxbatlashishni) hidlarni tez sezasizmi? Atir, duxini yoqtirasizmi?

-odam rasmi uning tanasida tasvirlanishi hozirgi paytda o'zingizdan katta yaqinlaringiz to'g'risida g'amxo'rlik qilayapsizmi?

-odamchanning biron yerida uchburchakning tasvirlanishi-kimgadir yo'llanma berish g'amxo'rliğingiz doirasiga kiradi?

